

MUROT MUSAEV K.B.



KLINIK PSIXOLOGIYAGA KIRISH

MONOGRAFIYA

TOSHKENT 2025

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN
VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
ORIENTAL UNIVERSITETI**

Monografiya muallifi.

Murotmusaev K.B. Tibbiyot fanlari nomzodi, Oriental Universiteti “Uzliksiz ta’lim pedagogikasi” kafedrası dotsenti, O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent sh.

Ushbu monografiyada klinik psixologiyaning barcha bo‘limlarining nazariy-metodologik asoslari bilan bog‘liq masalalar ko‘rib chiqiladi: klinik psixologiyaning ob‘ekti va predmetini aniqlash, uning rivojlanish tarixi, norma va patologiya, salomatliq va kasallik (buzilishlar) muammolari, zamonaviy klinik psixologiyaning umumiy va konkret klinik-psixologik paradigmalari (modellari, dasturlari), ularning tuzilishi, ilmiy asoslari, klinik psixologlarni tayyorlash va ularning malakasini oshirishda psixologik superviziyaning roli kabi masalalarga ilmiy nuqtai nazardan alohida e‘tibor qaratilgan. Klinik psixologiya va tibbiy psixologiyaning farqlari va o‘xshashliklari haqida batafsil ma’lumotlar ham berilgan.

Monografiya klinik psixologiyaning norma (salomatlik psixologiyasi) va patologiya (sog‘liqning buzilishi) muammolariga qiziquvchi ilmiy xodimlar, mutaxassislar, aspirantlar, o‘qituvchilar va amaliyotchi psixologlar uchun mo‘ljallangan.

Taqrizchilar:

Umarov B.M. psixologiya fanlari doktori, professor,
Alfraganus universiteti, «Psixologiya va pedagogika»
kafedrası professori

Sadriddinov S.R. Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD)
Fan va texnologiyalar universiteti, “Ijtimoiy fanlar” kafedrası dotsenti,

Alimbaeva Sh. T. psixologiya fanlari nomzodi, dotsent,
Oriental universiteti, «Uzluksiz ta’lim pedagogikasi» kafedrası dotsenti

SO‘ZBOSHI

Bundan salkam 50 yil oldin ingliz klinik psixologiyasining asoschisi **G.Yu. Ayzenk** shunday yozgan edi: *o‘zini klinik psixolog deb atayotgan kishi mashhur shaxs, universitet ma‘lumotiga ega, diagnostik testlash, tadqiqot va terapiya sohasida 20 yoki 30 yillik amaliy tajribaga ega yuqori malakali mutaxassis bo‘lishi mumkin. Yoki, aksincha, hali hech qanday tajribaga ega bo‘lmagan, A. Bine testlari yordamida aql zehni darajasini o‘lchay oladigan, ammo ularning klinik muammolarga nisbatan ahamiyatini to‘liq tushunmaydigan "yashil" universitet bitiruvchisi ham bo‘lishi mumkin* [Watson, 1953. B. 321].

Qo‘lingizdagi ushbu monografiyada shu kabi savollarga javob izlanadi: hozirgi kunda klinik psixolog qanday bo‘lishi kerak, zamonaviy klinik psixologiya (avvalo, mahalliy) nimalarni o‘z ichiga oladi, uning mohiyati nima? Ta’kidlashga to‘g‘ri keladiki, zamonaviy hayot aholi qatlamlariga keng qamrovli va faol psixologik yordam tashkil etish ehtiyojini yanada oshirdi. Turli xastaliklar — ruhiy, nevrotik, psixosomatik kasalliklardan aziyat chekuvchi, ijtimoiy, kasbiy, maishiy muammolar va kelajakka nisbatan umidsizlik tufayli psixologik yordamga muhtoj insonlar soni ortib bormoqda. Bu safga ko‘chirilgan shaxslar, qochqinlar, harbiy harakatlarda qatnashganlar ham qo‘shilmoqda. Bu esa klinik psixologlarga bo‘lgan talab tobora oshib borayotganini anglatadi.

Klinik psixologiya — bu ancha yosh, keng yo‘nalishli psixologik ixtisoslik bo‘lib, u tarmoqlararo xususiyatga ega va sog‘liqni saqlash, xalq ta’limi hamda aholiga ijtimoiy yordam ko‘rsatish tizimlarida murakkab vazifalarni hal etishda ishtirok etadi. *Rivojlangan davlatlarda klinik psixologlar psixolog mutaxassislarning asosiy qismini tashkil qiladi.* Sog‘liqni saqlash tizimi doirasida klinik psixologlar keng qamrovli vazifalarni hal etishda ishtirok etadi va psixiatriya va narkologiya muassasalaridan tortib, onkologiya, kardiologiya, xirurgiya hamda hatto stomatologiya kabi barcha turdagi davolash-profilaktika muassasalarida faoliyat olib boradi. Stomatologiyada ham psixolog yordami shifokor qabulxonasining «*qo‘rqinchli*» ta’siri sababli zarur bo‘ladi.

Klinik psixologlar o‘sib kelayotgan avlodning ruhiy sog‘lig‘ini muhofaza qilish muammolarini hal etishda ham ishtirok etadi. Ular bolalar bog‘chalari, umumiy o‘rta ta’lim maktablari, boshlang‘ich, o‘rta va oliy kasbiy ta’lim muassasalari, bolalar va yoshlar uchun mo‘ljallangan sanatoriy-profilaktoriylar, ruhiy rivojlanishi orqada qolgan bolalar uchun internatlar, davolash va korreksion pedagogika markazlari, oila va bolalarga yordam xizmatlari kabi joylarda ish olib borishadi. Bu mutaxassislar tobora faol ravishda aholini ijtimoiy muhofaza qilish xizmatlarida, bandlik markazlarida, kadrlar tanlash xizmatlarida, aholiga ijtimoiy yordam ko‘rsatish muassasalarida, oila rejalashtirish va genetik maslahat xizmatlarida, zo‘ravonlik qurbonlariga psixologik yordam markazlarida, ijtimoiy, tabiiy va noodatiy ofatlar oqibatlarini bartaraf etish markazlarida, inqiroz holatlari xizmatlarida va boshqalarda ishlashga jalb etilmoqda. Aholining klinik

psixologlar yordamiga bo'lgan ehtiyoji ekstrasenslar, sehrgarlar, folbinlar va shunga o'xshashlarga ommaviy murojaat qilish orqali yaqqol namoyon bo'lmoqda. Bugungi kunda klinik psixologiya shuni yaqqol namoyon qiladiki, oldingi avlodlar (bu holatda — psixologlar) keyingi avlodlarga hal etilmagan muammolarni ko'p qoldirgan. Va bu muammolar, shubhasiz, dolzarb hisoblanadi hamda chuqur tahlil va yechim talab qiladi (Zalevskiy, 1999, 2005, 2008). Shu sababli, mening fikrimcha, **E. Krechmerning** XX asrning 20-yillarida aytgan quyidagi fikri hanuz o'z ahamiyatini yo'qotmagan: «*Oddiy o'quv qo'llanmalarda odatda faqatgina aniq tasdiqlangan, tortishuvsiz qabul qilingan ma'lumotlar keltiriladi. Biroq tibbiy psixologiya uchun bunday talabni qo'yishning iloji yo'q, chunki u hali ham shakllanish jarayonida bo'lgan, hali umumqabul qilingan ta'limotlarga to'liq ega bo'lmagan yosh fan sanaladi*» (1998. B. 3).

«Klinik psixologiyaga kirish» kursining maqsadi — klinik psixologiyaning ob'ekt sohasi va predmeti to'g'risida tushuncha shakllantirishdan iborat bo'lib, ular ushbu sohaning tuzilishi, xususiyatlari va nazariy-amaliy yo'nalishdagi ilmiy psixologiya sifatidagi kategoriyalar tizimini belgilaydi.

Kursning vazifalari:

- 1. Klinik psixologiyaning paydo bo'lishi tarixi, uning zamonaviy holati va rivojlanish istiqbollari bilan tanishtirish.*
- 2. Klinik psixologiyaning psixologiya va tibbiyot bilan munosabati, klinik psixologning pozitsiyasi, vazifalari va faoliyat sohalari, ya'ni klinik psixologiyaning kasb sifatidagi xususiyatlari haqida tasavvur shakllantirish.*
- 3. Norma va patologiya, sog'liq va kasallik (buzilishlar) kabi tushunchalarga oid ilmiy mezonlar, shuningdek, sog'liq va kasallikning (buzilishlar) ilmiy paradigmatlari va aniq modellari haqida tushunchalarni shakllantirish.*
- 4. Klinik psixolog faoliyatidagi huquqiy masalalar va etik prinsiplar, jumladan, Gippokrat davridan buyon asosiy bo'lib kelayotgan «zarar yetkazmaslik» tamoyili haqida tasavvurni shakllantirish.*
- 5. Klinik psixologning malakasini oshirish, kasbiy emotsional yonib ketish va kasbiy deformatsiyaning oldini olishda psixologik superviziyaning roli bilan tanishtirish.*

«Klinik psixologiyaga kirish» kursini o'zlashtirish darajasiga qo'yiladigan talablar:

O'quv kursini o'zlashtirish natijasida mutaxassislar klinik psixologiyaning keyingi bo'limlarini, uning vazifalari va usullarini chuqur o'rganish uchun yetarli darajada tarixiy, predmet va metodologik bilimlarga ega bo'lishlari lozim.

Muallif: K. B. Murotmusaev

1-Mavzu. KLINIK PSIXOLOGIYA^aNING OB'EKTI VA PREDMETI

1.1. Klinik psixologiyaning ta'riflari (definititsiyalari).

Bugungi kunda klinik psixologiya yo juda keng ma'noda ta'riflanadi (bunda uning predmeti mutlaqo noaniq bo'lib qoladi, masalan, u psixopatologiya sinonimiga aylanib ketadi), yoki aksincha, juda tor doirada belgilanadi, masalan, muayyan institutsional, funksional yoki predmet nuqtai nazaridan. Shu sababli, «*klinik psixologiya*» tushunchasiga to'g'ri va maqbul ta'rif berish masalasi juda muhim hisoblanadi.

"Klinik" atamasi yunoncha «*klinein*» — egilish, yaqinlashish, tayanmoq va «*klinikos*» — «*to'shakda yotgan*» so'zlaridan kelib chiqqan bo'lib, u psixologiya bilan bog'langanda ko'pincha tushunmovchiliklarga olib keladi. Kundalik tilda «*klinik*» atamasi odatda statsionar muassasalarda kuzatiladigan yoki statsionar davolashni talab qiluvchi holatlar uchun ishlatiladi. Biroq klinik psixologiyada bu atama muassasaga emas, balki shaxsning maslahat va psixoterapiyaga bo'lgan ehtiyojiga tegishli bo'lib, bu jarayon odatda psixodiagnostika bilan boshlanadi va unga hamrohlik qiladi. Klinik psixologlar psixologik yordamga muhtoj odamlarga, ular qaerda bo'lishidan qat'i nazar, yordam ko'rsatish bilan shug'ullanadilar. «*Klinik psixologiya laboratoriya tadqiqotlaridan qimmatli ma'lumotlarni olib, insonning psixologik hayotini — aniq va real butunlik sifatida — kuzatish bilan shug'ullanadi*», — deb yozadi o'z asarida **Prevo** (2005, B. 31). Aynan shu yondashuv **P. Jane** tomonidan taklif qilingan va uning shogirdi **J. Pijaje** tomonidan rivojlantirilgan «*klinik usul*»ning mohiyatini tashkil etadi — ya'ni shaxsni uning noyobligi va yaxlitligida anglash. **L. Pongras** (Pongratz, 1973) tegishli adabiyotlarni keng ko'lamda tahlil qilgan holda, klinik psixologiyaning turli ta'riflari mavjudligini ta'kidlaydi. Uning ta'kidlashicha, institutsional (ya'ni muassasaviy) mezonga asoslangan ta'riflarga ko'ra, *klinik psixologiya — bu psixologiya fanining klinikaga taklif eta oladigan jihatidir*. Ya'ni, psixolog o'z kasbiy bilim va ko'nikmalari bilan qay tarzda va qaerda klinik ishga hissa qo'sha olishi, uni boyitishi, kengaytirishi va chuqurlashtirishi mumkinligi haqidagi masala. Shuningdek, u *funksional va ilmiy mezonlarga asoslangan ta'riflarni ham alohida ajratib ko'rsatadi*.

Funksional mezonga ko'ra, agar tadqiqot va amaliyotda xulq-atvor va hissiy kechinmalardagi buzilishlarning diagnostikasi, terapiyasi va profilaktikasi uchun psixologiya doirasida ishlab chiqilgan va ilmiy jihatdan sinovdan o'tkazilgan psixologik usullar qo'llanilsa, klinik psixologiya haqida gapirish mumkin bo'ladi. Bu tushunchaning asosida shunday tezis yotadiki, bunday buzilishlar tibbiy ma'nodagi kasallik emas, balki noto'g'ri rivojlanish (Fehlentwicklung) natijasidir.

Ilmiylik mezoniga kelsak, Pongrasning ta'kidlashicha, klinik psixologiya o'z predmeti, tadqiqot usullari, nazariyasi va natijalarida ilmiy psixologiyaga

tayanishga majbur. **A.B. Xolmogorovaning** fikricha, bugungi kunda klinik psixologiyaga beriladigan eng maqbul ta'rif — bu uning mahalliy va g'arb tadqiqotlari hamda amaliyoti holatiga mos keladigan ta'rifdir. Unga ko'ra, *klinik psixologiya — bu psixologiya fanining bir qismi bo'lib, u psixologiyaning nazariy tushunchalari va kategoriyalaridan foydalanadi, psixik va somatik kasalliklar, shuningdek, rivojlanishdagi og'ishlar (shu jumladan, ularning namoyon bo'lishi, dinamikasi, psixologik va neyropsixologik omillari hamda mexanizmlari) bilan bog'liq psixologik buzilishlarni o'rganadi. Bundan tashqari, klinik psixologiya turli psixik buzilishlar holatida psixologik diagnostika, profilaktika va yordam ko'rsatishning prinsip va usullarini ishlab chiqadi. Shu bilan birga, u psixikaning normal rivojlanishi va faoliyati haqidagi psixologik bilimlarga tayanadi* (2003. B. 80–91). Shu bilan birga, ushbu ta'rif (A.B. Xolmogorovaniki) ham, **R. Bastine** (Bastine, 1998. B. 17–24) tomonidan berilgan ta'rif singari, to'liq va barcha jihatlarni qamrab olgan, deb bo'lmaydi. **Bastineniing** fikricha, klinik psixologiya psixik buzilishlar, somatik kasalliklar yoki og'riqlar bilan bog'liq psixologik jihatlardan, shuningdek, hayotdagi o'ziga xos holatlar tufayli yuzaga keladigan psixik inqirozlar bilan shug'ullanadi. Psixologiya fan sohasi sifatida klinik psixologiya asosan psixologiya va uning xususiy sohalaridagi ma'lumotlar, nazariyalar, metodologiya va metodlarga tayanadi. Uning vazifalari quyidagilardan iborat: *kliniko-psixologik fenomenlarni tasvirlash, tushuntirish va klassifikatsiyalash (patopsixologiya); ularni aniqlash (psixodiagnostika); ularning paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaslik yoki bartaraf etish (profilaktika va intervensiya); shu fenomenlarning ekologik, sotsiomadaniy, institutsional chegaralar bilan bog'liqligini aniqlash va ularga ta'sir ko'rsatish (kontekstual shart-sharoitlar).*

Psixologiya fan sohasi sifatida *klinik psixologiya* o'z fenomenlariga psixologik nuqtai nazardan yondashadi va aynan shu jihatni chuqur va differensiyalangan tarzda ishlab chiqadi. Shu sababli, biologik, ijtimoiy va psixologik omillardan qaysi biri ustuvor ekani haqidagi masalaga alohida urg'u berilmasdan, *klinik psixologiyada* psixologik yondashuv ongli ravishda tanlanadi. Ijtimoiy va biologik omillar esa psixologik jarayonlarning kontekstual shart-sharoitlari yoki kovariatsiyasi sifatida qaraladi va shu tariqa hisobga olinadi. Bu shuni anglatadiki, holatlar, buzilishlar, kasalliklar yoki inqirozlar psixik normalar asosida tahlil qilinadi. Shu bois, psixik patologiya bilan normaning o'zaro ta'siri va o'tish holatlari kuchliroq ta'kidlanadi. Normal va anomal xulq-atvor o'rtasidagi o'xshashliklar va bog'liqliklar orqali «*sog'lom*» va «*kasal*» xulq-atvor tushunchalari birinchi o'ringa chiqariladi, ular keskin ravishda ajratib ko'rsatilmaydi. Nihoyat, *klinik psixologiya* doirasida odatda «*normal*» va «*anomal*» o'rtasidagi chegaraviy holatlarga tegishli bo'lgan fenomenlar ham inobatga olinadi.

Psixologik fan sohalari ko'pincha fundamental (asosiy) va amaliy (qo'llanma) yo'nalishlarga bo'linadi, va buning natijasida klinik psixologiyani aksar hollarda faqatgina amaliy fan sifatida ko'radi. Ammo ilmiy-nazariy bahslar shuni ko'rsatdiki, fanlarni bunday ikki qismga bo'lish jiddiy darajada shartlidir.

Chunki amaliy fanlar ham asosiy, nazariy masalalarga albatta daxl qiladi, shuningdek, fundamental fanlar ham amaliy muammolarni hal etishga xizmat qiladi. *Klinik psixologiyada ham shu holat kuzatiladi: u ham nazariy, ham amaliy fan vazifalarini bajaradi. Masalan, klinik fobiyalar (qo‘rquvlar)ning kelib chiqishini tushuntirish — bu nazariy, asosiy ilmiy savol bo‘lsa, undan qutulish usullarini topish — bu uning “texnologik” (amaliy) qirrasidir.*

Ilm-fan nazariyasi vakillarining nuqtai nazaridan klinik psixologiya — bu empirik (tajribaga asoslangan) fan bo‘lib, unda tajriba (eksperiment) alohida ahamiyatga ega (Zeygarnik, 1999). Biroq amaliyotchi psixologlar orasida bu masalada yagona fikr yo‘q. Ko‘plab klinik psixologlar (oxirgi yillarda mahalliy mutaxassislar ham) o‘z amaliyotida chuqur psixologiya (glubinnaya psixologiya) yoki gumanistik psixoterapiya usullaridan foydalanib kelmoqmoqdalar. Shu asosda ular o‘zlarini «*tushunishga asoslangan*» yondashuv tarafdorlari (fenomenologik va germeneytik tushunish) deb hisoblaydi va empirik psixologiyaga tanqidiy munosabatda bo‘lishadi. Bu tendensiya Zalevskiy (2005, 2006) tomonidan "*siklop psixologiyasi*"ga qarab harakat sifatida tavsiflangan.

1.2. Klinik psixologiyaning ob‘ekt maydoni va predmeti

Yuqorida keltirilgan klinik psixologiya ta‘riflaridan kelib chiqib, uning predmetini aniqlash oson emasligi haqida xulosa qilish mumkin. Ammo, mening fikrimcha, bu murakkablik, avvalo, klinik psixologiyada *predmet* va *ob‘ekt* (*ob‘ekt sohasi*) tushunchalari yetarlicha ta‘riflanmaganligi bilan bog‘liq. Ya‘ni, ko‘pincha tadqiqotchilar va mutaxassislar ushbu ikki asosiy tushunchani aralashtirib yuboradilar: *ob‘ekt — bu klinik psixologiyaning qaysi sohada faoliyat yuritishini, ya‘ni nimani o‘rganishini bildiradi; predmet esa — aynan qay jihatni, qay tomonni, qay jarayonni va qanday munosabatlarni tahlil qilayotganini ko‘rsatadi.* Shuning uchun, klinik psixologiyadagi ta‘riflardagi murakkablik, ko‘p hollarda, aynan shu ikki tushunchaning metodologik jihatdan yetarlicha farqlashtirilmagani bilan izohlanadi. **J. Perre** va **V. Baumanning** fikricha, zamonaviy tushunchada klinik psixologiya va psixiatriya fanlarining predmeti juda yaqin. Ular shunday deb yozadi: «*Ilmiy tadqiqotlar predmeti sifatida ham klinik psixologiya, ham psixiatriya psixik buzilishlarni o‘rganadi. Shuning uchun bu nuqtai nazardan klinik psixologiya va psixiatriya o‘rtasida katta farq yo‘q, hatto ularning tadqiqot ob‘ektiga bo‘lgan yondashuvlarida urg‘u turlicha qo‘yilsa ham*» (2002. B. 36). Bu nuqtai nazarga **A.B. Xolmogorova** ham qo‘shiladi. U quyidagicha yozadi: «*Oxir-oqibatda, bu (klinik psixologiyaning rivojlanishi — G.Z.) klinik psixologiyaning psixiatriya va psixoterapiya kabi chegaraviy sohalar bilan tobora yaqinlashuviga olib keldi*» (2003. B. 81). Quyidagi jadvalda mashhur nemis klinik psixologiyasi qo‘llanmasi muallifi **R. Bastine** (Bastine, 1998. B. 18) tomonidan taklif etilgan «*klinik psixologiyaning predmet triadasi*» keltirilgan.

Bu triada klinik psixologiyani asosiy tadqiqot yo‘nalishlari va amaliy vazifalarini ifodalaydi hamda fanning predmetini yaxlit holda tushunishga yordam beradi:

№	Fan sohasi	Ta’rifi
1	Psixik buzilish	Qo‘rquvlar Navyazchivost Shizofreniya Affektiv buzilishlar Shaxsiyatni va xulq-atvorning buzilishi
2	Somatik kasalliklarning psixologik aspektlari	Ko‘rish, eshitish va nutq buzilishlari Yuqumli kasalliklar va OITS (HIV) Falajliklar (paralichlar) Yurak koronar kasalliklari Onkologik (o‘smali) kasalliklar
3	Psixik inqirozlar	Moslashuv buzilishlari O‘tkir jarohatli (travmatik) buzilishlar Travmadan keyingi buzilishlar (Posttravmatik stress buzilishi — PTSB)

Ushbu "triada" klinik psixologiyani nazariy va amaliy jihatdan mukammal rivojlanishini ta’minlaydigan muhim konseptual asos sifatida qaraladi.

Menimcha, *birinchi* navbatda, **Bastine** klinik psixologiyani ob’ekti va predmetini aralastirmoqda; *ikkinchidan*, u ko‘proq klinik psixologiyani ob’ekt sohasi haqida gapirmoqda; *uchinchidan* esa, u bu ob’ekt sohasidagi barcha elementlarni to‘liq qamrab olmaydi. Mening fikrimcha, *psixik buzilishlar, psixosomatik buzilishlar va psixik inqirozlar* — bular, asosan, klinik psixologiyani qiziqish doirasidagi ob’ektlardir. Bunday ob’ektlar, shubhasiz, klinik psixologiya bilan bir qatorda boshqa fanlar, birinchi navbatda, psixiatriya tomonidan ham o‘rganiladi. Shu sababli, ushbu holatlar klinik psixologiya uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgani holda, ularni fanning asosiy predmeti sifatida emas, balki ob’ekt sohasi doirasida qarash maqsadga muvofiqdir. Boshqacha aytganda, bir xil ob’ektlardan manfaatdor bo‘lgan turli ilmiy fan sohalaridagi ilmiy va amaliy qiziqishlar predmeti turlicha, shuningdek, ularning uslubiy apparatlari ham farq qiladi. Agar oxirgi yillarda, masalan, psixiatriya va klinik psixologiya o‘rtasida yaqinlashuv kuzatilsa (Perre, Baumann, 2000; A.B. Xolmogorova, 2003), bu faqatgina shu tufayliki, har ikki fanning bir ob’ekt — masalan, psixik buzilish — bilan ishlayotganida ularni nimalar birlashtirishi va nimalar farqlantirishi mumkinligi borasidagi anglashuv kuchaymoqda. Bu

hamkorlik, ko‘p hollarda, ularning umumiy model — masalan, *biopsixosotsial model* (Engel, 1979, 1980; Neznanov va boshqalar, 2007) yoki *biopsixosotsionoetik model* (Zalevskiy, 2005) — doirasida bir ob‘ektning turlicha o‘rganayotganini anglatadi. Bu modellar haqida keyinroq batafsil to‘xtalib o‘tiladi.

Klinik psixologiyaning ob‘ekt sohasi ancha keng va uni faqat psixik buzilishlar bilan cheklash mumkin emas. Unda quyidagi turdagi ob‘ektlarni ham alohida ta‘kidlash lozim:

- *Normativ krizislar* — bu tabiiy hayotiy bosqichlar bilan bog‘liq holatlar, masalan: yoshga oid psixologik o‘zgarishlar, rejalashtirilgan homiladorlik kabilar.
- *Latent (yashirin) nonnormativ krizislar* — muayyan hayotiy vaziyatlarda yuzaga keladigan ichki emotsional inqirozlar, masalan: ishdan ayrilish, rejada bo‘lmagan homiladorlik, imtihon oldidagi holatlar, yoki hayot uchun xavf soluvchi sharoitlarga tushish ("*issiq nuqtalar*", ya‘ni harbiy yoki favqulodda hududlar).
- *Risk guruhlari* — tashqi jihatdan sog‘lom bo‘lib ko‘rinuvchi, lekin zararli odatlar, noto‘g‘ri turmush tarzi, ish/o‘qish orqali ortiqcha zo‘riqish, yoki stressli kasbdagi faoliyat (masalan, paliativ yordam, harbiy xizmat, aviatsiya, sport) tufayli sevimsiz oqibatlariga duch keluvchi shaxslar.

Boshqacha aytganda, bularning barchasi insonning sog‘lig‘iga ta‘sir qiluvchi omillar bo‘lib, ular natijasida shaxs sog‘liqni saqlash xizmatlariga murojaat qilishga majbur bo‘ladi. Bu holatlar rasmiy ravishda XKK-10 (Xalqaro kasalliklar klassifikatsiyasi, XXI qismning, Z 00 — Z 91.5 orasidagi kodlari doirasiga kiradi), ya‘ni sog‘liq holatiga ta‘sir etuvchi va tibbiy murojaatni talab qiluvchi omillar sifatida qayd etilgan. Keltirilgan barcha ob‘ektlar doirasida klinik psixologiya uchun predmet sifatida "*psixologik aspektlar*" hisoblanishi mumkin.

Bu haqda **R. Bastine** o‘zining "*predmet triadasi*"da, ayniqsa, *psixosomatik buzilishlar* kontekstida alohida ta‘kidlaydi (Urvansev, 1998; Abramova, Yudchis, 1998). Biroq shunday psixologik aspektlar nafaqat psixosomatik buzilishlarda, balki *psixik buzilishlar*, *krizislar*, va boshqa ob‘ektlarda ham mavjuddir. Shuni e‘tirof etish kerakki, *psixologik aspektlar* — bu klinik psixologiyaning *metapredmeti*, ya‘ni u har bir ob‘ektda uning spesifikasiga mos holda aniqlashtirilishi va konkretlashtirilishi kerak. Bu aniqlashtirishlar spektri juda keng bo‘lishi mumkin: masalan, "*kasallikning ichki manzarasi*" (ya‘ni, shaxsning o‘z kasalligi haqidagi ichki his-tuyg‘ulari, qabul qilishi)dan tortib, "*sog‘liqning ichki manzarasi*"gacha (shaxsning o‘zini sog‘lom his qilishi, uni ongli ravishda qo‘llab-quvvatlash strategiyalari). Yuqorida aytilganlardan kelib chiqib, klinik psixologiyaning ob‘ekt sohasida albatta "*deyarli sog‘lom insonlar*" ham joy oladi — ya‘ni o‘z sog‘lig‘ini mustahkamlash, sog‘lom turmush tarzini shakllantirish va rivojlantirish vazifasini oldiga qo‘ygan shaxslar. Bu turdagi ob‘ektlar bilan

ishlash — klinik psixologiyaning alohida yoʻnalishi — *sogʻliq psixologiyasi* (psixologiya zdorovya) tomonidan olib boriladi. Bu yoʻnalishni oʻz vaqtida P. Jane “*norma klinik psixologiyasi*” (Klod-M. Prevo, 2005. B. 33) deb atagan.

1.3. Klinik psixologiyaning psixologiya va tibbiyotga munosabati

Klinik psixologiyaning psixologiya va tibbiyotga nisbatan munosabatini tahlil qilish orqali uning *oʻzini anglashi (samoponimanie)* va *oʻz oʻrnini aniqlashi (samoopredelenie)* shakllanadi. Bu tahlil shundan dalolat beradiki, klinik psixologiya:

bir tomondan, *ilmiy psixologiyaning* tarkibiy qismi sifatida nazariy bilimlar, metodlar va tadqiqot uslublariga tayanadi; ikkinchi tomondan, *tibbiyot va amaliyotga yoʻnaltirilgan* fan sifatida inson sogʻligʻi, kasallik, rehabilitatsiya, diagnostika va psixoterapiya kabi sohalarda faol ish olib boradi. Shu bois, klinik psixologiya oʻzini:

1. *Interdissiplinar fan* sifatida anglaydi — yaʼni u faqat bir fanga emas, balki bir nechta sohalar (psixologiya, psixiatriya, nevrologiya, psixoterapiya, sogʻliqni saqlash va ijtimoiy ishlar) bilan bogʻliqdir;
2. *Nazariy va amaliy fan* sifatida taʼriflaydi — u bir vaqtning oʻzida ham ilmiy tadqiqotlar olib boradi, ham amaliy psixologik yordam koʻrsatadi;
3. *Insonni yaxlit holda oʻrganuvchi fan* sifatida koʻradi — u insonni faqat kasallik va patologiya nuqtai nazaridan emas, balki uning normal holati, sogʻlom shaxs sifatidagi rivojlanishini ham oʻrganadi.

Klinik psixologiyaning shunday pozitsiyasi unga oʻz vazifalarini toʻliq va samarali bajarish, fanlararo hamkorlikni taʼminlash va insonning jismoniy hamda ruhiy salomatligini saqlashga hissa qoʻshish imkonini beradi.

Klinik psixologiya psixologiya sohasi sifatida

Klinik psixologiya, shubhasiz, psixologiyaning mashhur va muhim sohalaridan biri hisoblanadi (ijtimoiy psixologiya, pedagogik psixologiya, rivojlanish psixologiyasi va boshqalar qatorida), shu sababli u bu yoʻnalishlar bilan uzviy bogʻliq. Har qanday maxsus psixologik yoʻnalish singari, klinik psixologiya ham umumiy psixologiyani oʻzining *asosiy bazisi* sifatida qabul qiladi. U nazariyalar, metodlar va kategorial apparatni aynan shu umumiy fandan oladi. Klinik psixologiya oʻzining psixopatologiya (yaʼni psixiatriya) sohasiga qoʻshgan hissasini faqatgina *psixologiya fanining asosida ish olib borгани* tufayli amalga oshira olgan va kelgusida ham shunday qilishi mumkin. Shu bois, *klinik psixologlarni tayyorlash* keng gumanitar va umumpsixologik zaminda olib borilishi kerak. Bu tayyorgarlik:

- *fanning predmeti,*

- *tarixi,*
- *metodologiyasi*

bo'yicha mukammal bilimga ega bo'lishni ta'minlashi lozim. Agar bu asos yo'qolsa, klinik psixolog o'zining shifokor uchun zarur va o'ziga xos mutaxassis sifatidagi qiymatini yo'qotishi mumkin. Klinik psixolog amaliyotda nima bilan shug'ullanmasin — ilmiy tadqiqot, psixodiagnostika, bemorlar bilan maslahatlashish, terapiya, profilaktika, reabilitatsiya, yoki tibbiy xodimlar malakasini oshirish — u har doim psixologiya fanining ilmiy bilimlari va amaliyotda sinab ko'rilgan metodlariga tayanishga majbur. Boshqacha aytganda, klinik psixologiya faqat tibbiy ko'makda yordamchi emas, balki to'laqonli, mustaqil, ilmiy asoslangan kasbiy yo'nalish hisoblanadi.

Shu bilan birga, klinik psixologiya psixologiya fanining faqat oluvchi emas, balki qaytaruvchi va boyituvchi qismi ham hisoblanadi. Bu haqda B.V. Zeygarnik juda ishonchli ta'kidlaydi. Uning fikricha, *patopsixologik tadqiqotlar* umumiy psixologiyaning ko'plab masalalarini chuqurroq tushunishga hissa qo'shadi (1999. B. 196–199). Masalan, shunday masalalardan biri — shaxs komponentlarining kognitiv (bilish) faoliyatdagi rolidir. Turli ruhiy faoliyat buzilishlarini tahlil qilish jarayonida motivatsion (shaxsiy) omillarning ahamiyati va ularning barcha psixik jarayonlar tuzilishiga qanday tarzda ta'sir qilishi ochib berilgan. Boshqacha aytganda, klinik psixologiya faqat psixologiyaning amaliy qo'llanmasi emas, balki umumiy psixologiyaning nazariy bilimlarini *sinovdan o'tkazuvchi va boyituvchi manba* hamdir. Undan olingan natijalar, xususan patopsixologiya sohasidagi kuzatuv va tadqiqotlar, shaxsning ruhiy hayotini to'liqroq va chuqurroq tushunishga yordam beradi. Ayniqsa, *motivatsion komponent* ruhiy faoliyat buzilishlarida, xususan, buzilgan tafakkur (fikrlash) tuzilishida juda aniq namoyon bo'ladi. Misol uchun, tafakkurdagi shunday buzilishlar — *raznoplanovost* (ya'ni fikr yo'nalishining parokandaligi), hamda *o'tmishda mustahkamlanmagan belgilar va bog'lanishlarning oson faollashuvi* — motivatsion komponentning o'zgarishi bilan bog'liqdir.

Eksperimental-psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, motivatsion sohadagi turli buzilishlar turli shakldagi fikrlash buzilishlarini keltirib chiqaradi. Boshqacha aytganda, *kognitiv faoliyatdagi ko'plab buzilishlar uchun javobgar asosiy omil — bu bemorning motivatsion siljishi (yo'nalishining buzilishi)* hisoblanadi.

Bu fakt katta nazariy ahamiyatga ega, chunki u shundan dalolat beradiki: *barcha psixik jarayonlar — shaxs tomonidan harakat sifatida namoyon bo'ladigan, shaxsiy motivatsiya orqali vositalanuvchi faoliyat turlaridir.* Ya'ni, tafakkur, xotira, idrok va boshqa ruhiy jarayonlar — bu faqat neyrofiziologik mexanizmlar emas, balki shaxsning shaxsiy, motivatsion maqsadlari va ehtiyojlari bilan uzviy bog'liq jarayonlardir. Shu sababli, klinik psixologiyada

motivatsiyani chuqur tushunish nafaqat ruhiy buzilishlarni tashxis qilish, balki ularni korreksiya qilishda ham hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Ikkinchi muhim umumnazariy masala — bu *inson rivojlanishida biologik va psixologik omillarning o'zaro nisbatidir*. Ushbu muammoni hal qilishda patologik materialdan foydalanish juda maqsadga muvofiq hisoblanadi. Buni hal etish uchun turli xil anomal rivojlanish shakllarini tadqiq qilish ob'ekti sifatida jalb qilish foydali bo'ladi. Aniqroq aytganda, klinik psixologiyaning xususiy va maxsus bo'limlari — masalan, *klinik neyropsixologiya, psixosomatologiya* va boshqalar — o'z amaliyotlarida jamg'argan bilim va natijalarini umumiy psixologiyaga qayta olib kirish orqali uni boyitadi. Bu holatni o'z vaqtida juda teran ifoda etgan edi I.P. Pavlov: «Patologik holatlar ko'pincha bizga fiziologik normada murakkab va bir butun holda yashirin bo'lgan narsalarni, shikastlanish va soddalashuv orqali ochib beradi» (1951. B. 317). Boshqacha aytganda, normal holda tushunish qiyin bo'lgan psixologik jarayonlar, patologik sharoitda o'zining sodda va alohida ko'rinishlarida namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham klinik psixologiya nafaqat psixik buzilishlarni o'rganadi, balki inson ongi va faoliyatining tub mexanizmlarini aniqlashga xizmat qiladi. Bu esa uni umumiy psixologiya uchun beqiyos nazariy manbaga aylantiradi.

Bu nuqtai nazarni o'z vaqtida ko'plab mashhur psixolog va psixiatrlar ham ilgari surishgan. Masalan, **T. Ribo** shunday deb ta'kidlagan: «*Kasallik — bu tahlil uchun nozik asbobdir; u biz uchun boshqa hech qanday yo'l bilan amalga oshirib bo'lmaydigan tajribalarni yaratadi*». **A.F. Lazurskiy** esa klinik psixologiyaning imkoniyatlaridan foydalanish zarurligini shundan ko'radiki, u insonning ruhiy xususiyatlarini kattalashtiruvchi linza orqali kuzatish imkonini beradi.

Ushbu fikr yanada keng qamrovda **Garvey** tomonidan 200 yil avval aytilgan: «*Tabiat sirlari hech qaerda shunchalik yaqqol namoyon bo'lmaydi, qaysi joyda u o'ziga xos yo'ldan chiqsa, ya'ni normadan og'ish bo'lsa. Chunki aniq ma'lum: har qanday narsaning foydasi va ahamiyatini biz faqat uni yo'qotganimizda yoki u ishdan chiqqanida anglaymiz.*» Bu so'zlar shundan dalolat beradiki, *psixik buzilishlar va patologiyalar — inson psixikasining chuqur tuzilishini anglash uchun kalit vazifasini bajaradi*. Klinik psixologiya esa shu yo'l bilan nafaqat davolash, balki tushunish va nazariy asos yaratishga ham xizmat qiladi.

Klinik psixologiya va tibbiyot (psixiatriya)

O'tgan asrning saksoninchi yillarida mashhur psixiatrlar — **Emil Krepelin** va **Sergey Sergeevich Korsakov** — **Vilgelm Vundt** tomonidan yangidan tashkil etilgan dunyodagi birinchi eksperimental-psixologik laboratoriyada ta'lim olganlar. Ular o'zining keyingi kasbiy faoliyati davomida psixopatologik hodisalarni eksperimental-psixologik usullar orqali ob'ektivlashtirishga harakat qilganlar. Shu yo'l bilan psixiatriya va psixologiya o'rtasida fanlararo bog'lanish

oʻrnatilgan va bu haligacha dolzarbligini yoʻqotmagan. Psixologik kriteriy asosida aqlning sogʻlom emaslik(jinnilik, nevmenyaemost) tushunchasini himoya qilgan ekan, **V.X. Kandinskiy** oʻz fikrini quyidagi soʻzlar bilan boshlaydi: «Psixiatriya va psixologiyaning oʻzaro munosabati, psixologiya — bu ruhiyat haqidagi umumiy fan; psixiatriya esa — ruhiy buzilishlar haqidagi fan.» Bu taʼriflardan koʻrinib turibdiki, psixologiya va psixiatriya fanlari ajralmas holda bogʻliq boʻlib, ular insonning ongini va ruhiy holatlarini turli nuqtai nazardan oʻrganadi, yaʼni:

- *psixologiya — normal psixik faoliyatni va shaxs rivojlanishini,*
- *psixiatriya — undagi patologiya va klinik buzilishlarni oʻrganadi.*

Klinik psixologiya esa ana shu ikki fan oʻrtasida munosabat va aloqani mustahkamlovchi koʻprik boʻlib xizmat qiladi.

Psixiatriya va psixologiyaning oʻzaro bogʻliqligi haqida xulosalar

Psixiatrlar taʼkidlaganidek, *sogʻlom shaxs haqidagi xulosalarni bemor shaxsga toʻgʻridan-toʻgʻri tatbiq etib boʻlmaydi.* Biroq ilmiy psixologiyaning umumiy xulosalari psixiatriya uchun majburiydir, chunki: «*Ruh (nafs) buzilganida ham u oʻz mohiyatida ruh boʻlib qolaveradi. Ratsional psixiatriya oʻz asosida, albatta, psixologiyaga tayanadi*» (V.X. Kandinskiy, 1890). Bu fikr klinik psixologiyaning asosiy metodologik poydevorini tashkil etadi: insonning psixik holatini tushunish uchun uning normal rivojlanishini ham bilish zarur. **S.S. Korsakov** esa psixiatriya boʻyicha leksiylarini boshlar ekan, doim quyidagilargi taʼkidlab oʻtardi: «*Bemor insonda nimalar sodir boʻlishini tushunish uchun, avvalo, sogʻlom insonda nima sodir boʻlishini oʻrganishimiz kerak, yaʼni ruhiy hayotning normal namoyon boʻlish shakllari bilan tanishish zarur*» (1901). Shu bilan birga, **S.S. Korsakov** doim psixiatriya kursini qisqacha psixologiya kursidan boshlar, shu orqali kelajakdagi psixiatrlar tayyorgarligida psixologiyaning ahamiyatini alohida taʼkidlar edi. Psixologiya — nafaqat klinik psixologiyaning, balki psixiatriyaning ham asosiy nazariy poydevoridir. Psixik buzilishlarni tushunish uchun oddiy (sogʻlom) psixik faoliyatni yaxshi bilish talab etiladi. Shu bois, klinik psixologiya va psixiatriya chuqur nazariy va amaliy bogʻlanishga ega.

Shu munosabat bilan **E. Krechmer** shunday deb yozadi: «*Ruhan yuqori turishga intiladigan shifokor oʻz kasbiy taʼlimidagi yetishmovchilikni ikki xil shaklda his etadi. U shunday psixologiyaga muhtojki, bu shifokorlik amaliyotidan kelib chiqishi va aynan shifokorlik kasbining amaliy vazifalariga yoʻnaltirilgan boʻlishi kerak. Bu — eng asosiysi. Bundan tashqari, shifokorda psixologiyaga boʻlgan intilish, koʻpincha, oʻzining tor professional mutaxassisligi toʻrt devoridan chiqish va yanada kengroq ruhiy-maʼnaviy tafakkur, etik va estetik muammolar, xalq hayoti rivoji kabi sohalarga nazar tashlash istagidan kelib chiqadi. U buni shunday shaklda amalga oshirishni xohlaydiki, unda uning tibbiy-*

tabiiy-ilmiy fikrlash doirasi ruhiy-ilmiy tafakkur manzarasi bilan organik bog‘liq holda yagona butunlikka aylansin.» (Krechmer, 1998. B. 6). Krechmerning bu fikrlari shundan dalolat beradiki: Shifokorlar psixologiyaga nafaqat amaliyotdagi yechimlar uchun, balki o‘z shaxsiy ruhiy va ma‘naviy rivoji uchun ham muhtoj. Psixologiya tibbiyot uchun faqat yordamchi fan emas, balki shaxs, jamiyat va madaniyatni tushunish uchun zarur bo‘lgan keng ruhiy ko‘z yorug‘idir. Klinik psixologiya aynan shunday ko‘p qirrali va insonparvar yondashuvni amalga oshiruvchi fan sifatida tibbiyot va psixologiyani ma‘naviy va amaliy jihatdan bog‘lab turadi.

Klinik psixologiyaning rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan buyuk psixiatrlar tufayli, ayrim mualliflar hanuzgacha bu sohani «psixiatrik klinik psixologiya» deb atashni ma‘qul ko‘rishadi (Helm va boshq., 1976). Ushbu yondashuv asosan psixik buzilishlarni yaxshiroq tashxis qilish, terapiya qilish va chuqurroq o‘rganishga qaratilgan. Shubhasiz, psixiatriya klinikalarida psixologik metodlarning joriy etilishi, shaxsning buzilgan sohalarini yangi, ob‘ektiv asosda tahlil qilish imkonini yaratdi. Bu sub‘ektiv tasvirlarga nisbatan aniqroq, ishonchliroq tahlilga asos bo‘ldi. Psixometrik ma‘lumotlar, ya‘ni psixologik testlar natijalari, turli tadqiqotchilar tomonidan olinayotgan qiyoslash mumkin bo‘lgan raqamli ko‘rsatkichlar, bugungi kunda: psixofarmakologik va psixoterapevtik davolash samarasini baholash, psixopatologik holatlarni normal rivojlanish bilan solishtirish, Va alohida holatlarning aniq tashxisini qo‘yish uchun muhim asos vazifasini bajaradi. Helm va hammualliflarining ta‘kidlashicha: «*Yakuniy maqsad shundaki, psixopatologiya psixologiyaning bir qismi sifatida shakllanishi kerak. Unda psixik xulq-atvor ijtimoiy bog‘liqlikda, yangi tur sifatida va yangi qadriyatli sifat sifatida qaralishi lozim. Shuning uchun insonga ekzistensial, antropologik yoki faqat biologik nuqtai nazardan emas, balki uning mustaqil rivojlanish va qaror qabul qilish qobiliyati markaziy o‘rinda turgan holda yondashish kerak*» (Helm va boshq., 1976. B. 25).

Bu yondashuv klinik psixologiyaning faqat patologiyani o‘rganish bilan cheklanmasligini, balki insonning shaxsiy imkoniyatlari, qaror qabul qilish qobiliyati va rivojlanish potensialini ham o‘rganishini talab qiladi. Ya‘ni klinik psixologiya — bu insonni faol sub‘ekt sifatida ko‘radigan va uning ichki resurslarini rivojlantirishga qaratilgan fanligini bildiradi.

Bugungi kunda ham psixologlar va shifokorlar (mediklar) o‘rtasidagi mentalitet (tafakkur tarzi)dagi prinsipial farqlar haqida gapirish mumkin. Shifokorlarda aksar hollarda bemorga nisbatan «biologik markazlashgan» (biologotsentricheskiy) qarash ustuvor bo‘ladi. Bu ikki kasb egalarida: kasbiy qarashlar, qadriyatlarga bo‘lgan munosabat, muhim ob‘ektlarni qabul qilishdagi xususiyatlar, dunyoni idrok etish uslubi (Urvansev, 1998. B. 5) va hamda kasbiy pozitsiyalar (Lidere, 1996) — bir-biridan farq qiladi. **S. Grof** esa bu farqlar hatto psixologlar va psixiatrlar o‘rtasida ham yaqqol namoyon bo‘lishini ta‘kidlaydi. Va u shunday deb yozadi: «*Medicsina tafakkurining mexanik qo‘llanilishi*

natijasida psixiatr to'qnash keladigan barcha buzilishlar avtomatik ravishda kasallik sifatida qaraladi. Va ularning etiologiyasi (kelib chiqish sababi) oxir-oqibatda anatomik, fiziologik yoki bioximik normalardan og'ish sifatida izohlanadi» (1992. B. 230). Bu fikrlardan kelib chiqadigan xulosa shundaki, psixologiya va tibbiyot bir ob'ekt — inson sog'lig'i va ruhiyati — bilan ishlashda, qarash nuqtalari turlicha: Shifokorlar asosan jismoniy, biologik mexanizmlarga tayanadi; Psixologlar esa insonning shaxsiy tajribasi, hissiyotlari, ma'naviy va ijtimoiy omillarini inobatga oladi. Klinik psixologiya esa shu ikki yondashuvni birlashtirib, insonga *yaxlit va kompleks yondashuvni* ta'minlaydigan fan sifatida faoliyat yuritadi.

Tushunchalarning farqiga to'xtalar ekanmiz, tibbiy psixologiya («meditsinskaya psixologiya») va «klinik psixologiya» atamalari bizning mamlakatimizda ko'p hollarda teng ma'noli (sinonimik) deb qabul qilinadi. Ammo, bu ikki tushuncha aslida farq qiladi, ayniqsa, boshqa mamlakatlarda. Jumladan, G'arbiy Yevropa davlatlarida: *Tibbiy psixologiya* — asosan vrachlar tomonidan ishlab chiqilgan va ularning amaliyotida qo'llaniladigan psixologiya yo'nalishi hisoblanadi; *Klinik psixologiya* esa — kasbiy tayyorgarlikka ega, diplomli psixologlar tomonidan amalga oshiriladigan mustaqil ilmiy-amaliy soha sifatida rivojlangan. Shu bilan birga, hozirgi kunda ham «*tibbiy psixologiya*», «*klinik psixologiya*» va «*patopsixologiya*» tushunchalarini talqin qilishda aniqlik yetarli emas, va bu sohalarni to'g'ri ajratib olish dolzarb masala bo'lib qolmoqda. **Kabanov, Lichko** va boshqalar (1983) shunday deb ta'kidlashadi: «*Shifokor va psixolog bir-birini takrorlamasligi kerak: har biri o'z vazifalariga ega, ammo ularning umumiy maqsadi — bemorning sog'lig'ini va farovonligini imkon qadar yaxshilashdan iborat.*» (B. 9–14). *Tibbiy psixologiya* — shifokorlarning psixologik yondashuvi bilan bog'liq bo'lib, ko'proq tibbiyotning ichidagi yo'nalish sifatida qaraladi. *Klinik psixologiya* — psixologik fanning mustaqil va ilmiy-amaliy soha bo'lib, shaxsning ruhiy holatini normal va patologik doirada o'rganadi. Bu ikki kasb egasi — shifokor va psixolog — o'zaro to'ldiruvchi hamkorlar bo'lib, har biri bemor manfaati uchun muayyan va aniq rolga egadir.

Noto'g'ri talqinlar va tushunmovchiliklarni oldini olish maqsadida, men «*tibbiy psixologiya*» tushunchasini eng qamrovli va mos tushuncha sifatida qarash tarafdoriman. Bu atama: bir tomondan, klinik psixologiyani kasbiy faoliyat sifatida, ikkinchi tomondan, psixologik bilimlarning muayyan majmuasini, ya'ni tibbiyot xodimlarining kasbiy tayyorgarligida zarur bo'lgan bilimlar yig'indisini o'z ichiga oladi. Bu bilimlar hajmi shifokorning ixtisosligiga bog'liq ravishda farq qilishi mumkin: bu umumiy somatik shifokor, psixiatr yoki psixoterapevt bo'lishi mumkin. Barcha bu hollarda gap shundaki, *tibbiy xodim, ayniqsa vrach*, avtomatik ravishda kasbiy *klinik psixologga* aylanmaydi. Huddi shunday, *klinik psixolog* ham, agar u diplom yoki diplomdan keyingi tayyorgarlik (masalan, psixoterapevtik yo'nalishda) jarayonida biologik bilimlarga ega bo'lsa ham, avtomatik ravishda vrachga aylanmaydi. Shuning uchun to'g'ri yondashuv shundaki: *Klinik (yoki tibbiy) psixologiyani* faqat metod emas, balki «*madaniyat*»

sifatida talqin qilish kerak. Bu fikr ilk bor 1897–1901 yillarda nashr etilgan «*Jurnal klinicheskoy i lechebnoy psixologii*» manifestida ilgari surilgan (Klod-M. Prevo, 2005. B. 33). *Tibbiy psixologiya* — bu shifokorlar uchun zarur bo‘lgan psixologik bilimlar tizimini qamrab olgan, faqat metod emas, balki kasbiy madaniyatning bir qismi. *Klinik psixologiya* — mustaqil kasbiy va ilmiy soha bo‘lib, o‘zining maxsus tayyorgarligi va maqsadlari bor. Ularni to‘g‘ri ajratish, biroq hamkorlikda ishlash prinsipini saqlash, zamonaviy tibbiyot va psixologik yordamda muhim ahamiyatga ega.

2-mavzu. KLINIK PSIXOLOGIYNING QISQACHA

TARIXI

2.1. Kirish

Odamzot paydo bo‘libdiki, turli kasalliklarga qarshi kurashib kelgan. Bemorni darddan xalos qilish uchun turli xil usullar o‘ylab topilgan. Qadimda bemorlarni davolashda giyohlarni ko‘p qo‘llashganini tarixiy manbalardan yaxshi bilamiz, lekin ruhiy ta‘sir o‘tkazish yo‘li bilan davolash qachondan boshlanganligi bizga noma‘lum. Shuni alohida ta‘kidlash lozimki, hozirgacha nomi ma‘lum bo‘lgan deyarli barcha tabiblar bemorlarni davolashda ruhiy ta‘sir qilish usullaridan unumli foydalanishgan. Ularning aksariyati birinchi tabib – organizmning o‘zi va aynan organizm har qanday kasallikka qarshi kurashishi kerak, bizning vazifamiz esa unga yordam berishdir, deyishgan.

Qadimgi davr adabiyotiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, tibbiyot, falsafa va psixologiya fanlari chambarchas bog‘lanib ketganligining guvohi bo‘lamiz. Miloddan ilgari yashab o‘tgan deyarli barcha faylasuflar tibbiyot va psixologiyaga oid o‘z fikrlarini yozib qoldirishgan, chunki ular ruhiy kuchlar manbaini inson miyasi bilan bog‘lashgan.

Qadimgi Xorazm hududida miloddan avvalgi VI asrda bitilgan zardushtiylarning muqaddas kitobi «*Avesto*»da tibbiyot va psixologiyaga oid muhim ma‘lumotlar keltirilgan. «*Avesto*» uch kitobdan iborat bo‘lib, uning birinchi kitobida («*Vendidat*») tibbiyotga oid ma‘lumotlar berilgan. Bundan deyarli 2400 yil oldin bitilgan ushbu kitobdagi ma‘lumotlar hozirgi davrning har qanday olimini hayratga soladi. Unda jismoniy va ruhiy poklanish haqidagi qonunlar majmuasi keltirilgan. «*Avesto*» kitobida biz ko‘rish, eshitish, hid va ta‘m bilish markazlari miyada joylashgan, degan fikrlarni uchratamiz. Kitobda «*Hayot markazi*» suyak iligida bo‘ladi deyiladi. Shuningdek, kitobda odam anatomiyasi va fiziologiyasiga oid juda qiziqarli ma‘lumotlar keltirilgan, inson salomatligini saqlash yo‘llari yoritilgan.

“*Avesto*” nafaqat ruhiy tushkunlik, balki jismoniy zo‘riqish ham kasallikka olib kelishi aytilgan. Kasalliklarni davolashda jarrohlik va ruhiy tinchlantirish

davolashning asosiy usullaridan biri, deb ta'kidlanadi. Kitobda gigiena, profilaktika, ozoda yurish, yomon narsalarga yaqinlashmaslik, toza havoda sayr qilish, sifatli ovqatlar tanovul qilish va toza ichimlik suvi ichish haqida ham ko'plab ma'lumotlar beriladi. Shuningdek, yoshlar jismoniy va ruhiy baquvvat bo'lishi uchun to'yib ovqatlanishi, yetarli darajada ovqatlanmaydigan xalqlarda kamquvvatlik holatlari kuzatilishiga ham alohida to'xtalib o'tilgan. Ko'rib turganingizdek, yurtimizda **Gippokrat**dan deyarli 150 yil ilgari tibbiyot va ruhiyatga oid ilmiy qarashlar juda yaxshi yoritilgan.

Miya va ruh orasidagi munosabatlarga oid qarashlari bilan mashhur bo'lgan tibbiyot fanining otasi **Gippokrat** (Buqrot) (mil. avv. 460–377yillar) asarlari bugungi kungacha yetib kelgan. U odam anatomiyasi va fiziologiyasini chuqur o'rgandi, bosh miya tuzili shi bilan qiziqdi. **Gippokrat** odamlar xulqatvorini kasallik kechishiga bog'lab o'rgandi va temperament haqida ta'limot yaratdi.

Gippokrat odam temperamentini 4 tipga ajratdi: 1) *sangvinik – harakatchan, xushchaqchaq, irodali odam, ularning organizmida qon ustunlik qiladi;* 2) *xolerik – jahldor, hissiyotga beriluvchan odam, ularda jigar o'ti ustunlik qiladi;* 3) *flegmatik – vazmin odam, ularning organizmida flegma (shilliq, xilt) ustun turadi;* 4) *melanxolik – irodasiz, tushkun kayfiyatda va tang ahvolda yuradigan odam.* Ularning qonida melanoza (savdo, qora o't) ustunlik qiladi. **Gippokrat** fikricha, sangviniklar kasallikka kam chalinishadi. Xolerik va melanxoliklar esa kasallikka moyil kishilardir. Mutafakkir «*kasalliklar kechishi va bemorning sog'ayib ketishi temperamentga aloqador*» deb hisoblagan. Bu ta'limot keyinchalik barcha olimlarda qiziqish uyg'otdi. Hozir gi kunda yetakchi psixologlar va vrachlar bemorlarni davolashda ular ning temperamentiga alohida e'tibor berishadi.

Gippokratning tibbiyot oldidagi yana bir buyuk xizmatlaridan biri – vrach qasamyodini yaratganligidir.

Gippokrat davridan boshlab bu qasamyodni barcha shifokorlar qabul qilganlar. Hozirgi kunda ham bu qasamyod o'z kuchini yo'qotgani yo'q va barcha mamlakatlarda bo'lajak vrachlar uni tantanali ravishda qabul qilishadi. Bu qasamyod vrachni o'z kasbini sevish va ulug'lashga, bemor va hamkasblarini hurmat qilishga, o'z ilmini faqat odamlar salomatligi yo'lida sarflashga, yomon maqsadlarda qo'llamaslikka chorlaydi.

Ma'lumki, vrach qanchalik urinmasin, davosi qiyin kechadigan kasalliklar bor. Bunday paytlarda vrach ruhan va jismonan charchaydi, bemor tuzalmaganidan aziyat chekadi. Ba'zan bemor va uning yaqinlari tomonidan dashnomlar eshitadi. Bu haqda **Gippokrat** shunday degan: «*Tibbiyot asosan tinchlantiradi, ba'zan davolaydi va juda kam hollarda darddan butunlay xalos etadi*». Demak, barcha bemorlarni ko'ngildagidek davolash qiyin. **Gippokrat**ning bu so'zlarida tushkunlik kayfiyati ufurib turgan bo'lsada,

zamidida achchiq haqiqat yotibdi. Bu soʻzlarning aytilganiga bir necha asrlar boʻldi, oʻtgan davr ichida eng kuchli diagnostika va davolash usullari ishlab chiqildi, lekin shunday boʻlsada, bugungi kunda tibbiyot baʼzi kasalliklarni davolashda ojiz.

Gippokrat bir qator asab va ruhiy kasalliklar haqida risolalar yozib qoldirgan. U isterik kasalliklarni chuqur bilimdonlik bilan oʻrgandi va ularni davolash yoʻllarini ishlab chiqdi. **Gippokrat** bemorni davolashda sogʻlom turmush tarzi va toʻgʻri ovqatlanishga qattiq rioya qilish kerakligini aytgan, kasallikning sababini aniqlab, uni bartaraf qilishga intilgan. **Gippokratning** tibbiyotga oid baʼzi koʻrsatmalarini keltirib oʻtamiz: 1) *jismoniy mehnat mushak va aʼzolar uchun oziqdir*; 2) *fikrlash kishi ruhini tetiklashtiradi*; 3) *bemorga yordam berishni eplay olmasang, unga ziyon keltirma*; 4) *meʼyordan koʻp ovqatlanish kishi salomatligiga ziyon keltiradi*; 5) *bemorning ruhi tushmagan va ishtahasi saqlangan boʻlishi tuzalish uchun yaxshi alomatdir*; 6) *odam tanasida kasallik bilan kurashuvchi kuch bor, tabibning vazifasi esa oʻsha kuchni faollashtirishdan iborat*; 7) *bemorga beriladigan dorilar hadeb oʻzgartirilmasligi kerak, faqat zaruratga qarab davolash muolajasi oʻzgartirilsin*; 8) *tabiatda doimo ikki qarama-qarshi kuch boʻladi, qarama-qarshilikni qarama-qarshilik bilan davolash kerak*; 9) *tabib yuksak darajada axloqli, jonkuyar, ozoda va xush koʻrinishga ega boʻlishi lozim*; 10) *tabib oʻz bilim va mahoratini doimo oshirib borishi va bemorlar hurmatiga sazovor boʻlishi kerak*. Oʻz davrining mashhur tabibi va faylasufi boʻlgan **Gippokrat** sharaflı umr kechirdi va 83 yoshida vafot etdi.

Platon (Aflotun) (mil. avv. 430–348yy.) «*Ruh abadiydir, u tanaga bogʻliq emas va xudo tomonidan yaratilgan. Ruh tanadan oldin paydo boʻlgan, odam va hayvon ruhi birbiridan farq qiladi, odam ruhi oliy va past tabaqaga boʻlinadi. Oliy ruh abadiydir, u tafakkur kuchiga ega, bir tanadan ikkinchisiga oʻtadi va tanaga bogʻliq emas. Past tabaqali ruh abadiy emas va hayvon lar uchun xos*», degan edi.

Aristotel (Arastu) (mil. avv. 384–322yillar) miya, ruh va tana munosabatlariga oid bir qancha fikrlar bildirgan. U **Platonning** shogirdi. **Aristotel** jonning 3 xilini ajratgan: *oʻsimlik, hayvon va ongli jon*. «*Oʻsimlik joni*» deganda, u oziqlanish va koʻpayishni koʻzda tutgan boʻlsa, «*hayvon joni*» deganda his qilish, ogʻriq sezish, himoyalanişni tushungan. **Aristotel** «*Ongli jon faqat odam uchun xos boʻlib, unda jonning uch turi ham mavjud*», deydi. Uning fikricha, odam jonning uch turiga ega boʻlganligi bilan ham oʻsimlik va hayvonlardan farq qiladi. **Aristotel** oʻz asarlarida «*histuygʻular*», «*xotira*», «*sezgi*» kabi tushunchalardan keng foydalangan.

Rimlik mutafakkir **Klavdiy Galen** (mil. avv. 129–201yy.) ruhning fiziologik mexanizmlarini ilmiy tadqiqotlariga asoslanib oʻrgandi. U ham ruhiy faoliyatning bosh miya bilan bogʻliqligi haqidagi fikrni ilgari surdi. **Galen**

hissiyot, xotira, sezgi va diqqat odam ongi, ruhi tomonidan idora qilinadi, deb ta'kidlaydi. U hayvonlarda miyaga boruvchi sezgi tolalarini kesib ko'rib, ularning harakatini tekshirdi. Shu maqsadda dorivor moddalarni ham ishlatdi. Shuningdek, **Galen** jinsiy aloqaning asab sistemasiga ijobiy ta'sirini o'rgandi. U turmushga chiqmagan yoki beva ayollarda isterik belgilar paydo bo'lishini yozib qoldirgan. **Galen** birinchilardan bo'lib xulqatvorning tug'ma va orttirilgan shakllari, ixtiyoriy va ixtiyorsiz harakatlar to'g'risidagi hamda temperamentga oid fikrlarni ilgari surdi.

IX asr boshlarida Sharqda, ya'ni Bag'dod, Buxoro va Xorazmda boshqa tabiiy fanlar qatori tibbiyot ham jadal rivojlanadi. Bag'doddagi tibbiyot dargohlarida bemorlarni davolashda ruhiy ta'sir qilish usullari keng qo'llanilgan. Bemor bilan tibbiyot xodimi o'rtasidagi munosabatlar, psixologik usullar, turli kasalliklarning kelib chiqishida ruhiy omillarning ahamiyati, ularni oldini olish kabi bilimlar rivojlana boshladi. Bu davrda tibbiyot psixologiyasi poydevori yaratilishi boshlandi, desak mubolag'a qilmagan bo'lamiz. Bag'doddagi tibbiyot muassasalari butun dunyoda tan olinib, Yevropada ham katta shuhrat qozondi.

Eronda tavallud topgan mashhur mutafakkir **Abu Bakr ar-Roziy** (865–925yy.) tibbiyot olamida o'chmas iz qoldirdi. U o'z davrining buyuk tabibi bo'lgan va tarixchilarning yozishicha, bemorlarni davolashda xatoga yo'l qo'ymagan. U biror yangi dorini bemorga berishdan oldin hayvonlarda sinab ko'rgan. **Roziy** bemorlarni davolashda ruhiy ta'sir qilish bilan birga parhezga ham katta e'tibor qaratgan. U mizoj, falajlik, jinsiy aloqa, gigienik tadbirlar va dorishunoslik haqida ko'p risolalar bitgan. Ularning ba'zilar G'arb tillariga tarjima qilinib, u yerda bir necha asrlar o'qitib kelingan. **Roziy** o'zi boshqarayotgan shifoxonada «kasallik tarixnomasi»ni yaratgan va bemorning holahvolini davolashning birinchi kunlaridan boshlab muntazam qayd qilib borgan. Bu esa unga bemorni davolash mobaynida sinchkovlik bilan kuzatuv olib borish imkonini bergan.

Abu Bakr arRoziy bemorlarni kuzatish jarayonida kasallikning kelib chiqish sabablari va oqibatlarini o'rgangan. Shu tariqa tibbiy profilaktika va psixogigiena fanlariga asos solgan. U vrach burchi, tibbiy maslahatlar haqida ham yozib qoldirgan.

Sharqda yashab ijod qilgan tabiblar hayoti va ijodini atoqli tarixchi olim, professor **Asadulla Qodirov** «*Tibbiyot tarixi*» kitobida batafsil yoritgan. U o'z asarida Sharq va G'arb olimlarining fikrlarini bir biri bilan taqqoslaydi, klassik fikrlarni hozirgi zamon tibbiyoti bilan solishtirib o'rganadi. Olim ayniqsa, buyuk mutafakkir **Abu ali ibn Sino** (980–1037) hayoti va faoliyati haqida juda katta tahliliy ma'lumotlar keltirgan. **Abu Ali ibn Sino** tibbiyotning deyarli barcha sohalariga taalluqli «*Tib qonunlari*» asarida tibbiyot va psixologiyaga oid bir qancha fikrlar keltirgan. Bu asar haqli ravishda dunyoning deyarli barcha tillariga tarjima qilingan va tib ilmini zabt etishda dasturulamal bo'lib xizmat qilgan. **Ibn**

Sinoning ahvoli og‘ir bemorlarni davolashda ishlatgan turli xil usullari (giyohlar bilan davolash, ruhiy ta‘sir qilish) afsonaga aylangan. Aslida bular afsonaga aylangan haqiqatdir.

Zigmund Freyd nevrozga uchragan bemorlarni davolashda **Ibn Sino** usulidan foydalangan bo‘lsa, ajab emas. U bemorlarga nafaqat kasallik bilan bog‘liq bo‘lgan, balki shaxsiy hayotidagi muammolarni ham so‘zlatib, bemorlarda psixologik katarsisni (ruhiy poklanish) yuzaga keltirgan. Birorta ham siri qolmay, barcha dardini so‘zlagan bemor ruhan ancha yengil lashib, ba‘zi hollarda butunlay tuzalib ham ketgan. **Ibn Sino** har bir bemorni davolashdan oldin uni diqqat bilan o‘rganish, oilasi va yashash sharoiti bilan tanishish o‘ta muhimligini uqtirgan. Uning bu fikrlari psixogigiena fani vazifalariga o‘xshab ketadi. **Ibn Sino** asarlarida psixoprofilaktikaga oid ishlarni ham ko‘p uchratamiz. Masalan, mutafakkir kasalliklarning oldini olishda tarbiyaga alohida urg‘u bergan. «*Tarbiya erta bolalik davridan boshlanishi kerak*», degan edi **Ibn Sino**.

Shuningdek, u bolani qo‘rqoq, g‘amgin yoki juda erka qilib tarbiyalamaslik, ota-ona bola nimani xohlayotganini doimo sezishi va o‘sha narsani bolaga yetkazib berishga harakat qilishi, yomon narsalardan esa yiroqlashtirishlari zarurligini uqtirgan. Bu qoidalarga rioya qilish bolaning zehni o‘tkir, tanasi sog‘lom o‘sishini ta‘minlashini ta‘kidlab o‘tgan. **Ibn Sino** bir qator kasalliklar kelib chiqishi asab tizimiga bog‘liq ekanligi, g‘azab, qo‘rquv, qattiq siqilishlar organizmni holsizlantirib, turli kasalliklarning yuzaga kelishiga sababchi bo‘lishi haqida o‘z fikrlarini yozib qoldirgan. U quyidagi tajribani o‘tkazgan. Bitta qo‘yni oddiy sharoitda, ikkinchisini esa qafasda saqlab, ikkalasini ham bir xil boqqan. Qafasdagi qo‘yning atrofida bo‘ri aylanib yurgan. Birikki kundan so‘ng atrofida bo‘ri aylanib yurgan qafasdagi qo‘y yem yemay qo‘yadi va holdan toyib o‘ladi. **Ibn Sino** qo‘yning o‘limiga ruhiy zo‘riqish va buning natijasida organizmning holdan toyishi sabab bo‘lgan, deb xulosa chiqargan.

Ibn Sinoning organizm faoliyatini boshqarishda asab tizimining ahamiyati haqidagi ta‘limoti Yevropa olimlari tomonidan XX asr boshlarida yaratilgan nervizm ta‘limotiga juda o‘xshab ketadi. **Ibn Sino** tomir urishining asab tizimi faoliyatiga bog‘liqligini ko‘p tajribalarda isbotlab bergan. U ko‘pgina kasalliklarni tomir urishiga qarab aniqlagan. **Ibn Sino** nafaqat turli kasalliklarda tomir urishining o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rgangan, balki turli hissiy zo‘riqishlar va asab kasalliklarida tomir urishi o‘zgarishlarini mufassal bayon qilgan. **Ibn Sino** deontologiya muammolariga ham bag‘ishlab ko‘p risolalar bitgan. Uning «*Kasallikni emas, kasalni davola*», degan iborasi bor. Har qanday bemorni davolashda uning shaxsini e‘tiborga olish kerak, deb yozgan edi u.

Ibn Sino Gippokratning temperament haqidagi ta‘limotini chuqur o‘rganib, quyidagi xulosaga keladi: barcha hayotiy muhim jarayonlarda ikkita qarama qarshi hodisalar, ya‘ni «*qaynoq sovuq*» va «*quruqnam*» barobar bo‘lishi kerak. Agar ular orasida nomutanosiblik boshlansa, mizoj aziyat chekadi va

kasalliklar boshlanadi. **Ibn Sino** «*Har bir odam ma'lum mizojga taalluqli va bemorni davolayotganda bunga albatta e'tibor qilish kerak*», deb yozadi. U kasalliklar rivojlanishida ruhiy omillarga katta e'tibor qaratib, kasallikning har kimda har xil kechishini uqtirib o'tgan va bu holat bemorning mizoji, oilaviy sharoiti, qaysi ijtimoiy tabaqaga mansubligi va qolaversa, uni kim davolayotganiga bog'liq, degan. Shu yerda «*mizoj*» tushunchasi haqida batafsil to'xtalib o'tsak. Chunki *temperament* va *mizoj* tushunchalari bir biriga yaqin tursada, bu so'zlar sinonim emas. «*Mizoj*» tushunchasini Xitoy, Yunoniston va Sharq olimlari asarlarida ko'p uchratamiz. *Mizoj* deganda issiqlik, sovuqlik, quruqlik va ho'llik omillari ko'zda tutilgan

Undan tashqari «*rutubatlar*» degan tushuncha ham mavjud. *Rutubatlar* deganda organizmdagi to'rt xil suyuqlik – *qon*, *safro* (*jigar o'ti*), *savdo* (*qora o't*) va *flegma* (*shilliq suyuqlik*) tushuniladi. *Rutubatlar* (gumoral) tushunchasini yunon hakimlari o'ylab topishgan. Bu tushunchaga asoslanib *Gippokrat rutubatlar nazariyasini* yaratdi va odamlarni to'rt toifaga ajratdi, ya'ni *temperament* haqida ta'limot dunyoga keladi.

Uzoq tarixga ega «*mizoj*» tushunchasi qadimda 4 ta unsur – *yer*, *havo*, *suv* va *olov* bilan bog'lab ham tushuntirilgan. «Barcha jonzoqlar, shu jumladan, odam ham ana shu unsurlardan tashkil topgan, har bir unurning o'z xususiyati bor va o'sha xususiyatlar «*mizoj*» deb atalgan. Bundan kelib chiqib «*issiq mizoj*» va «*sovuq mizoj*» tushunchalari paydo bo'lgan. Tanadagi issiqlik va sovuqlik orasidagi muvozanat buzilsa, kasallik rivojlanadi, tabibning vazifasi shu muvozanatni tiklashdan iborat», deb aytilgan. *Ibn Sino* ham mizoj tushunchasini unsurlar bilan bog'lagan va mizojni unsurlardan kelib chiqqan xususiyat deb bilgan. *Mizoj va rutubatlar nazariyasi*, ayniqsa, Sharq tibbiyotida uzoq vaqt hukm surdi.

Tarixchi olim **A.A.Qodirov** (2005) fikricha, bu vaziyat kasalliklar sababini tajriba yo'llari bilan o'rganishni orqaga surib yubordi. Yevropa olimlari bu nazariyalarning istiqbolsiz ekanligini payqab, XVII asrdayoq undan voz kechdilar va tibbiyotda tajriba usulini qo'llab, katta muvaffaqiyatlarga erishdilar. Sharq tibbiyoti esa, boshqa aniq fanlar (fizika, matematika) singari orqada qolib ketdi. G'arb olimlari aniq fanlar yutuqlaridan foydalanib, **Ibn Sino** kabi olimlarning ishlarini aynan tajriba yo'li bilan isbotlab, katta yutuqlarga erishdilar. **Ibn Sino** ba'zi odamlarning beixtiyor o'zlarida kasallik belgilarini paydo qilishi va undan aziyat chekib yurishlarini aytib o'tganligi olimlarda katta qiziqish uyg'otgan. Hozirgi zamonda nevrozning ayrim turlari mutafakkir aytgandek rivojlanadi. **Ibn Sino** shunday degan edi: «Barcha ruhiy kuchlarning manbai va ta'sir qiladigan joyi asabdir, uni ortiqcha zo'riqtirish turli kasalliklarga olib keladi.

«*Bosh miya butun organizm faoliyatini boshqaradi va ruhiyat manbai hisoblanadi*». **Ibn Sino** risolalarida asab markazlari ichki a'zoldan maxsus uzun tolalar orqali ma'lumot olib turishi va ularning faoliyatini boshqarishi haqidagi ma'lumotlarni uchratamiz. Fikrimizcha, **Ibn Sinoning** tana va ruhiyatning yagonaligi haqidagi qarashlari hozirgi kunda zamonaviy tibbiyot yutuqlari sababli to'la tasdiqlanib, psixosomatik tibbiyot deb ataluvchi fanga asos soldi.

Ibn Sino «*Xotira buzilishi bosh miyaning orqa qismi, tafakkur buzilishi miyaning o'rta qismi, idrok buzilishi esa miya qorinchalari zararlanishi bilan bog'liq*», deb fikr yuritgan. U *depressiya, epilepsiya, ong buzilishlari, gallyusinatsiya, alahsirash, tafakkur va xotira buzilishlari* haqida ko'p yozgan hamda ularning turlarini ajratib o'rgangan.

Sharqlik yana bir buyuk alloma **Ismoil Jurjoniy** (1042–1136) ham bizga katta meros qoldirdi. U Xorazmda yashab ijod qiladi va tibbiyotga oid bir qancha asarlar yozdi. Ulardan eng mashhurlari «*Ibn Sino haqida so'z*», «*Xorazmshoh xazinasi*» va «*Xastaliklarni aniqlash usullari*»dir. Bu asarlar ichida «*Xorazmshoh xazinasi*» **Jurjoniyga** katta shuhrat keltirdi. Tarixchilar bu asarni **Ibn Sinoning** «*Tib qonunlari*» asariga mohiyatan yaqin qo'yganlar. Bu kitob 10 qismdan iborat bo'lib, unda tibbiyot va bemorlar psixologiyasiga bag'ishlangan bir qancha fikrlar bayon qilingan.

Qadimgi Sharqda ilm-fan va tibbiyot gurkiragan bo'lsa, Yevropa mamlakatlari fanida turg'unlik hukmron edi. Yevropa fanidagi turg'unlik ayniqsa, V–XV asrlarga to'g'ri kelgan (deyarli ming yil). XVI asrdan boshlab, Yevropada aniq fanlar rivojlana boshladi va tibbiyotda ham buyuk kashfiyotlar qilindi. Shuning uchun ham XVI–XVII asrlar Yevropada Uyg'onish davri deb ataladi. Bu davrda biologiya va fiziologiya sohasida buyuk olimlar yetishib chiqdi (A. Vezaliy (1514–1564), V. Xarvey (1578–1657) va boshqalar). A. Vezaliy (1543) bosh miyani ochib o'rganib, o'zining dastlabki xulosalarini chop etadi va «*Ruhiy jarayonlar miya suyuqliklari bo'ylab oqadi*», degan fikrni ilgari suradi.

Miya haqidagi qarashlar o'zgarishiga va umuman olganda, psixologiya va fiziologiya fani rivojlanishiga fransuz mutafakkiri **Rene Dekart** (1596–1650) kashfiyotlari katta turtki bo'ldi. U organizm bilan muhit orasidagi reflektor munosabatlarni o'rgandi va ruhiy faoliyatning fiziologik asoslarini isbotlashga intildi. **Dekart** «*Yurak qontomir faoliyati mexanika qonunlariga bo'ysungan holda boshqarilib turadi*», degan fikrni o'rtaga tashladi. Hayvonlar xulqatvori, odamning harakat faoliyati reflektor tarzda, mushaklar harakati esa tashqi ruhiy ta'sirlarsiz, ya'ni asab tolalari orqali boshqarilib turishi, organizmda kechadigan fiziologik jarayonlar ruhga bog'liq emasligini o'z tajribalarida isbotlab berdi. **Dekart** sezgi va hissiyotning qanday yuzaga kelishini tushuntirib, «*Ongli ruhni*» tanadan chiqarib tashlab bo'lmaydi va u faqat odamga taalluqlidir», deydi.

Shunday qilib, **Dekart** sezgi a'zolarining ta'sirlanishi va mushaklarning javob reaksiyasi orasidagi bog'liqlikni o'rganib, reflektor yoy haqidagi ta'limotga asos soldi. Chexiyalik atoqli olim, fiziolog **I. Proxazka** (1749–1820) **Dekart** ta'limotiga asoslangan holda fanga «refleks» (aks ettirish) degan tushunchani kiritdi. **I. Proxazka** reflektor yoy tuzilishini ta'riflab bergan. U oliy nerv faoliyati va ruhiy faoliyat reflektor tarzda boshqarilishini yanada chuqur o'rgandi. Afsuski, o'sha paytdagi ilmfanning rivojlanish darajasi reflekslar haqidagi ta'limotni tadqiqotlar asosida to'la isbotlab berishga qodir emas edi. Bosh miya faoliyatini reflektor mexanizmlarga bog'lab tushuntirib berish imkoniyatlari yo'q edi. Shuning uchun ruhiy faoliyat asab tizimining fiziologik faoliyatidan ayri holda o'rganildi. Buning natijasida odam organizmida tana va ruh birbiriga bog'liq bo'lmagan narsalar, deb hisoblandi.

Avstriyalik vrach va anatom **Frans Gall** (1758– 1828) odam miyasi tuzilishini o'rganib, bosh miyaning *frenologik* xaritasini yaratdi. U birinchilardan bo'lib bosh miya katta yarim sharining kulrang va oq moddasini birbiriga bog'liq bo'lgan alohida tuzilmalar degan g'oya ga asoslandi. **F. Gall** bosh miya po'stlog'ida 40 ga yaqin ruhiy funktsiya markazini joylashtirdi va ularning faoliyatini bosh miya pushtalari (bo'rtiklari) bilan bog'ladi.

Olim harakat, ko'ruv, eshituv va sezgi markazlari bilan birgalikda miyada xotira, tafakkur, sevgi, kamtarlik, donolik, ayyorlik markazlarini ham joylashtirdi. Uning fikricha, yuqori qobiliyatli odamlarning miyasidagi bo'rtiklar kuchli rivojlangan va, aksincha, kimning tafakkuri past bo'lsa, uning miyasi silliq bo'ladi. XIX asrning o'rtalarida psixologiya rivojlanishiga bu sohadagi katta o'zgarishlar sabab bo'ldi. Bu davrda gipnoz haqida ta'limot yaratildi va **Mesmer** uning asoschisi hisoblanadi. *Gipnoz* tushunchasini 1843yili angliyalik jarroh **Jejms Bred** taklif qilgan. **Mesmer** gipnozda kuzatiladigan hodisalarni «magnetizm» bilan bog'lagan. Klinik psixologiyaning shakllanishiga hisob nuqtasi sifatida, mashhur tabib Gippokratning quyidagi da'vatini olish mumkin: «*Kasallikni emas, balki bemorni davolash lozim.*» Bu da'vat klinik yondashuvning asosiy mohiyatini belgilab bergan bo'lsa-da, klinik psixologiyaning mustaqil fan sifatida vujudga kelishigacha necha asrlar o'tgan. Ilk ta'rif va asarlar. Klinik (yoki tibbiy) psixologiya sohasidagi birinchi nazariy ish sifatida **R. Lotse** (R. Lotze) tomonidan 1852 yilda Germaniyada chop etilgan «*Meditinskaya psixologiya*» kitobini hisoblash mumkin. Bu asarda tibbiy amaliyot va psixologiya o'rtasidagi bog'liqlik haqida fikr yuritilgan. Terminning ilk qo'llanilishi, Germaniya va AQShda ko'zga tashlanadi. «Klinik psixologiya» atamasi Germaniyada ilmiy va amaliy muomalaga sekin astalik bilan 1946 yili kirib keladi. Shu yili **E. Xellpach** (Hellpach) tomonidan chop etilgan «*Klinicheskaya psixologiya*» kitobi sog'liqni saqlashda psixologiyaning ahamiyatini tushuntirgan va atamaning keng tarqalishiga sabab bo'lgan. Klinik psixologiyaning tarixiy ildizlari Gippokrat zamoniga borib taqalsa-da, fan sifatidagi shakllanishi XIX asr o'rtasi va XX asr boshlariga to'g'ri keladi. Germaniya va AQShdagi ilk tadqiqotlar va amaliy faoliyatlar klinik psixologiyaning fan sifatidagi maqomini belgilab beradi. Undan

buyon klinik psixologiya faqat psixik buzilishlar emas, balki shaxs, uning holati va sogʻligʻiga butunlay yondashuvni talab qiluvchi integral sohaga aylangan. Baʼzi mualliflar (R. Bastine va boshqalar) Uitmerni klinik psixologiyani boshlanishida **E. Krepelin va Z. Freyd** ham turgan deb hisoblashadi. **Ular Uitmerni** asoschi, **Krepelinni** esa klinik psixologiyani otasi deb ataydilar. Sirotkin (2004) tomonidan berilgan boshqa bir nuqtai nazar ham mavjud: klinik psixologiyani asoschilari fransuz psixiatrlari va psixologlari boʻlgan; uning ideologiyasini T. Ribo va I. Ten ishlab chiqqan, empirik tadqiqotlar bilan esa parijlik nevropatolog J.-M. Sharko va uning shogirdlari — **A. Bine, P. Jane, Sh. Rishe** va boshqalar shugʻullanishgan. Xuddi shunday fikrni Klod-M. Prevo (2005) ham ilgari suradi: «Per Jane, Salpetrieri klinikasida ishlab yurgan paytda, allaqachon ushbu termini («klinik psixologiya» — G.Z.) qoʻllagan, jumladan, “Nevrozlar va majburlovchi gʻoyalari” nomli kitobining II jildining boshida, 1897 yil bilan sanalangan, 1898 yilda esa quyidagi shaklda chop etilishi kerak boʻlgan: “Eksperimental psixologiyani tibbiyotga tatbiq etish, klinik psixologiyadagi tadqiqotlar”. 1901 yili Valentin “Klinik va davolovchi psixologiya jurnali” (“Revue de psychologie clinique et therapeutique”) uchun “Klinik va terapevtik psixologiya sohasi toʻgʻrisida” nomli maqola yozgan va unda shunday degan: “Har bir daqiqa biz normal psixologiya bilan toʻqnash kelamiz va, agar adashmasam, bu klinik va terapevtik psixologiyani eng real ustunligidir” (iqtibos: Klod-M. Prevo, 2005. 34—35-betlar). Biz «*klinik psixologiya*» tushunchasi ostida bugun tushunilayotgan sohaning bevosita «asoschilarini» aniq va ishonch bilan belgilash qiyin, degan nuqtai nazarga amal qilamiz (ular juda koʻp va turli geografik hududlardan). Shuning uchun, ehtimol, toʻgʻriroq yoʻl — klinik psixologiyani psixologiya sohasi sifatida shakllanishi uchun muayyan shart-sharoitlarni yaratgan shaxslar haqida soʻz yuritishdir (Vundt, Sharko, Korsakov, Jeyms va boshqalar); shuningdek, ularning umumiy psixologik va boshqa ilmiy gʻoyalari orqali uning ilmiy va amaliy sohasi sifatida rivojlanishiga bilvosita turtki bergan shaxslar haqida ham (Sechenov, Pavlov, Xoll, Vygotskiy, Uotson va boshqalar); va, albatta, klinik psixologiyani paydo boʻlishi va rivojlanishiga aniq hissa qoʻshgan, muayyan anʼanalarni shakllantirganlar haqida ham gapirish lozim: institutsional anʼana (Uitmer, Krepelin, Ayzenk, Korsakov, Bexterev, Lange va boshqalar), psixometrik anʼana (Kettell, Galton, Bine va boshqalar), psixodinamik anʼana (Freyd, Yung, Zeygarnik, Myasishchev), intervension anʼana (Myunsterberg, Jane, Freyd, Bexterev, Rodjers, Volpe). Albatta, zamonaviy klinik psixologiyani rivojlanishiga qoʻshilgan hissalarini geografik nuqtai nazardan, shaxslarga bogʻliq holda yoki yoʻnalishlar nuqtai nazaridan baholash mumkin. Biz esa klinik psixologiya tarixini, garchi qisqacha boʻlsa-da, asosan yuqorida qayd etilgan anʼanalarda doirasida yoritamiz. Shubhasiz, klinik psixologiyani tarixi yozilishi kerak boʻlgan davr keldi. Buni tushunish uchun klinik psixologiyani rivojlanish yoʻli nima uchun murakkab va toʻgʻridan-toʻgʻri emasligi, nega klinik psixologlar tarixi bilan bogʻliqlikdan ajralgan holda rivojlangani haqida fikr yuritish zarur (Watson, 1953). Bu ayniqsa shundan dalolat beradiki, nafaqat xorijda, balki

yurtimizda ham bir necha yillardan beri aynan klinik psixologlarni tayyorlash amaliyoti yo‘lga qo‘yilmoqda. Shu bilan birga, klinik psixologiya tarixi bo‘yicha o‘quv qo‘llanmalar mavjud emas, shu sohada kadr tayyorlash Davlat standartida bu fan bo‘yicha asosiy kurs nazarda tutilmagan. Klinik psixologiya (patopsixologiya, tibbiy psixologiya) tarixi bo‘yicha ayrim o‘quv qo‘llanmalarda (masalan, Zeygarnik, 1999; Karvasarskiy, 2002, Ibodullaev) faqat qisqacha tarixiy ma’lumotlar keltirilgan.

2.2. Klinik psixologiya rivojlanish tarixi an’analari

Institutsional an’ana. Stenli Xoll Amerika psixologiyasida bolalar psixologiyasi va pedagogika sohalariga yo‘nalish berish orqali inqilob qilishga intilgan bir paytda, **Kettell** psixologik metodlardan aqliy qobiliyatlarni baholashda foydalangan. Mana shu jarayonda, **M.-K. Kettell va V. Vundtning** shogirdlaridan biri bo‘lgan **Laytner Uitmer** psixologik tadqiqot metodlarini bolalardagi nomuntazam xulq-atvorni aniqlash va davolash uchun qo‘lladi. **Vundt** tomonidan zamonaviy psixologiyaga asos solinganidan atigi 17 yil o‘tgach, uning sobiq shogirdi **L. Uitmer** (1867–1956) psixologiyani yana bir amaliyot sohasida — anomal xulq-atvorga tashxis qo‘yish va uni davolashda — qo‘llab, o‘z ustozining qarashlariga aniq zid bo‘lgan yondashuvni namoyon etadi. 1896 yilda **Laytner Uitmer**, Pensilvaniya universitetida professorlik lavozimida **M. K. Kettellni** almashtirganidan so‘ng, dunyodagi birinchi psixologik klinikani ochdi. **Uitmer** — ta’riflarga ko‘ra, «*umidsiz darajada janjalkash va yopiq shaxs*», «*o‘zini ko‘rsatishga o‘ch bo‘lgan pakana*» — klinik psixologiya deb atagan yo‘nalishni rivojlantira boshladi. **Uitmer** o‘z klinikasida amalga oshirgan faoliyat, bugungi kunda «klinik psixologiya» tushunchasiga kiritiladigan ma’noda klinik psixologiya emas edi. Uning ishi, asosan, *maktab o‘quvchilarida aqliy rivojlanishdagi og‘ishlarni aniqlash va davolashga* bag‘ishlangan edi. Hozirgi klinik psixologiya esa turli yoshdagi odamlarda uchraydigan yengildan tortib og‘ir shakldagi psixologik buzilishlarni qamrab oladi. Garchi **Uitmer** klinik psixologiya rivojiga katta hissa qo‘shgan va ushbu atamani qonuniy ravishda ishlatgan bo‘lsa-da, bu yo‘nalish aslida u faoliyat yuritgan sohadan ancha kengroqdir. U funksionalizm yo‘nalishining namoyondasi sifatida, zamonaviy fan insonlarning ongini o‘rganish emas, balki ularning muammolarini hal etishga yordam berish bilan shug‘ullanishi kerak, deb hisoblagan.

Hayot sahifalari. Laytner Uitmer 1867 yili Pensilvaniya shtatidagi Filadelfiya shahrida, ta’lim qadriga ishongan boy dorixonachi oilasida tug‘ilgan. U 1888 yili Pensilvaniya universitetini tamomlagan, so‘ng bir muddat Filadelfiyadagi xususiy maktabda tarix va ingliz tilidan dars bergan. Keyinchalik universitetga qaytib, yuridik fakultetga o‘qishga kirgan. Aniqki, **Uitmer** dastlab psixologiya sohasidagi karera haqida o‘ylamagan, biroq noma’lum sabablarga ko‘ra u **Kettell** rahbarligida eksperimental psixologiyani o‘rgangan va psixologiya fakultetida assistentlik lavozimini olgan. **Uitmer** reaksiya vaqtidagi individual farqlarni tadqiq qilishni boshlagan; uning umidlari Pensilvaniya universitetida doktorlik

darajasini olishga qaratilgan edi. Ammo **Kettell** unga Germaniyaga borib, ta'limni u yerda davom ettirishni tavsiya qildi. Germaniyada u **Vundt** va **Kyulpe** rahbarligida ta'lim oldi. Biroq Uitmerni Vundtning yondashuvi ilhomlantirmagan va keyinchalik u Leypsigda diplomdan boshqa hech narsa olmaganini aytgan. **Vundt** Uitmerni **Kettell** bilan boshlagan javob reaksiyasi vaqti bo'yicha tadqiqotlarini davom ettirishga ruxsat bermagan, uni ong elementlarini introspektiv tadqiq etishga majbur qilgan. **Uitmer** **Vundt**ning tadqiqot usulini tanqid qilgan va uni «shubhali» deb atagan. U **Vundt** **Titchener**ni bir necha bor kuzatuvlarni takrorlashga majburlaganini, chunki **Titchener** olgan natijalar **Vundt** kutganidek chiqmaganini ta'riflab bergan. Shunga qaramay, **Uitmer** doktorlik darajasini oladi va 1892 yil yozida Pensilvaniya shtat universitetida yangi lavozimni egallash uchun vataniga qaytadi. O'sha yili **S. Xoll** Amerika psixologik assotsiatsiyasini tashkil etdi va **Uitmer** uning a'zolaridan biriga aylandi. Shu davrda Amerika psixologiyasida funksional va amaliyotga yo'naltirilgan ruh ustunlik qila boshlaydi.

Ikki yil davomida **Uitmer** eksperimental psixologiya bilan shug'ullandi — individual farqlar va og'riq psixologiyasi muammolari bo'yicha tadqiqotlar o'tkazdi, maqolalar chop etdi va doimiy ravishda psixologiyani xulq-atvordagi og'ishlarni aniqlashda qo'llash imkoniyatini izladi. Bunday imkoniyat 1896 yil mart oyida yuz berdi. Gap shundaki, ko'plab shtatlarning ta'lim idoralarida pedagogika bo'limlari tashkil etilgan edi (o'qitish prinsiplari va metodikalarini ishlab chiqish uchun), va psixologlarga ushbu bo'lim xodimlari hamda davlat maktablarida chuqurlashtirilgan dasturlar asosida ishlovchi o'qituvchilar uchun maxsus kurslar o'qish taklif etildi. Bundan tashqari, psixologlar o'z laboratoriya tadqiqot dasturlarini qayta ko'rib chiqishga majbur bo'lishdi — maqsad imkon qadar ko'proq malakali maktab psixologlarini tayyorlash edi. Psixologiya fakultetlari talabalar soni keskin ko'paygani uchun bu jarayondan ancha foyda ko'rishdi, chunki o'sha paytda (hozir ham shunday) fakultet byudjeti ko'p jihatdan talabalar soniga bog'liq edi. 1894 yili Pensilvaniya universiteti davlat maktablari o'qituvchilari uchun kurslar tashkil etdi, va bu kurslarda Uitmer leksiylar o'qir edi. Bir kuni, kurslar tashkil etilganiga ikki yil to'lganidan so'ng, tinglovchilardan biri Uitmerni murojaat qilib, 14 yoshli o'quvchisi haqida maslahat so'radi. Bu bola kalligrafiyada (chiroyli yozishda) qiynalardi, garchi boshqa fanlardan yaxshi o'qisa ham. Psixologlar bu muammoni hal etishda yordam bera oladimi? «Menimcha, agar psixologiyaning qadri bo'lsa, u aynan shunday rivojlanishdagi orqada qolish hollarida yordam bera olishi kerak», — deb yozgan edi keyinchalik **Uitmer** (Reynolds, 1987. R. 853). Bir necha oy mobaynida **Uitmer** aqliy rivojlanishida orqada qolgan, ko'zi ojiz va ruhiy kasal bolalarni davolash usullari bo'yicha kurs tayyorlaydi hamda «Pediatriya» jurnalida «Psixologiyada amaliy ish» nomli maqola chop etadi. Amerika psixologik assotsiatsiyasining navbatdagi yillik anjumanida **Uitmer** ma'ruza qildi va unda ilk bor «klinik psixologiya» atamasini qo'llaydi. O'sha yiliyoq u kollejda klinik psixologiya bo'yicha birinchi kursni o'qishni amalga oshiradi. 1907 yili **Uitmer** «*Psixologik klinika*» («Psychological Clinic») nomli jurnalni tashkil etdi.

Bu jurnal uzoq yillar davomida ushbu muammoga bag‘ishlangan yagona nashr bo‘lib keldi va **Uitmer** unga 29 yil davomida muharrirlik qildi. Jurnalning birinchi sonida **Uitmer** psixologiya uchun yangi ish sohasini — «klinik psixologiya» nomli yangi ixtisosni taklif etdi. Keyingi yili u aqliy va ruhiy rivojlanishida muammolarga ega bolalar uchun internat-maktab tashkil etdi, 1909 yilda esa uning klinikasi universitetdan ajralib chiqib, mustaqil muassasaga aylandi. Ortidan **Uitmer** universitet qoshida klinika tashkil etdi. Bu klinika avval boshda vaqtinchalik deb ko‘zda tutilgan edi, biroq keyinchalik u **Uitmer** hayotining asosiy ishlaridan biriga aylandi. Uitmer butun umri davomida Pensilvaniya universitetida ishlaydi — u yerda dars beradi, klinik psixologiya bo‘yicha o‘z tizimini rivojlantirdi va amaliyotga joriy etdi. U 1937 yili nafakaga chiqdi, 1956 yili esa 89 yoshida vafot etadi.

Psixologik klinika. Dunyodagi birinchi klinik psixolog sifatida **Uitmer** o‘z faoliyatida suyanish mumkin bo‘lgan hech qanday namuna yoki tajribaga ega emas edi. U yakka holda ish olib borgani uchun tashxis qo‘yish va davolashning o‘z metodlarini ishlab chiqdi. Amaliy faoliyatidagi birinchi holat — yozishda qiyinchiliklarga duch kelgan bola — bilan ishlash paytida Uitmer bolaning aqliy rivojlanish darajasi, mulohaza qilish va o‘qish qobiliyatlarini tadqiq qildi va o‘qish aynan bola uchun eng katta muammo ekanligini aniqladi. To‘liq tekshiruvlar o‘tkazgan **Uitmer** bolada vizual-verbal amneziya deb ataladigan — ya’ni ko‘rish va til orqali ma’lumotni eslab qolish muammosi borligini aniqlaydi. Masalan, bola geometrik shakllarni yodlab qolardi, lekin so‘zlarni eslab qololmasdi. Uitmer maxsus intensiv tuzatuvchi dastur ishlab chiqdi, va bu muayyan ijobiy natijalar berdi, ammo bola baribir ravon o‘qish va yozishni to‘liq o‘zlashtira olmadi. Turli maktab o‘qituvchilari **Uitmerning** yangi klinikasiga rivojlanish buzilishlari va o‘qishdagi muammolar — jumladan giperaktivlik, nutq va harakat koordinatsiyasidagi buzilishlar — bilan kurashayotgan bolalarni yuborib turishardi. Bu sohada ma’lum tajriba to‘plaganidan so‘ng, **Uitmer** tashxis va davolash bo‘yicha standart dasturlarni ishlab chiqdi. U klinika shtatiga faqat shifokorlargina emas, balki ijtimoiy xodimlar va psixologlarni ham qabul qildi. Uitmer tushunar ediki, bolalardagi psixologik faoliyatga jismoniy muammolar ham to‘sqinlik qilishi mumkin. Shu sababli klinika shifokorlari bolalarni har tomonlama tekshirib, ulardagi muammolar yomon ovqatlanish yoki ko‘rish va eshitish nuqsonlari bilan bog‘liq emasligini aniqlashga harakat qildi. Psixologlar bemorlarni testlar yordamida baholar, ijtimoiy xodimlar esa tibbiy tarixlarni tayyorlar va bolalar oilasi haqida ma’lumot to‘plardi. Dastlab bolalar bilan ishni boshlaganida, **Uitmer** xulq-atvordagi og‘ishlar va ta’limdagi qiyinchiliklar, asosan, irsiy omillar bilan bog‘liq deb hisoblardi. Biroq klinik tajribalar ortishi bilan u shunday xulosaga keldiki, bola rivojlanishiga atrof-muhit omillari katta ta’sir ko‘rsatadi. Hozirgi kundagi ma’naviy-ruhiy rivojlantiruvchi dasturlardan ancha oldin, Uitmer bolaning hayotining ilk kunlaridanoq unga turli hissiy tajribalarni ta’minlash zarurligini ta’kidlagan. U bola xulq-atvori uni o‘rab turgan odamlar bilan munosabatlariga bevosita bog‘liq, deb hisoblardi va agar uydagi hamda maktabdagi muhit yaxshilansa, bola xulq-atvori ham shunga mos

ravishda yaxshilanishini ta'kidlagan. Natijada **Uitmerning** mana shunday namunasidan ko'plab amerikalik psixologlar ibrat oladilar. 1914 yilga kelib, AQShda deyarli yigirmaga yaqin psixologik klinikalar faoliyat yuritardi, ularning ko'pchiligi aynan **Uitmer** klinikasi namunasida tashkil etilgan edi. Bunday yondashuvni **Uitmerning** sobiq talabalari ham targ'ib qilishadi va ular keyingi avlod psixologlarini klinik ishning asosiy prinsiplariga o'rgatishga xizmat qiladi. Uitmer maxsus ta'lim sohasida ham ta'sirli shaxs bo'lib, u ushbu yo'nalishdagi mutaxassislarning butun bir avlodini tayyorlaydi. Uning shogirdlaridan biri — **Morris Viteles** — **Uitmerning** ishini yanada kengaytirib, bolalarni faqat davolash emas, balki ularni kasbiy ko'nikmalarga ham o'rgatadigan klinika tashkil etgan. Bu AQShdagi bunday turdagi birinchi muassasa edi. Uitmerning shogirdlari uning klinik yondashuvini kattalardagi buzilishlarni tashxislash va davolashda ham qo'llashadi. Umuman olganda, **Uitmerning** metodlari nazariy emas, amaliyotga yo'naltirilgan bo'lib, shu sababdan u bugungi tushunchadagi terapevtik yondashuvni rivojlantirish yoki metodologik asoslarni aniq belgilashga erishmagan. Shu bilan birga, uning klinik psixologiya rivojiga qo'shgan sezilarli hissasi shubhasizdir. Avvalo, u ilmiy psixologiya insonlarga ularning muammo va buzilishlarini hal etishda yordam bera oladigan amaliy soha bo'lishi mumkinligini birinchi bo'lib anglagan olimlardan hisoblanadi. Shuningdek, u psixologik yordam amaliyotini ilmiy tadqiqot bilan bog'lash zarurligini ta'kidlagan. U o'z faoliyati — psixologik klinika tashkil etishi, ortogenetik usullar bo'yicha mutaxassislarni tizimli tayyorlashi va maxsus jurnal chop etishi orqali — klinik psixologiyaning fan va kasb sifatida rivojlanishi uchun muhim asos yaratadi.

Rostdan ham, **Uitmerning** “*tarixiy ahamiyatga molik ishi*” klinik psixologiya va umuman psixologiya tarixida biroz chetda, yakkalikda qoladi. Buning sabablari quyidagicha deb hisoblanadi: Birinchidan, **Uitmer** Birinchi jahon urushi tugagunicha ushbu sohada yuz berayotgan o'zgarishlarni e'tiborga olmagan. Masalan, u yangi psixodiagnostik metodlar (testlar)ning klinik amaliyotda qo'llanilishida ishtirok etmagan, shuningdek, 1907 yildan boshlab psixiatrlar bilan hamkorlikda kattalar o'rtasida o'tkazila boshlangan klinik tadqiqotlarda ham faollik ko'rsatmaydi. Biroq eng muhimi — **Uitmer** o'z faoliyatida (jismoniy va aqliy, ya'ni intellektual buzilishlardan tashqari) xulq-atvor va shaxsiyat buzilishlari bilan shug'ullanish zarurligini yoki anglamagan, yoki inobatga olmagan bo'lishi mumkin. **R. Uotson** (Watson, 1953) u haqida shunday xulosaga keladi: **Laytner Uitmer** — *bu ko'proq tarix, undan keyin qilingan ishlar esa — bu allaqachon zamonaviylikdir.*

Klinik psixologiyaning haqli ravishda «*otalaridan*» biri deb nemis **psixiatri Emil Krepelin** (Emil Kraepelin, 1885–1926) hisoblanadi. **V. Vundtning** shogirdi bo'lgan **Krepelin** Geydelberg, Myunxen va Derpt (hozirgi Tartu) shaharlarida amaliy faoliyat olib borgan va klinik psixologiyaning bir nechta muhim yo'nalishlariga asos solgan: «*Klinikada psixologiya*», «*Farmakopsixologiya*» va «*Eksperimental psixopatologiya*». Uning eng muhim yutuqlaridan biri — ruhiy

buzilishlar va ularning tizimli tasnifiga oid ta'limotni yaratish bo'lib, bu ta'limot hozirgi vaqtgacha nozologik (kasalliklar toifasi) klassifikatsiya tizimlariga ta'sir ko'rsatib kelmoqda. **Krepelin** nisbatan erta 1895 yildayoq, psixiatriya uchun muhim bo'lgan psixologik fenomenlarni tadqiq qilishni boshlagan (masalan, «Psixiatriyada psixologik eksperiment...»). U qo'rquv ta'siri, kutilmagan stimullar ta'siri va kutilgan natija kabi jarayonlarni o'rganishga uringan, shuningdek, uxlash chuqurligi va inson ish ritmi bo'yicha empirik tadqiqotlar olib borgan. U aniqlangan ma'lumotlarni psixiatriyadagi muammolarni tushuntirish va hal qilishda qo'llashni maqsad qilgan. Metodologiya jihatidan u **Vundt** maktabida o'rgangan eksperimental-psixologik yondashuvni eng maqbul deb bilgan. Uning nazarida eksperimental metod o'sha davrda keng tarqalgan faraziy va spekulativ psixopatologiyaga nisbatan ilmiy tadqiqotning haqiqiy dasturi edi. **Krepelin** bu sohani «kuchli tasdiqlar» va «chuqur kashfiyotlar» uchun emas, balki empirik tadqiqot uchun saqlash kerak, deb hisoblardi.

Krepelin tomonidan asos solingan eksperimental psixopatologik an'ana bugungi kungacha saqlanib kelmoqda. Keyinchalik u, garchi endi **Krepelinning** bevosita tashabbusi bilan bo'lmas-da, bixevioral terapiyada davom ettirildi, chunki bixevioral terapiya alohida bemor bilan nazorat qilinadigan eksperimental terapiya usulini anglatadi (Yates, 1970). **Krepelin** o'zining farmakopsixologik ishlarida zaharlanish, alkogol, narkotiklar, choy, tamaki va boshqa moddalarning psixik jarayonlarga ta'sirini aniqlagan. Hozirgi zamon farmakopsixologiyasi ham xuddi shu yo'nalishda rivojlanmoqda. Uning ruhiy buzilishlar to'g'risidagi ta'limotiga keladigan bo'lsak, **Krepelin** 1899 yili yaratgan psixik buzilishlar klassifikatsiyasi keyinchalik barcha tizimlar — shu jumladan XKK-9 (Xalqaro kasalliklar klassifikatsiyasi) — uchun ham poydevor bo'lib kelmoqda.

E. **Krepelin** o'z ilmiy ishlari bilan nafaqat psixiatriyaga, balki klinik psixologiya tuzilmasining shakllanishiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. U tomonidan asos solingan an'analar bugungi kunda ham klinik psixologiya amaliyotida keng uchrab turibdi. Ular orasida eng muhimlaridan biri, shubhasiz, eksperimental metodni klinik psixologiyaga joriy etishdir. **Krepelinning** Derptdagi (hozirgi Tartu) faoliyati davrida psixologik tadqiqotlar ham muhim o'rin tutadi. Uning rahbarligida Derptda yozilgan dissertatsiyalarning barchasi tibbiyot fanlari doktori (yoki nomzodi) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan bo'lib, ularning faqat bittasi to'g'ridan-to'g'ri klinik mavzuda bo'lgan, qolgan barchasi esa eksperimental-psixologik yo'nalishda edi. Keyinchalik **Krepelinning** o'zi ham Derpt davrini psixiatriyada eksperimental-psixologik metodlarni qo'llash masalasini ishlab chiqishda juda muhim bosqich sifatida ta'kidlab o'tgan. Ta'kidlash lozimki, Derpt universitetida **Krepelin** rahbarligi ostida bajarilgan barcha eksperimental-psixologik ishlar uchun umumiy bo'lgan jihatlar mavjud (Rogovin, 1974).

Birinchi navbatda, **Krepelin** eksperimentlarda juda faol ishtirok etgan: u faqatgina tajribani rejalashtirishga rahbarlik qilmasdan, balki shaxsan o'zi ham

sinovchi sifatida ishtirok etgan va tajriba uchun zarur bo'lgan apparatlar konstruksiyasini ishlab chiqqan. Ikkinchidan, sinovchilar soni ancha kam bo'lgan — asosan **Krepelinning** aspirantlari o'z davrasida tajriba o'tkazganlar. Ya'ni, bir tajriba seriyasida tadqiqotchi bo'lgan shaxs boshqa seriyada sinovchi sifatida qatnashgan. Tajribada ishlatilgan uskunalar, odatda, murakkab mexanik moslamalar bo'lib, kerakli effekt tishli uzatmalar, tortishuvchi mexanizmlar va shunga o'xshash vositalar orqali amalga oshirilgan. Ortidan ko'p yillar o'tganiga qaramay, bu dissertatsiyalar hozir ham taassurot uyg'otadi: ulardagi vazifalar aniq qo'yilgan, matn qisqa va mazmunli, natijalarning izohi esa qat'iy va ilmiy tarzda berilgan. Olingan natijalar umumiy va patologiyaga oid psixologiya uchun qimmatli hissa bo'lib qolmoqda. Metodikalarga kelsak (uskunalarni aytmasdan ham), ular bugungi kunda tarixiy ahamiyatga ega bo'lib, so'nggi o'n yilliklarda psixologiyaning qanday taraqqiy etganini yaqqol ko'rsatib beradigan jonli misol hisoblanadi.

Krepelinning patopsixologik yondashuvidagi asosiy yangiliklardan biri shunda ediki, u muayyan faoliyat turlarini ikki xil, tabiatan turlicha usullar bilan amalga oshirish imkoniyati mavjudligidan kelib chiqadi va buni vaqt o'lchovi asosida tadqiq etgan. Birinchi holatda (yuqorida zikr etilgan mualliflar ishlarida kuzatilganidek), bajarilishi kerak bo'lgan harakat (Leistung) oldindan aniq miqdorda belgilanadi; bu holda ish unumdorligi ko'rsatkichi harakatni bajarishga ketgan umumiy vaqtga teskari proporsional bo'ladi. Ikkinchi holatda esa muayyan vaqt davomida faoliyat amalga oshiriladi va belgilangan vaqt intervallarida qancha topshiriq bajarilgani qayd etiladi. Ana shu ko'rsatkich tadqiq etilayotgan faoliyatning reprezentativ mezoni sifatida qabul qilinadi. Aynan shu ikkinchi usul **Krepelin** tadqiqotlarida asosiy bo'lgan — bu esa uni ish faoliyati davomiyligi qiyasi, ya'ni umuriy ish qobiliyati tushunchasi bilan bog'lagan. Bu mavzular keyinchalik **Krepelinning** psixologik qiziqishlari markaziga aylanadi. Tadqiqotda e'tibor asosan quyidagilarga qaratilishi kerak edi: harakatlarning mutlaq davomiyligi, ularning o'rtacha o'zgaruvchanligi, mashq orqali natijalarning yaxshilanishi (o'rganish), charchoq va shaxsiy farqlar. Muhim bo'lgan xulosa shundan iboratki, muallifning ta'kidlashicha, umumiy ish qobiliyati tushunchasi eksperimental-psixologik tadqiqotda yakdil holda namoyon bo'lmaydi, balki bir nechta alohida komponentlarga ajraladi. Faqat shu elementlar jamlanmasi orqaligina insonning aqliy (umuriy) ish qobiliyati haqida xolis xulosa chiqarish mumkin bo'ladi.

Psixometrik an'ana. AQShda klinik psixologiya rivojining ilk va asosiy yo'nalishlaridan biri — psixometrik an'ana bo'lgan **Vilyam Xeyli** (William Healy) tomonidan 1909 yili ochilgan «child guidance clinic» (bolalar maslahat klinikasi)da **Bine–Simon** intellektual testi joriy etilgan edi. Bu klinikada Xeylining o'zi psixiatr sifatida ishlagan, shuningdek u bilan birga psixolog **Greys Ferneld** ham faoliyat yuritgan. Bu muassasa psixolog Jeymsning inson tabiatiga qiziqishini umumiy yo'nalish sifatida tanlagan bo'lib, Vundt maktabining qattiq nazariy yoki eksperimental-statistik yo'nalishiga unchalik ergashmagan (Watson,

1953, s. 329). Bu jarayon mutlaqo tabiiy bo'lib, klinik psixologiyaning AQShdagi rivojlanishida psixometrik an'ananing o'rni muhim bo'lganini ko'rsatadi. Qiziqarlisi shundaki, amerikalik klinik psixologiya tarixchilari, xususan **Robert Uotson**, klinik psixologiya tarixini **Laytner Uitmerdan** emas, balki psixometrik an'ana va **J. MakKin Kettell** faoliyatidan boshlaydilar. **Kettell** 1890 yilda «mental test» — aqliy test atamasini ilmiy muomalaga kiritgan. Bu testlar shaxsning individual xususiyatlarini o'rganishga mo'ljallangan bo'lib, bu yo'nalishda uning vatandoshlari — **Torndayk** va **Vudvort**, keyinchalik esa **Terman** va **Yerks** faoliyat yuritgan. Ayniqsa, Birinchi jahon urushi oldidan va u paytda turli testlar, testlar batareyasi ishlab chiqilgan bo'lib, ularning ko'pchiligi keyinchalik klinik psixologiya amaliyotida psixodiagnostik vosita sifatida keng joriy etiladi.

Heyli klinikasiga o'xshash muassasa qariyb 15 yildan so'ng bolalarga yordam ko'rsatish harakati doirasida Ayova shahridagi universitet qoshida **Sishor** (Seashore) tomonidan tashkil etiladi. 1927 yilda Garvard universiteti qoshida **Morton Prins** (Morton Prince) nomidagi psixologik klinika ochildi. Bu klinikaning asosiy farqi akademik va klinik psixologiya o'rtasidagi yaqin hamkorlik edi. Keyinchalik bu klinikaga **Henri A. Myurrey** (Henry A. Murray) rahbarlik qiladi. U proektiv test — TAT (Tematik Appersepsiya Testi) muallifi sifatida tanilgan va u juda yorqin mutaxassislar guruhini to'playdi. Bu guruh tarkibiga **Donald V. MakKinnon**, **Sol Rozensveyg**, **R. Nervitt Senford** va **Robert B. Uayt** kirgan. Ular 1938 yilda "Exploration in Personality" ("Shaxsiyatni tadqiq etish") deb nomlangan ajoyib loyihani amalga oshirganlar. Shu davrda nafaqat psixologik klinikalarda, balki ulardan tashqari joylarda ham klinik psixologlar soni va ular faoliyat yuritadigan sohalar ko'payib borayotgan edi. 1941 yilda Amerika Qo'shma Shtatlari Ikkinchi jahon urushiga kirdi. Bu voqea klinik psixologiyani yirik va jadal rivojlanayotgan amaliy sohaga aylantirishda boshqa hech qanday voqeaga teng kelmaydigan darajada turtki bo'ldi. Armiya klinik psixologlardan harbiylarda yuzaga kelgan emotsional buzilishlarni davolash uchun yuzlab dasturlar tayyorlashni buyurtma qildi. Urushdan keyin ham klinik psixologlarga bo'lgan ehtiyoj yanada ortib bordi. Veteranlar ishlari boshqarmasi (Veterans Administration, VA) turli ruhiy buzilishlardan aziyat chekkan 40 mingdan ortiq urush veteraniga javobgar edi. Bundan tashqari, 3 milliondan ortiq kishi oddiy fuqarolik hayotiga qaytish uchun kasbiy qayta tayyorlash va individual maslahatlarga muhtoj edi. Urushda olgan jarohatlari natijasida jismoniy imkoniyati cheklangan bo'lib qolgan taxminan 315 ming nafar veteranga psixologik yordam kerak edi. Ruhiy sog'liq muammolari bo'yicha professional maslahatchilarga bo'lgan talab ortib borardi va bu talab taklifdan ancha oshib ketgan edi. Bu ehtiyojni qondirishga yordam berish maqsadida Veteranlar boshqarmasi (VA) universitetlarda diplomli psixologlar uchun malaka oshirish dasturlarini moliyalashtiradi va gospital hamda klinikalarda ishlash istagida bo'lgan aspirantlarning o'qish xarajatlarini qoplab beradi. Klinik psixologlar yangi turdagi bemorlar bilan ishlashga majbur bo'lishdi. Agar urushgacha ular asosan ta'lim va muloqotda qiynalayotgan

muammoli bolalar bilan ishlashgan bo'lsalar, urushdan keyingi yillarda kattalarda yuzaga kelayotgan jiddiy emotsional muammolarni aniqlash va davolash bilan shug'ullanishadi. Klinik psixologiya AQShda faqat 1947 yildagina fuqarolik huquqini rasman qo'lga kiritadi. Bugungi kunda AQShda klinik psixologiya — amaliyotga yo'naltirilgan yo'nalishlar orasida eng ommaviylaridan biridir; barcha psixologiya bo'yicha ta'lim olayotgan aspirantlarning uchdan bir qismidan ko'prog'i aynan klinik psixologiya sohasida ixtisoslashmoqda. Klinik psixologlar ruhiy salomatlik markazlarida, maktablarda, xususiy kompaniyalarda faoliyat yuritadilar, shuningdek, shaxsiy amaliyot bilan ham shug'ullanadilar. Amerika Psixologik Assotsiatsiyasining (APA) sakkiz bo'limida yettitasi aynan ruhiy salomatlikning nazariy va amaliy muammolari bilan shug'ullanadi. Uning a'zolarining taxminan 70%i sog'liqni saqlash sohasida ishlaydi. 1995 yilda "Money" (Pul) jurnali psixologiyani XXI asrning eng istiqbolli kasblaridan biri deb e'tirof etib, uni 50 ta kasb orasida to'rtinchi o'ringa qo'ygan edi. Psixologiyada klinik psixologiyaga ham ta'sir ko'rsatgan psixometrik an'ana, birinchi navbatda, **Frensis Galton** nomi bilan bog'liq. Shuningdek, uning mashhur qarindoshi **Charlz Darvin** ham (garchi u psixometrikani emas, balki emotsiyalar va bolalar rivojlanishi haqidagi tadqiqotlari orqali) klinik psixologiya rivojiga o'z hissasini qo'shgan. Bu an'ananing boshqa namoyondalari — **J. MakKinn Kettell** va **Alfred Bine** bo'lib, ular individual farqlarni baholash uchun testlar ishlab chiqib, amaliyotga joriy qilgan birinchi olimlardan hisoblanadi. 1888 yili **Alfred Bine** — Sorbonna universitetidagi eksperimental psixologiya laboratoriyasi direktori — Parij yaqinidagi psixiatriya klinikasining bosh shifokori **Simon** bilan hamkorlikda «Anomal bolalarning aqliy rivojlanish darajasini baholashning yangi usullari» (1905) nomli ocherklarni nashr etadi. Bu asarlar klinik psixodiagnostika sohasining boshlanishi sifatida qaraladi. Shuni ta'kidlash joizki, aynan shu va boshqa psixologik an'analar doirasida ko'plab **Vundt** shogirdlari, xususan, **MakKin Kettell** ham faoliyat olib borgan. Psixometrik an'ana keyingi yillarda ham o'z davomini topdi va ayniqsa, Birinchi va Ikkinchi jahon urushlari davomida yanada kuchaydi. Masalan, Ikkinchi jahon urushida faqat AQShning o'zida 1500 dan ziyod psixologlar (bu umumiy soning 25 foiziga teng) ishtirok etgan bo'lib, ularning ko'pchiligi klinik jamoalar, terapevtik konsiliumlar, ekspert komissiyalari kabi tarkiblarda ishlashgan. U yerda ularga tegishli tashxis va psixologik yordam usullarini qo'llashga to'g'ri kelgan. Ayrim manbalarga ko'ra, urushdan so'ng sobiq harbiy psixologlar klinik sohada ishlashni va klinik usullardan foydalanishni urushdan avvalgi davrga nisbatan uch barobar ko'proq darajada boshlab yuborganlar. Shu munosabat bilan shuni ham eslatib o'tish lozimki, shunga o'xshash holat mahalliy (sovet) psixologlari bilan ham sodir bo'lgan, garchi u bunchalik ommaviy tarzda bo'lmagan, chunki ular soni fojeaviy darajada kam bo'lgan, hatto sanoqli kishi bo'lgan deyish ham mumkin. Ammo aynan shu sanoqli mutaxassislar — **A.R. Luriya, B.F. Zeygarnik, A.V. Zaporojes va V.N. Myasiñev** — o'z mehnatlari orqali jarohatlanganlarga katta yordam ko'rsatdilar. Ularning klinika va gospitallardagi faoliyati natijasida urushdan so'ng klinik psixologiyaning, balki

umuman psixologiya fanining muhim tarkibiy qismlari — neyropsixologiya va patopsixologiya shakllandi. Klinik psixologiyadagi psixometrik an'ananing rivojiga katta hissa qo'shgan olimlardan biri — **Frensis Galton** (Francis Galton, 1822–1911) bo'lib, uning ilmiy izlanishlari asosan inson qobiliyatlarini o'rganishga bag'ishlangan edi. Uning "Irsiy nobop zehnlr" (ingl. Hereditary Genius) nomli fundamental asari 1869 yili nashr etilgan. Qiziqarli tomonlardan biri — uning «Qoramollar va odamlardagi to'dabozlik» nomli maqolasidir. Unda **Galton** inson jamiyatiga xos bo'lgan «to'da instinkti» haqida mulohaza yuritarkan, bu instinkt oldingi davrlarda o'zini oqlagan bo'lsa-da, zamonaviy jamiyatda u zararli ekanini ta'kidlaydi. Unga ko'ra, bu instinktni yengish zarur, shundagina inson zoti ma'naviy va aqliy taraqqiyot yo'liga qadam qo'ya oladi. Bunday taraqqiyot vositasi sifatida u qoramol zotini yaxshilashda qo'llaniladigan usulni — ya'ni sun'iy tanlovni taklif qilgan. Bunday g'oyalar **Galton**da **Charlz Darvinning** «Turlar paydo bo'lishi» asari ta'siri ostida shakllangan. Olimning inson xususiyatlarining merosiyliigi haqidagi birinchi maqolasi — «Irsiy qobiliyat va xarakter» — 1865 yilda nashr etilgan. Ushbu maqoladayoq u keyingi tadqiqotlarida amal qilgan asosiy prinsiplar belgilab qo'yilgan edi. **Galtonning** asosiy e'tiqodi shunda ediki: insonning qobiliyati va umuman barcha psixik xususiyatlari uning jismoniy xususiyatlari kabi irsiy yo'l bilan o'tadi. Bu qarashini asoslash uchun u so'nggi paytlarda psixologiyada juda keng tarqalgan «egizaklar usuli»ni ishlab chiqqan. Ushbu metod orqali u bir urug'li (monozigotik) va ikki urug'li (dizigotik) egizaklarning turli parametrlar bo'yicha o'xshashlik darajasini solishtirib chiqqan. Natijada, **Galton**da shaxs rivojida irsiylik hal qiluvchi rol o'ynaydi, muhit omillari esa ikkinchi darajali ahamiyatga ega, degan ishonch yanada mustahkamlangan.

Qobiliyatning irsiyliyini tan olish **Galton** tafakkurini uning funksiyalarini o'rganish va o'lchash yo'liga — ya'ni psixometrik tadqiqotlarga olib keladi. U psixometrikani inson aqlining faoliyatlarini, masalan, turli shaxslarda reaksiya vaqtini aniqlash kabi, o'lchov va son bilan qamrab olish san'ati deb bilgan. Uning fikricha, *fanning qaysi sohasi bo'lmasin, agar u hodisalarni o'lchov va songa bo'ysundirmasa, u haqiqiy ilm maqomini qo'lga kirita olmaydi*. Uning ana shu so'nggi fikri keyinchalik u Londonda asos solgan biometrik laboratoriyaning shoriga aylangan. Olim olib borgan psixologik tadqiqotlar juda xilma-xil bo'lgan. Uning ayrim kuzatish va tajribalari hech qanday nazariya doirasiga sig'masdi. Masalan, «ser **Galtonning** mashhur sayri» shundaylardan biri edi. Bu tajribaning mohiyati haqiqatan ham o'quvchilik xususiyatga ega. Bir kuni ser **Frensis** o'ziga xos tajriba o'tkazishga qaror qildi. London ko'chalaridagi har kunlik sayriga chiqishdan oldin u o'zini shunday deb ishontirdi: «*Men — nafratli odamman, butun Angliyada mendan nafratlanishadi!*» U bir necha daqiqa shu fikrga to'liq ishondi, bu holat deyarli avtogipnozga teng edi, so'ng har doimgidek sayrga chiqadi. Sayr vaqtida esa quyidagilar sodir bo'ldi: har qadamda u atrofidagilarning nafratli va mensimas nigohlarini his etardi. Ko'pchilik undan yuz o'girar, bir necha bor unga nisbatan haqoratli so'zlar aytildi. Portda esa bir yukchi uni yelkasi bilan shunday urib yubordiki, u g'arq etib ko'cha loyiga

yiqiladi. Hatto hayvonlar ham unga nisbatan dushmanlik qilgandek tuyulaveradi. Yo'lda o'tayotganda bir aravaning oti unga tepib yuboradi va u yana yerga qulaydi. **Galton** bu holatni ko'rgan odamlardan u rahm va tasalli kutadi, ammo ular hayvonni himoya qilishga tushib ketishadi. Natijada, **Galton** o'z tajribasi uni jiddiy oqibatlarga olib kelmasidan oldin uyiga shoshiladi. Bu haqiqiy voqea ko'pgina psixologiya darsliklarida tasvirlangan. Undan ikki muhim xulosa chiqarish mumkin. Birinchisi — inson o'zini qanday deb hisoblasa, aynan shunday insonga aylanadi. Atrofdagilarga o'z o'zingizni baholashingizni yoki ruhiy holatingizni gapirib berish shart emas — ular buni baribir his qilishadi. Bu amaliyotda shunday ma'noni anglatadiki: agar dunyoqarashimizda, xulq-atvorimizda yoki atrofdagilarning bizga munosabatida biror narsa bizga ma'qul kelmasa, uni o'zgartirishga harakat qilish kerak. Biroq har qanday xulq-atvor o'zgarishiga avval aqliy (fikriy) o'zgarish asos bo'lishi lozim. Bu g'oya o'zining amaliy ifodasini, masalan, bixevioral-kognitiv psixoterapiyada topgan (**Zalevskiy, 2002, 2006**). Yaxshi kayfiyat va o'zini yuqori baholash shaxsiy muvaffaqiyat hamda insonlar o'rtasidagi hamjihatlikka xizmat qiladi. **Galton** odamlarni ularning «hukm chiqarish tezligi»ni o'lchash orqali klassifikatsiya qilish mumkin, deb hisoblagan. U bunga oid oddiy tajriba ishlab chiqqan: unda sinaluvchi A va V signallarini farqlab, A signaliga o'ng qo'l bilan, V signaliga esa chap qo'l bilan tugma bosishi kerak edi. Signallarni va tegishli qo'llarni farqlash ma'lum vaqt talab qilar, va bu vaqt turli odamlarda har xil bo'lgan. Bu «hukm chiqarish vaqti»ni o'lchash mumkin edi. Ushbu tajriba aslida psixometrik testning namunasi hisoblanadi. Qizig'i shundaki, **Galtonning** reaksiya vaqti (RV) — ruhiy jarayonlarning borishini aks ettiradigan muhim ko'rsatkich sifatidagi tasavvuri butun psixologiya tarixi davomida jonli ilmiy munozaralarga sabab bo'lib kelmoqda va hanuzgacha o'z tarafdorlarini topmoqda. Masalan, 1968 yilda **G.Yu. Ayzenk** — psixodiagnostika sohasida tan olingan mutaxassis — reaksiya vaqtini intellektual salohiyat darajasining eng muhim mezonlaridan biri deb hisoblab, **Galtonning** qadimgi g'oyasini mutloq tasdiqlaydi. Ko'pchilik olimlarning fikricha, Galtonni psixologiyadagi psixometrik yo'nalish asoschisi, testologiyaning ilk vakili deb atash mumkin. Garchi u o'zi yaratgan usullarni hech qachon «test» deb nomlamagan. «Test» so'zi ingliz tilida ko'pdan beri «sinov», «tekshiruv», «tadqiq» ma'nolarida ishlatilgan. Bu so'zni psixometrik metodikalarni ifoda etish uchun ilk marta amerikalik olim **Jeyms MakKin Kettell** 1890 yildagi “Aqliy testlar va o'lchovlar” (Mental Tests and Measurements) nomli maqolasida qo'llagan. **Galton** 1884 yilda Kensingtondagi Xalqaro sog'liqni saqlash ko'rgazmasi davomida Antropometriya laboratoriyasini ochgan. U inson qobiliyatlarining hajmi haqida statistik ma'lumotlar to'plashni maqsad qilgan. Ko'rgazmaga kelganlar uch pens to'lab, 17 xil turli tajriba va tekshiruvlardan o'tishgan. Laboratoriya katta qiziqish uyg'otgan, bir kunda taxminan 90 kishi tashrif buyurgan va natijada 9 337 nafar odamning shaxsiy natijalarini o'z ichiga olgan kartochkalar to'plangan. Bu shunday ko'lamdagi birinchi tajriba bo'lib, ilk ommaviy testlash tajribasi hisoblanadi. Aytish joizki, shu vaqtdan boshlab, birinchi navbatda sanoat va psixologiya sohasidagi yutuqlar

namoyish etiladigan xalqaro ko'rgazmalarda mehmonlarga psixologik (aqliy) testdan¹ o'tishni taklif qilish an'anaga aylandi. **Galton** ilmiy faoliyatini qarilik davrigacha davom ettiradi va u 1911 yil 17 yanvarda London yaqinidagi Heyzlmirda vafot etadi. Uning ko'pgina g'oyalari va u tomonidan ishlab chiqilgan usullar, birinchi navbatda, differensial psixologiyaning rivojlanishi uchun yo'naltiruvchi asos bo'lib xizmat qiladi. Keyinchalik uning ilmiy merosi turlicha baholangan — ba'zan unga nisbatan salbiy munosabatlar ham bo'lgan. Bunday tanqidlar, asosan, uning yevgenika nazariyasini turli mutaassib va tajovuzkor oqimlar (xususan, Germaniyadagi fashistlar) tomonidan yomon maqsadlarda suiiste'mol qilingani bilan bog'liq edi. Biroq bu holat **Galton** nazariyasining qadrini pasaytirmaydi, chunki uning konsepsiyasi o'z mohiyatiga ko'ra chuqur gumanistik ruhga ega edi. Hozirgacha **Frensis Galton** dunyo psixologiyasidagi yorqin shaxslardan biri bo'lib qolmoqda, garchi o'sha davrda psixologiya fan sifatida aniq maqomga ega bo'lmagani uchun u o'zini psixolog deb hisoblay olmagan. Shunga qaramay, uning tadqiqotlari uzoq yillar davomida psixologik fikr rivojlanishining muhim yo'nalishlarini belgilab berdi va ko'plab yirik psixologlar o'zlarini **Galton** izidan boruvchi deb bilishadi. U zamonaviy Angliyadagi eng original olim, tadqiqotchi va mutafakkirlardan biri edi. **Galtonning** hayoti va faoliyati uning shogirdi va do'sti **Karl Pirson** tomonidan «**Frensis Galtonning** hayoti, maktublari va ishlari» nomli kitobida batafsil tasvirlangan. Va bu **Galton** ruhiga to'la mos holda, **Pirson** o'z tadqiqotlarini uning genealogiyasidan boshlagan va uni u elliginchi avlodigacha kuzatgan. **Galtonning** ajdodlari orasida **Qarl Buyuk** (imperator), Kiev knyazi **Yaroslav Mudriy**, **Vilgelm Fathkor**, bir necha ingliz podshohlari bo'lgan; shuningdek, uning amakivachchasi **Charlz Darvin** edi.

Ammo otasi tomonidan **Galtonning** ajdodlari oddiy dehqonlardan bo'lgan. **Frensisning** otasi — **Samuel** — hech qanday iste'dodi bilan ajralib turmagan, uning barcha farzandlari ham oddiy bo'lishgan, faqat eng kichigi — to'qqizinchi farzand **Frensis** bundan mustasno edi. Shuning uchun ham genealogik shajara **F. Galtonning** irsiylik haqidagi nazariyasiga faqat qismangina dalil bo'la oladi, xolos. **Galtonning** aqliy funksiyalarni sensor farqlash qobiliyati va reaksiya vaqti orqali ob'ektiv ravishda o'lchash mumkin degan g'oyasini katta hayajon bilan qabul qilgan va bu borada tegishli tajribalarni boshlagan olim — **Jeyms MakKin Kettell** (James McKeen Cattell, 1860–1944) bo'lgan. Eslatib o'taman, ingliz tilida «test» so'zi «sinov», «tekshiruv», «tadqiq» ma'nolarini bildiradi. **Kettell** tufayli bu so'z psixologiyada bugungi tushunishimizdagi ilmiy ma'noga ega bo'ldi. 1890 yili «Mind» jurnalida **Kettellning** «*Aqliy testlar va o'lchovlar*» (Mental Tests and Measurements) nomli maqolasi **Galtonning** keyingi so'zi bilan birga chop etildi. Ushbu maqolada psixometrik usullarni amaliyotda qo'llash ilmiy jihatdan asoslab berilgan edi. **Kettell** yozishicha: *Psixologiya, agar u fizika fanlariga o'xshash aniq va mustahkam bo'lishni xohlasa, tajriba va o'lchovga tayanishga majbur*. Bu yo'nalishdagi ilk qadam — aqliy testlarni ko'p sonli individlarga qo'llash orqali amalga oshirilishi mumkin. Uning natijalari psixik jarayonlarning doimiyliigi, o'zaro bog'liqligi va turli sharoitlardagi o'zgarishlarini

aniqlashda katta ilmiy qiymatga ega bo'lishi mumkin». (iqtibos: Stepanov, 2001. B. 28)

Shu tariqa, statistik yondashuv — testlar seriyasini ko'p sonli shaxslarga qo'llash — psixologiyani aniq fanga aylantirish vositasi sifatida ilgari surilgan. Bunday yondashuvning faqatgina ilmiy qiymati emas, balki uning amaliy ahamiyati ham bo'lishi mumkinligini Kettell alohida ta'kidlagan. U kolledj talabalari aql-zakovatini baholash uchun testlar seriyasini ishlab chiqqan. Ushbu testlar mushak kuchini, harakat tezligini, og'riqqa sezuvchanlikni, ko'rish va eshitish tezligini, og'irlikni farqlash qobiliyatini, reaksiya vaqti, xotira va hatto o'pka hajmini o'lchashni o'z ichiga olgan — buning ham aqliy qobiliyat bilan bog'liq deb qaralishi qiziq. Ushbu parametrlarning tanlanishi ikki asosga tayangan: bir tomondan, Galton g'oyalariga sadoqat, ikkinchi tomondan esa shunchaki amaliy mulohaza — ya'ni, sodda ruhiy funksiyalarni yuqori aniqlik bilan o'lchash mumkin, holbuki murakkab funksiyalar uchun ob'ektiv o'lchov usullarini yaratish o'sha paytda mutlaqo umidsiz vazifa deb qaralgan. **Kettell**ning psixologiyaga qo'shgan yana bir muhim hissasi — diqqat hajmi va o'qish malakasi bo'yicha olib borgan tajribalaridir. **Kettell** taxistoskop yordamida turli ob'ektlarni — shakllar, harflar, so'zlar va hokazolarni qabul qilish va nomlash uchun talab etiladigan vaqtni aniqlagan. Aniqlangan diqqat hajmi taxminan beshta ob'ekt atrofida bo'lgan. Bu hajm shunchaki alohida harflar emas, balki butun so'zlar yoki hatto gaplar — ya'ni ma'noli til birliklari, juda ko'p harf va belgilardan tashkil topgan bo'lsa ham o'zgarmagan. **Kettell** harf va so'zlarni aylanuvchi barabanda o'qish tajribalari davomida idrokning oldinga "ilgarilab ketishi" (antitsipatsiya) fenomeni — ya'ni odam ma'lumotni hali to'liq qabul qilmasdan avvalroq bashorat qilib idrok qilish holatini qayd etgan. Olingan natijalar nafaqat eksperimental psixologiyaning, balki umumiy psixologik nazariyaning maqomini ham oshiradi, chunki bu ikki yo'nalish doimo uzviy bog'liq bo'lib kelgan. **Kettell** shunday yozgan: «*Psixologiyada, agar tajriba va o'lchovlarga asoslanilmasa tabiiy fanlardagi kabi aniq va ishonchli natijalarga erishish mumkin emas. Buning yechimi — aqliy qobiliyatlarni imkon qadar ko'proq insonlar o'rtasida testlash orqali amalga oshiriladi*» (Cattell, 1893. B. 373). Uning fikricha, aynan shu yo'nalishda ishlash lozim edi.

Kettellning xizmatlari ko'plab ilm-fan jamoatchiligi tomonidan hozirgacha yuksak baholanib kelmoqda. 1895 yilda u Amerika psixologik assotsiatsiyasining prezidenti etib saylangan. 1929 yilda esa AQShda ilk bor o'tkazilgan IX Xalqaro psixologik kongressga raislik qiladi. Psixologiya tarixida **Kettell** ulkan rol o'ynagan — u ham tashkilotchi, ham fanni ommalashtiruvchi sifatida tanilgan. 1895 yildan boshlab u «*Science*» («*Fan*») jurnalini nashr qilgan, 1894 yili esa J.M. Bolduin bilan birgalikda «*Psychological Review*» («*Psixologik sharh*») jurnalini tashkil etadi, 1915 yilda esa «*School and Society*» («*Maktab va jamiyat*») jurnalini chiqara boshlaydi. **Kettell**ning tadqiqotlari va qarashlari ko'plab olimlarga katta ta'sir ko'rsatadi. 1904 yili Sent-Luisdagi Jahon ko'rgazmasida so'zlagan nutqida u shunday deb so'zlaydi: «*...inson tabiatini o'rganishda*

tizimlashtirilgan bilimlardan foydalanish, bu asrda fizikaning o'n to'qqizinchi asrdagi yutuqlariga teng natijalarga olib kelmasligi uchun men hech qanday sabab ko'rmayapman. Bu yutuqlar moddiy olamni o'rganishda qanday ahamiyatga ega bo'lsa, insonni o'rganishda ham shunday bo'lishi mumkin». Bu chiqishda keyinchalik bixeviorizm — xulq-atvor psixologiyasi asoschisi sifatida mashhur bo'lgan **Jon Uotson** ham ishtirok etgan va **Kettellning** g'oyalarini katta ilhom bilan qabul qiladi. Ayrim tarixchilar bu sababli **Kettellni** "bixeviorizmning bobosi" deb atashni ham taklif qiladilar. **Kettellning** shogirdlaridan biri — **Edvard Torndayk** bo'lib, u bir kuni **Kettellning** eshigiga qo'lida savat bilan keladi. Savatda u o'zi o'rgatgan jo'jalarni olib keladi va ushbu tajribalar asosida keyinchalik mashhur "mashq qonuni", "natija qonuni" va bixeviorizmning boshqa postulatlarini yuzaga keladi. **Kettellning** boshqa shogirdlari orasida tengsiz tajribachi **R. Vudvorte** va Amerika klinik psixologiyasiga asos solgan **L. Uitmer** ham bor edi. Kettell vafot etgandan so'ng tarixchi **E.G. Boring** uning farzandlariga shunday deb yozgan: «*Mening fikrimcha, sizning otangiz Amerika psixologiyasi uchun Vilyam Djemsdan ham ko'proq ish qilgan. Aynan u sababli psixologiya AQShda o'zining ibtidoiy manbai bo'lgan nemis psixologiyasidan butunlay ajralib chiqdi va haqiqiy amerikalik fanga aylandi*» (1950). «Intellectual qobiliyatlar testlari» atamasini ilk bor **Kettell** joriy etgan bo'lsa-da, test usuli keng tarqalishini **Alfred Bine** (Alfred Binet, 1857–1911) nomiga bog'lash mumkin. U mustaqil ravishda faoliyat yuritgan va o'zini o'zi o'qitgan psixolog edi. **Bine** ishlab chiqqan metod keyinchalik mashhur Stenford–Bine shkalasiga asos bo'lib xizmat qildi va insonning aqliy qobiliyatlarini samarali o'lchash imkonini yaratdi. Bu usul zamonaviy testologiyaning boshlanishini anglatadi. **Bine, Galton** va **Kettellning** fikrlariga qo'shilmagan. Ularning sensomotor funksiyalarga asoslangan intellekt testlari metodiga tanqidiy qaragan. **Bine** aqliy rivojlanishning eng yaxshi mezoni sifatida xotira, diqqat, tasavvur va zehn kabi kognitiv funksiyalarni baholashni taklif qiladi. 1904 yili **Binega** o'z g'oyalarini amalda isbotlash imkoniyati tug'iladi. Fransiya Xalq ta'limi vazirligining tashabbusi bilan maktabda o'qishda, qiyinchilikka duch kelayotgan bolalarning aqliy qobiliyatlarini o'rganish bo'yicha komissiya tashkil etiladi. **Bine** va psixiatr **Teodor Simon** ushbu komissiya faoliyatida ishtirok etib, turli yoshdagi bolalar uchun mo'ljallangan aqliy topshiriqlar to'plamini yaratadilar. Aynan shu topshiriqlar asosida birinchi intellekt testi tuzilgan edi. U o'ttizta vazifadan iborat bo'lib, ular verbal (ogzaki), perseptiv (idrokii) va manipulyativ (amaliy) turlarga bo'lingan edi va qiyinlik darajasiga ko'ra tartiblangan. Keyingi yillarda bu test bir necha bor qayta ko'rib chiqiladi va takomillashtiriladi. **Bine va Simon** «aqliy yosh» tushunchasini joriy etadilar. Bu ko'rsatkich, bola qanday darajadagi aqliy topshiriqlarni yecha olishiga qarab aniqlanardi. Masalan, agar bolaning xronologik (haqiqiy) yoshi to'rt yosh bo'lsa, lekin u besh yoshliklar uchun mo'ljallangan barcha topshiriqlarni bajara olsa, u holda uning aqliy yoshi besh yosh deb hisoblangan. **Bine** 1911 yilda vafot etganidan so'ng, testologiya sohasidagi rivojlanish AQShga ko'chdi. U yerda **Bining** ishlari Fransiyadagidan ham katta e'tirofga sazovor bo'ldi. Bining vatanida esa uning

test dasturlari u vafot etganidan 35 yil o'tgachgina ommalashdi. **Bine-Simon** testini ingliz tiliga **Genri Goddard** tarjima qildi va uni AQShda joriy etdi. U Nyu-Jersidagi Vaynlend shahrida aqliy nuqsonli bolalar uchun xususiy maktabda ishlagan. Ushbu testning inglizcha varianti "intellektni o'lchash shkalasi" deb nomlanadi. 1916 yilda **Lyuys M. Terman**, **Bine-Simon** testini qayta ishlab chiqadi va uni takomillashtiradi. Shundan so'ng ushbu test standart test sifatida tan olinadi. U bu testni Stenford universitetida birinchi marta taqdim etgani bois, uni «**Stenford-Bine shkalasi**» deb atadi. Shu bilan birga, u aqliy rivojlanish koeffitsienti yoki intellekt koeffitsienti (IQ — Intellectual Quotient) tushunchasini ilmiy muomalaga kiritadi. Bu ko'rsatkich aqliy yoshning xronologik (haqiqiy) yoshga nisbati foizda ifodalanishiga asoslangan. **Stenford-Bine shkalasi** keyinchalik bir necha bor qayta ko'rib chiqiladi va hozirgi kungacha keng qo'llanilib kelinmoqda.

Psixodinamik an'ana. Klinik psixologiyaning shakllanishiga institutsional va psixometrik an'analar bilan bir qatorda dinamik an'ana — psixodinamik konsepsiya ham katta ta'sir ko'rsatadi. Garchi psixodinamizmni yaxlit va to'liq shakllangan qarash sifatida aniq ta'riflash qiyin bo'lsa-da, barcha tarafdorlari bir fikrda — «motivatsiya» tushunchasi markaziy o'rin tutadi degan xulosaga kelishadi. Aynan motivatsion omillar — inson anglaydigan va anglamaydigan xohishlar, intilishlar, tendensiyalar, komplekslar, tushkunlik, umidsizlik, xavotir kabi tuyg'ular — insonning normal va patalogik xulq-atvorini shakllantiradigan asosiy sabablar deb qaralgan. Psixologiyadagi dinamik an'ana, avvalo, AQShdagi mashhur «Boston guruhi» vakillari nomi bilan bog'liq. Ular o'z ta'limotlarini «yangi psixologiya» deb ataydilar. Bu guruhga **Uilyam Djeyms**, **G. Stenli Xoll** kabi olimlar kirgan. Yevropada esa bu yo'nalish **Vilgelm Vundt** (Germaniya), **Zigmund Freyd** (Avstriya), **Karl Gustav Yung** (Shveysariya), **Per Jane** (Fransiya), **N.N. Lange** va **V.M. Bexterev** (Rossiya) singari yirik olimlar faoliyati bilan bog'liqdir.

Vilyam Djeymsning ta'siri uning mashhur «Psixologiya asoslari» ("Principles of Psychology", 1890) asari orqali amalga oshadi. «Dinamik» atamasini **Djeyms** o'z nuqtai nazarini **Titchener**ning strukturalizm qarashidan farq qilish uchun qo'llaydi. **R. Uotson** to'g'ri ta'kidlaganidek, **Djeymsning** klinik psixologiyaga ta'siri uning aynan shu sohadagi aniq ishlari orqali emas, balki uning fikrlash tarzidagi samaradorlik va ziddiyatlilik, «hech qanday chegaralarsiz g'oyalarni himoya qilish» orqali yuzaga keladi (Watson, 1953, s. 325). Biroq, **Vilyam Djeymsning** klinik psixologiyadagi yana bir muhim hissasi — u **Klifford Birs** (Clifford W. Beers)ni qo'llab-quvvatlagan. **Birsning** «A Mind That Found Itself» («O'zini topgan ong», 1908) nomli kitobi kelgusidagi psixogigiena harakatining (mental hygiene movement) rivojiga juda katta ta'sir ko'rsatadi. Klinik psixologiya rivojiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatgan shaxs — bu **Zigmund Freyd** (Sigmund Freud, 1856–1939) edi. Uning g'oyalari klinik psixologiyani ilk klinikalar chegarasidan ancha tashqariga olib chiqadi². Garchi **Freydning** psixoanaliz sohasidagi faoliyati psixologik jamoa va Amerika jamoatchiligi

tomonidan (ayniqsa, 1909 yildagi ma'ruzalaridan so'ng) hayrat va hatto norozilik bilan kutib olingan bo'lsa-da, uning g'oyalari klinik psixologlarga psixoanalitik terapiyaning dastlabki usullarini beradi. Shu sababli **Zigmund Freyd**ni klinik psixologiyaning ikkinchi otasi deb atash fikri to'liq asoslidir. U boshida, **Krepelin** kabi, tabiiy fanlarga yo'naltirilgan bo'lsa-da, keyinchalik psixoanaliz orqali ruhiy buzilishlar va ularni terapiya qilishga oid murakkab ta'limotni rivojlantirdi. Shu bilan birga, u klinik tadqiqotlarda fenomenologik va germenevtik (tafsiriy) yondashuvni ham ilgari suradi. 1895 yilda chop etilgan «Isteriya tadqiqotlari» asaridan boshlab **Freyd** nevrotik buzilishlarning psixogenetik nazariyasini ilgari surdi. Bu nazariya bir vaqtning o'zida ham diagnostika, ham klinik-psixologik yondashuvlarga kuchli ta'sir ko'rsatadi va psixologik sohada mustaqil, fundamental yo'nalishning shakllanishiga zamin yaratadi. «Psixoanalizning asosiy qoidalari shunchalik o'z-o'zidan ravshan va tan olingan narsaga aylandiki, biz ularning psixoanalitik kelib chiqishini deyarli unuta boshladik» — deb ta'kidlaydi **Pongrats** (Pongratz, 1977, s. 32). Bu qoidalar qatoriga, masalan: sotsiomadaniy ta'sirning ahamiyati, ruhiy kasalliklarning kelib chiqishida psixogenetik nuqtai nazar, suhbatni psixoterapiya usuli sifatida joriy etish, shuningdek, psixoterapiyadagi o'zgarishlar uchun «psixoterapevt – klient» munosabatlarining hal qiluvchi ahamiyati kabi tamoyillar kiradi. Psixoanalizning bilvosita ta'sirini ham kamsitib bo'lmaydi, chunki ko'pgina klinik-psixologik yondashuvlar aynan unga qarshi qiyos va ajratish orqali vujudga kelgan va rivojlangan. Masalan, **Rodjers**ning mijozga yo'naltirilgan terapiyasi, xulq-atvor terapiyasi, geshtalt-terapiya hamda oilaviy terapiya kabilar shunday yo'l bilan shakllangan. **Freyd** nevrotik kasallik haqida yaxlit nazariya yaratishga urinayotgan paytda, u **Breyer** tomonidan ta'riflangan va keyinchalik mashhur bo'lib ketgan «Anna O.» holatini esladi. **Breyer**ning bemori (keyin aniqlanganidek, uning haqiqiy ismi — Berta Pappengeym) yosh ayol bo'lib, u fikrlash va nutq buzilishlari, asabiy yo'tal va oyoqlar falaji kabi alomatlardan aziyat chekkan edi. Gipnoz yordamida **Breyer** bemorni uni tashvishga solayotgan tasvirlar va fantaziyalarni qayta eslashga majbur qilishga erishadi. Ma'lum bo'lishicha, uning psixikasiga ta'sir qilgan travmatik his-tuyg'ular otasining kasalligi va vafoti bilan bog'liq bo'lgan. Bemor bu travmatik voqealarni qaytadan his qilib, qaytadan boshidan kechira boshlagan sari, og'riqli simptomlar asta-sekin yo'qola boshlagan. Shundan kelib chiqib, **Breyer** shunday xulosa qiladi: og'riqli simptom — bu ruhiyatda siqilib qolgan impulsning o'rnini bosuvchi alomatdir. Isteriyani davolash uchun ular taklif qilgan yangi usul — katarsik usul (yun. «katarsis» — tozalanish) — shundan iborat ediki, bemor ongida siqilib qolgan psixik impulsni eslab, uni anglab yetishi va shu tariqa uni ich-ichidan «razryad qilishi» (engillik his qilishi)ga olib kelishi kerak edi. **Freyd** ushbu usul samaradorligini tekshirib ko'rishga qaror qiladi va ordan ko'p o'tmay, o'z amaliyotidan shunga o'xshash bir nechta holatlarni keltira oladigan bo'ldi. 1895 yili, jamg'arilgan tajribani umumlashtirgan holda, **Breyer va Freyd** hammualliflikda «Isteriya to'g'risida etyudlar» (rus nashrida — «Ocherki ob isterii») nomli asarni chop etadilar. Kitobning nashr qilingan bor-yo'g'i 800

nusxadagi nashri ham mutaxassislar e'tiborini jalb qila olmaydi, garchi aynan unda birinchi marta nevrozlarni qondirilmagan instinktlar bilan bog'lashga urinish qilingan edi. Keyinchalik, isteriya mexanizmlari, jinsiy omilning roli va boshqa masalalar bo'yicha mualliflar o'rtasidagi kelishmovchiliklar tufayli ularning deyarli 15 yillik do'stligi uziladi. **Freydning** keyingi ilmiy faoliyati, uning o'z ta'biri bilan aytganda, «yorqin yakkalik»da kechadi. Kasbdoshlari unga nisbatan amalda boykot e'lon qiladilar, chunki Freyd rivojlantirayotgan jinsiylik nazariyasi mavjud qarashlar doirasidan juda uzoq ketgan edi. Biroq aynan shu davrda psixoanaliz — ruhiy hayot haqidagi an'anaviy tushunchalarni tubdan o'zgartirgan, novatorona ta'limotning asosiy qoidalari shakllantiriladi. «Psixoanaliz» atamasini **Freyd** ilk bor 1896 yildagi «Isteriya etiologiyasi» nomli ma'ruzasida qo'lladi. Boshida u bu so'z bilan ruhiy buzilishlarning yashirin sabablarini aniqlashga qaratilgan terapevtik usulni ataydi. Keyinchalik esa bu atama **Freydning** barcha nazariy qarashlar tizimiga nisbatan ishlatiladigan umumiy nomga aylanadi. Nevrozlar paydo bo'lish mexanizmlarini ochishga harakat qilar ekan, **Freyd** qondirilmagan instinktlar va ifoda etilmagan hissiyotlarning og'riqli oqibatlariga e'tibor qaratadi. Odamning o'zi ham bilmaydigan, ammo ong yaxlitligini buzuvchi instinktiv urinishlar va kuchli affektlar **Freyd** tomonidan ongsiz ruhiy jarayonlar mavjudligining asosiy dalili sifatida qabul qilinadi. Uning fikriga ko'ra, ongsizlik (bessoznatelnoe) – bu inson ongidan ham ta'sirliroq ruhiy sohadir. Odatda ongsiz ruhiy jarayonlar mazmuni bemor uchun yoqimsiz, jamiyat va axloqiy me'yorlar nuqtai nazaridan qabul qilib bo'lmaydigan narsalardan iborat bo'lgani uchun, Freyd ularning ongsiz xarakterini maxsus psixologik himoya mexanizmi — «siqib chiqarish» (вытеснение) bilan izohlaydi. **Freydga** ko'ra, siqib chiqarish mexanizmi to'g'noq (damba) singari faoliyat ko'rsatadi — u ongni og'riqli xotiralar, taqiqlangan xohishlar va impulslar bilan to'qnashuvdan himoya qiladi. Ammo bu instinktlar ongsiz holda ham o'z psixik energiyasini saqlab qoladi va natijada ular patologik simptomlar ko'rinishida «portlab chiqishi» mumkin. Shu tariqa, psixoanaliz nazariyasining ilk bosqichida ongsiz ruhiy jarayonlar siqib chiqarilgan ong mazmuni bilan tenglashtirilgan. Vaqt o'tishi bilan **Freydning** ongsizlik to'g'risidagi tasavvurlari aniqlashadi va murakkablashadi: ongsizlik endilikda tasodifiy yot omil emas, balki har bir insonning psixik apparatining ajralmas qismi sifatida qaraladi. Ongsizlik — bu tashqariga chiqish, yengillikka erishish uchun urilayotgan istaklar va instinktlar bilan «qaynayotgan qozon»dir. Bu ruhiy energiya ba'zan patologiya alomatlari ko'rinishida, ba'zan kundalik hayotdagi shunday sodda hollarda — tushlar, hazillar, o'zgartirilib o'tkazib yuborish kabi holatlarda namoyon bo'ladi. Yoki u o'zgargan, ijodiy shaklda madaniy, badiiy va ijtimoiy qadriyatlar tarzida ham namoyon bo'lishi mumkin. 1897 yilning o'zidayoq **Freyd** tushlarni tizimli ravishda tahlil qilish, ya'ni o'zini psixoanaliz qilishga kirishdi va tushlar hamda tush ko'rish haqida alohida asar yozishga qaror qiladi. Uning mashhur kitobi — «Tushlarni ta'vil(izoh) qilish» (“Die Traumdeutung”) 1900 yilda chop etiladi. Biroq bu nashr ilmiy jamoatchilikda katta qiziqish uyg'otmaydi: 600 nusxadan iborat birinchi nashrni sotib tugatishga

8 yil kerak bo‘ladi (hozir esa shuncha nusxa har oy AQSh va Yevropada sotiladi). Shunga qaramay, **Freyd** ushbu kitobni «burilish nuqtasi» deb hisoblagan. 1898 yilda **Freyd** yumor muammosini tadqiq qilishni boshlaydi va buni shaxsan to‘plagan yahudiy anekdotlari asosida o‘rganadi. Keyinchalik bu tadqiqot natijalari «Oqilona so‘z(aqllilik) va uning ongsizlikka nisbatan munosabati» (“Der Witz und seine Beziehung zum Unbewussten”, 1905) nomli asarida o‘z ifodasini topadi. 1901 yili **Freyd** «Kundalik hayot psixopatologiyasi» nomli kitobini nashr etadi — bu uning psixoanalizga oid eng mashhur va ommabop asarlaridan biri bo‘ladi. Ushbu kitobda u «вытеснение» (siqib chiqarish) nazariyasiga tayangan holda insonning xulq-atvoriga ongsiz motivlar qanday ta’sir qilishini tushuntiradi. **Freyd** turli xil «xatolik harakatlari» — og‘izdan so‘z o‘tkazib yuborishlar, yozuvdagi xato, ismlar yoki atamalarni unutish va h.k. — ongsiz motivlarning mavjudligini ko‘rsatuvchi belgilar ekanini ta’kidladi va bunday holatlar diagnostika hamda psixoterapiyada qo‘llanilishi mumkinligini ko‘rsatadi. 1902 yili **Freyd**ga professor unvoni beriladi. O‘sha yili u o‘z atrofidagi boykot va ijtimoiy yakkalikni yengish maqsadida «Psixologik chorrahalar jamiyati» (“Psychologische Mittwoch-Gesellschaft”)ni tashkil qiladi. Bu jamiyat psixoanaliz g‘oyalarini muhokama qilish, g‘oyalar bilan almashish va uning tarafdorlarini birlashtirishga xizmat qilardi. Ilk davrda bu faqatgina munozara klubi edi, lekin bir necha yildan so‘ng ilmiy jamiyat maqomiga ega bo‘ladi. 1903 yilda **Freyd**ning birinchi shogirdlari paydo bo‘ladi — **Paul Federn, Vilgelm Shtekel** va boshqalar. Ular psixoanalizning tarixiy taqdirida muhim rol o‘ynaydilar. 1904 yilda esa **Freyd**ning g‘oyalari Shveysariyalik psixiatrlar guruhi — **Eygen Bleyler, Maks Eytingon, Karl Abraxam va Karl Gustav Yung**ni o‘ziga jalb qiladi. Ular bu ta’limotga istiqbolli nazariya va psixoterapevtik usul sifatida qaraydilar. 1907 yili **Freyd** Shveysariyalik hamkasblari bilan ilk bor uchrashadi va bu voqea Vena va Syurix psixoanalitik maktablarining yaqinlashuviga asos soladi. 1908 yili Zalsburgda I Xalqaro psixoanalitik kongress bo‘lib o‘tadi, u psixoanaliz tarafdorlarini birlashtirgan birinchi katta xalqaro tadbir bo‘ladi. 1909 yili esa birinchi psixoanalitik jurnal nashr etila boshlandi. Uni **Bleyler** va **Freyd** tashkil qilgan bo‘lsa, uning muharriri **Karl Yung** edi. O‘sha — 1909 yili, Massachusets shtatidagi Vuster shahrida joylashgan Klark universitetining yigirma yillik yubileyi munosabati bilan, **Freyd** universitet prezidenti **Stenli Xoll** tomonidan tantanali tadbirlarda qatnashish va bir qator ma’ruzalar o‘qish uchun taklif etiladi. U bilan birga **Karl Yung va Shandor Ferensi** ham AQShga jo‘nab ketadilar. Ushbu uch kishi 1909 yil 27 sentyabr kuni Nyu-Yorkka yetib kelishadi. Amerika tuprog‘iga qadam qo‘ygan zahoti, **Freyd** o‘zining mashhur so‘zini aytadi: «*Ular hali bilmaydi, men ularga vabo olib keldim!*» Bu ibora orqali u psixoanaliz g‘oyalarning jamiyat uchun qanchalik "yuqumli" va tubdan o‘zgartiruvchi ekanini ifoda etgan edi. Vusterda **Freyd** nemis tilida beshta ma’ruza o‘qiydi. Auditoriya uni diqqat bilan tingladi, garchi ko‘pchilik shu paytda keng tarqalgan fikrlarga ko‘ra, jinsiy hayot haqida qandaydir «ochiq-oydin va jozibali» ma’lumotlarni kutayotgan edi va bularning kamligi ba’zilarida ma’yuslik ham uyg‘otgan edi. O‘z ma’ruzalarida **Freyd**

psixoanalizning paydo bo'lishi tarixi, tushlar, hazil va xato harakatlar (ogovorkalar) ustidagi tadqiqotlarining asosiy natijalari, jinsiylik nazariyasi va psixoterapevtik usullar haqida qisqacha ma'lumot beradi. Ma'ruzalar matni bir yildan so'ng «Amerika psixologiya jurnali»da nashr etiladi. **Freyd** uchun umidbaxsh voqealardan biri — **Uilyam Djeyms** bilan uchrashuv bo'ladi. **Djeyms Freydda** katta taassurot qoldiradi va xayrlashar ekan, shunday dedi: «*Psixologiyaning kelajagi siz olib borayotgan ishga bog'liq*». Klark universiteti **Freydga** faxriy doktorlik unvonini taqdim etadi — bu uning faoliyatiga beriladigan birinchi rasmiy e'tirof bo'lib, **Freydni** chuqur hayratga soladi. Keyingi yillar psixoanalitik jamoa hayotida ziddiyatli tendensiyalar bilan ajralib turadi. Bir tomondan, psixoanalitiklar birlashib borayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, **Freydning** yaqin safdoshlari orasidan ajralib chiqib ketish holatlari ham ko'payib boradi. 1911 yili **Freyd** uchun juda og'riqli bo'lgan voqea — **Alfred Adler** bilan ajralish yuz beradi. Ortidan **Karl Yung** ham psixoanalitik harakat safini tark etadi. Nazariyaviy kelishmovchiliklar keyingi yillarda ham psixoanalitiklar o'rtasida muntazam ziddiyatlarga olib keladi. **Freydning** o'zi ham o'z nazariyasiga tuzatishlar kiritishiga to'g'ri keladi. Birinchi jahon urushi voqealari psixoanalizning ayrim tushuntirish tamoyillarining yetarlicha emasligini ko'rsatadi. Chunki, jangdan qaytgan harbiylar XIX asr oxirlaridagi venalik burjua bemorlaridan mutlaqo farqli ruhiy jarayonlarni boshdan kechirganlari sabab bo'ladi. **Freyd** yangi bemorlarning asosiy muammolari — ular urush frontida o'linga yuzma-yuz qaragan holatlar bilan bog'liq bo'lgan psixik jarohatlarga fikslanishini kuzatib, inson psixikasida jinsiy instinktdan kam bo'lmagan kuchli yana bir omil — o'linga intilish mavjudligi haqidagi g'oyani ilgari suradi. Bu instinktni **Freyd** yunoncha “Tanatos” (o'lim ila bog'liq kuch) atamasi bilan belgilaydi va uni Eros — ya'ni muhabbat va hayotga intilish kuchining ziddiyati sifatida ta'riflaydi. **Freydning** ushbu muammoga murojaat etishida faqat ijtimoiy omillar emas, balki shaxsiy sabablar ham mavjud edi. U qattiq xumorboz bo'lib, kuniga 20 tagacha sigara chekardi. Bu odati oqibatida u halqum (tovush nayi) saratoniga chalinadi. Bir nechta og'ir jarrohlik operatsiyalarini mardlik bilan boshdan kechira turib, u ilmiy faoliyatini to'xtatmasdan davom ettiradi. Kundan kunga **Freyd** g'oyalari ortidan tobora katta e'tirofga erishib boradi. Ko'plab taniqli madaniyat arboblari uning fikrlariga qiziqish bildirishar, **Freyd** ular bilan uchrashib turishga va jonli yozishmalar olib borishga intilar edi. 1933 yili, Germaniyada natsistlar hokimiyatga kelgach, Yevropada psixoanalitik harakat bosimga uchray boshlaydi. Berlindagi mashhur «kitob yoqish marosimi» (autodafe) paytida, **Freydning** asarlarini «yahudiy pornografiyasi» deb atab, «insoniyat sharafi nomidan» jamoat oldida yoqib yuboriladi. **Freyd** ozodlik va inson aqlining ravnaqi haqida qayg'u bilan hazil qilib shunday degan edi: «Ilgari bo'lganida ular meni o'zimni yoqib yuborishardi, endi esa faqat kitoblarimni yoqishyapti». Biroq ma'lumki, qaerda kitoblar yoqilsa, o'sha yerda tez orada odamlar ham yoqila boshlaydi. Afsuski, aynan shunday taqdir keyinchalik **Freydning** opa-singillariga ham nasib qiladi — ular halok bo'ladilar. Avstriya natsistik Germaniyaga qo'shilgan kunining o'zidayoq, **Freyd**

uy qamog'iga olinadi, uning kvartirasi tintuv qilinadi, va qiz̄ Anna gestapoga so'roqqa chaqiriladi. Olimni taqdiri hal qilinganday tuyuladi. Biroq ta'sirli shogirdlari va tarafdorlari harakati bilan, 100 000 avstriya shillingi miqdoridagi garov to'langach, **Freyd**ga xotini va Anna bilan birga Avstriyani tark etishga ruxsat beriladi. Ular Londonda joylashadilar va garchi uning kasalligi tez sur'atda rivojlanayotgan bo'lsa-da, **Freyd** u yerda ham faol ishlaydi, ilm-fan va madaniyat arboblari, jumladan **Salvador Dali** bilan uchrashib turgan. Biroq og'riq va azoblar tobora toqatsiz darajaga yeta boshlaydi. 1939 yil 23 sentyabrda, uning shaxsiy shifokori Maks Shur **Freyd**ning iltimosi bilan unga ikki marta zaharli ukol qiladi va uni azobdan xalos etadi. **Freyd**ning konsepsiyasi hozirgacha bahs va munozaralarga sabab bo'lib kelmoqda. Ammo bir narsa shubhasiz: Vena mutafakkiri inson haqidagi fanlar, jumladan, klinik psixologiyaning shakllanishida beqiyos hissa qo'shganligi bilan ajralib turadi. **Freyd**ga nisbatan aytilgan tanqidlar — ilmiy aniqlikning yetishmasligi va metodologik zaiflik kabi kamchiliklarga qaramay, uning psixoanalizi hozirgi zamon psixologiyasida ta'sir kuchiga ega bo'lgan yirik harakat sifatida saqlanib qolmoqda. 1929 yili **E. Dj. Boring** o'zining «Eksperimental psixologiya tarixi» («A History of Experimental Psychology») deb nomlangan darsligida shunday yozgan edi: «*Psixologiya hozircha Darwin yoki Gelmgols darajasidagi biror mutafakkirni ko'rsata olmaydi*». Biroq 21 yil o'tib, xuddi shu darslikning ikkinchi nashrida u o'z fikrini qayta ko'rib chiqadi. Psixologiyada sodir bo'lgan o'zgarishlarni tahlil qilgan ekan, u **Freyd** haqida qattiq ta'sir bilan shunday deb yozadi: «*Endi biz Freydni zamonaviy psixologiyadagi eng buyuk yangilik kiritgan shaxs, o'z zamonasining haqiqiy ruhiy yetakchisi sifatida baholashimiz mumkin. U psixologiya binosini to'liq qurib, unga ongsizlik prinsipini joriy etdi... Keyingi uch yuz yil davomida ham, ehtimol, hech kim psixologiya tarixini Freyd ismisiz yoza olmasa kerak. Aynan shu narsa buyuklik mezonidir — o'limdan keyingi shon-shuhrat*» (Boring, 1950, s. 707, 743). Quyidagi iqtiboslar **Zigmund Freyd**ning psixoanaliz ta'limoti atrofida turli qarashlar va bahs-munozaralarni yoritib beradi. Ular uning falsafiy va klinik g'oyalari turli nuqtai nazarlardan baho bergan taniqli shaxslarning fikrlaridir: **Per Jane** — mashhur fransuz psixologi va **Freyd**ning zamondoshi: «*Muhabbat, do'stlik, jamiyatga ehtiyoj va barcha ijtimoiy tuyg'ular juda murakkabdir va ular ko'plab turli elementlardan iborat. Menimcha, hammasini doim jinsiy instinktlarga va kontaktdan olinadigan lazzatga bog'lash katta mubolag'adir. Kamida, bizning murakkab jamiyatlarimizda ular ko'plab psixologik omillarga bog'liq*». Bu fikr **Freyd**ning barcha ruhiy jarayonlarni jinsiy instinktlar bilan bog'lashga moyilligini tanqid qiladi. Jane ijtimoiy hissiyotlarning ko'p qirrali va turfa omillarga asoslangan ekanini ta'kidlaydi. **Pol Rozen** — fransuz intellektuali va ta'lim tarixchisi: «*Freydning sodir etgan intellektual portlashi tarixda faqat Darvinning bir necha avlod oldingi kashfiyotlari bilan solishtirish mumkin. Biz nafas oladigan intellektual havo — Freyd ta'limotining kategoriyalari bilan to'yingan*». U **Freyd**ning ta'limotini zamonaviy fikrlashga qattiq ta'sir ko'rsatgan intellektual inqilob sifatida baholaydi va uning g'oyalari qanchalik chuqur jamiyat

tafakkuriga singib ketganini ta'kidlaydi. **Alfonso Petruchchi** — radikal tanqidchi nuqtai nazaridan: Bu iqtibos — **Alfonso Petruchchining Zigmund Freyd** va uning psixoanaliz ta'limotiga nisbatan radikal va tanqidiy munosabatining ifodasidir. Unda Freydning nazariyasi nafaqat ilmiy, balki axloqiy jihatdan ham rad etiladi. Matnda antisemitik ruhdagi bayonotlar ham mavjud bo'lib, u tarixiy jihatdan muayyan mafkuraviy va madaniy kontekstda — XX asr boshlari Yevropasidagi reaksiyon va millatchilik kayfiyatlarini fonida yuzaga kelgan. Mazmunan u shunday deydi: «*Psixoanaliz, go'yoki ayrim nevrozlarni davolashning yangi usuli sifatida taqdim etilayotgan bo'lsa-da, aslida u faqat buzg'unchilik, haqorat va yo'q qilish bilan bog'liq. Ongsizlik (Bessoznatelnos) — aqlning barcha iflosliklari yig'iladigan vayrona maydondir. Yahudiy bo'lgan Freydning bu ta'limoti faqat aqli normal bo'lmagan millat tomonidan qabul qilinishi va faqat aqliy va ma'naviy inqirozga yuz tutgan jamiyatda, hayot faqat ishratxona va jinnixonalar orasida kechadigan, o'rtasidan birja o'tadigan jamiyatda ommalashishi mumkin*». Bu fikr **Freyd** va uning ta'limotiga nisbatan qattiq dushmanlik bilan aytilgandi. U psixoanalizni nafaqat rad etadi, balki uni axloqiy va madaniy tanazzulning belgisi sifatida ko'radi. Bu kabi fikrlar XX asrdagi antisemitizm va madaniy reaksiyalarning aks-sadosi bo'lib xizmat qilardi. **Freydning** merosi har doim ham bahsli bo'lib qolgan — u bir tomondan zamonaviy psixologiya va gumanitar fanlar rivojiga katta ta'sir ko'rsatgan, ikkinchi tomondan esa uning g'oyalari shiddatli tanqidlarga uchragan. Bu iqtiboslar shu ikki kardinal pozitsiyani yaqqol ifoda etadi. **Stefan Sveyg**: *Zigmund Freyd — bu bir insonning buyuk jasoratidir. U butun insoniyatni ongliroq qildi; men aytayapman — ongliroq, emas baxtliroq. U butun avlod uchun dunyo manzarasini chuqurlashtirdi; men aytayapman — chuqurlashtirdi, emas bezadi. Chunki radikal g'oyalar hech qachon baxt olib kelmaydi, ular faqat aniqlik, qat'iylik olib keladi. Ilmning vazifasi — inson qalbini go'yoki abadiy bolalik uyqusida saqlash emas, balki insonni bu qattiq, murakkab zaminda boshini ko'tarib, tik yurishga o'rgatishdir*. Bu Freyd va uning psixoanaliziga berilgan turli va ziddiyatli baho va munosabatlardan faqat biri xolos. Ammo e'tiborlisi — Freyd shaxsiyati va g'oyalari atrofidagi munozaralar hozirgacha to'xtamagan. Buning o'ziyiq shuni ko'rsatadiki, barcha psixologlar ichida aynan Freyd jamiyat ongini shakllantirishda eng kuchli ta'sirga ega bo'lgan shaxs bo'lib qolmoqda — na faqat o'tgan, balki hozirgi asrda ham. Shuningdek, Freydning psixoanalizi faqat nazariya emas, balki amaliy psixoterapiya usuli hamdir. Uning klinik psixologiyadagi xizmatlaridan biri — bu psixoanaliz orqali shakllangan psixointervensiyon an'anani rivojlantirganidir. Bu haqda albatta keyingi qismlarda yana to'xtalib o'tamiz. Klinik psixologiya rivojlanishidagi psixodinamik an'analar haqida so'z yuritish ekanimiz, albatta, psixoanalizga «g'oyalardan yuz o'g'irgan» («verootstupnik») sifatida qaralgan ba'zi shaxslar, ayniqsa **K.G. Yung** va **A. Adl**ning xizmatlari haqida, hech bo'lmaganda qisqacha to'xtalish kerak. **Freyd** bir paytlar **Karl Gustav Yungni** (1875–1961) o'zining «qabul qilingan o'g'li» va psixoanalitik harakatning merosxo'ri, vorisi deb bilgan edi. Biroq, 1914 yilda ularning do'stligi butunlay uzilgandan so'ng, Yung o'zining “*analitik*

psixologiya” deb atagan, **Freyd** tizimiga butunlay zid bo‘lgan yangi yo‘nalishni ishlab chiqishga kirishadi.

Hayot sahifalari. **Karl Yung** Shveysariyaning shimolidagi kichik bir qishloqda, mashhur Reyn sharsharasi yaqinida tug‘ilib o‘sadi. O‘zining e’tiroficha, uning bolaligi yolg‘izlik, o‘zaro tushunishning yo‘qligi va baxtsizlik hislari bilan to‘lgan edi. Uning otasi i‘monini yo‘qotgan, kayfiyati tez-tez o‘zgaradigan ruhoniy bo‘lgan. Onasi esa hissiy buzilishlardan aziyat chekkan, juda beqaror xulq-atvorga ega bo‘lib, hayotdan mamnun uy bekasidan bir zumda tushunarsiz narsalarni pichirlab yuradigan "shaytonga aylanishi" mumkin edi. Tabiiyki, bunday nikoh baxtli bo‘lishi mumkin emas edi. **Yung** bolaligidanoq har ikki otanasiga to‘liq ishonmaslikka o‘rganadi va keyinchalik — tashqi dunyoga ham. Uning o‘rniga u ichki dunyoga — tushlar, tasavvurlar va fantaziyalar olamiga, ong osti dunyosiga yuzlanadi. Tushlar va ong osti, ongning ratsional dunyosi, uning bolalik yillarining asosiy voqeasi, keyinchalik butun hayotining mazmuniga aylanadi. Hayotining tanqidiy davrlarida **Yung** aql dovullariga emas, balki tushlarda ifoda etilgan ong osti ovozigacha quloq tutishni afzal ko‘rar edi. U universitetga kirishga tayyorlanayotgan paytida, taqdiriga ta’sir qilgan tushni ko‘radi. Tushida u yerni kovlab, qadimgi jonzotlar suyaklarini topganini ko‘radi. **Yung** bu tushni tabiat va tabiiy fanlarni o‘rganishga yo‘naltiruvchi bashorat sifatida talqin qildi. Bu tush va uning uch yoshidagi ko‘rinishi — o‘shanda u o‘zini yer osti g‘orida deb tasavvur qilgan edi — shaxsiyat nazariyasiga bo‘lgan yondashuviga asos soldi. U ong va aql yuzasidan emas, balki ong ostidan kelib chiquvchi kuchlarni o‘rganishi kerak edi. **Yung** Shveysariyaning Bazel shahridagi universitetga o‘qishga kirib, 1900 yilda tibbiyot fanlari bo‘yicha ilmiy daraja olib, ushbu o‘quv yurtini tamomlaydi. U psixiatriyaga katta qiziqish bildiradi va uning birinchi ish joyi Syurixdagi ruhiy kasallar klinikasi bo‘lgan. Bu klinikaning direktori shizofreniya bo‘yicha ishlari bilan tanilgan **Yevgeniy Blyoyler** edi. 1905 yilda **Yung** psixiatriya bo‘yicha ma’ruza o‘qish uchun Syurix universitetiga taklif etiladi, ammo u bu taklifdan voz kechadi va butun vaqtini ilmiy tadqiqotlar va shaxsiy amaliyotiga bag‘ishlashni afzal ko‘radi. Muolaja jarayonlarida **Yung**, **Freyddan** farqli o‘laroq, bemorlarni kushetkaga yotqizmasdi. U shunday degan: “Mening maqsadim kimnidir darhol karavotga tortish emas!” U bemorni o‘zining ro‘parasidagi qulay kursiga o‘tqazardi. **Yung Freydning** g‘oyalari bilan ilk bor 1900 yilda tanishgan — u paytda u “Tushlarni izohlash(ta’vil qilish)” asarini o‘qigan va bu kitobni haqiqiy shohasar deb baholagandi. 1906 yilda **Freyd** va **Yung** o‘rtasida yozishmalar boshlanadi, bir yil o‘tib esa **Yung** Venaga Freyd bilan uchrashuvga boradi. Ushbu ilk uchrashuvda ular katta hayajon bilan 13 soat davomida suhbatlashadilar. Keyinchalik bu do‘stlik “ota va o‘g‘il” munosabatlariga aylanadi. 1909 yilda **Yung Freydni** AQShga, Klark universitetiga qilgan safarda hamrohlik qiladi va u yerda **Freyd** kabi ma’ruza qiladi. **Freydning** ko‘pgina shogirdlaridan farqli o‘laroq, **Yung Freyd** bilan uchrashgunchayoq muvaffaqiyatli mutaxassisga aylangan edi. Balki shuning uchun ham u boshqalarga qaraganda kamroq ta’sirchan, avtoritet bosimiga ham kamroq moyil bo‘lgan. Chunki **Freydning** ko‘pgina shogirdlari

psixooanaliz maktabiga universitet yoki tibbiyot maktabini endigina tugatgach qo'shilgan edilar. **Yung** hayotining tanqidiy davrlarida har doim aqlning emas, balki tushlar orqali ifodalangan ong ostining ovozigiga quloq tutar edi. Agar **Freyd** *libidoni asosan jinsiy sohalar bilan bog'lasa*, Yung uchun libido — bu umumiy hayotiy energiya bo'lib, unda jinsiylik faqatgina bir tarkibiy qism hisoblanadi. Yungning fikriga ko'ra, *libido deb ataluvchi asosiy hayotiy energiya o'sish va ko'payishda, shuningdek, shaxs uchun muayyan vaqtda muhim bo'lgan turli faoliyatlarda namoyon bo'ladi*. **Yung Freyd** tomonidan ilgari surilgan *Edip kompleksi* tushunchasini rad etgan. U bolaning onaga bog'liqligini oddiy hayotiy ehtiyojlar va onaning ushbu ehtiyojlarni qondirish qobiliyati bilan izohlagan. Bola o'sib borishi bilan unda seksual ehtiyojlar paydo bo'ladi va ular avvalroq ustuvor bo'lgan ovqatlanish ehtiyoji bilan birgalikda namoyon bo'ladi. **Yung** *libido energiyasi faqat pubertat (o'smirlik) davridagina geteroseksual shaklga kiradi, deb taxmin qilgan. U bolalikda jinsiy kuchlar mavjudligini mutlaqo inkor etmagan, ammo jinsiylikni shaxs psixikasidagi ko'plab ichki tiyilishlardan biri deb hisoblardi*. **Yung**ning shaxsiy hayotiy tajribasi, shubhasiz, uning qarashlariga katta ta'sir ko'rsatgan. Uning ong ostiga bo'lgan qiziqishi, avval aytilganidek, uning kasbiy tanlovida hal qiluvchi rol o'ynagan. Jinsiylik masalasida ham biografik omillarning ta'sirini ko'rish mumkin. **Yung** o'z nazariyasida *Edip kompleksiga murojaat qilmagan, chunki bolalikda shunday shaxsiy tajribasi bo'lmagan. U onasini haddan tashqari semiz va jozibasiz ayol deb tasvirlagan va shu boisdan Freydning har bir bola o'z onasiga nisbatan jinsiy mayl his qiladi, degan fikrini tushuna olmagan*. **Freyddan** farqli ravishda, **Yung** jinsiy hayot bilan bog'liq muammolarni boshdan kechirmagan. Shuningdek, **Freyddan** farqli ravishda, u o'zining jinsiy hayotini cheklashga urunmagan. **Yung**da bemor va shogird ayollar bilan yillar davom etgan jinsiy aloqalar bo'lgan. **Freyd va Yung** qarashlari o'rtasidagi yana bir muhim farq — shaxsiyatni shakllantiruvchi kuchlar yo'nalishi haqidagi tasavvurga bog'liq. **Freyd** *nuqtai nazaridan, inson o'z bolalik tajribalarining mahsulidir. Yung esa inson faqat o'tmish tajribalari bilan emas, balki kelajakdagi maqsadlari, intilishlari va umidlari bilan ham belgilanadi, deb hisoblagan. Uning fikriga ko'ra, shaxsiyat shakllanishi besh yoshda to'xtamaydi. Inson butun hayoti davomida o'zgara oladi, ba'zan — juda jiddiy darajada*. **Freyd va Yung** o'rtasidagi uchinchi farq shundaki, **Yung** ong osti sohasiga yanada chuqurroq kirib borishga harakat qilgan. *U ong ostini tushunishga yana bir o'lchov — butun insoniyatning biologik evolyusiya jarayonida hayvon ajdodlaridan meros qolgan umumiy (kollektiv) ong ostini qo'shgan*. **Yung** ong osti psixikasini ikki darajaga ajratgan. Ong darajasining darhol ostida shaxsiy ong osti (lichnoe besoznatelnoe) joylashgan bo'lib, u insonning shaxsiy tajribasiga oid bo'lgan barcha xotiralar, impulslar, xohish-istaklar, noaniq idroklar va unutilgan yoki siqib chiqarilgan holatlardan iboratdir. Bu ong osti qatlami juda chuqur emas — u yerda saqlanayotgan voqealarni anglash va xotiraga qayta olib kelish mumkin. Shaxsiy ong ostining mazmuni muayyan tematik komplekslar shaklida tuzilgan: his-tuyg'ular, xotiralar, xohishlar va boshqalar. Bu komplekslar ongda muayyan ustuvor g'oyalar — kuch g'oyasi, kamchilik g'oyasi va shunga

o'xshash ko'rinishlarda namoyon bo'lib, insonning xatti-harakatiga ta'sir ko'rsatadi. *Kompleks* — bu inson shaxsiyati ichidagi go'yoki yana bir kichik shaxsiyatdek namoyon bo'ladi. *Shaxsiy ong osti darajasidan ham chuqurroqda — kollektiv ong osti (collective unconscious) joylashgan bo'lib, bu inson uchun noayon, ya'ni unga ma'lum bo'lmagan, unutilgan emas, balki hech qachon anglanmagan holdagi evolyusion tajribalarni o'z ichiga oladi. Unda insonning ajdodlari, jumladan hayvon ajdodlarining jamlangan tajribalari saqlangan. Kollektiv ong osti — universal evolyusion tajribaning tashuvchisi bo'lib, shaxsiyat asosini tashkil etadi.* Muhim jihati shundaki, ushbu tajriba haqiqiy ong osti hisoblanadi — uni anglash, eslash, shaxsiy xotiradagi kabi qayta tiklash imkoni yo'q. *Kollektiv ong ostining tug'ma tendensiyalari arxetiplar deb ataladi va ular inson ruhiy hayotining ichki determinantlari sanaladi. Arxetiplar insonni muayyan holatlarda muayyan yo'nalishda harakat qilishga undaydi, bu jihatdan ular insonning hayvon ajdodlari shunga o'xshash vaziyatlarda tutgan o'zini tutish uslubiga o'xshash. Arxetiplar ongda hissiyotlar va boshqa psixik holatlar orqali namoyon bo'ladi.* Odatda, arxetiplar inson hayotidagi muhim voqealar bilan bog'liq: tug'ilish, o'lim, hayotning asosiy bosqichlari (bolalik, o'smirlik), hamda o'lim xavfiga reaksiyalar kabi jarayonlarda namoyon bo'ladi. **Yung** qadimgi sivilizatsiyalarga oid mifologiya va badiiy ijod namunalarini tadqiq etib, ularning asosida yotgan arxetipik ramzlarni aniqlashga harakat qilgan. Ma'lum bo'lishicha, shunday ramzlar — arxetipik simvollar — mavjud ekanki, ular barcha arxaik madaniyatlarda uchraydi, hatto vaqt va makonda juda uzoq va bir-biridan alohida rivojlangan sivilizatsiyalarda ham. Bu madaniyatlar o'rtasida bevosita aloqa bo'lishi mutlaqo mumkin bo'lmagan, biroq ularda o'xshash simvollar mavjudligi aniqlangan. **Yung** o'z bemorlarining tushlarida shunday umumiy arxetipik ramzlar izlarini topishga muvaffaq bo'lgan. Bu uning kollektiv ong osti g'oyasiga bo'lgan ishonchini yanada mustahkamladi. **Yung** ta'limotiga ko'ra, to'rtta arxetip boshqalarga qaraganda ko'proq uchraydi: 1. **Persona**. *Persona* — bu inson jamiyatda boshqalar bilan muomala qilishda, o'ziga taqib oladigan «niqob»idir. U insonni atrofdegilar qanday qabul qilishini istashiga mos ravishda namoyon qiladi. *Persona* shaxsning haqiqiy ichki "Men"i bilan mos kelmasligi mumkin. **Yung**dagi persona tushunchasi sotsiologiyadagi rolli xulq-atvor tushunchasiga o'xshash: odam o'zini muayyan vaziyatlarda boshqalar nima kutayotgan bo'lsa, shunga mos ravishda tutadi. 2. **Anima va animus**. Bu arxetiplar **Yung**ning har bir insonda qarshi jinsga xos ba'zi psixologik xususiyatlar mavjud degan g'oyasiga asoslanadi. **Anima** — erkak shaxsidagi ayolga xos (feminin) xususiyatlarni ifoda etilishi. **Animus** — ayol shaxsidagi erkakka xos (maskulin) xususiyatlar borligini anglatadi. Bu arxetiplar inson avlodlari tarixi chuqur qatlamlarida, ayol va erkak ajdodlar bir-birining hissiy va xulq atvor tamoyillarini o'zlashtirgan davrda shakllangan. 3. **Soya (Ten)**. **Soya** (nemischa Schatten) — insonning "Men"i bilan qarama-qarshi bo'lgan, uning qarama-qarshi, qorong'u tomonidir. U insonning hayvoniy o'tmishidan qolgan irsiy meros sifatida qaraladi. **Yung**ga ko'ra, **soya** — bu bizning ichimizdagi barcha axloqqa zid, shafqatsiz, kuchli hissiy, qabul qilib bo'lmaydigan istaklar va

harakatlarning yig'indisidir. **Yung** ta'kidlaydi: **soya** bizga odatda hech qachon jasorat qilmaslikka intiladigan, lekin ba'zida to'satdan sodir etiladigan harakatlarimizni rag'batlantiradi. Bunday paytlarda inson o'zini «go'yoki menda nimadir tutib qoldi» deb izohlaydi. Ana shu "nimadir" — **soyani ifodalanishi**, ya'ni shaxsning eng ibtidoiy xilqatiy qismi. Biroq **soya** faqat salbiy qirraga ega emas. U — insondagi spontanlik, ijodiy ilhom, to'satdan yuzaga keladigan ma'rifiy onlar va chuqur his-tuyg'ular manbaidir. Bularsiz esa haqiqiy, to'laqonli inson hayoti mavjud bo'lishi mumkin emas. **Yung** eng muhim arxetip sifatida "**Men**" tushunchasini hisoblagan. U ong ostidagi turli jihatlarni uyg'unlashtirib, shaxsiyatda birlik va barqarorlik yaratishga xizmat qiladi. Shu tariqa, "**Men**"ning vazifasi — *shaxsiyatning turli tizimosti va qismlarini integratsiyalash, ya'ni bir butunga aylantirishdir*. **Yung** "**Men**"ni insonning o'zini ro'yobga chiqarish istagi — samoaktualizatsiyaga intilish bilan solishtirgan va uni shaxsiyat salohiyatining to'la ochilishi, uyg'unligi va yaxlitligi sifatida ta'riflaydi. **Yung**ning ishonchiga ko'ra, samoaktualizatsiyaga faqat o'rta yoshda — taxminan 35–40 yoshlarda erishish mumkin. Shuning uchun u bu yoshni shaxsiyat rivojlanishida inqilobiy va hal qiluvchi bosqich deb hisoblagan. Bu davrda shaxs chuqur va ijobiy o'zgarishlar kechiradi. Uning bu qarashlarida avtobiografik elementlar ham mavjud: aynan shu yoshda **Yung** shaxsan o'zi *nevrotik inqirozni* yengib, o'z "**Men**"ning yaxlitligini anglashga erishgan. Shu bois, **Yung** uchun shaxsiyat rivojlanishidagi eng muhim davr — bolalik emas, balki o'rta yosh — insonning ruhiy inqirozni yengib o'tadigan va o'zini to'liq tushunishga harakat qiladigan yoshi sanaladi. Bu jihatdan u Freyddan keskin farq qiladi. **Psixologik tiplar: introversiya va ekstraversiya**. **Yung**ning introversiya va ekstraversiya tushunchalari bugungi kunda ham juda mashhur. **Ekstravertlar** — o'z libidosi (hayotiy energiyasi)ni tashqi dunyoga, boshqa odamlarga va atrofdagi voqealarga yo'naltiradigan shaxslar. Ular atrof muhit ta'siriga ochiq, jamiyatga oson moslasha oladi va ko'p holatlarda o'zlariga ishonuvchan bo'ladi. **Introvertlar** esa o'z energiyasini ichki dunyosiga qaratadi. Ular kuzatuvchan, introspeksiyaga moyil, tashqi ta'sirlarga kamroq beriluvchan, ijtimoiy munosabatlarda o'ziga kamroq ishonuvchan va jamiyatga moslashish darajasi pastroq bo'ladi. Ammo har bir insonda bu ikki qarama-qarshi tip ma'lum darajada mavjud. Biroq ulardan biri odatda ustunlik qiladi. Shu bilan birga, shaxsning muayyan vaziyatlardagi xatti-harakat turi (masalan, shaxsiy manfaatlariga daxldor hollarda) o'zgarishi mumkin — odatda introvert bo'lgan inson ham jamiyatda faolroq bo'lib qolishi mumkin. **Alfred Adler (1870–1937)**. **Alfred Adler** — ijtimoiy-psixologik yo'nalishdagi psixoanalizning birinchi vakili sifatida tan olingan. U 1911 yilda **Freyd** maktabidan ajralib chiqqan va o'z yo'nalishini ishlab chiqqan. Uning konsepsiyasida ijtimoiy omillar markaziy o'rinni egallaydi. Shuningdek, u yagona psixolog bo'lib, uning nomi bilan atalgan "torli(strunnyy) kvartet" ham mavjud — bu uning madaniy ta'sirini ham tasdiqlab turadi. **Hayot sahifalari**. **Alfred Adler** Vena atrofida joylashgan bir boy oilada tug'ilgan. Uning bolalik yillari doimiy kasalliklar, katta akasiga nisbatan hasad va onasi tomonidan to'liq qabul qilinmaslik hissi bilan o'tadi. **Adler** o'zini zaif, ojiz va xunuk deb bilardi. U

onasiga nisbatan emas, balki otasiga ko'proq yaqinlik his qilgan va shu sababli, **Yung** singari, keyinchalik **Freydning Edip kompleksi** konsepsiyasini qabul qilmagan — chunki u bunday tuyg'ularni bolaligida boshdan kechirmagan. U bola bo'lgan paytda tengdoshlari orasida tan olinish va ommalashish uchun katta kuch va harakat sarflagan. Vaqt o'tishi bilan u yuqori darajadagi o'z-o'ziga bahoni shakllantirishga erishgan va o'ziga bo'lgan ishonchni atrofdagilar ham tan olgan — bu esa uning oilasida yetishmagan narsa edi. Avvaliga **Adler** o'qishda shunchalik zaif ediki, hatto o'qituvchisi uning kelajagi etikdo'z (sapojnik) shogirdiligidan uzoq ketmasligini aytgan. Biroq u mehnatsevarligi va qat'iyatliligi tufayli sinfdagi eng yaxshi o'quvchilardan biriga aylanadi. Akademik va ijtimoiy kamchiliklarini yengib, komplekslardan xalos bo'lgan holda, u keyinchalik o'zi yaratgan nazariyaning hayotdagi jonli namunasiga aylanadi. Uning shaxsiyat rivojlanishi nazariyasida shaxsiy zaiflik va kamchiliklarni kompensatsiya qilish muhim o'rin tutadi. Uning konsepsiyasining asosini tashkil etuvchi pastlik (nepolnotsennost) hissi aynan bolalik tajribalaridan kelib chiqqan bo'lib, Adlarning o'zi buni ochiq tan olgan. To'rt yoshida o'lim xavfi bilan bog'liq pnevmoniyadan sog'aygach, u vrach bo'lishga qaror qilgan. 1895 yilda Vena universitetida tibbiyot ta'limini olib, ilmiy darajaga ega bo'ladi. Oftalmologiya bo'yicha ixtisoslikni olganidan va umumiy tibbiyot amaliyotidan so'ng, psixiatriyaga qiziqish bilan murojaat qiladi. 1902 yilda **Adler** psixoanaliz bo'yicha har haftalik muhokamalar guruhiga to'rtta asoschilardan biri sifatida qo'shiladi. U **Freydning** yaqin hamkori bo'lganiga qaramay, ularning shaxsiy munosabatlari iliq rivojlanmadi. Hatto **Freyd** bir paytlar uni ergashma buzoq («zanuda») deb atagan. Keyingi bir necha yil mobaynida **Adler** psixoanalizning o'ziga xos, **Freyd** tizimidan jiddiy farq qiluvchi yo'nalishini ishlab chiqadi. U **Freydning** jinsiy omillarga ortiqcha e'tibor qaratayotganini ochiq tanqid qiladi. 1910 yilda **Freyd Adler** nomzodini Vena psixoanalitik jamiyati prezidenti sifatida taklif qiladi — ehtimol, ular o'rtasidagi qarama-qarshiliklarni yumshatish uchundir. Biroq 1911 yilda ularning ajralishi muqarrar bo'lib qoladi. Bu ajralish dramatik tarzda kechadi: **Adler Freydni** qallob deb atab, psixoanalizni esa «*iffatsizlik va jirkanchlik*» deb baholaydi. **Freyd** ham o'z navbatida jim qolmaydi — u Adlerni o'z manfaatlarini va ambitsiyasiga sho'ng'igan “*ruhiy nosog'lom inson*” deb ta'riflaydi. **Alfred Adlarning keyingi hayoti va individual psixologiyasi haqida.**

1. Birinchi jahon urushi va klinik faoliyat. Birinchi jahon urushi davomida **Alfred Adler** Avstriya armiyasida vrach sifatida xizmat qilgan. Urushdan keyin Vena maktab tizimi doirasida bolalar klinikasi tashkil etgan, bu orqali o'zining ijtimoiy-psixologik yondashuvini amaliyotga tatbiq etishni boshlagan.

2. AQShdagi faoliyati va vafoti. 1920-yillarda Adlarning «individual psixologiya» deb nomlangan ijtimoiy-psixologik sistemasi katta mashhurlikka erishadi. 1926 yilda u AQShga bir necha bor tashrif buyuardi, 1934 yilda Nyu-Yorkdagi Long-Aylend tibbiy kollejida tibbiy psixologiya professori lavozimiga taklif qilinadi. U Shotlandiyaning Aberdin shahrida ma'ruzalar turnesi paytida vafot etadi.

3. Freydning munosabati. Adlarning o'limi munosabati bilan izhor etilgan ta'ziralarga javoban, Zigmund Freyd shunday yozadi: “Vena

atrofidagi yahudiy bolaning Aberdinda vafot etishi — bu misli ko‘rilmagan karera. U psixoanalizga qarshi kurashda ko‘rsatgan harakatlari uchun dunyodan ancha ziyoda mukofot oldi”. Bu jumla **Freydning Adlerga** nisbatan chuqur shaxsiy antisimpatiyasini va ularning qarama-qarshi qarashlarini ochiq-oydin ko‘rsatadi. **4. Individual psixologiya nazariyasi. Adler** tomonidan yaratilgan individual psixologiya — bu **Freydning** biologik va jinsiy asoslangan yondoshuvlariga qarshi turadigan ijtimoiy yo‘naltirilgan psixologik tizimdir. Asosiy g‘oyalar: **1. Ijtimoiy manfaat (sotsialnyy interes): Adler** inson xulq-atvorini biologik emas, ijtimoiy omillar bilan izohlaydi. U jamiyatga moslashish va hamkorlik qilish qobiliyatini tug‘ma salohiyat deb hisoblaydi, lekin bu salohiyat bolalik tajribasi orqali rivojlanishini tasdiqlaydi. **2. Ongi faolligi va maqsadli harakat: Freyd** xulq-atvorni asosan o‘tmish orqali izohlagan bo‘lsa, **Adler** kelajakdagi maqsadlar va intilishlarni muhim deb biladi. Masalan, kimdir agar o‘limdan keyingi la‘natga ishonsa, uning bugungi xulqi boshqalarnikidan farq qiladi. **3. Shaxsiyatning yaxlitligi: Freyd** shaxsiyatni *id, ego, super-ego* kabi qismlarga ajratgan bo‘lsa, Adler shaxsiyatni bir butun, uyg‘un tuzilma deb qaraydi. Uningcha, barcha ichki resurslar va harakatlar bitta asosiy maqsad — o‘zini tasdiqlash va ustunlikka intilish yo‘lida birlashadi. **5. Asosiy maqsad** — ustunlikka intilish (stremlenie k prevosходstvu). Bu insonning ichki harakatlantiruvchi kuchi bo‘lib, o‘zini anglash, shaxsiyatni rivojlantirish va hayotga ma‘no berishga xizmat qiladi. **Adler** bu kuchni tug‘ma, universal harakat deb hisoblagan va uni shaxsiyatning barcha jabhalarida (hissiyotlar, xulq-atvor, fikrlash va h.k.) kuzatish mumkinligini ta‘kidlaydi. **Asosiy tushuncha. Adlarning yondashuvi: Oila va jamiyat :** Shaxsning rivojlanishi ijtimoiy muhit va maqsadlarga bog‘liq **Bola rivoji:** Kamlik hissini kompensatsiya qilish orqali o‘sish. **Xulq-atvor manbai:** Ongli harakatlar va kelajakdagi maqsadlar. **Shaxsiyat tuzilishi:** Yaxlit, integral tuzilma; ichki kuch — ustunlikka intilish. **Psixoterapiya:** Maqsadlarga yo‘naltirilgan, ijtimoiy motivlar tahlili asosida. **Yetishmovchilik hissi** (Chuvstvo nepolnotsennosti) — Adler nazariyasining markaziy tushunchasi. **Alfred Adler Freydning** “insonni asosan jinsiy omillar boshqaradi” degan fikrini qabul qilmaydi. Uningcha, shaxsiyatni harakatga keltiruvchi haqiqiy ichki kuch — bu umumlashgan *yetishmovchilik hissidir*. Bu fikr, shubhasiz, **Adlarning** shaxsiy hayotidagi tajribasiga ham bog‘liq. Boshida **Adler** kamlik hissini jismoniy nuqsonlar bilan bog‘lagan: *Agar bolada irsiy yoki tug‘ma jismoniy kamchiliklar bo‘lsa, u shu nuqsonni kompensatsiya qilishga harakat qiladi*. Masalan: Dudaq bola (zaika) nutq terapiyasi orqali buyuk notiqqa aylanishi mumkin. Qo‘l-oyog‘i zaif bola jismoniy mashqlar yordamida yaxshi sportchi yoki raqqos bo‘lishi mumkin. Keyinchalik, **Adler** bu tushunchani kengaytirdi: *Yetishmovchilik hissi* nafaqat jismoniy, balki: ruhiy (psixologik), ijtimoiy, o‘zini past his qilish, tortinish, intilishlar kamligi kabi ichki to‘siqlarni ham o‘z ichiga oladi. U nafaqat real, balki tasavvur qilingan (mnimyy) nuqsonlar haqida ham gapiradi. Bolada himoyasizlik, kuchsizlik, boshqalarga bog‘liqlik hissi tabiiy ravishda yetishmovchilik hissini keltirib chiqaradi. Bu tuyg‘u har bir insonga tanish holat. **Ustunlik (Prevosходstvo) Adlarning** fikricha — kamlik

hissiga tabiiy javob. Inson yetishmovchilik hissini yengish uchun o'zini rivojlantirishga, ko'proq narsaga erishishga, *ustunlik, yuqorilik* (prevosходство) sari intiladi. Bu jarayon shaxsni ham ruhan, ham ijtimoiy jihatdan o'sishga, o'zini anglash va salohiyatini ro'yobga chiqarishga olib boradi. **Yetishmovchilik hissining ikki tomoni. Ijobiy tomoni:** Insonda rivojlanish, intilish va muvaffaqiyatga eishish motivatsiyasini uyg'otadi. Jamiyat uchun ham ijobiy talabni yaratadi. **Salbiy tomoni:** Agar bola bolalikda bu hisga nisbatan haddan tashqari qattiq yoki haddan tashqari yumshoq munosabatga duch kelsa, normal kompensatsiya emas, balki anomal xulq-atvor shakllanishi mumkin. **Yetishmovchilik kompleksi** (Kompleks nepolnotsennosti): Agar bola o'z kamchiliklarini yetakchi kuchga aylantira olmasa, uni kompensatsiya qilishga qobil bo'lmasa, unda *yetishmovchilik kompleksi* rivojlanishi mumkin. Bu holat: o'zini past baholash, ishonchsizlik, intilishni to'xtatish, tajovuzkorlik yoki ijtimoiy izolyatsiya kabi jiddiy muammolarga olib kelishi mumkin. Adlarning yetishmovchilik hissi konsepsiyasi inson rivojini jinsiy va ong osti omillar orqali emas, ijtimoiy, psixologik va maqsadli harakatlar asosida tushuntirishga harakat qiladi. Uningcha: *Har bir insonda kamchiliklar bor, lekin u shu orqali o'sadi; Shaxsiy kamchilik — muammo emas, balki rivojlanish uchun imkoniyatdir; Muhimi — bu hisni qanday yo'nalishda kompensatsiya qilish.* Yetishmovchilik kompleksi va yetishmovchilik hissi haqida yana ozroq mulohazaga chorlayman.

1. Yetishmovchilik kompleksi simptomlari (belgilar). *Yetishmovchilik hissi — tabiiy holat bo'lsa, yetishmovchilik kompleksi — bu o'ta kuchli va uzoq davom etuvchi holat bo'lib, shaxsning o'sishini to'sadi.* **E'tibor berish lozim bo'lgan asosiy simptomlar:** *O'zini past baholash;* "men qodir emasman", "men arzimayman" degan ichki fikrlar. *Haddan tashqari tanqidga yopiqlik;* o'zini oimo himoya qilish holati, hatto oddiy maslahatni tahdid deb qabul qilish. *Ijtimoiy izolyatsiya(yopiqlik);* jamoada o'zini noqulay his qilish, yolg'izlikka moyillik. *Tajovuzkorlik;* yetishmovchilik hissini himoya qilish uchun o'zini yuqori qo'yish, boshqalarni kamsitish. *O'zini soxta namoyon qilish (maska);* jamiyatda "ideal" shaxs rolini o'ynash, aslida o'ziga ishonchsizlikni yashirish. *Qo'rquv va faoliyatsizlik;* yangi imkoniyatlardan qochish, notanish vaziyatlarda passivlik qilish.

2. Tarbiyada kamlik hissi shakllanishiga ta'sir qiluvchi omillar. Yetishmovchilik hissining paydo bo'lishi ko'p hollarda bolalikdagi tarbiyaga bog'liq. Adler ularni tarbiyadagi xatolari va oqibatlarini quyidagicha ta'kidlaydi: *Haddan tashqari qattiq nazorat;* bola o'ziga ishonmaslikni o'rganadi, qaror qabul qilishda boshqalarni fikriga qaram bo'ladi. *Ortiqcha erkalatish;* bola hech qanday qiyinchilikka tayyor emas, real hayotga moslashishda qiynaladi. *Solishtirish (akasi/singlisi bilan);* bolada "men undan yomonman" fikri shakllanadi. *Shaffof muhabbat yo'qligi;* bola o'zini noto'liq, yetarli emas deb his qilishga odatlanadi. Adler ta'lim va tarbiyada: *hurmat, teng munosabat, maqsadga yo'naltirish va erkin rivojlanishni asos qilib oladi.*

3. Adlercha psixoterapiyada yetishmovchilik hissini yengish usullari. Adler psixoterapiyasi motivatsion va gumanistik yondashuvga asoslangan. Uning maqsadi — insonni o'z imkoniyatlariga ishontirish va undagi ijobiy kuchni

faollashtirish. **Asosiy usullar:** **1. Jamiyat foydasi uchun maqsad qo‘yish** (sotsialnaya napravlennost). Yetishmovchilik hissini faqat shaxsiy muvaffaqiyat emas, balki jamiyatga foyda keltirish orqali yengish mumkin. **2. Qadriyatlar va kuchli jihatlarni aniqlash.** Terapevt bemorga: “Sizda nima bor?” degan tamoyil asosida yondoshadi, ya’ni mavjud kuchlarini ro‘yxatga olish va ularni rivojlantirish. **3. Yetishmovchilik hissini normallashtirish.** “Bu tuyg‘u — insoniy, siz yolg‘iz emassiz” — degan tamoyil orqali odam o‘zini tushunadi, qabul qiladi. **4. Niyatlar va kelajak maqsadlar ustida ishlash.** Adlercha terapiya o‘tmishni emas, kelajakni qayta qurishga yo‘naltiradi. Shaxsning hayotdagi yo‘nalishi, niyati qayta shakllantiriladi. **5. Yumor va insonparvarlik.** Adler yumorni qo‘llab-quvvatlagan: hayotga yengilroq qarash shaxsiy yukni yengillashtiradi. **Hayot uslubi.** Adler ta’limotiga ko‘ra, insonning ustunlikka intilishi umumiy, tabiiy harakat hisoblanadi, ammo bu maqsadga yetishning turli yo‘llari mavjud. Har bir inson bu kurashni o‘zgacha tarzda amalga oshiradi, natijada faqat o‘sha shaxsga xos va noyob bo‘lgan usullar yoki shakllar yuzaga keladi. Adler buni «*hayot uslubi*» deb ataydi. *Hayot uslubi* — bu insonning o‘zining haqiqiy yoki taxminiy kamchiliklarini kompensatsiya qilishda qo‘llaydigan xulq-atvor usullari yoki strategiyalaridir. Masalan, jismoniy nuqsonga ega bola o‘z hayot uslubini sport bilan shug‘ullanishga yo‘naltirsa, bu uning kuch va chidamlilikni rivojlantirishga xizmat qiladi. Oddiy qilib aytganda, *hayot uslubi* — insonning hayotni qanday qabul qilishi va unga qanday munosabatda bo‘lishidagi individual yo‘nalishidir. *Hayot uslubi* odatda 4–5 yoshlarda shakllanadi va keyinchalik uni o‘zgartirish juda qiyin bo‘ladi. U insonning hayot tajribasini qanday qabul qilishi va tartibga solish usulini belgilab beradi. Bu yerda yana **Freyd va Adler** qarashlari o‘rtasidagi farqni ko‘ramiz: *Freyd* ham bolalik davri ahamiyatini ta’kidlaydi, biroq **Adler** shunday deydi — inson o‘z hayot uslubini ongli ravishda shakllantira oladi, bu esa uning “Men”ini (shaxsiyatini) namoyon etadi. **“Men”ning ijodiy kuchi.** «Men»ning ijodiy kuchi — **Adler** nazariyasining eng yuqori va mukammal g‘oyasi hisoblanadi. U shunday taxmin qilganki, inson o‘z shaxsiyatini o‘ziga xos hayot uslubiga muvofiq ravishda faol ravishda shakllantira oladi. Bu ijodiy kuch inson mavjudligining faol asosiy tamoyilidir. Unga an’anaviy ma’nodagi «ruh» deb qarash ham mumkin. Inson o‘z xulq-atvorini, qobiliyatlari, irsiy merosi, va muhit ta’siri bilan shakllangan hayot tajribasi asosida qursa-da, eng muhimi — bu tajribani qanday qabul qilish va tushunish o‘zimizga bog‘liqdir. Aynan shu yo‘l orqali inson o‘z hayot uslubini yaratadi. Demak, inson ongli ravishda o‘z shaxsiyatini va taqdirini shakllantirishga qodirdir. **Adler** fikricha: “*Biz o‘z taqdirimizni boshqaradigan sub’ektlarmiz, o‘tmish tajribalarining qurboni emas.*” *Hayot uslubi* — bu insonning individual yondashuvi, hayotda o‘z kamchiliklarini qanday kompensatsiya qilishini ifoda etadi. «Men»ning ijodiy kuchi — insonning o‘zida mavjud salohiyatni anglab, faol ravishda shaxsiyatini shakllantirish qobiliyatidir. Adler insonni taqdir qurboni emas, balki taqdir yaratuvchisi deb ko‘radi. **Sharhlar.** **Adlerning** konsepsiyasi **Freyd** nazariyasida shakllangan inson haqidagi tasvir — ya’ni insonni asosan jinsiy motivlar

boshqaradi va shaxsiyat faqat bolalikda shakllanadi, degan g'oyalardan qoniqmagan kishilar tomonidan iliq qabul qilinadi. Albatta, insonning xulq-atvorini ongli ravishda boshqara olishi, uning faqat irsiy cheklovlar yoki bolalikdagi xususiyatlar ta'sirida qolmasligi haqidagi fikr — ko'pchilikka yoqimli tuyuladi. Umuman olganda, **Adler** inson tabiatiga nisbatan ishonchli va optimistik nuqtai nazarni taklif etadi. Biroq, uning ham tanqidchilari yetarlicha bo'lgan. Ko'plab psixologlar uning g'oyalarini yuzaki va faqat sog'lom aqlga suyangan deb hisoblagan. Ammo boshqalar, aksincha, unda chuqur fikrlaydigan, iste'dodli nazariyachini ko'rishgan. **Freydning** fikricha, **Adler** tizimi juda sodda edi. U shunday degan edi: *“Psixoanalizni o'rganishga ikki yil kerak bo'lishi mumkin, chunki u juda murakkab. **Adlerning** g'oyalarini esa ikki haftada o'zlashtirsa bo'ladi, chunki u yerda unchalik ko'p narsa bilish kerak emas.”* Bu fikrga Adler darhol rozi bo'lgan va shunday deydi: *“Aynan mana shu narsada ishning mohiyati bor. Mening g'oyalarimni shunchalik sodda qilish uchun to'rt yil emas, butun qirq yil sarfladim!”* **Psixointervension an'ana.** Psixointervension (ruhiy aralashuvchi) an'ana allaqachon fransuz klinik psixologiyasida, masalan **Sharko** va **Janega** tegishli klinikalarda kuzatilgan.

Nevrologiya fani asoschisi bo'lgan fransiyalik olim **Jan Marten Sharko** (1825–1893) inson ruhiyati bilan juda qiziqqan. **Sharko** dunyoqarashi juda keng olim bo'lib, nafaqat nevrologiya va psixologiya, balki falsafa, adabiyot, musiqa va rassomchilik bilan ham qiziqqan. **Sharko** o'z kitoblariga o'zi rasmlar chizgan. Uning mashhurligi Yevropada shu darajaga borib yetadiki, unga hatto *“Nevrologiya Napoleoni”* deb taxallus berishadi. **Sharko** Yevropa qirollari va qirolchalarining shaxsiy vrachi bo'lgan.

O'sha paytlari nevrologiya sohasini tanlagan yoshlar orasida *“Kim Sharko ma'ruzalarini eshitmagan ekan, demak, u nevrolog emas”* degan iboralar keng tarqalgan. Nafaqat Yevropa, balki boshqa davlatlardan ham nevrologlar bir marotaba bo'lsada, Sharkoning ma'ruzalarida ishtirok etish uchun Fransiyaga intilishgan. **Sharko** psixologiyaga shu qadar qiziqqanki, qanday nevrologik kasallik bo'lmasin, ularni davolashda psixologik ta'sir qilish usullarini targ'ib qilgan va qo'l lagan.

Sharko og'ir ataksiya holatida yotgan bemorga psixologik ta'sir qilib, turg'izib yuborgan. Sharko asab va ruhiyat borasida ko'p ilmiy asarlar yaratgan. Isteriyaning har bir klinik ko'rinishi va ushbu belgilarning organik simptomlardan farqini juda mukammal ifodalab bergan. U juda kuchli gipnozchi ham bo'lgan. Sharko gipnoz negizida fiziologik jarayonlar yotadi, deb yozgan. Gipnoz bilan mashhur nevrologlar va psixiaterlar shug'ullanishgan. Ulardan **J.Sharko**, **Benedikt**, **Forel**, **Levenfeld**, **Mopassan**, **S.S. Korsakov**, **Mebius** va **V.M. Bexterevlar** nomi mutaxassislarga yaxshi ma'lum.

Shu bilan birga, **Hyugo Myunsterberg** ham o‘zining «Psixoterapiya» nomli kitobida ushbu an’anani ilmiy asosda rivojlantiradi. Ushbu kitob 1909 yilda chop etiladi. **Myunsterberg** bemorlarni klinikada emas, balki laboratoriyada davolagan va doifan pul talab qilmaydi. U o‘zining nufuziga tayanar, bemorlariga qo‘llaniladigan davo usullari haqida hammani oldindan ogohlantirib qo‘yar edi. Uningcha, ruhiy kasalliklar insonning o‘z xulq-atvorini atrof muhitga moslashtirishdagi muvaffaqiyatsizligi, hamda ong ostidagi yashirin qarama-qarshiliklar natijasida yuzaga keladi. Uning terapevtik usuli shunday bo‘lgan: bezovta qiluvchi fikrlarni olib tashlash; qo‘pol va istalmagan odatlardan xalos qilish; salbiy his-tuyg‘ularni unutishga yordam berish; turli muammolarni yengishni o‘rgatish: alkogolizm, giyohvandlik, gallyusinatsiya, obsessiv fikrlar, fobiyalar, jinsiy muammolar va h.k. Ilk paytlarda **Myunsterberg** gipnoz usulidan foydalangan, ammo bir ayol uni otib tashlash bilan tahdid qilgach, gipnozdan butunlay voz kechadi. Bu voqea gazetalargacha yetib borgan va Garvard universiteti meri natijada, undan “ayollarga gipnoz qo‘llashni bas qilish”ni talab qiladi. **Myunsterberg**ning yozgan “Psixoterapiya” kitobi klinik psixologiya muammolariga jamoatchilik e’tiborini keng jalb etadi, ammo Pensilvaniya universitetida o‘z klinikasini yaqinda ochgan **Uitmer** tomonidan qabul qilinmaydi. “Psixologik klinika” jurnali uchun yozilgan maqolalaridan birida **Uitmer** shikoyat qilib shunday deydi: «*Myunsterberg psixoterapevtik davolash usullarini reklama qilish orqali kasbni “ko‘prikchilikka” tushirayapti, u o‘zini gipnozchi kabi tutayapti, Garvarddagi bu psixologiya professori shunchalar chaqqon harakat qilmoqdaki, go‘yo o‘z psixologik laboratoriyasida yuzlab nevrotik xastaliklarni davolagandek taassurot qoldiradi*». Psixointervension an’anani rivojlantirishda muhim hissa qo‘shganlardan biri – fransuz psixologiyasi giganti **Per Jane** (Pierre Janet, 1859–1947) bo‘ldi. U keksa yoshigacha faol va g‘ayratli inson bo‘lib qoladi, dogmalarsiz ish tutadigan shifokor sifatida isteriya bilan og‘rigan bemorlarni davolaydi. 30 yoshida **Jane** (1889) “Psixologik avtomatizm haqida” nomli doktorlik dissertatsiyasini yozadi. Keyinchalik u Parijdagi mashhur Salpetrier klinikasida **Sharkoning** shogirdi bo‘lib, patologik psixologiya laboratoriyasi direktoriga aylanadi. Qirq yil mobaynidagi minglab kuzatuvlari jamlangan ko‘plab tomlar uning ilmiy faoliyati haqida guvohlik beradi. **Jane** shunday deydi: «*Faqat muayyan sohalar bilan cheklanish hech qachon yaxshi natija bermaydi. Psixologiya holatida esa bu qaytarib bo‘lmaydigan oqibatlarga olib kelishi mumkin, chunki psixologiya hamma narsaga daxldor. U universaldir, psixologik faktlar har joyda mavjud*». **Janening** insonning xulq-atvori (harakatlari) aktlari teng darajali emas edi, balki turli darajalardagi tushunchalar ekanligi haqidagi g‘oyalari muhim ahamiyatga ega. Bu g‘oya keyinchalik **M.S. Rogovin** (1974, 1977) va uning shogirdlari tomonidan inson psixikasining strukturaviy-darajaviy yondashuvi doirasida (G.V. Zalevskiy, A.V. Solovev, L.P. Urvansev va boshqalar) eksperimental-psixologik jihatdan rivojlantiriladi. **Per Jane** barcha psixik jarayonlarni qamrab oluvchi strukturaviy-darajaviy konsepsiya yaratishga urinish qiladi. Unda psixik jarayonlarning an’anaviy taqsimoti yangi toifalar bilan almashtirildi va ularning mazmuni **Jane**

tomonidan ishlab chiqilgan tizim doirasida ochib berildi. Bu tizim uning birinchi yirik asari — “Psixik avtomatizm” (1889) dan boshlanib, keyingi ishlarida (1929) ham davom ettirildi. **Janening** nazariyasi biologik-psixologik xususiyatga ega bo‘lib, uni “funktional darajalar nazariyasi” deb atash mumkin. **Janega** ko‘ra, darajalar — bu turli murakkablik darajasiga ega bo‘lgan xulqiy harakatlar bo‘lib, pastdan yuqoriga tomon rivojlanib boradi. *Birinchi daraja* — tashqi stimullashning yuqori darajasi bilan bog‘liq reflektor harakatlar. *Ikkinchi daraja* — perseptiv harakatlar, ya‘ni tashqi murakkab va yaxlit ob‘ektlar ta‘sirida shakllangan xulq-atvor aktlari. *Jane uchinchi darajani* ijtimoiy-psixologik (aniqrog‘i, jamoaviy-psixologik) daraja deb belgilaydi. Bu yerda shaxsning xulq-atvori boshqalarga bo‘lgan munosabati orqali boshqarila boshlaydi. *To‘rtinchi daraja* — intellektual daraja bo‘lib, bunda mehnat mahsulotlarini yaratish va ulardan foydalanishga oid oddiy harakatlar amalga oshiriladi. Bu daraja operatsiyalarning qaytaruvchanligi (reversivligi) xususiyati bilan tavsiflanadi — bu g‘oya keyinchalik **Janening** shogirdi, o‘zi kabi mashhur **Jan Piaje** tomonidan genetik nuqtai nazardan rivojlantiriladi. Keyingi — *beshinchi va oltinchi darajalar*, tegishlicha i‘mon (e‘tiqod) va tafakkur bilan bog‘liq harakatlardan iborat. *Beshinchi darajada Jane* tilning ta‘sirini nazarda tutadi. *Oltinchi daraja* — mantiqiy operatsiyalar darajasi. *Yettinchi daraja* — eksperimental harakatlar va o‘tmish tajribasidan ongli ravishda foydalanish darajasi. *Sakkizinchi daraja* — tasodif, erkinlik va taraqqiyot kabi tushunchalarni anglash bilan bog‘liq harakatlar darajasidir. Har bir darajaga xos bo‘lgan harakatlar o‘zaro aloqada bo‘lib, inson shaxsiyati va individualligini shakllantiradi. **Janening** ta‘kidlashicha, eng yuqori darajalar ochiq (ya‘ni, rivojlanish uchun ochiq va cheksiz) xarakterga ega. **Janening** ishlari murakkab psixopatologik tahlil va nozik klinik usullarga tayangan, biroq u qat‘iy psixologik eksperimentning ahamiyatini kam baholagan. Uning klinik qiziqishlari asosan nevrozlar, xususan, isteriya sohasiga oid bo‘lib, bu borada **u 3. Freyd** bilan raqobatda bo‘lgan. **Freyd** singari, **Jane** ham bu «insoniyat qadimidan mavjud bo‘lgan» muammoni, ya‘ni «shifokorlar va psixiatrlar uchun tushdagi kabi qo‘rqinchli muammo»ni (Henri-Jean Barraud, 1972) tadqiq etgan. Uning ustoz **Jan Marten Sharko** «*nevrozlar Napoleoni*» deb atab kelingan. Klinik (tibbiy) psixologiya rivojiga qo‘shilgan yana bir muhim hissa — nemis psixiatri **Ernst Krechmer** (Ernst Kretschmer, 1888–1964) tomonidan amalga oshirilgan. **Krechmer** nomi tilga olinganda, odatda konstitutsion nazariya, ya‘ni insonning tana tuzilishi va ruhiy turlari haqidagi ta‘limot yodga tushadi. Bu ta‘limot bugungi kunda ham ta‘sirli hisoblanadi. Biroq bizga uning psixiatr, tibbiy psixolog va psixoterapevt sifatidagi roli ancha kamroq ma‘lum. **Krechmer**ning barcha tadqiqotlarini ichki jihatdan birlashtiruvchi narsa — bu uning butun hayoti davomida tibbiy psixologiyani nazariy va psixoterapevtik tizim sifatida shakllantirishga urinishidir. Bu tizimni ruhiy og‘ishlar va kasalliklarning butun doirasiga tatbiq etish mumkin bo‘lar edi. Shu asosda u jamiyat va madaniy hayotga doir istiqbollarni ham belgilash niyatida bo‘lgan. Bu, albatta, uning uchun jozibador maqsad bo‘lgan, biroq bunday harakat bir insonning o‘zi tomonidan amalga oshirilishi qiyin hisoblanadi, shunga

qaramasdan u o'z maqsadi yo'lida tinisiz tadqiqotlar olib borishni to'xtatmadi (Kretschmer, 1989, s. 922). Aniqki, bunday keng qamrovli vazifalarni faqatgina katta salohiyatga ega shaxslar oldiga qo'ya oladi — shunday shaxslardan biri **Ernst Krechmer** edi. U 1888 yili Vyustenrot shaharchisida protestant ruhoniysi oilasida dunyoga keladi. U Vyurtembergdagi protestant seminariyasida gumanitar ta'lim oladi va avval boshda teolog (dinshunos) bo'lishni niyat qiladi. 1906 yili, iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlovchi mashhur stipendiyaga sazovor bo'lib, Tyubingenda bir yil davomida falsafa o'rganadi. Ammo diniy tafakkur chegaralari unga tor kelgani uchun, keyinchalik tibbiyot sohasiga yo'naladi. **E. Krechmer** ko'p qirrali iste'dodga ega bo'lgan olib hisoblanadi. U nafaqat tibbiyotni muvaffaqiyatli o'zlashtiradi, balki: skripkada chalar, klassik qo'shiqlarni juda yaxshi ijro etar, rasm chizardi, ayniqsa yumoristik rassomlikda iqtidorli edi, Tyubingen teatri uchun satirik pesalar ham yozardi. Tyubingen – o'sha vaqtdagi talabalar shaharchasi – din, falsafa va adabiyot mavzusidagi jonli munozaralarga boy muhit edi. Bu bilan birga, Krechmer tabiatni yaxshi ko'rar va chiroyli chavandoz ham bo'lgan. Bu ma'lumotlar faqat biografiyani bezash uchun emas — yosh **Krechmer**ning ko'p tomonlama qobiliyatlari va faolligi undan buyuk olim yetishib chiqishi uchun asosiy omillardan biri bo'lgani shubhasiz. **Krechmer**ning psixiatriyaga qiziqishi o'qishning oxiriga kelib paydo bo'lgan. Bu jarayonda uning ustoz **Karl Gaupp** katta ta'sir ko'rsatadi, u nemis psixiatriyasida **Bleyle** bilan bir qatorda “psixologik tushunishga asoslangan” yo'nalishni namoyon qiladi. **Krechmer** Myunxen universitetida psixiatriyani o'rgangan paytda, **Emil Krepelin**ning mashhur ma'ruzalarini tinglaydi. Bu ma'ruzalarni butun Yevropadan kelgan talabalar tinglashardi. Ular orasida ingliz **Ernst Jons** ham bor edi — u keyinchalik **Freyd**ning shogirdi va biografi, hamda psixoanaliz maktabining yetakchi vakili bo'lib yetishadi. 1914 yili **Krechmer** doktorlik dissertatsiyasini himoya qiladi. Uning mavzusi: “Bred holatlari va maniakal-depressiv simptomlar majmuasi” (Wahnbildungen und manisch-depressiver Symptomkomplex)¹, ushbu ish **Krepelin** rahbarligida amalga oshiriladi. **Krechmer** aynan myunxenlik professori **Krepelin**dan psixiatriya va psixologiya muammolari o'rtasidagi uzviy bog'liqlik tushunchasini o'zlashtiradi. Ma'lumki, **Krepelin** o'zining psixiatriya bo'yicha birinchi kurs ma'ruzalarini “psixologik izohlar” bilan boshlard, chunki uning fikricha, “*tibbiyotni yangi o'rganayotgan shifokorlarga psixologik bilim yetishmaydi*” (1923, t. 1, b. 4). **Krepelin**dan **Krechmer** insonning konstitutsion xususiyatlari bilan ruhiy kasalliklar o'rtasidagi muayyan bog'liqlik g'oyasini oladi. Ayni shu g'oya keyinchalik ilmiy nazariya darajasigacha rivojlanadi, mutaxassislar orasida keng e'tirof va keskin tanqidlarga sabab bo'ladi, hamda 1922 yilda nashr etilgan “Tibbiy psixologiya” nomli kitobning mazmun asosini tashkil etadi. Bu nazariyaning asosiy mazmuni bir yil avval — 1921 yili nashr etilgan “Tana tuzilishi va xarakter” (Körperbau und Charakter) kitobida to'liq bayon etiladi. Bu kitob jahon psixologiyasi va psixiatriyasida katta voqea sifatida qabul qilinadi, ko'plab tillarga tarjima qilib va o'nlab marta qayta nashr etiladi. 38 yoshida **Krechmer** Marburg universitetida psixiatriya professori lavozimiga tayinlanadi. U mashhur va iste'dodli

shaxslarning psixik hayoti mavzusini rivojlantiradi va 1929 yilda o'zining "Daho insonlar" (Die Genialen) kitobini nashr etadi. Krechmerning nufuzi shifokorlar va psixologlar orasida tobora oshib boradi. U Germaniya psixoterapevtlar jamiyati prezidenti etib saylanadi. Biroq aynan shu lavozimda u Gitler hokimiyatga kelgan vaqtida bo'lgan. Jamiyat natsistlar nazoratiga o'tadi, va undagi a'zolaridan Gitlerning "Mein Kampf" kitobini sinchiklab o'rganish va bu orqali o'z sadoqatini isbotlash talab qilina boshlanadi. Bu talabga javoban, Krechmer darhol prezidentlikdan iste'fo beradi. Uning o'rniga **Karl Gustav Yung** jamiyat prezidenti bo'ladi. Urushdan keyin, 1946 yildan boshlab, **Ernst Krechmer** Tyubingen universitetida professor sifatida faoliyat yuritadi va universitetning nevrologiya klinikasiga rahbarlik qiladi. 1949 yili u "Psixoterapevtik tadqiqotlar" nomli kitobini nashr etadi. **E. Krechmer** 1964 yil 8 noyabrda vafot etadi. **Krechmerning** o'g'li Wolfgang Krechmer — nevropatologiya va psixiatriya professori bo'ldi, va otasining ilmiy ishini davom ettirdi. Uning nabirasi esa — rus tili o'qituvchisi bo'ldi, ehtimol bu ham otasining ta'siri natijasidir. Sababi: u (Krechmerning o'g'li) Ikkinchi jahon urushi davrida shifokor sifatida xizmat qilgan, asirga tushgan, ruslar bilan muloqot qilgan, ularni davolagani va hatto rus tilida ancha erkin so'zlashgani ma'lum. Ernst Krechmerning "Tibbiy psixologiya" asari ko'p jihatdan e'tiborga loyiq kitobdir. Eng avvalo, bu — tibbiy psixologiya bo'yicha ilk darsliklardan biri hisoblanadi. Bu kitob ushbu fan sohasi hali shakllanish bosqichida bo'lgan davrda yaratilgan, va o'sha paytda Germaniyada universitetlar uchun tibbiy psixologiya fanidan ta'lim standartlari yoki professorlarning mustahkamlashgan uslublari hali mavjud emas edi. **V.A. Lukov** ta'kidlashicha, aynan **Krechmer** o'z kitobida darslikka xos tuzilish (struktura) namunasini taqdim etgan, va bu namuna bugungi kunda ham deyarli o'zgarmagan holda zamonaviy mualliflar tomonidan qo'llanilib kelmoqda (1998, b. 448). Shu narsani ta'kidlab o'tmoqchimanki, bu yerda gap klinik psixologiya emas, balki tibbiy psixologiya bo'yicha darsliklar haqida ketmoqda. Ular, asosan, kelajakdagi shifokorlar uchun mo'ljallangan bo'lib, ko'pincha psixologlar emas, balki psixiatrlar tomonidan yozilgan. Shu bilan birga, bu asar, shubhasiz, klinik psixologiya bo'yicha tahsil olayotgan talabalar va bu sohadagi mutaxassislar uchun ham juda foydali hisoblanadi. Krechmer o'zining "Tibbiy psixologiya" kitobining 16-bobini psixoterapiya muammolariga bag'ishlaydi. U bu yerda deontologiya (shifokorning axloqiy burchlari va mas'uliyati) masalalariga alohida e'tibor qaratadi va o'sha vaqtda ma'lum bo'lgan va o'zi qo'llagan psixoterapevtik texnologiyalarning keng turini tasvirlab beradi — bular qatoriga: *psixogogika (emotsional va axloqiy tarbiya orqali ta'sir)*, *suggestiya (vnushenie)*, *gipnoz va psixoanalitik* usullar kiradi. **Krechmerning** konstitutsional nazariyasi haqida gapirar ekanmiz, u bu nazariya ustida o'z shogirdlari, jumladan, o'g'li bilan birgalikda umrining oxirigacha ishlaydi. Bu nazariya haqida ham tanqidiy (masalan, **Karl Yaspers**, 1913–1997, s. 454–455), ham ijobiy baholar mavjud bo'lgan keng adabiyotlar mavjud. Klinik psixologiyada intervension an'ananing yangi bosqichi XX asrning 40–60-yillarida yuzaga keladi. Bu davrda: *psixoanaliz (psixoanalitik terapiya)* o'z avjiga chiqdi, biroq undan qoniqmaslik hissi sifatida

yangi yoʻnalishlar paydo boʻldi: *xulq -atvor (bixevioristik) psixoterapiya, kognitiv va kognitiv-bixevioristik terapiya, gumanistik va gumanistik-ekzistensial terapiya*. Bu jarayonda, avvalo, **Karl Rodjers** (Carl Rogers, 1902–1987) tomonidan ishlab chiqilgan *klientga yoʻnaltirilgan psixoterapiya* (client-centered therapy) haqida toʻxtalish lozim. **Rodjers** oʻzining terapevtik konsepsiyasini keyinchalik esa, shaxs va terapiya nazariyasi darajasigacha rivojlantiradi. Uning hayotidagi asosiy maqsadi — ruhiy koʻmakka muhtoj odamlarga yordam berish va bu maqsadni cherkovdan tashqarida ham amalga oshirish mumkinligini tushungan. Shuningdek, u psixolog sifatida ishlash ham sharaflil faoliyat ekanini va bu moddiy jihatdan ham barqaror hayotni taʼminlashi mumkinligini anglayu yetadi. **Rodjers** Viskonsin universitetida psixologiya kursini sirtidan oʻqishni reja qiladi. Bu kurs asosan **Uilyam Jeyms**ning ishlariga tayanilgan edi, biroq **Rodjers**ning oʻz taʼbiriga koʻra, u bu asarlarni ancha zerikarli deb topadi. Shu bilan birga, bu unda psixologiyaga boʻlgan qiziqishni susaytirmadi va u oʻz taʼlimini Kolumbiya universiteti pedagogika kollejida yakunlaydi. Falsafa kursini u mashhur pedagog **Kilpatrik**ning maʼruzalaridan oʻrganadi va uni juda zoʻr oʻqituvchi deb hisoblaydi. Universitetni tugatgach, **Rodjers** Nyu-York shtatidagi Rochester shahrida bolalarga yordam koʻrsatish markazida klinik psixolog sifatida ishga joylashadi. U u yerda 12 yil faoliyat yuritadi. Uning amaliyotdagi faoliyati maʼlum maʼnoda improvizatsiya asosida amalga oshiriladi, yaʼni u biror muayyan psixologik maktabga qoʻshilmagan. Masalan, u **Otto Rank**ning ikki kunlik seminarida qatnashgan, unda uning terapevtik usullari jozibali tuyuladi, biroq **Rank**ning nazariyasi unga yoqmaydi. **Rodjers**ning oʻz nazariyasi va usuli Rochesterdagi ish faoliyati jarayonida asta-sekin shakllangan. U anʼanaviy psixoterapiyada qabul qilingan rasmiy, direktiv (yaʼni, koʻrsatmaga asoslangan) yondashuvdan voz kechadi va keyinchalik “mijozga yoʻnaltirilgan terapiya” deb atagan yangi yondashuvga oʻtadi. **Rodjers**gacha psixoterapevtlar faqat “*bemorlar*” bilan ishlashar edi. **Rodjers** esa atroflicha oʻylab, “mijoz” atamasini ilmiy muomalaga kiritadi. Bu faqat soʻz oʻyini emas, balki psixoterapiya strategiyasiga radikal yondashuvni anglatar edi. Chunki, bemor — bu kasal inson, u yordamga muhtoj va mutaxassis — psixoterapevt dan unga yoʻl koʻrsatishini kutadi. Mijoz esa — bu xizmatga muhtoj shaxs, u muammoni oʻzi hal qila olishiga koʻzi yetadi, lekin psixoterapevtning koʻmagiga suyanishni afzal koʻradi. Mijoz — muammolariga qaramay, ularni anglash va yechish qobiliyatiga ega inson sifatida koʻriladi. Bu konsepsiyada vrach va bemor munosabatlarida mavjud boʻlmagan tenglik gʻoyasi mujassam. Psixoterapiyaning vazifasi — *insonga unga kerakli yechimni topishda yordam berish, lekin psixoterapevt tomonidan berilgan koʻrsatmalar minimal darajada boʻlishi kerak*. **Rodjers** psixoterapiyani quyidagicha taʼriflaydi: “*Psixoterapiya — bu salohiyat jihatdan qobiliyatli insonda allaqachon mavjud qobiliyatlarni ochib berish, passiv shaxsni mutaxassis tomonidan boshqarish emas*.” **Rodjers**ning fikriga koʻra, har bir shaxs, hech boʻlmaganda latent (yashirin) holda, oʻz hayotidagi unga azob va dard keltiruvchi omillarni anglashi, hamda ushbu omillarni yengish uchun oʻzini qayta tashkil qilish qobiliyatiga ega. Rochesterda ishlab yurgan paytida, **Rodjers**

“Murakkab bola bilan klinik ish” (1939) nomli kitobni yozadi. Bu kitob olqishlar bilan kutib olinadi, va muallifga Ogayo universitetida professorlik lavozimi taklif etiladi. Akademik faoliyatini bunday yuqori pog‘onadan boshlagan **Rodjers**, ko‘pincha yosh olimlarga ijodiy salohiyatini namoyon etishga to‘sqinlik qiladigan ortiqcha bosimlardan xalos bo‘ladi. O‘qituvchilik tajribasi, va talabalarning uning g‘oyalariга jonli munosabati **Rodjers**ni psixoterapiya muammolarini yanada to‘liq va atroflicha yoritish uchun ilhomlantiradi. Bu ishlarining natijasi sifatida u 1942 yili “Maslahatlash va psixoterapiya” nomli kitobini nashr etadi. 1945 yili Chikago universiteti **Rodjers**ga shaxsiy(individual) maslahat markazini tashkil etish imkonini berdi. Ushbu markazning innovatsion yo‘nalishlaridan biri — bu bemorlarga (aniqrog‘i, mijozlarga) terapiya yo‘nalishini erkin tanlash huquqi berilgani edi. U 1957 yilgacha ushbu markaz direktori lavozimida faoliyat yuritadi. 1951 yili **Rodjers** “*Mijozga yo‘naltirilgan terapiya*” nomli kitobini nashr etadi — bu asarda uning asosiy prinsiplari to‘liq shaklda ifodalanganligini ko‘rish mumkin. Bu kitob turli yo‘nalishdagi terapevtlar tomonidan keskin tanqidga uchraydi, chunki ular **Rodjers**ning pozitsiyasida an‘anaviy, direktiv usullarga tahdid ko‘rishadi. **Rodjers** o‘z pozitsiyasidan kelib chiqqan holda, terapiya doirasidan tashqariga chiqadigan umumiy xulosalarni ham o‘zining eng mashhur asari — “*Shaxsiyatning shakllanishi*” (1961) nomli kitobida bayon etgan edi. Bu kitob bir necha marotaba qayta nashr etiladi (rus tilidagi tarjimasi 1994 yili chop etilgan). Hamkasblarining ehtiyotkor munosabatiga qaramasdan, bu asar jamoatchilik orasida katta qiziqish uyg‘otadi, va psixologiya sohasida kam uchraydigan hol sifatida bestseller(ko‘p sotilgan) kitobga aylanadi. Natijada, **Rodjers** yaxshi gonorarlariga ega bo‘ladi. Chikagodagi faoliyati davrida Rodjers shaxsiy hayotida jiddiy qiyinchiliklarga duch keladi. U og‘ir ruhiy buzilishdan aziyat chekkan bir ayol patsient bilan ishlayotganida, uning holatiga shunchalik hamdard bo‘ladiki, o‘zi ham deyarli xuddi shunday patologiya holatiga tushib qoladi. Faqatgina uch oylik ta‘til va hamkasblaridan biri tomonidan o‘tkazilgan psixoterapiya kursi orqali u bu holatdan chiqib ketadi va hamdardlikning ham ma‘lum chegaralarini saqlash zarurligini anglab yetadi. 1963 yildan boshlab **Karl Rodjers**ning faoliyati Kaliforniyadagi La-Jollada joylashgan *Shaxsiyatni o‘rganish markazi* bilan bog‘liq bo‘ladi. U yerda ma‘muriy nazorat va bosimdan yiroq holda, u tinchlik va ishonch topadi, samarali ishlaydi, asarlar yozadi. Umuman olganda, **Karl Rodjers** 16 ta kitob va 200 dan ortiq maqola muallifi, uning ishlari 60 ta xorijiy tilga tarjima qilingan. U o‘z pozitsiyasini **Lao Szzydan** keltirilgan iqtibos orqali ifodalagan: “*Agar men odamlarni bezovta qilmasam, ular o‘zlari haqida qayg‘uradi. Agar men odamlarga buyurmasam, ular o‘zlari to‘g‘ri yo‘l tutadi. Agar men odamlarga nasihat qilmasam, ular o‘zlarini yaxshilaydi. Agar men hech narsaga majbur qilmasam, ular o‘zlariga aylanadi.*” Haqiqiy gumanist va demokrat sifatida **Rodjers** Rossiyadagi voqealarga katta qiziqish bildirgan. 1986 yil kuzida u Moskvaga tashrif buyuradi, psixologlar oldida chiqish qiladi va terapevtik mashg‘ulotlar o‘tkazadi. Bu paytda u juda keksaygan bo‘lishiga qaramasdan, ajoyib darajada hushyor, optimistik va hayotga to‘la inson bo‘lib ko‘rinadi. U bilan Moskvadagi uchrashuvlari orqasidan ro‘y

bergan vafoti haqidagi xabarga hech kimni ishongisi kelmasdi — bu xabar orqasidan bir yil o‘tib Amerikadan keladi. **Karl Rodjers** o‘tgan asrning 70-yillari oxirida shunday degan edi: “*Men bolaligimda zaif va kasalmand bola edim. Otam bir kuni: “Sen, ehtimol, yosh o‘lsang kerak”, degan edi. Ma‘lum ma’noda u adashadi: chunki men hozir yetmish besh yoshdaman. Lekin boshqa ma’noda — u haq bo‘lishi mumkin. Men o‘zimni yosh his qilaman va hech qachon keksayishni xohlamayman. Men chindan ham yoshligimda o‘laman.*” Va, haqiqatan ham, u o‘z amallari va ruhan yoshligi bilan “yoshligicha” vafot etadi. **Rodjers**ning tadqiqot va izlanish ishlari inson shaxsiyatining salohiyati haqidagi umumiy tasavvurga katta ta’sir ko‘rsatdi. Uning *shaxsga yo‘naltirilgan terapiyasi* psixologiya rivojiga ulkan ta’sir etadi. Bu nazariya, avvalo, inson shaxsiyatiga urg‘u bergani tufayli psixologlar tomonidan iliq qarshi olingan. *Gumanistik psixologiya*, psixoanalizdan farqli ravishda, asosiy e’tiborni nevroitik emas, balki ruhan sog‘lom insonlarni o‘rganishga qaratgan. Shu bois, bu ikki yo‘nalishning psixoterapevtik yondashuvlari ham tubdan farq qiladi. *Gumanistik terapiyaning* jadal rivoji 1960–1970-yillarga to‘g‘ri keladi — o‘sha davrda millionlab odamlar *guruh terapiyalari* va *shaxsiy rivojlanish* seanslariga qatnashishgan. Nega *gumanistik psixologiya* asosiy psixologik nazariyalar korpusiga kirmadi? Ko‘pchilik mualliflar bunga ushbu yo‘nalish vakillari, asosan, xususiy amaliyot bilan shug‘ullanishgani va ularning universitetlarda dars bermaganini sabab deb ko‘rishadi. *Akademik psixologlardan* farqli ravishda, *gumanistik yo‘nalish* vakillari ilmiy tadqiqotlarga nisbatan kamroq e’tibor qaratishgan. Qizig‘i shundaki, *gumanistik psixologiya* va uning yetakchilari (**A. Maslou**, **K. Rodjers** va boshqalar) — XX asrda psixologiyadagi eng muhim yutuqlar haqida “*European Psychologist*” jurnali tomonidan 2000 yilda o‘tkazilgan so‘rovnomada yevropalik psixologlar tomonidan tilga olinmagan. Faqat Rossiyalik ishtirokchi **A.V. Brushlinskiy** bu nomlarni zikr qilgan (Zalevskiy G.V., Zalevskiy V.G., 2000). *Gumanistik yo‘nalishga* mansub psixoterapiya shakllari ichida ko‘pincha *geshtalt-terapiya* ham zikr etiladi, uning asoschisi sifatida esa **Fris Perlz** (Fritz Perls) haqli ravishda e’tirof etiladi. Klinik psixologiya rivojiga katta hissa qo‘shganlardan yana biri — avstriyalik psixolog, psixiatr va psixoterapevt **Viktor Frankl** (Viktor Frankl, 1905–1997) hisoblanadi. U shunday yozgan edi: “*Har bir davr o‘z psixoterapiyasiga muhtoj*”. U o‘z davri uchun *logoterapiya* nomli psixoterapiya yo‘nalishini taklif etadi. U insonlarning intilishlari, muhtojliklari, yechimsiz qolgan savollari — ya’ni ma’no muammosini teran his qilgan va o‘z shaxsiy hayot tajribasiga tayangan holda oddiy, biroq qat’iy va ishonarli so‘zlar bilan ifoda qiladi. “*Ruhning qaysarligi*” — bu ibora **Frankl**ning shaxsiy shiori. *Ruh — tananing azob-uqubatlariga, ruhiyatdagi nizolarga qaramasdan — mustahkam, matonatli va o‘ta qaysar bo‘lishi mumkin.* Frankl dindor inson bo‘lsa-da, u bu haqda oshkora gapirishdan tiyilar edi, chunki unga ko‘ra, *psixolog va psixoterapevt har qanday insonni, uning dini bormi yoki yo‘q, farq qilmasdan tushunish va unga yordam bera olishi kerak. Yuksak ma’naviyat (duxovnost) faqatgina dindorlik (religioznost) bilan chegaralanmaydi.* U Moskvadagi ma’ruzalarida shunday degan edi: «*Agar Xudo mavjud bo‘lsa, u uchun insonning*

yaxshiligi — unga boʻlgan ishonchidan ham muhimroqdir». **Freydning** psixoanalizi va **Adlerning** individual psixologiyasidan keyin, **Franklning** logoterapiyasi “*Vena psixoterapiya maktabining uchinchi yoʻnalishi*” sifatida qabul qilingan. Uning psixoterapevtik kredosi shunday: “*Inson hayotidagi eng asosiy narsa — shahvat (Lust) yoki hokimiyat (Macht) emas, balki maʼnoli faoliyatni amalga oshirishdir*”. **Frankl** fashistlar konslagerida tutqun boʻlib, deyarli barcha yaqinlarini yoʻqotgan, va 1945 yilda ozodlikka chiqqach, butun dunyo uchun “*ruhning qaysarligi*” (upryamstvo duxa) qanchalik muhim ekanining amaldagi namunasi aylanadi. U bu haqda 30 dan ortiq kitob yozadi, ular dunyoning koʻplab tillariga millionlab tirajda tarjima qilingan. Uning birinchi va eng mashhur asari — “*Hayotga “ha” de*” (Saying Yes to Life). “*Konslagerdagi psixolog*” 1946 yili anonim tarzda, keyinchalik 1977 yili toʻliq mualliflik nashrida chop etiladi va hozirgacha qayta-qayta nashr etib kelinmoqda. Psixoterapiya yuzasidan muhim boʻlgan boshqa asarlari Venadagi **Viktor Frankl** instituti tomonidan nashr etilgan: “*Psixoterapiya amaliyotda*” (Psychotherapie in der Praxis, 1997). “*Oddiy hayotda psixoterapiya*” (Psychotherapie im Alltag, 1998). “*Logoterapiya va ekzistensial tahlil*” (Logotherapie und Existenzanalyse, 2002) va boshqalar. Zamonaviy psixologiya va psixoterapiyadagi yoʻnalishlar orasida koʻpincha transpersonal psixologiya zikr etiladi. Bu oʻrinda biz klinik psixologiyada intervension anʼanani rivojlantirishga original hissa qoʻshgan va ushbu yoʻnalishning faol tarafdorlaridan biri — **Stanislav Grof** haqida qisqacha toʻxtalamiz. **Stanislav Grof** (Stanislav Grof) — amerikalik-chex psixolog, transpersonal psixologiyaning namoyondalaridan biri va tashabbuskor asoschilaridan hisoblanadi. U 1932 yilda tugʻilgan. 1973–1987 yillarda u Kaliforniyadagi “*Esalen*” institutida faoliyat olib boradi. Ayni shu davrda u turmush oʻrtogʻi Kristina bilan birga *xolotrop nafas olish texnikasini* ishlab chiqqan — bu, shaxsni anglash va shaxsiy rivojlanishga olib boruvchi noyob usul hisoblanadi (garchand, **Grof** oʻz faoliyatini psixoanaliz va LSD preparatlari bilan bogʻlangan tajribalardan boshlagan edi). **Grofn**ing asosiy gʻoyasi — u “*Miyaning narigi tomonida. Psixoterapiyada tugʻilish, oʻlim va transsendensiya*” (Beyond the Brain: Birth, Death and Transcendence in Psychotherapy) 1992) kitobida ifoda etadi — inson xulq-atvorini muayyan perinatal (tugʻilishgacha) maʼlum matritsalar boshqaradi, degan gʻoyadir. **Grofn**ing **perinatal matritsali**: “*Begʻuborlik yoki muhabbat matritsasi*” (birinchi matritsa) — inson hayotidagi ilk davr: homila paydo boʻlgan paytdan to tugʻruq ogʻriqlari boshlangunigacha boʻlgan faza. Bu holat toʻliq tinchlik va “qorindagi olam” hissi bilan tavsiflanadi. “*Qurbonlik yoki doʻzax*” matritsasi (ikkinchi matritsa) — tugʻruq boshlanishi va bachadon boʻynidan toʻliq oʻtishgacha boʻlgan vaqt. Bu davr har jihatdan qiyin, tor va azobli boʻlishi mumkin. “*Kurash yoki tozalanish*” matritsasi (uchinchi matritsa) — tugʻruqning ikkinchi fazasi, yaʼni toʻlgʻoq(potug)lar payti, bu insonning faol harakati bilan bogʻliq holat. “*Ozodlik, erkinlik*” matritsasi (toʻrtinchi matritsa) — bola tugʻilgan paytdagi holat, *jannatdek ozodlik* yoki aksincha, yana bir “*doʻzax*” sifatida namoyon boʻlishi mumkin. Oʻzgartirilgan ong holatlarida yuzaga keladigan tajribalarni tushunish uchun, **Grof** antropologik

fanatizmdir. Bu esa o‘z navbatida terrorizm va hatto urushlarga olib keladi (Zalevskiy, 2007, 2008). Balki, insonlarga diniy bo‘lmagan qadriyatlarni ko‘rsatish va tushuntirish vaqti kelgandir (Ushakova, 2007. B. 57). Bu jarayonda psixologiya fanining o‘rni muhimdir, chunki ilmiy tahlil hozirda «*gen – hujayra – organ – organizm – individ – shaxs – jamiyat – madaniyat*» kabi keng miqyosdagi sinxronizatsiya jarayonlarini qamrab oladi (Yaspers, 1991). Har qanday holatda ham, insonning yunoncha nomlanishi — «*antropos*», ya’ni «*yuqoriga intiluvchi*», ma’naviyatga qarata intiluvchi mavjudot, tushunchalari unutilmasligi kerak. Shuningdek, ma’naviyatni faqat din bilan cheklash mumkin emas, degan fikr ham unutilmasligi zarur. Zero, diniy bo‘lmagan, dunyoviy yoki *oddiy insonparvar ma’naviyat* mavjud, va u inson sog‘lig‘ini saqlash, shaxsning rivojlanishi va o‘sishi uchun zarur shart va xususiyat hisoblanad.

4.2.2. Aniq klinik-psixologik modellar.

Ilgari ko‘rib chiqilgan uchta umumiy (ramkali) modellar bilan solishtirganda, bu yerda tasvirlanadigan tadqiqot dasturlari *ancha aniq va ixtisoslashgan* bo‘lib, ular yangi psixologik belgilarga alohida e’tibor qaratadi. Bu modellarning markaziy taxminlari, odatda, quyidagilarni o‘z ichiga oladi: *ruxiy buzilishlarni qanday aniqlash kerakligi, ularning kelib chiqishiga qanday shart-sharoit va jarayonlar olib kelishi, ularni qanday davolash mumkinligi (ya’ni, bu nazariy-taxminiy yondashuvlar hisoblanadi)*. Bundan tashqari, bu modellar *antropologik* konsepsiyalar (ya’ni inson haqidagi umumiy tasavvurlar) va metodologik yondashuvlar (qisman bo‘lsa ham) bilan ham farq qiladi.

Shu tariqa, so‘z keng qamrovli klinik-psixologik tadqiqot dasturlari, ya’ni «*asosiy nazariy yo‘nalishlar*» haqida ketmoqda. Quyida klinik-psixologik modellarning asosiy taxminlari, antropologik pozitsiyalari va tadqiqot metodologiyalarini qisqacha bayon qilamiz: *psixoanalitik model, gumanistik model, bixevioristik (xulq-atvorga asoslangan) nazariy model, kognitiv model, interpersonal (shaxslararo) model, tizimli-oilaviy model*.

Shuni unutmaslik lozimki, ushbu modellarning har biri «*nazariy oila*» sifatida qaralishi mumkin: ularga mansub yo‘nalishlar bir-biriga yaqin bo‘lsa-da, barcha muhim jihatlarda bir xil emas. Ular o‘rtasini aniq ajratish qiyin, chunki ko‘pincha bir-biridan tushuncha, konsepsiya va amaliyotlarni olish va o‘zlashtirish holatlari kuzatiladi.

Psixoanalitik model. Psixoanalitik modelning eng xos xususiyatlaridan biri shundaki, u yaxlit, birlashgan tizimni ifodalamaydi. Buning asosiy sababi — Z. Freyd o‘zining ruhiy buzilishlar to‘g‘risidagi qarashlarini doimo rivojlantirib borgani va ayrim hollarda ularni sezilarli darajada o‘zgartirganidir. Yaxlitlikning yo‘qligiga yana bir sabab — *bu psixoanalizning boshqa gumanitar (madaniy) fanlarga, jumladan adabiyotshunoslik, teatrshunoslik, sotsiologiya va tarix fanlariga katta ta’siri*, shuningdek, ushbu fanlar tomonidan *psixoanalizga*

bo'lgan aks ta'sir ham mavjud bo'lganidir. Bundan tashqari, psixoanaliz o'zini «metapsixologiya» sifatida e'tirof ettirishga da'vo qiladi, ya'ni psixologiya nimaligini va unga qanday yondashish kerakligini mustaqil ravishda belgilash huquqiga ega fan sifatida ham namoyon bo'ladi. Psixoanalitika va akademik psixologiya o'rtasidagi mavjud bo'lib kelgan ziddiyatlar 1990-yillarga kelib asta-sekin susaya boshladi, chunki kognitiv va interpersonal nazariyalar doirasida, shuningdek, tadqiqot metodologiyasi tizimida ular o'rtasidagi umumiylik nuqtalari paydo bo'la boshlagandi (Barron va boshqalar, 1992). *Klinik psixologiyaga eng yaqin bo'lgan sohalar — bular shaxs rivojlanishining psixoanalitik modellari, psixopatologiya, kognitiv psixologiya, va, albatta, psixoanalitik terapiyadir.*

Asosiy taxminlar. Avval boshda **Freyd** ruxiy buzilishlarni organik kasalliklar modeliga asoslanib tushuntiradi. U kasallik sababi yotadigan simptomlar konsepsiyasini qabul qiladi. Masalan, u isteriya holatida simptomlar boshdan kechirilgan psixologik shikastlar (travmalar) orqali yuzaga kelgan, deb hisoblaydi. Keyinchalik esa, bu travmalar o'rnini ongsiz seksual ziddiyatlar egallaydi degan fikriga boradi. Keyinchalik, somatik kasalliklardagiga o'xshash ravishda organik sabablar o'rnida **Freyd** intrapsixik (shaxsiy ong ichidagi) patologiyalar – travma yoki ichki ziddiyat modelini joriy etadi. Faqat undan ham keyinroq u tomonidan ilgari surilgan simptomlarning ko'p omilli (multideterminant) tabiati haqidagi qo'shimcha taxmin (ya'ni, bir simptom turli sabablar bilan yuzaga kelishi va saqlanishi mumkin) hamda ruxiy buzilishlarning psixogenezi (psixik jarayonlar orqali yuzaga kelishi) haqidagi ta'limot orqali u *simptom ↔ sabab* kabi oddiy va chiziqli *sabab-oqibat* modelidan ozod bo'ladi. Biroq u bu modelni to'liq rad etmaydi. Shu bilan birga, **Freyd** psixosotsial va madaniy omillar ham ruxiy buzilishlarning kelib chiqishiga ta'sir ko'rsatishini asosli ravishda ko'rsatib beradi. Uning ruxiy buzilishlar haqidagi tushunchalari o'sha davr uchun juda original va transformatsiyalovchi edi, shu boisdan ham **Freyd** *tabiiy-biomedik va psixosotsial konsepsiyalar* o'rtasidagi eng ta'sirli vositachi shaxsga aylanadi. Uning ushbu ilmiy vositachilik pozitsiyasi — klinik psixologiya tarixi uchun muhim ahamiyatga ega bo'lib, psixoanalizning psixosomatik tibbiyotdagi ahamiyatini bugungi kunda ham tushunishga yordam beradi.

Tabiiy-ilmiy aspekt avvalo, **Freyd** nazariyasidagi formal va strukturaviy izlanishlarda namoyon bo'ladi. U ko'pincha nevrologiya va fiziologiyada rivojlangan tamoyillarga murojaat qiladi va ularni psixik jarayonlarga ko'chiradi. Ruhij jarayonlar ham, fiziologik jarayonlar singari, bo'linadi va topografik tarzda joylashtiriladi. «*Psixik apparat*»ning tuzilishi «*Men*» (Ya), «*U*» (Ono) va «*Super Men*» (Super-Ego) kabi tuzilmalardan tashkil topgan bo'lib, bu «*strukturaviy nazariya*» deb ataladi. Bu nazariya *ongli, ong oldi va ongsiz* sohalarga bo'linish orqali «topografik model» bilan to'ldiriladi. Shuningdek, **Freyd** ruhiy jarayonlarni tushuntirishda **Charlz Darvinning** (1809–1882) *evolyusion nazariyasidan* ilhomlangan holda, *ontogenetik* (shaxsning individual hayot tarixi)

va *filogenetik* (inson zoti tarixi) rivojlanish o'rtasida parallellikni nazariyaga kiritadi. Klinik psixologiya metodologiyasi nuqtai nazaridan *tabiiy-ilmiy yo'nalishlar* eng yaqqol ravishda quyidagi postulatlarda o'z ifodasini topadi: *ruhiy energiya haqidagi ta'limot, psixik determinizm (ya'ni, ruhiy jarayonlar sababsiz sodir bo'lmaydi), reallik tamoyili*.

Keling, bu jarayonlarning ba'zilarini batafsil ko'rib chiqaylik. Individning faolligi «*psixik energiyalar*» — ya'ni tug'ma *turtki kuchlar* orqali amalga oshadi. Ushbu energiyalar ma'lum bir *affektlar* (ehtiyotlar) bilan bog'langan. Inson faqat turtki energiyalari (*instinktlari*) past darajada bo'lgan holdagina muvozanatda bo'ladi. Agar bunday energiyalar kuchaysa, *diskomfort* (noqulaylik, qoniqmaslik) hissi paydo bo'ladi; agar ular qayta ishlansa va «*chiqarib yuborilsa*» — *qoniqish* (ma'qullik) hissi yuzaga keladi. Bu jarayon «*qoniqish – qoniqmaslik tamoyili*» deb ataladi. Ushbu tasavvurlar neyrofiziologiya, gidrodinamika va mexanikadan olingan ilmiy tamoyillarga asoslanadi.

Freyd nuqtai nazaridan, psixik jarayonlar to'liq determinatsiyalangan, ya'ni ruhiy determinizmga bo'ysunadi. Barcha psixik hodisalar, fiziologiyada bo'lgani kabi (masalan, Gelmgols, 1821–1894) hatto agar bu dastlab tushunarsiz tuyulsa ham, aniq sabablarga ega bo'lishi kerak va ular orqali to'liq tushuntirilishi mumkin. *Reallik tamoyili* orqali *turtki impulslar* va muhit talablari o'zaro muvofiqlashtiriladi. Individlar muhitga moslashish jarayonida o'z ehtiyojlarini qondirish uchun faqat salbiy oqibatlar keltirib chiqarmaydigan yoki zarar keltirmaydigan holatlarni tanlaydilar va foydalanadilar. Bu konsepsiya **Darvin** nazariyasi va fiziologiyadagi eng kam energiya sarfi qonuni bilan parallellikni ko'rsatadi.

Shafer (Schafer, 1982. B. 15) **Freyd** nazariyasidagi «*fizik-kimyoviy va evolyusion-biologik til aralashmasini*» hamda kuch, energiya, kateksis funksiyasi (Besetzung-Funktion), tuzilish, turtki yoki ob'ekt kabi atamalarni psixik hodisalar sohasiga mos kelmaydi, deb tanqid qiladi. Uningcha, bunday atamalar o'rniga, har qanday psixik jarayonni harakat sifatida tavsiflovchi tushunchalarni qo'llash kerak. **Freyd** psixologik jihatlarni uch nuqtai nazardan baholaydi:

1. *Xulq-atvorning sabablari ko'pincha ongsiz bo'ladi*. Shuning uchun xulq-atvor determinatsiyalanmaganday tuyulishi mumkin, ammo ongsizlik konsepsiyasini qo'llash orqali undagi ziddiyatlar ham izohlanishi mumkin. Topologik nuqtai nazardan, *ongsizlik* — *bu ongli va ong oldi* sohalarga qarama-qarshi turadigan, boshqa qoidalarga bo'ysunuvchi psixik tizimdir. U asosan *siqib chiqarish* orqali ongdan chetlatilgan ehtiyojlardan tashkil topgan. *Siqib chiqarish* jarayoni orqali psixik mazmun ongsizlikka aylanadi, ya'ni passiv holatda bo'lmasada, o'z energiyasini saqlab qoladi. Ular buzilgan (ramziy, yashirin) shaklda onga qaytishga harakat qiladi, masalan, simptomlar shaklida.

2. *Psixogenetik tamoyil* shunga asoslanadiki, katta yoshdagi shaxs xulq-atvorining shakllanishi erta bolalikda orttirilgan tajribada mustahkamlanadi, ayniqsa, bolaning biologik kuchlanishni kamaytirishni qanday o'rgangani bilan bog'liq holatlarda.

3. *Psixosotsial nuqtai nazarning muhim uchinchi jihati* — bu ziddiyatlar nazariyasidir. *Ruhii ziddiyatlar* shunday yuzaga keladiki, shaxs ichida o'zaro qarama-qarshi ichki talablar to'qnash keladi. Bu kabi ichki qarama-qarshiliklar “U” (instinktiv ehtiyojlar) va “*Super-Men*” (axloqiy me'yorlar, ideallar), yoki “U” va reallik, shuningdek turli “U” turtkilari (masalan, jinsiy va tajovuzkor ehtiyojlar) o'rtasidagi tafovutlar orqali yuzaga keladi. Bunday ziddiyatlar kundalik hayotda tabiiy hol hisoblanadi. Biroq, ular nevrotik holatga aylanadi, agar «*Men*» (Ya) yetarlicha kuchli bo'lmasa, ya'ni reallik bilan murosa qilish yoki ehtiyojlarni bosqichma-bosqich qondirish orqali bu ziddiyatlarni adekvat qayta ishlay olmasa. Bunday paytda, *Men* (Ya) himoya mexanizmlariga yuguradi, va ziddiyatlarni ongli ravishda qayta ishlashda qiyinchiliklar yuzaga keladi. Bu holda himoya qilingan instinktning energiyasi simptomlar shakllanishiga olib keladi.

Antropologik taxminlar. Psixoanalitik tasavvurda inson tabiati ikki tomonlama qarashga ega: *bir tomondan — biologik, ikkinchi tomondan — ijtimoiy-ilmiy va tanqidiy yo'nalish.* Bu modelga ko'ra, “*Men*” (Ego) ikkita kuchli determinanta — “U” ning instinktiv kuchlari va “*Super-Men*” (ijtimoiylashuv jarayonida shakllangan talablar) o'rtasidagi ziddiyatda yashaydi. Bu har ikkala kuch insonning bazaviy (asosiy) o'zini namoyon qilishiga tahdid soladi. **Freydning** boshlang'ich konsepsiyasiga ko'ra, psixoanalitik modelning markazida, ushbu kuchlarga muqobilsiz qolgan inson turadi. U ushbu kuchlardan himoyalaniish va o'zini tasdiqlash uchun kurashishi lozim bo'ladi.

Metodologiya. Metodologik jihatdan, psixoanalizda hanuzgacha o'ziga xos germenevtik (tafsiriy) tadqiqot dasturi ustuvorlik qiladi. Shu bilan birga, boshqa empirik tadqiqot yondashuvlariga nisbatan ochiqlikka bo'lgan tendensiya ham kuzatilmoqda. *Germenevtik usulni* asoslashni biz **Freydning** o'z ta'limotida uchratishimiz mumkin. U o'z predmetini tabiat va gumanitar fanlar o'rtasidagi ziddiyat maydonida joylashtirgan holda izohlaydi: «...meni ham juda taassufga soladi, men yozgan klinik tarixlar... shunday desa ham bo'ladi, ularning ilmga mosligini ko'rsatmaydi. Lekin men o'zimni shundan tasalliq topish bilan taskin beraman, bunday natijalar uchun, ehtimol, predmetning tabiati mas'uldir...» (Freyd, 1893/1964. B. 227).

Psixoanaliz, avvalo, germenevtikaga tayanadi. Germenevtika avvalboshda matni talqin qilish haqidagi ta'limot sifatida tushunilgan, keyinchalik esa ma'noli o'zaro bog'liqliklarni tushunish haqidagi ta'limot sifatida kengayib, gumanitar (ijtimoiy) fanlar uchun bilish nazariyasining metodologik asosi sifatida shakllangan (Diltey, 1894). Bu yerda *tushunish* — tabiiy fanlardagi izohlash o'rni egallashi lozim bo'lgan jarayon sifatida qaraladi. *Tushunishning maqsadi*

— insonning harakat shakllaridagi ma'nolarni ochish, shifrlarini yechishdir. Psixoanalizda bu jarayon shunday amalga oshiriladiki, u ushbu hermenevtik yo'nalishga xos alohida xususiyatga ega: tadqiqot ishi "*psixoanalitik vaziyat*" doirasida olib boriladi, ya'ni ilmiy bilimlar asosan alohida holatlar bilan ishlash orqali — *psixoanalitik amaliyot jarayonida* — shakllanadi. Ushbu tartib psixoanaliz uchun shunchalik xoski, u «*psixoanalitik usul*» deb yuritiladi. Bu usulning afzalligi shundaki, u faqat oshkora emas, balki yashirin ma'noli tuzilmalarni ham ochib beradi. Shuning uchun ayrim mualliflar bu usulni «*chuqur hermenevtika*» (deep hermeneutics) deb ataydilar.

Psixoanalitik hermenevtik tadqiqotga dasturiy sodiqlik bilan bir vaqtda, ko'p hollarda an'anaviy psixologik tadqiqot usullarini keskin rad etish holatlari ham uchraydi.

Buning sabablari quyidagicha izohlanadi: Empirik psixologik tadqiqot klinik psixoanalitik nazariya uchun noqadr (noahamiyatli) deb hisoblanadi; Empirik ma'lumotlar zarur emas, chunki klinik ma'lumotlar shunchalik ishonchli va ta'sirchanki, ular qo'shimcha mustaqil isbotlarni talab etmaydi; Empirik tadqiqotni psixoanalitik konsepsiyalarga nisbatan noto'g'ri qo'llash sifatida baholanadi, chunki psixoanalizdagi nazariy qurilmalar doimo alohida holat (keyc)ga asoslanadi.

*Ushbu umumiy metodologik yondashuvni tanqid qilinishi, bir tomondan — psixoanalitik hermenevtikani mutloq va yagona usul sifatida ko'rsatish uchun bo'lsa, ikkinchi tomondan — faqat alohida klinik holatlar bilan cheklanib qoladigan metodik cheklovlari uchun leb qabul qilinadi. Ko'plab tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, empirik psixologiya tadqiqotlariga nisbatan mavjud shubhalar asossizdir, va klinik chegaralardan tashqarida amalga oshiriladigan tadqiqotlar orqali psixoanalitik nazariyalarni empirik jihatdan qo'llab-quvvatlash juda zarur hisoblanadi (Grünbaum, 1988; Holt, 1992; Masling & Bornstein, 1993). Ba'zi psixoanalitiklar o'zlari ham ushbu metodologik pozitsiyani tanqid qiladilar. Masalan, **Rapoport** shunday yozadi: «*Freydning fikricha, faqat psixoanalitik metod orqali to'g'ridan-to'g'ri olingan tajriba psixoanalitik xulosalarni tushunish va ularning ishonchliligini tekshirish imkonini beradi. Psixoanalitik nazariyalarning ishonchliligi faqat ana shu analitik metod orqali baholanishi mumkin, va bu ishonchlilik aynan shu metod orqali allaqachon isbotlangan, shu bois yana qo'shimcha isbotga muhtoj emas. Metod, nazariya va uning isbotlanish usuli o'zaro uzviy bog'liqdir*» (1973. B. 19–20).*

Quyidagi fikr shundan iboratki, psixoanaliz o'ziga xos tadqiqot mezonlariga da'vo qila olmaydi, chunki u ham boshqa psixologik nazariyalar kabi umumiy ilmiy talablarga bo'ysinadi. Shu munosabat bilan **Rayter** (Reiter, 1975. B. 28) shunday yozadi: tushunishni tushuntirishga muqobil sifatida taqdim etish va shu orqali fan sohasining avtonomiyasiga da'vo qilishga urinish, ilmiy mantiqiy

nuqtai nazardan, to'siqli yo'l sifatida baholanishi mumkin. Ilmiy-sotsiologik jihatdan germenevtik separatizm haqiqiy ilmiy usul muvaffaqiyatlariga qarshi immunlash(emlash) strategiyasi bo'lib hisoblanadi. **Freyd** asos solgan kazusli (alohida holatlarni o'rganuvchi) tadqiqotlar (masalan, «*Anna O.*», «*kichik Gans*», «*qo'y odam*» kabi kasallik tarixi) bir qator muhim kamchiliklarni ko'rsatadi. Masalan, bunday tadqiqotlar faqatgina ma'lum darajadagina ob'ektivlashtirish va olingan ma'lumotlarni tekshirish imkonini beradi. Terapiya vaqtida olingan ma'lumotlar keyinchalik bemor bilan o'zaro ta'sir natijasida o'zgarishga uchraydi. Shunday qilib, bemor terapiya jarayonida psixoanalitik nazariyalar va talqinlar tomonidan oldindan belgilangan fenomenlarni «*ishlab chiqarish*»ga moyil bo'ladi (Grünbaum, 1988). Yana bir muammo — ma'lumotlarni umumlashtirish bilan bog'liq. Faqatgina psixoanalizda ishtirok etgan shaxslardan olingan ma'lumotlar baholanishi mumkin, shuning uchun olinadigan xulosalar juda cheklangan bo'ladi, chunki guruh representativ emas (ya'ni keng ommaga nisbatan umumiy xulosa chiqarish uchun yetarli emas). Psixoanalizning empirik tekshirilishi yo'lida yana bir qator to'siqlar mavjud: *psixoanalitik nazariyaning yetarlicha tizimlashtirilmaganligi, ichki ziddiyatsizlik va intersub'ektiv tekshiruv imkoniyati kabi mezonlarning amalga oshmasligi* va hokazo. Psixoanalizning asosiy g'oyalardan biri — *ruhiy faoliyatning tuzilishi yoki topografiyasi* haqidagi tasavvurlar — umuman olganda, empirik tekshirish uchun imkoniyat bermaydi. Psixoanalitiklar empirik tekshiruv imkoniyatining yetarli emasligi to'g'risidagi tanqidlarga javoban, o'z nazariyalaridagi mazmunan boy, chuqur psixologik konseptlarga ishora qiladilar. Ularning ayrimlari hatto shu nuqtai nazardan ularga tenglashadigan kamdan-kam raqobatchi nazariyalar bor, deb hisoblaydilar. Biroq aynan shu jihat psixoanalizning ilmiy nazariya sifatidagi asosiy muammosidir, deb ta'kidlaydi **Perez** (Perrez, 1979). Mashhur fanshunos **Popper** psixoanalizni shunday tanqid qilgan: «*Dunyo bu nazariyalarning verifikatsiyalari (isbotlari) bilan to'la edi. Nima sodir bo'lmasin, ularning nazariyasini tasdiqlardi. Shu bois, ularning haqiqatligi ravshan tuyulardi*» (Popper, 1984. B. 35). Natijada, bunday nazariyalarga asoslangan tadqiqot va amaliyot tanqidga uchraydi, chunki ularning tushuntirishlari, asoslashlari va bashoratlari doimo bir xildagi ma'lum bir «*ishonarlilik*» (Plausibilität) mezoni asosida baholanadi. Ilmiy tadqiqotning o'zi mumkin bo'lishi uchun nazariy, metodik va empirik ma'lumotlarni konseptual ravishda ajratish zarur. Shundagina qandaydir da'volarni ilmiy tekshirish imkoniyati paydo bo'ladi.

Bir vaqtning o'zida shaxs rivojlanishi va psixopatologiyaga oid psixoanalitik konsepsiyalar bo'yicha empirik tadqiqotlar, psixoanalitik terapiyani o'rganishga nisbatan ancha ilgari ketdi. Masalan, erta bolalik davridagi «*Men-konsepsiyasi*»ning rivojlanishi, kognitiv psixologiya sohasida ongsiz idrok va xotira jarayonlari, mental representatsiyalar, insonni idrok etish va ijtimoiy kognitsiyalar borasida yangi ma'lumotlar olindi. Kelajakda klinik psixologiya uchun katta hissa aynan shundagina kutilsa yaxshi bo'lardi, agar psixoanalitik tadqiqotlar boshqa tadqiqot yondashuvlariga ochiq bo'lsa (Bastine, 1998. B. 88).

Klinik psixologiyaga kirish. *Gumanistik model* — **Sh. Byuler, K. Xorni, K. Goldshteyn, A. Maslou, K. Rodjers** kabi olimlar nomi bilan bog‘liq bo‘lib, u psixoanaliz va bixeviorizm (harakat psixologiyasi) kabi ta’sirli yo‘nalishlar qatorida *"uchinchi kuch"* sifatida shakllangan. *"Gumanistik"* atamasi bilan boshqa modellar kamroq *"insoniy"* degan fikr aytilmagan, balki bu yerda inson butun mavjudoti bilan, uning ma’nolari va qadriyatlari bilan ilm mavzusi darajasiga ko‘tarilgani alohida ta’kidlangan. Klinik-psixologik modelning prototipi sifatida *K. Rodjers* tomonidan ishlab chiqilgan mijozga yo‘naltirilgan *buzilishlar va terapiya nazariyasi* hisoblanadi, chunki **Rodjers** shaxs, *buzilish va terapiya* haqida to‘liq va batafsil konsepsiyani bayon qilgan va bu konsepsiya eng ko‘p empirik jihatdan tadqiq etilgan. *Gumanistik modelga* eng yaqin turadigan yo‘nalishlar — *geshtalterapiya, psixodrama va tranzaksion tahlil* bo‘lib, ma’lum darajada *"ijodiy"* terapiyalar (musiqiy terapiya, rasm terapiyasi, raqs terapiyasi) va *jismonan yo‘naltirilgan terapevtik usullar* (nafas, harakat va *"qichqiriq"* terapiyasi) ham shular jumlasidandir. (Haqiqatda, bu yerda ko‘proq terapiya, rasstroystvolarning differensiallashtirilgan nazariyasi emasligi nazarda tutiladi). Bu terapevtik yondashuvlar ko‘pincha *"his-tuyg‘ularga yo‘naltirilgan psixoterapiya"* deb umumlashtiriladi, chunki terapevtik faoliyatning markazida mijozning shaxsiy kechinmalari turadi.

Gumanistik model, ayniqsa mijozga yo‘naltirilgan (client-centered) shaklida, bir qator asosiy faraziy yondashuvlarni (buzilishlarning ta’rifi va kelib chiqishi, terapiya va qisman ta’minlash masalalari), antropologik tasavvurlarni va metodologik pozitsiyalarni ishlab chiqishga asoslanadi. Ushbu modelga eng kuchli ta’sir ko‘rsatgan olimlar — AQShda **K. Rodjers** (1973, 1989) va **Yu. Gendlin** (Gendlin, 1962), shuningdek Germaniyada **T. Taush** (Tausch, 1979) va boshqalar bo‘lgan.

Gumanistik model to‘rtta asosiy nuqtai nazarda namoyon bo‘ladi:

Fenomenologik-sub’ektiv yondashuv. Bu yondashuv inson tajribasining ichki, sub’ektiv jihatlariga urg‘u beradi. Insonning voqelikni qanday his qilishi va uni qanday ma’nolar bilan anglashi psixologik tahlilning markazida turadi. *Gumanistik psixologiya* uchun insonning o‘z tajribasini qanday qabul qilishi juda muhim.

Inson salohiyati va qobiliyatlariga urg‘u berish. *Gumanistik model* insonda ichki rivojlanish salohiyati borligini e’tirof etadi. Inson fe’l-atvori va hissiyoti faqat muammolar bilan emas, balki o‘shish, o‘zini anglash va o‘zini rivojlantirish qobiliyati bilan ham belgilanadi.

Shaxs butunligi (selostnost lichnosti). Inson yakka shaxs sifatida, uning his-tuyg‘ulari, aqliy jarayonlari, tanasi va ijtimoiy munosabatlari bilan yaxlit bir butunlik sifatida ko‘riladi. Bu yondashuv insonni parchalangan holda emas, balki to‘liq, integral holda o‘rganishni nazarda tutadi.

Ruhiy buzilishlarni tushunish. Gumanistik modelda psixik buzilishlar insonning o'zini ro'yobga chiqarishda to'siqlarga duch kelishidan, uning shaxsiy ehtiyojlari va imkoniyatlari bilan hayot sharoiti o'rtasidagi ziddiyatdan kelib chiqadi. Demak, buzilishlar insonning tabiiy rivojlanish jarayonining buzilishi sifatida ko'riladi.

Mavzuga batafsilroq yondoshadigan bo'lsa quyidagi xulosalarga kelishimiz mumkin. *Birinchi asosiy faraz, fenomenologik-sub'ektiv yondashuv.* Gumanistik modelga ko'ra, psixik jarayonlarning mohiyatini faqat alohida individ nuqtai nazaridan tushunish mumkin. Chunki faqat o'sha insonning o'z hayotidagi voqealar va tajribalarni to'g'ri va adekvat tasvirlab, baholay oladi. Shuning uchun *sub'ektiv nuqtai nazar — shaxsiy, ichki pozitsiya — psixologik jarayonlarning ob'ektiv tadqiqotiga nisbatan afzalroq hisoblanadi.* Shaxslararo munosabatlarda bu sub'ektiv tajriba dunyosi fenomenologik usul orqali tushunilsa bo'ladi. Bu usulda *bir shaxs boshqasini empatiya — ya'ni hissi tushunish — orqali anglaydi.* Shu munosabat bilan *ushbu nuqtai nazar fenomenologik-sub'ektiv yondashuv deb ataladi.*

Ikkinchi faraz, inson qobiliyatlari va salohiyatiga ishonch. Bu faraz insonning tabiiy salohiyati va qobiliyatlarini e'tirof etadi. *Inson tabiiy ravishda — ya'ni tug'ma qobiliyatlari asosida — ijtimoiy va moddiy muhitda to'g'ri yo'l topishi, qiyinchiliklarni samarali yengib o'tishi mumkin.* Ruhan sog'lom inson o'z qobiliyatlarini yaxshi anglaydi va o'z xulq-atvorini oqilona boshqara oladi. U konstruktiv, ya'ni ijobiy yechimlarga intiladi, bunday yechimlar jamiyatning barcha a'zolarini qoniqtiradi. Aksincha, destruktiv (buzg'unchi) xulq-atvor shakllari — masalan, nafrat, egoizm(xudbinlik) — noto'g'ri o'rgatish, ta'lim va muhitning salbiy sharoiti natijasidir. Bu farazga ko'ra, insonda ko'plab faollashmagan, ishlatilmagan qobiliyatlar mavjud bo'lib, u o'z tabiiy rivojlanish jarayonida o'zini ro'yobga chiqarish (samorealizatsiya), o'zini anglash va shaxsiy o'sish sari intiladi (Byuler, 1975). Bu tushuncha gumanistik psixoterapiyada markaziy o'rin tutadi. *Insonning rivojlanishdan asosiy maqsadi — o'z salohiyatini to'liq ishga sola oladigan shaxsga aylanish, Rodjers (1989) ta'riflaganidek, "to'liq faoliyat ko'rsatuvchi shaxs" (fully functioning person) bo'lishdir.*

Uchinchi faraz, insonni yaxlitlikda ko'rish. Insonning har qanday xulq-atvor shakllari bir umumiy maqsad — o'zini asrash, rivojlantirish va ichki ixtiloflarni birlashtirishga qaratilgan, degan faraz mavjud. *Bu maqsad aktualizatsiya tendensiyasi (tendency of actualization) deb ataladi.* Shu nuqtai nazardan insonning harakatlari ma'noli va maqsadli deb hisoblanadi. *Inson xulq-atvorini chuqur tushunish faqat uning maqsadlari va faoliyatini butunlikda tahlil qilganda mumkin bo'ladi.*

To'rtinchi faraz, psixik buzilishlarning gumanistik talqini. Mijozga yo'naltirilgan yondashuvda psixik buzilishlar an'anaviy psixiatriya yoki psixodinamik

modellardagidek "asl sabablar"ni aniqlashga emas, balki inson hayotidagi muammolarni hal etishda duch kelayotgan murakkabliklarga qaratiladi. Ya'ni, masalan, kasallik yoki ichki ixtilof sabablari emas, balki ularni yengib o'tishdagi faol(aktual) qiyinchiliklar diqqat markazida bo'ladi. **Rodjers** ta'limotiga ko'ra, ruhan sog'lom va bemor insonlarning farqi shundaki: ular muammolarini qay darajada yengib o'ta oladi. (**Rodjers** ba'zi holatlarda og'ir psixik buzilishlar uchun istisnolarni ham tan oladi). *Psixik buzilish* — inson yangi tajribani qabul qilolmaganda va uni o'zining "Men-konsepsiyasi"ga qo'shaolmaganda vujudga keladi. Bunday vaziyat *inkongruentlik* deb ataladi — ya'ni insonning real hissiy tajribasi ("*organizm tajribasi*") va uning o'zini qanday qabul qilishi ("*Men-konsepsiyasi*") o'rtasida ziddiyat yuzaga keladi. Bu ziddiyat tufayli inson yangi tajribani adekvat qayta ishlay olmaydi va uni yo rad etadi, yo buzib ko'radi, yo undan o'zini himoya qiladi.

Antropologik faraziy yondashuvlar. Mijozga - gumanistik yo'naltirilgan yondashuv mutaxassislar orasida katta xayrixohlikka sabab bo'ladi va bu xayrixohlik, shubhasiz, katta darajada ushbu modelning inson haqidagi tasavvuriga bog'liq. Bu tasavvur ushbu model bilan shaxsiy identifikatsiyani ta'minlaydi va uni ta'lim hamda superviziya (ko'makchi kuzatuv) jarayonlarida jozibador qiladi. *Gumanistik sub'ekt-model* insonning ichki kuchli intilishlari yoki tashqi determinantlari (belgilab qo'yilgan omillar)ga asoslanmaydi, ya'ni insonni biror narsa "*dasturlash*" yoki "*yo'naltirish*" vositasi sifatida ko'rmaydi. Aksincha, inson o'z ehtiyojlari va muhitga moslashuvi asosida o'zini boshqara oladigan shaxs sifatida qaraladi. U ichki o'sish va o'zini ro'yobga chiqarish sari intiladi. Bu nuqtai nazar quyidagicha ifoda etiladi: «*Inson — o'ziga o'zi uchuvchiga aylanadi*» (Ford, Urban, 1967).

Tanqidiy nuqtai nazarlar. Shu bilan birga, ushbu konsepsiya insonning tasviri juda idealistik va optimistik ekanligi uchun tanqid qilinadi. U insonga ta'sir etuvchi keng ijtimoiy va boshqa omillar xilma-xilligini yetarlicha inobatga olmaydi. U asosan sog'lom, qadriyatlar, normalar va o'rta tabaqa shartlariga asoslangan inson modeliga tayanadi. Shuningdek, *jismoniy muammolar* — *kasalliklar, organik nuqsonlar, baxtsiz hodisalar kabi omillar e'tibordan tashqarida qoladi.* Muammoli jihatlardan yana biri — bu farazga ko'ra inson har doim rivojlanish va o'zini ochish sari intiladi, degan g'oyadir. Bunday qarash, har doim ham haqiqatga mos kelmasligi mumkin.

Metapsixologik farazlar. Metapsixologik farzalar «*shaxs markazli*» (personalistik) deb ataladi, chunki ular insonning shaxsiy intilishlari, motivlari, tajribalari va *Men-konsepsiyasini* markazga qo'yadi. Bunda ijtimoiy, madaniy va moddiy hayotiy shart-sharoitlar juda kam ahamiyatga ega deb qaraladi, bu esa tanqidlarga sabab bo'ladi.

Metodologiya. Tadqiqot metodologiyasi nuqtai nazaridan *gumanistik konsepsiya fenomenologik pozitsiyaga tayanadi.* Bu pozitsiya tajribalarning namoyon bo'lish

shakllarini imkon qadar xolis tavsiflashga harakat qiladi. *Fenomenologik tadqiqotning maqsadi* — kuzatish mumkin bo‘lgan holatlarni keng qamrovli qayd etishdir. Ifodaning og‘ish imkoniyatlari faqatgina kuzatuvchining shaxsiy xususiyatlarida emas, balki nazariy strukturalar va ilmiy an‘analar ta‘sirida ham yuzaga keladi. Fenomenologik yondashuvda esa aynan shu an‘anaviy ilmiy bilimlar e‘tibordan chetga chiqarilishi kerak deb hisoblanadi. Bu erkin tavsif — intersub‘ektiv (turli insonlar tomonidan takroriy ravishda tasdiqlanishi mumkin bo‘lgan) tekshiruvga yo‘l qo‘ymaydigan sub‘ektiv ma‘lumotlarni ham o‘z ichiga oladi. Shunga qaramay, fenomenologik yondashuv faqat evristik (ya‘ni, yangi bilim yaratish) vazifani bajarib qolmay, balki mazmuniy jihatdan muvofiq va adekvat deb hisoblanadi. Chunki mijozga yo‘naltirilgan nazariya insonning sub‘ektiv tajribasiga asoslanadi.

Fenomenologik tadqiqotning kuchli va zaif jihatlari. Fenomenologik tadqiqotning asosiy kuchli tomoni — bu yangi fenomenlarni o‘rganish imkoniyatidir. Bu fenomenlar yangi nazariy va amaliy-texnologik istiqbollarni rivojlantirishga turtki beradi. Bu esa nazariya va amaliyot uchun muhim innovatsion funksiya hisoblanadi. Biroq, barcha sifat jihatidan (ya‘ni sifatli tadqiqotlar) yondashuvlarda bo‘lgani kabi, *fenomenologik tadqiqotning zaif tomoni* — u kuzatilgan fenomenlarni tushuntirish va umumlashtirishda cheklangan bo‘ladi. Bunday holatlarda faqat gipotezalarni shakllantirish mumkin, xolos.

Fenomenologik va empirik yondashuvlarning birga mavjudligi. Fenomenologik tadqiqot bilan bir qatorda tizimli empirik tadqiqotlar ham mavjud. Mijozga yo‘naltirilgan psixoterapiyaga asos solgan **K. Rodjers** shunchaki nazariyachi emas, balki psixoterapevtik jarayon va uning samaradorligini empirik-tizimli o‘rganishning pioneri hisoblanadi. Ko‘plab empirik tadqiqotlarida **Rodjers** psixoterapiya jarayoni va natijalarini ob‘ektivlashtirishga urinish olib boradi. U terapevtik sessiyalarni magnitofonga yozib olish, psixologik testlardan foydalanish va sub‘ektiv baholash usullari orqali terapevtik o‘zgarishlarni aniqlashga harakat qilgan. **Rodjers**ning bu tadqiqotlari metodologik empirizm doirasiga kiradi. Unda fenomenlarni aniq kuzatish, gipotezalarni qadamba-qadam rivojlantirish va tekshirish bo‘lsada, lekin shu bilan birga tadqiqotning eksperimental qoidalarini inkor etish holatlari mavjud.

Falsafiy-antropologik va empirik yondashuvlar o‘rtasidagi ziddiyat. Bir tomondan, falsafiy-antropologik pozitsiya, ikkinchi tomondan, tizimli empirik tadqiqot yondashuvlari o‘rtasidagi farq ekzistensial kechinmalar terapiyasi va tabiiy-fanga yo‘naltirilgan suhbat terapiyasi o‘rtasidagi ziddiyatlarni keltirib chiqardi. Biroq, shunga qaramay, mijozga yo‘naltirilgan psixoterapiya ichida kamida ikkita turlicha pozitsiya mavjud ekanini unutmazlik kerak:

Fenomenologik-shaxsga asoslangan (personalistik) pozitsiya. Bu pozitsiya individning noo‘xshashligini, shunga o‘xshash tarzda shaxslararo (shu jumladan psixoterapevtik) munosabatlarning o‘ziga xosligini ta‘kidlaydi. U interpersonal

(shaxslararo) vaziyatni o'zgarishga olib keluvchi asosiy omil sifatida ko'riladi. Biroq bu yondashuvda mijozning boshqa shart-sharoitlari, jumladan, uning hayotiy vaziyati yetarlicha e'tiborga olinmaydi.

Empirik-psixologik yo'nalish. Bu yerda esa umumiy psixologik yondashuvlar va metodlar asosiy o'ringa chiqadi. Masalan: *differensial (farqli) psixologiya, ijtimoiy (sotsial), kognitiv shart-sharoitlar va jarayonlar.*

Muhokama qiladigan bo'lsak, K. Rodjers tomonidan shakllantirilgan mijozga yo'naltirilgan psixoterapiya gumanistik klinik-psixologik modelning prototipi sifatida xizmat qiladi. Biroq bu atama doirasida turli yo'nalishlar va konsepsiyalar jamlangan. Hatto mijozga yo'naltirilgan nazariyaning o'zi ichida ham turlicha pozitsiyalar mavjud. *Gumanistik modelga* yaqin bo'lgan *geshtalterapiya* — buzilish(rasstroystvo)larning psixoanalitik modelidan bir qator elementlarni qabul qiladi. U o'zini ro'yobga chiqarishni (samoaktualizatsiyani) o'zgarishga turtki bo'luvchi motiv sifatida rad etadi va insonning shaxsiy hayotiy kontekstiga ancha katta ahamiyat beradi. Boshqa ba'zi mualliflar *geshtalrapevtik* yondashuvni keng qamrovli nazariyagacha rivojlantirganlar — bunda faqat emotsional o'zgarishlar emas, balki kognitiv jarayonlar ham qamrab olinadi. Bioenergetik yondashuvlar esa hatto shaxs xarakterini qatiq diagnostika qilishgacha boradi.

Gumanistik modelni baholash zarurati. Gumanistik modelni ancha aniqroq va nozik baholash zarur. Hozirgi kunda eng chuqur ishlab chiqilgan mijozga yo'naltirilgan gumanistik konsepsiya shunga xoski, u differensial-etimologik nuqtai nazarni (ya'ni, turli psixik buzilishlar o'rtasidagi farqlarni) inkor qiladi. Bu konsepsiya insonni noo'xshashligida ko'rib chiqqani uchun bunday yondashuvga yo'l qo'ygan. Biroq bu bilan birga, turli odamlar guruhlari, psixik buzilishlarning xilma-xil shakllari, shaxs xususiyatlarining farqlari va turli hayotiy sharoitlar (masalan, ijtimoiy qatlamga mansublik) e'tibordan chetda qoladi. Psixik buzilishlarning kelib chiqishi, diagnostikasi, klassifikatsiyasi va terapiyasida muhim ahamiyatga ega bo'lgan ana shu xilma-xil belgilar gumanistik konsepsiyaning dastlabki shaklida hisobga olinmagan. Uning o'rniga nazariy e'tibor inson o'zgarishining umumiy shart-sharoitlariga qaratiladi — bu o'zgarish shaxsiy rivojlanishda ham, psixoterapevtik ta'sirda ham ko'rinadi. Bu esa, shubhasiz, ilmiy jihatdan to'laqonli va maqbul yondashuvdir.

Mavjud kamchilik va uning muvozanatlanishi. Shunga qaramay, klinik-psixologik model nuqtai nazaridan bu yetarli emas, chunki turli buzilishlarga ega insonlar o'rtasidagi aniq farqlar inobatga olinmaydi.

Psixoanalitik nazariyaga nisbatan tanqid odatda shunday iboralardan iborat bo'ladi: «*U buzilish(rasstroystvo)ni tushunishga ko'p yordam beradi, ammo muammoni o'zgartirishda kam yordam beradi*». Ana shu tanqid mijozga yo'naltirilgan modelda aksincha ifodalanadi: «*U muammoni o'zgartirishda ko'p imkoniyat beradi, ammo turli buzilish(rasstroystvo)larning farqini aniqlashda*

kam yordam beradi». Biroq so‘nggi yillarda bu kamchilik astalik bilan yumshatilmoqda, chunki mutaxassislar bunga tobora ko‘proq e‘tibor bera boshlamoqda.

Xulq-atvor(bixevioristik) modeli. Xulq-atvor terapiyasi nisbatan qisqa vaqt ichida ham ilmiy tadqiqot sohasida, ham klinik amaliyotda muhim o‘rinni egalladi. “*Xulq-atvor terapiyasi*” tushunchasi ommabop adabiyotga ilk bor **Ayzenk, Volpe** va boshqalar orqali kirib kelgan. Bugungi kunda ushbu sohadagi tadqiqotlar soni shunchalik kattaki, uni to‘liq qamrab olish deyarli imkonsiz. Ko‘pgina mutaxassislarning fikriga ko‘ra, *xulq-atvor terapiyasi* anglo-amerika va nemis tilli mamlakatlardagi klinik psixologiyada yetakchi yondashuv hisoblanadi. Uning jadal rivojlanishi bir vaqtning o‘zida bir necha sohalarda kuzatilgan: *turli terapevtik usullar yaratilgan, tadqiqot strategiyalari ishlab chiqilgan, qo‘llash sohalari kengaytirilgan, diagnostik va texnik vositalar joriy etilgan, ruhiy buzilishlarning nazariy-xulqiy modeli rivojlantirilgan*. “*Xulq-atvor terapiyasi*” tushunchasi ikki xil ma‘noda qo‘llaniladi: *tor ma‘noda* — muayyan psixoterapevtik usullar yig‘indisi sifatida; *keng ma‘noda* — umumiy klinik-psixologik nazariy-xulqiy model sifatida. Shuni ham qayd etish kerakki, *nazariy-xulqiy model* doirasida turli mualliflar tomonidan taklif etilgan ko‘plab yondashuvlar mavjud bo‘lgani uchun, ba‘zan bu haqda “*xulq-atvor terapiyalari*” (ko‘plikda) deb ham gapiriladi.

Asosiy farziy yondashuvlar. Nazariy-xulqiy model (teoretiko-povedencheskaya model) quyidagi asosiy xususiyatlar bilan tavsiflanadi: «*Xulq-atvor*» tushunchasiga tayanuv; *sharoitlarni funksional tahlil qilish; nazariy asoslar va amaliyotda qo‘llash nuqtai nazaridan asoslash; rasstroystvolar konsepsiyasini shakllantirish*.

Xulq-atvor tushunchasi. Ilk xulq-atvor terapiyasi mijozning ko‘zga ko‘rinadigan (“*ochiq*”) xulq-atvoriga mustaqil ravishda e‘tibor qaratishga urinib kelgan. Bu metodologik jihatdan asoslangan edi: psixik jarayonlarni iloji boricha aniq va birma-bir tushunish zarur edi, bu esa ularni tasvirlash, ob‘ektivlashtirish va inson kechinmalari sifatida validlashtirishni (tekshirib tasdiqlashni) osonlashtiradi. Nazariy-xulqiy konsepsiyalar quyidagi jihatlar bilan tavsiflanadi: Ular psixik buzilishlar va terapevtik jarayonlarni ularning namoyon bo‘lish shakllari, dinamikasi va ushbu holatlar yuzaga keladigan shart-sharoitlar bilan bog‘liq ravishda maksimal darajada aniq tasvirlashga intilish (boshqacha aytganda, deskriptiv tahlil) bilan ajralib turadi. Shu bilan birga, bu konsepsiyalar ichki holatlar va jarayonlarga kirib borish va ularni tushuntirish imkoniyatiga nisbatan ehtiyotkor yoki hatto shubha bilan qarash pozitsiyasini egallaydi. Bu metodologik bixeviorizmni analitik bixeviorizm pozitsiyasidan farqlash zarur. Chunki *analitik bixeviorizmga ko‘ra, barcha sub‘ektiv jarayonlar — ya‘ni his-tuyg‘ular, fikrlar, ichki holatlar — kuzatish mumkin bo‘lgan xulq-atvorda sifat va miqdor jihatidan o‘z aksini topadi, va shu sababli ob‘ektiv ravishda tushunish mumkin deb hisoblanadi*. Biroq, analitik bixeviorizmning ilmiy asoslanmaganligi sababli,

bugungi kunda faqat metodologik pozitsiya saqlanib qolgan, ya'ni bixevioristik yondashuv tadqiqot va terapiyada asosiy uslub sifatida qo'llaniladi, ammo barcha ichki holatlar to'liq xulq-atvorga aylanadi, degan da'vo rad etiladi. Shu bilan birga, analitik bixeviorizmning izlari hozirgi amaliyotda ham uchraydi. Masalan: diagnostika asosan kuzatish mumkin bo'lgan xulq-atvorga tayanganda, ammo ichki holatlar baholanganda; yoki terapevtik o'zgarishlarga avvalo xulq-atvorga ta'sir orqali erishishga harakat qilinganda. Xulq-atvor tushunchasi tana (jism) bilan bog'liq sharoitlar va jarayonlarga yaqindan bog'liq. Buning uchta asosiy oqibati bor: *Birinchi oqibat* — tanaviy reaksiyalar (masalan, qo'rquv vaqtidagi psixofiziologik yoki psixovegetativ reaksiyalar) xulq-atvorning ajralmas qismi sifatida qaraladi. Ular psixik buzilishlarni tasvirlash, tushuntirish va terapiya qilishda hisobga olinadi. *Ikkinchi oqibat* — somatik omillar (jismoniy holatlar) xulq-atvorning asosiy shartlari va determinantlari sifatida e'tiborga olinadi. Masalan: *vaqtinchalik yoki uzoq davom etuvchi charchoq holati, kasalliklar, tan tuzilishi (konstitutsiyasi), jismoniy nuqsonlar, hamda umuman nevrologik, fiziologik, endokrinologik va boshqa jismoniy xususiyatlar*. *Uchinchi oqibat* — inson xulq-atvorini tushuntirishda xulqiy-biologik bilimlar ham jalb etiladi. Masalan: *evolyusion nazariya, xulq-atvorni taqqoslamali tadqiq qilish — etologiyadan tortib, hayvonlar ustidagi eksperimental tadqiqotlarga*. Bunday etologik tadqiqotlar shunga o'xshash savollarga javob topishda foydalidir: Nega odamlar muayyan "*kalit stimullarga*" qo'rquv, majburiy xulq-atvor (navyazchivost) yoki ijtimoiy chetlanish bilan javob qaytaradilar? Shu tariqa, nazariy-xulqiy model biologik va somatik omillarni eng to'liq hisobga oluvchi klinik-psixologik tadqiqot dasturi hisoblanadi.

Shart-sharoitlarning funksiyaviy tahlili. Nega kimdir imtihondan qo'rqadi va bu qo'rquvdan qutula olmaydi? Bu savolga javob nazariy-xulqiy model doirasida aniq kuzatuv va funksiyaviy shart-sharoitlarni tahlil qilish orqali beriladi. Boshqacha aytganda, inson xulq-atvori muhit bilan funksional bog'liqlikda bo'ladi, ya'ni u muhit ta'siri ostida shakllanadi. Shu munosabat bilan tahlil jarayonida "agar... unda..." ko'rinishidagi qonuniy bog'liqliklar izlanadi. Bu tahlilda muhim ahamiyatga ega bo'lgan jihatlardan biri — xulq-atvorga: qanday voqealar sabab bo'lgani (ya'ni, antetsedent sharoitlar – xulq-atvordan oldingi omillar), va xulq-atvordan so'ng qanday natijalar kelib chiqqanligi (ya'ni, suksedent sharoitlar – xulq-atvorning oqibatlari)ni aniqlashdir. Shu kabi voqeaviy-xulq-atvoriy ketma-ketliklarni tahlil qilish orqali insonning xulq-atvori, uning motivatsiyasi, atributsiyasi (ya'ni, odam o'z xulqini qanday tushuntiradi) va boshqa omillar izohlanishi mumkin deb hisoblanadi.

Nazariy va amaliy asoslar hamda empirik tekshiruvning o'zaro bog'liqligi. O'zining tarixiy rivojlanish jarayonida xulq-atvor terapiyasi avvalo o'rganish nazariyalari (teoriyalari)ni klinik-psixologik jihatdan qo'llash sifatida shakllangan. U, masalan, quyidagicha ta'riflangan: «*Zamonaviy o'rganish nazariyasi qonunlaridan foydalangan holda, terapiya jarayonida inson xulq-atvori va hissiyotlarini o'zgartirishga qaratilgan urinish*» (Ayzenk, 1964, b. 1).

Bu yerda **Ayzenk** birinchi navbatda nazarda tutgan narsa — klassik shartlash (Pavlov) va operant shartlash (Skinner) kabi shartli nazariyalari prinsiplari edi. Ushbu asosiy yoʻnalishning asoschilari sifatida rus olimlari — **I.P. Pavlov** (1849–1936) va **V.M. Bexterev** (1857–1925), hamda amerikaliklar — **J. Uotson** (1878–1958) va **B. Skinner** (1904–1990) hisoblanadilar. Bu konsepsiyada prinsipial yangilik shunda ediki, *birinchi marta psixologik asosiy nazariya psixik buzilishlarni tasvirlash, tushuntirish va ularni terapiya qilish uchun qoʻllashga urinish qilinadi*. Klinik-psixologik amaliyotni psixologik nazariyalar asosida ilmiy asoslashga yoʻnaltirilgan bu bazaviy yondashuv bugungi kunda ham ushbu modelning asosiy xususiyati boʻlib qolmoqda. Bunga qoʻshimcha sifatida, bu model uchta yoʻnalish boʻyicha kengaytirilgan:

— xulq-atvor modeli nazariyasi faqat oʻrganish nazariyalariga emas, balki, avvalo, kognitiv va shaxslararo yoʻnalishdagi (ijtimoiy oʻrganish, atributsiya, axborotni qayta ishlash, oʻzini-oʻzi roʻyobga chiqarish va h.k.) qator boshqa nazariyalarga ham tayanadi;

— tadqiqot dasturlari uchun empirik yoʻnalish xos boʻlib, yaʼni buzilishlar va terapiya modellarining empirik haqqoniyligi ilmiy va amaliy rivojlanish uchun muhim oʻlchov va tuzatish omili sifatida qaraladi. Empirik asoslash nazariy–xulq-atvor modeli shakllanishining muhim tarkibiy qismi boʻlib, unga nazariy tushuntirishlar, texnologiyaviy asoslar va amaliyotda terapevtik dasturlarni baholashgacha boʻlgan prog-nozlar kiradi. Klinik–psixologik amaliyotni baholashda hal qiluvchi omil doimo empirik ekspertiza natijalari hisoblanadi;

— klinik amaliyot ham mustaqil tamoyillar va texnologiyalarni rivojlantirishi, shuningdek, nazariyalarga qimmatli turtki berishi mumkin. Shu tariqa amaliyotni asoslashga faqat psixologik asosiy nazariyalargina emas, balki amaliyotning oʻzi ham nazariyalar rivojiga katta hissa qoʻshadi. Bu, ayniqsa, buzilishlar va terapevtik dasturlarning maxsus modellarini rivojlantirishda toʻgʻri keladi. Nazariy–xulq-atvor yoʻnalishidagi tadqiqot dasturlarida psixologik asosiy nazariyalar bilan amaliy nazariyalar oʻrtasidagi oʻzaro almashinuv mustahkam oʻrnashgan;

Buzilish konsepsiyasi. Nazariy–xulq-atvor yoʻnalishidagi buzilish konsepsiyasiga koʻra, buzilishlar tashqi tomondan kuzatilgan xulq-atvorda namoyon boʻladi va kasallikning mohiyati bilan uning simptomatikasi oʻrtasidagi farq alohida ajratib koʻrilmaydi. Xulq-atvor har doim atrof-muhit bilan oʻzaro bogʻliq holda tahlil qilinadi, shuning uchun insonning muammoli xulq-atvorini uning oʻrganish tarixi bilan bogʻliq holda koʻrib chiqish hamda muammoni yuzaga keltiruvchi va saqlab turuvchi shart-sharoitlarni aniqlashga harakat qilinadi. Shu bilan birga, insonning qobiliyat va koʻnikmalari aniqlanib, oʻrganish, bilim va xulq-atvordagi kuchli tomonlaridan foydalanishga intilinadilar. Mavjud boʻlgan kamchiliklar esa maqsadli treninglar orqali bartaraf etiladi. Masalan, ijtimoiy qoʻrquvi boʻlgan shaxslarda, ruhiy yoki intellektual muammolarga ega odamlarda yoki oldingi

shizofreniya tashxisi qo'yilgan bemorlarni reabilitatsiya qilish jarayonida ijtimoiy va kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantiruvchi mashqlar orqali.

Bunday holatdagi terapiya — psixoanalitik yoki gumanistik terapiyadan farqli o'laroq — kam hollarda shaxsning o'ziga, odatda esa «vaziyatlardagi xulq-atvor»ga, mijozning ijtimoiy va hayotiy kontekstiga (masalan, boshqalar bilan o'zaro munosabatlariga, kasbiy yoki oilaviy hayotiy vaziyatiga) qaratilgan bo'ladi yoki muhitni shakllantirishga yo'naltirilishi mumkin (masalan, ota-onalar yoki mijozga yaqin shaxslar uchun treninglar, kasbiy vaziyatni tuzatish).

Antropologik taxminlar. Nazariy–xulq-atvor yondashuvi shaxs va muhit munosabatlaridan kelib chiqib, xulq-atvor, asosan, muhit sharoitlarining funksiyasi sifatida namoyon bo'ladi, shaxsning muhitga faol ta'siri esa deyarli hisobga olinmaydi. **Bandura** (1986) bu qarashni «*bir yo'nalishli determinizm*» deb ta'riflaydi. Inson xulq-atvori bir tomonlama muhit sharoitlari tomonidan yo'naltiriladi. Shuning uchun bu konsepsiyaning antropologik tasavvurlari «*uchuvchi modeli*»dan ko'ra «robot modeli»ga yaqinroq: inson o'z maqsad va tasavvurlariga ko'ra muhitini faol ravishda shakllantirish o'rniga muhit kuchlariga javob qaytaradi, xulq-atvor esa stimullar va oqibatlarga javobdir. Tarixiy jihatdan bunday qarashni, aslida, bir chekka fikr sifatida, psixoanalitik tasavvurlarga qarshi javob sifatida tushunish mumkin. Psixoanaliz esa, aksincha, hayotiy kontekstning real sharoitlari ta'sirini inkor qilib, inson xulq-atvorining ichki turtki kuchlar bilan determinatsiyasiga urg'u beradi. Ham nazariy–xulq-atvor, ham psixoanalitik modellarda insonning o'z taqdirini o'zi belgilashi masalasi yetarlicha hisobga olinmaydi. «*Uchuvchi modeli*»da esa inson qaysi xulq-atvorni amalga oshirishini, qaysi vaziyatlarga duch kelishini va muhitga qanday faol ta'sir ko'rsatishini o'zi belgilaydi, degan g'oya markaziy o'rinda turadi.

Metodologiya. Metodologik jihatdan nazariy–xulq-atvor modeli, avvalo, tajribaga yo'naltirilgan bo'lib, aynan shu orqali o'zaro bog'liqliklarni sababiy izohlash mumkin bo'ladi. Bu modelning ayrim tarafdorlari egallaydigan keskin pozitsiya shundan iboratki, zarur bilimni faqat tajriba beradi va har bir aniq holdagi terapiya ham tajriba sifatida ko'rilishi kerak: diagnostika bosqichida gipoteza qo'yiladi, rejali intervensiya o'tkaziladi va dastlabki taxminlarni tasdiqlaydigan yoki rad etadigan natijalar baholanadi.

Muammo shundaki, tadqiqot va terapiya turli maqsadlarni ko'zlaydi. Tadqiqotning asosiy maqsadi — mavjud bilimlarga tayanadigan va shart-sharoitlarni o'zgartirish hamda nazorat qilish orqali qo'lga kiritiladigan yangi bilim olishdir. Terapiya esa bu imkoniyatlar jihatidan ancha cheklangan. Metodologik nuqtayi nazar hatto hayvonlar ustidan o'tkazilgan tajribalar natijalarini inson terapiyasiga ko'chirishga urinishga olib kelgan. Masalan, **Volpe** tomonidan mushuklarda («*nevrotik buzilishlar*») o'tkazilgan tajribalar natijalari shunga misol bo'la oladi. Eksperimental tadqiqotning klinik psixologiyadagi shu

va boshqa cheklovlari shunga olib keldiki, uning tushuntirish salohiyati yuqori bo'lsa-da, u ko'p hollarda xohlangan metod sifatida qoladi, ammo amalda ko'pincha boshqa empirik bilim manbalari bilan almashtirilishiga to'g'ri keladi.

Muhokama qilinadigan bo'lsa, 1960-yillar oxiriga kelib, xulq-atvor terapevtlarining ko'pchiligi radikal xulq-atvor yo'nalishlaridan voz kechgan bo'lsa-da, xulq-atvor terapiyasini o'rganish nazariyalari asosida izohlashga oid dastlabki qarashlar haligacha saqlanib kelmoqda. Ilk xulq-atvor terapiyasining shartli reflekslarga asoslangan nazariy yo'nalishiga qarshi asosiy dalil shuki, o'rganishning turli jarayonlari ularni faqat ikki oddiy shaklga qisqartirish imkonini bermaydi. Shu bilan birga, ko'pincha hayvonlar ustidan olib borilgan tajribalarda sinovdan o'tgan «stimul» va «reaksiya»ning sodda ta'riflarini insonning murakkab ruhiy jarayonlariga tatbiq etish imkoniyati ham muammoli hisoblanadi.

Bixevioral tushuntirish yondashuvining ziddiyatli jihatlari, ayniqsa, o'zini-o'zi nazorat qilish konsepsiyasidan foydalanadigan bixevioral–terapevtik yo'nalishda namoyon bo'ladi. O'zini-o'zi nazorat qilish, o'zini-o'zi mustahkamlovchi xususiyatga ega bo'lgan ruhiy muammolarda zarur hisoblanadi. Masalan, qaramlik xulq-atvori (spirtli ichimliklar, narkotiklar, dori vositalari, ovqat, tamaki va h.k.ni suiiste'mol qilish) hamda kuchli bo'yin tovlash xulq-atvori (qo'rquv va, ayniqsa, fobiyalar) shular jumlasidandir. O'zini-o'zi nazorat qilish dasturlari inson o'z xulq-atvorini maqsad haqidagi tasavvurlariga muvofiq ravishda anglab va rejali ravishda yo'naltira oladi, degan taxminga asoslanadi. Bu jarayonda o'zini-o'zi kuzatish, o'zini-o'zi baholash va o'zini-o'zi rag'batlantirish shaxsiy xulq-atvorni ichki nazorat qilishda markaziy o'rin tutadi. Faqatgina ushbu yondashuvlarni sub'ekt (sub'ektli) modeliga asoslangan epistemologik doirada qayta qurish orqali o'zini-o'zi nazorat qilish dasturlari nazariy–xulq-atvor modeli ichida kelib chiqadigan ziddiyatlarni tushuntirish mumkin bo'ladi.

Bandura o'zining xulq-atvorni modifikatsiya qilish prinsiplariga bag'ishlangan qisqa va mazmunli kitobida (1969, 63-bet) ham bixevioral, ham psixoanalitik pozitsiyaga qarshi chiqadi: «...inson — na ichki turkilar bilan boshqariladigan tizim, na tashqi stimulyatsiyaga passiv javob beradigan mavjudotdir». Keyinchalik bixevioral pozitsiya kognitiv va ijtimoiy (ya'ni «*interpersonal*») konsepsiyalar bilan boyitildi. Turli yo'nalishlarni integratsiya qilishga qaratilgan sa'y-harakatlar natijasida nazariy–xulq-atvor modeli va xulq-atvor terapiyasini chuqurroq anglash imkoni yaratildi. Bu jarayonda, avvalo, diqqatni boshqarish, muammolarni hal qilish va maqsadga yo'naltirilgan tafakkur, axborotni qayta ishlash, motivatsiya, o'z-o'ziga samarali ta'sir qila olishga bo'lgan ishonch kabi kognitiv jarayonlar hamda kuzatish orqali o'rganish, ramziy va shaxslararo qiyoslashlar kabi mexanizmlar jalb etildi.

Bugungi kunda ko‘proq ijtimoiy–kognitiv xulq-atvor terapiyasi haqida so‘z yuritish mumkin. Shu bois zamonaviy xulq-atvor terapiyasini quyidagicha tavsiflash mumkin:

Asosiy — xulq-atvor terapiyasiga oid bilimlar tizimli empirik tadqiqotlardan olingan va psixologik bilim asoslarini ularning amaliyotda qo‘llanilishi bilan bog‘laydi. *Biopsixosotsial yo‘nalish* — etiopatogenez va terapiyada biologik–somatik, ruhiy va kontekstual shart-sharoitlar o‘zaro bog‘liq holda hisobga olinishi kerak.

O‘zgarishlarga yo‘nalish — insondagi o‘zgarish jarayonlarini ayniqsa farqli va chuqur tushunish zarur.

Tizimli va maqsadli davolash — muammoni aniqlash (diagnostika) → intervensiya → natijani baholash.

Buzilishning o‘ziga xosligiga yo‘nalish — muayyan buzilishlar uchun buzilish konsepsiyasi va terapiya modellarini ishlab chiqish.

Kognitiv model. 1960-yillar boshiga kelib, **A. Ellis**ning «ratsional-emotiv terapiyasi» (1962) va **A. Bek**ning depressiyaga oid «kognitiv terapiyasi» (1963) bilan birga ilk kognitiv yo‘nalishdagi psixotexnologiyalar paydo bo‘ldi. Ular bir vaqtning o‘zida ruhiy buzilishlar kelib chiqishini tushuntiradigan modellarni ham ifoda etar edi. Ikkala model ham klinik psixologiyada kognitiv yondashuvning muhim ilk odimchilari va pionerlari bo‘ldi. Bu model keyinchalik mazkur sohaning rivojlanishi uchun ko‘p hal qiluvchi turtkilar berdi. So‘nggi o‘n yilliklarda kognitiv yondashuv ko‘plab g‘oyalarning paydo bo‘lishiga xizmat qilganini to‘la ishonch bilan aytish mumkin. *Kognitiv nuqtai nazar klinik psixologiyaning qator markaziy mavzulariga ulkan ilmiy hissa qo‘shdi.* Jumladan: harakat va xulq-atvorni boshqarish, axborotni qayta ishlash, «Men» konsepsiyasi, emotsiyalarni anglash, ijtimoiy munosabatlarni idrok etish, shuningdek, rivojlanish psixologiyasi mavzulari. Tadqiqotlarda insaytning ahamiyati, bilimlar (ratsional va irratsional), ishonchlar, kutilmalar, oldingi tajriba, tushuntirishlar, ma’no atributsiyasi, o‘zini idrok etish va o‘zini baholash, qiyinchiliklarni yengish qobiliyati, vaziyatlar, muhit va boshqa shaxslarni qabul qilish, rejalar, maqsad qo‘yish, axborotni ongli, avtomatlashgan va ongsiz qayta ishlash, muammo yechish kabi yo‘nalishlar o‘rganildi.

Maxsus(o‘ziga xos) buzilish nazariyalari ruhiy buzilishlarni tushuntirish va terapiya qilishda kognitiv jarayonlarni hisobga olish zaruratidan endi chetda qololmas edi. Shu bilan birga, kognitiv nazariyalar turli klinik-psixologik modellar o‘rtasida bog‘lanishlar o‘rnatish va integrativ yondashuvlarni rag‘batlantirish uchun muhim «ko‘prik» vazifasini bajara oldi. Bunga misol qilib axborotni qayta ishlash va kognitiv sxemalar nazariyalarini keltirish mumkin, ular psixoanalitik va kognitiv nazariyalar o‘rtasida ko‘prik vazifasini o‘tadi. Muammo

yechish nazariyalari esa nazariy–xulq-atvor va kognitiv yondashuvlar o‘rtasida bog‘lovchi bo‘lib xizmat qiladi. Stress va koping nazariyalari bixevioral, somatik, shaxslararo, kognitiv va emotsional jihatlarni bir-biri bilan bog‘laydi. Kognitiv modellarning integrativ salohiyati hali to‘liq ishlatilmagan. Kognitiv model doirasida birlashtirilgan nazariyalar turli qatlamli (turli darajali)dir. Buning sababi shundaki, uning mazmuni turli manbalardan to‘ldiriladi: fanlararo «*kognitiv fan*»dan, neyroilmlardan, fan nazariyasidan, turli psixologik asosiy yo‘nalishlardan, shuningdek, muayyan ruhiy buzilishlarga (masalan, depressiya va emotsional buzilishlar) oid klinik-psixologik yondashuvlardan hamda turli psixoterapiyalardan (masalan, ratsional–emotiv terapiya, gipnoterapiya).

Asosiy taxminlar. Turli kognitiv nazariyalarning umumiy asosi — shaxs va muhit o‘rtasidagi munosabatlarga oid ikki postulatdan iborat. *Birinchi taxmin* — inson bilim va maqsadlar yo‘nalishida o‘z muhitiga faol ta’sir ko‘rsatadi va uni shakllantiradi. *Ikkinchi taxmin* — muhit insonning hissiyot va xulq-atvoriga kamroq to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir qiladi, asosan esa inson qabul qilgan va ma’no bilan to‘ldirgan sub’ektiv reallik orqali ta’sir ko‘rsatadi. Inson o‘z realligi(voqeligi)ni «*quradi*». Bu qarash kognitiv konstruktivizm deb ataladi. Umuman olganda, *kognitiv model bilish va o‘zi haqida o‘ylay oladigan inson konsepsiyasini aks ettiradi.* Maqsad qo‘yish, idrok, bilim, baholash, tushuntirish kabi jarayonlar psixologik muammolarning rivojlanishi va o‘zgarishida katta ahamiyatga ega. Shuning uchun *buzilgan hissiyot yoki xulq-atvorni ta’riflashda ko‘pincha «buzilish» yoki «patologiya» atamasi emas, balki «psixologik muammolar» atamasi qo‘llaniladi.* Inson o‘zi «qurgan» realligiga asosan javob qaytaradi, degan qarashning asoschilaridan biri — **Dj. Kelli** (1955). Uningcha, inson jarayonlari voqealarni oldindan ko‘ra bilish usuli orqali psixologik tarzda boshqariladi. Sub’ektiv reallik inson tomonidan yaratiladi va «*shaxsiy konstruktlar*»da ma’lum yoki noaniq shaklda ifodalanadi. Inson *ushbu konstruktlar yordamida o‘zi va dunyoni anglashga hamda ular bilan bog‘liq muammolarni yengishga harakat qiladi.* Konstruktlar insonga ham, tadqiqotchiga ham muhitni (yoki tadqiqot ob’ektini) tushunish uchun xizmat qiladi. Ular gipotezalarga o‘xshaydi va tajriba orqali o‘zgarishi mumkin. Insonning muhitiga moslasha olish qobiliyati bilan bog‘liq muammolar, asosan, konstruktlar o‘zaro ziddiyatga kirganda yoki ayrim konstruktlar butun tizimni izdan chiqaradigan tarzda o‘zgarganda yuzaga keladi. Shu taxminlar asosida turli qayta qurish va yordam ko‘rsatish usullarini ishlab chiqish mumkin. Shu tariqa, psixologiyadagi «*kognitiv burilish*»dan oldin vujudga kelgan mazkur nazariya keyingi kognitiv–klinik yondashuvlar uchun muhim asos bo‘lib xizmat qiladi.

*Kognitiv konstruktivizm*da inson bilimni faol va oldindan rejalashtirilgan tarzda egallaydi, ya’ni u atrofdagi dunyoni o‘z oldingi bilimlari, tajribasi, ishonchlari va h.k.ga muvofiq ravishda «qurib» qabul qiladi. Qabul qilingan ma’lumot individning faoliyati natijasi sifatida tushuniladi. Bu kognitiv jarayonlarning faqat kichik qismi ongli ravishda amalga oshadi, katta qismi esa «jim» holda, ya’ni ong ostida sodir bo‘ladi. Bu konstruktivistik qarash klinik psixologiya va

psixoterapiyada faqat kognitiv model doirasida emas, balki shaxslararo modellarda ham, masalan, tizimli terapiyada ham uchraydi.

Radikal konstruktivizm esa barcha idrok va kognitsiyalar insonning faol konstruksiyasi ekanini, ular reallik haqida emas, balki faqat bilish sub'ekti haqida ma'lumot berishini postulat qiladi. Shuning uchun konstruktivizmدا savol qo'yiladi: inson qaysi idroklarni va qay darajada o'zi «*quradi*», hamda ular qay darajada reallik bilan bog'liq? Klinik–psixologik nuqtai nazardan bu savol ayniqsa muhim, chunki insonning reallik to'g'risidagi konstruksiyalari qay darajada adekvat va tushunarli ekanini aniqlash talab etiladi. Masalan, depressiyaga chalingan bemor ayolning o'zi va tajribasi haqidagi salbiy ishonchlari realmi yoki yo'qmi? **A. Ellis** bu masalada ratsionalistik pozitsiyani egallaydi: u ishonchlarning irratsionalligi ruhiy buzilishlarning asosiy sababi deb hisoblaydi.

Ma'lumotlarni qayta ishlash. Reallikni idrok etish qanday qilib buziladi? Nega noxush voqealar kamroq esda qoladi? Inson o'zi haqida, ijtimoiy munosabatlar yoki dunyoqarashi haqidagi ayrim ishonchlarni qanday shakllantiradi va nega ularni shunchalik qattiq muhofaza qiladi? Nega bolalikdagi ayrim vaziyatlar yoki hayotdagi yagona bir voqea uning sub'ektiv hayotiy jarayonida katta ahamiyat kasb etadi? Nega boshqa tajribalar esa ongsiz holda qoladi? Nega depressiyaga chalingan odamlar o'zlarining ko'p jihatdan qobiliyatsiz ekanliklari va hozirgi hamda kelajakdagi hayotlarida umid yo'qligi haqidagi fikrdan voz kechishni xohlamaydilar? *Ma'lumotlarni qayta ishlash* doirasidagi yondashuvlar ba'zan klinik psixologiya uchun mustaqil bir «*paradigma*» sifatida ham qaraladi. Ushbu savollarning ko'pchiligi *ma'lumotlarni qayta ishlashning* ongsiz jarayonlari bilan bog'liq. *Ongsiz jarayonlarni tushunish ko'pincha eng ta'sirchan nazariyalardan biri — psixoanaliz bilan bog'lanadi.* Ma'lumki, psixoanalizda ongsizlik tushunchasi **Freydning** topografik nazariyasiga asoslangan bo'lib, unga ko'ra *ongsiz jarayonlar xulq-atvor va hissiyotga faol ta'sir ko'rsatadi, ular boshqacha tartibda tashkil topgan va ongli jarayonlardan farqli qoidalarga binoan amal qiladi. Ular hech qachon yoki faqat istisno holatlarda (masalan, tush ko'rish paytida) onga yetib borishi mumkin.* Shu «*psixodinamik ongsizlik*»ni kognitiv–psixologik ongsizlik konsepsiyasidan farqlash zarur.

Kilstrom va hammualliflar (1992, 789-bet) yozganidek, «*psixodinamik ongsizlik*» “*issiq*” va “*nam*” deb qaraladi, chunki u konseptual jihatdan, bir tomondan, jinsiy xohish va g'azab (jinsiylik va tajovuzkorlik) bilan bog'liq, ikkinchi tomondan esa biror ibtidoiy va irratsional narsa sifatida tasvirlanadi. *Zamonaviy psixologiyadagi ongsizlik tasavvuri esa undan ko'ra yumshoqroq va moslashuvchanroq bo'lib, reallik bilan bog'liq hamda ratsionalroq hisoblanadi.* Ikkala qarashning umumiy tomoni shundaki, hissiyot va xulq-atvorning katta qismi ongsiz ravishda kechadi. Eksperimental tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, «*deyarli sezilmaydigan*», «*seziladigan, lekin diqqatga tushmaydigan*» va «*sezilgan, ammo keyin unutilgan*» voqealarning (subliminal idrok yoki

subsepsiya, selektiv e'tibor, selektiv unutish) to'g'ridan-to'g'ri va uzoq muddatli oqibatlari bo'lishi mumkin. Mashq orqali fikr va harakatlar avtomatlashishi, ya'ni ongli nazoratsiz, ixtiyorsiz va sa'y-harakatsiz amalga oshishi mumkin ("avtomatik fikrlar"). Klinik holatlarda bu shunday namoyon bo'ladiki natijada, bemorlar ularga ta'sir qilgan voqealarni anglamaydi.

XIX asrning oxirida **P. Jane** (1889) isterik bemorlarda ong buzilishi jarayonlarini tasvirlab beradi. Bu bemorlar hech qanday organik sababsiz xotirasini yo'qotar yoki ko'rish va eshitish qobiliyatidan mahrum bo'lar edilar. **Jane** olib borgan puxta tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, bunday funksional buzilishlar mavjud yoki o'tmishdagi voqealar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. U bu holatlarni *disaggregation (dizintegratsiya)* deb atagan, hozir esa biz buni dissotsiatsiya yoki dissotsiativ buzilishlar deb ataymiz: ya'ni normal holda bir butun bo'lgan ruhiy jarayonlar parchalanib, ong uchun to'liq yopiq bo'lib qoladi. Jane bu kuzatishlarni shunday izohlaganki, travmatik tajriba rivojlanayotgan ong ostiga ko'chiriladi. Psixoanalitik nazariyadan farqli o'laroq, **Jane** bu ong osti oldindan mavjud emas, balki aynan shu tajriba bilan birga shakllanadi va uning o'z dinamikasi yo'q, deb hisoblagan. *Dissotsiativ buzilishlarga*, shuningdek, ko'p shaxslilik buzilishi kiradi — individ o'zini bir nechta shaxsiy identiklikda his qiladi, shuningdek, depersonalizatsiya va derealizatsiya holatlarida (o'zini va atrofni haqiqiy emas, undan uzoq yoki avtomatik kechayotgandek idrok etish) bo'ladi. Normal xulq-atvorda ham ba'zida shunday holatlar uchraydiki, juda murakkab xulq-atvor namunasi individning o'zi barcha jihatlarini anglamasdan ham amalga oshiriladi. Bu, masalan, kognitiv sxemalar (*implitsit yoki «jimi» bilim*) boshqaradigan interaktiv xulq-atvor turlariga xos. Sxemalar mavjud tajriba va xotiralarni tashkil etadi, yangi ma'lumotni izlash va qayta ishlash hamda inson harakatlarini yo'naltiradi. Sxemaning bir qismi (masalan, alomatlaridan biri) faollashsa, butun sxema ishga tushadi. Kognitiv sxemalar yoki «*xaritalar*» — ijtimoiylashuv jarayonida egallangan, tajribani (masalan, voqealar qanday qabul qilinishini) va individning harakatga tayyorligini tashkil qiladigan dasturlardir. Kognitiv-affektiv sxemalar esa ruhiy buzilishlarning kelib chiqishi va ularning terapiyasini (masalan, depressiya — **Bek** va boshq., 1992; shizofreniya — **Chompi**, 1994), turli buzilishlar (Guidano, 1987; Maxoni, 1991), klinik baholash va diagnoz qo'yish jarayonlarini tushuntirish uchun qo'llaniladi. *Kognitiv faoliyat nazariyalari*. Faoliyat (harakat) tushunchasi epistemologik jihatdan sub'ektiv modellarga tegishli qator nazariyalar uchun asos hisoblanadi.

Harakatlar — bu maqsadga erishishga qaratilgan va ijrochi individ tomonidan to'liq anglangan xulq-atvor shakllaridir. Ijtimoiy-kognitiv o'rganish nazariyasi esa faoliyat nazariyasining maxsus bir ko'inishi sifatida qaraladi.

Uning asosiy maqsadi — shaxs rivojlanishigacha bo'lgan umumiy o'zgarish jarayonlarini tushuntirish ("theory of change"). Bu nazariyaga ko'ra, bunday o'zgarish jarayonlari quyidagilar orqali ishga tushadi: *Ma'lum qobiliyat va kompetensiyalar; Simvolizatsiya, ya'ni voqea va tajribalarga ma'no, shakl va*

barqarorlik berish qobiliyati (simvolizatsiya kompetensiyasi); Oldindan o'ylash va rejalashtirish (antitsipator kompetensiya); Kuzatish orqali o'rganish (yordamchi o'rganish kompetensiyasi); O'zini-o'zi tartibga solish kompetensiyasi — ichki standartlar, qadriyatlar va maqsadlarni shaxsiy harakatlar orqali boshqarish qobiliyati; O'zini-o'zi refleksiya qilish kompetensiyasi — shaxsiy tajriba haqida o'ylab, shu orqali o'zi va atrof-dagi dunyo haqida yangi bilim hosil qilish qobiliyati.

Bu kompetensiyalarning yetishmasligi (masalan, haddan tashqari umumlashtirish yoki tahdidli voqealarni noto'g'ri oldindan kutush), shuningdek, noqulay o'rganish tajribasi (masalan, nomaqbul ijtimoiy modellar) yoki individni haddan ziyod zo'riqtiradigan keskin tajribalar shunga olib keladiki, inson odatiy, ayniqsa stressga boy hayotiy vaziyatlarni ham to'g'ri yengib o'ta olmaydi. Agar shaxs ushbu kompetensiyalarni yetarli darajada egallagan bo'lsa, ulardan qiyinchiliklarni muvaffaqiyatli yengishda foydalanishi mumkin. Lekin ular yetarli bo'lmasa, qiyinchiliklar insonga cheksizdek tuyuladi yoki noto'g'ri va zo'riqtiruvchi tasavvurlar (masalan, «qo'rquvdan qo'rqish») rivojlanadi, qo'rquv kuchayadi, somatik buzilishlar, ortiqcha o'zini himoya qilish, kuchli bo'yin tovlash xulq-atvori paydo bo'ladi. **Banduraning** ta'kidlashicha, hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan omil — bu *self-efficacy* (o'z-o'ziga samarali ta'sir qila olish ishonchi), ya'ni individning o'z hayotiga ta'sir qiluvchi vaziyatlar va voqealarni qay darajada nazorat qila olishini baholashi. Agar mijoz yoki bemorda terapiyaning boshida yoki jarayonida samoeffektivlik yetishmasligi aniqlansa, u bilan albatta tizimli ravishda ish olib borish va bu kamchilikni bartaraf etish zarur.

Antropologik taxminlar. Kognitiv modelning shakllanishi bilan klinik psixologiyada insonni bilish qobiliyatiga ega shaxs sifatida ko'radigan boshqa bir tasavvur vujudga keldi. Epistemologik sub'ekt modeli insonni bilish va refleksiya qila oladigan, atrof-muhitni faol va o'z-o'zini belgilagan holda shakllantira oladigan sub'ekt sifatida tushuntiradi. Bu shakllantirish jarayonida dunyoning sub'ektiv qabul qilinishi ham ishtirok etadi va uning katta qismi ijtimoiy shartlangan deb qaraladi. Sub'ekt «*refleksiv*» hisoblanadi, chunki u o'z tafakkurini o'ziga qarata oladi. Bu qarashlar bixevioral va psixodinamik modellardan farq qiladi: bixeviorizmدا ob'ektiv shart-sharoitlar ta'siri, psixoanalizda esa shaxs ichidagi turtki kuchlar ta'siriga urg'u beriladi. Bunday tushunish va farqlashning ham afzal, ham kamchilik tomonlari bor. *Ijobiy tomoni* — inson harakatining ongli, aqlga asoslangan, ixtiyoriy va o'zini-o'zi tahlil qila oladigan qismlari namoyon etiladi, shuningdek, rejalashtirish, reallikni konstrutsiya qilish, insayt, sub'ektiv tushuntirish va baholash jarayonlari harakatni qanday belgilashi ko'rsatiladi.

Metodologiya. Metodologik jihatdan kognitiv klinik–psixologik modelning asosiy g'oyasi — sifatli, germeneytik tadqiqot yondashuvlarini kuchaytirish va yangi bosqichga olib chiqishdir. Chunki ana shu yondashuvlar sub'ektiv idroklar, konstruktlar, bilimlar va tajribalarga bevosita yetish imkonini beradi. Shundan

kelib chiqib, klinik jihatdan ahamiyatli kognitiv jarayonlarni tushunish uchun ko‘plab diagnostik texnikalar taklif qilindi. Bu jarayonda tadqiqot ishtirokchisining roli ham tubdan o‘zgardi — u «o‘rganiladigan ob‘ekt»dan tadqiqotda hamkor ishtirokchiga aylandi. Eksperimental metodika o‘zgartirilganda, tadqiqot ob‘ekti tadqiqot sherigiga aylanishi, uning eksperiment maqsadini anglashi, «*vaziyatni belgilashi*» va «*natijalar*» haqidagi shaxsiy bahosi tadqiqot ma‘lumoti sifatida hisobga olinishi va muhokama qilinishi kerakligi ta‘kidlandi. Sifatli–germenevtik tadqiqot yondashuvlari tadqiqotning «*ichki*» va «*tashqi*» validligi nuqtai nazaridan tekshirilishi shart. *Ichki validlik* — tadqiqot natijalari nazorat qilinmaydigan omillar ta‘sirida bo‘lsa, xulosalar ishonchsiz chiqishi mumkin. *Tashqi validlik* — tadqiqot natijalarini boshqa shaxslar, vaziyatlar, belgi va h.k.ga umumlashtirish qobiliyati. Sifatli–germenevtik metodlarda tashqi validlik ko‘pincha cheklangan bo‘ladi, chunki bunday tadqiqotlar odatda kam sonli holatlar yoki kichik guruhlarda amalga oshiriladi. Shuningdek, ichki validlik ham muammoli bo‘lishi mumkin, chunki tadqiqotchi va ishtirokchi o‘rtasidagi o‘zaro ta‘sir, tadqiqot vaziyati, turli ishtirokchilarda tadqiqotning har xil kechishi yoki standartlashtirib bo‘lmaydigan baholash jarayonlari natijalarga ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli kognitiv model doirasida natijalarni metodik jihatdan himoya qilish va, hech bo‘lmaganda, ichki validlikni ta‘minlash uchun katta sa‘y-harakatlar amalga oshiriladi. Bu, avvalo, tadqiqot jarayoni va baholashni puxta hujjatlashtirish, tadqiqot jarayonini formallashtirish, shuningdek, dialoglarni tanqidiy tekshirish (masalan, «chalg‘ituvchi savollar»ni aniqlash) yoki audio/video yozib olingan xulq-atvorni mustaqil baholash orqali amalga oshiriladi. *Salbiy tomoni* — model inson xulq-atvorini kuchli darajada belgilaydigan affektiv turtkilar, muhitning ob‘ektiv omillari va biologik–organizm/jismoniy jarayonlarni faqat cheklangan holda hisobga oladi. Shunga qaramay, bu cheklovlarni bartaraf etishga qaratilgan urinishlar mavjud.

Muhokama qilinadigan bo‘lsa, kognitiv model so‘nggi asrning oxirgi choragi va joriy asrning boshidagi eng samarali yondashuvlardan biri hisoblanadi. Uning klinik psixologiyadagi samaradorligi faqatgina shu yo‘nalishda kognitiv asoslangan etiologik nazariyalar va psixotexnologiyalar yaratilganida emas, balki, eng avvalo, uning integrativ ta‘sirida namoyon bo‘ladi. Bu shundan ham ko‘rinib turibdiki, model vakillari o‘zlarini boshqa yo‘nalishlardan ajratish lozim bo‘lgan alohida klinik-psixologik yoki psixoterapevtik «*maktab*» asoschilari sifatida ko‘rmaydilar.

Integrativlik kamida uch yo‘nalishda sho‘ifodasini namoyon qildi:

1. Turli klinik-psixologik modellar o‘rtasida bog‘lanishlar o‘rnatildi va bu ularning kreativ rivojlanishiga xizmat qildi. Masalan, ongli va ongsiz axborotni qayta ishlash konsepsiyalari yoki kognitiv–psixodinamik «*Men*» konsepsiyalari va terapevtik yondashuvlar.

2. Barcha klinik-psixologik modellar uchun dolzarb bo'lgan savollar ko'tarildi. Masalan, insonni bilish qobiliyatiga ega va atrof muhitga faol ta'sir ko'rsatadigan sub'ekt sifatida qabul qilishga oid asosiy taxmin.

3. Ko'pchilikni qiziqtiradigan klinik-psixologik mavzular rivojlandi, jumladan, emotsiyalar ahamiyati, «Men» va individning rivojlanishi, o'zini-o'zi boshqarish va o'z taqdirini o'zi belgilash xulq-atvori va h.k. Bu model vakillarining uni yanada rivojlantirish imkoniyatiga ochiqdigi kognitiv modelning kelgusida ham klinik psixologiyada ahamiyatli bo'lib qolishini kafolatlaydi (Bastine, 1998, 107-bet). *Interpersonal model*. Interpersonal model o'z tahlil ob'ekti sifatida alohida individni emas, balki ijtimoiy guruhni va uning ichki munosabatlar tuzilishini oladi. Bunday birliklar, birinchi navbatda, o'zaro yaqin yoki birga yashaydigan shaxslar konstellyatsiyasidan (juyftliklar, oila) iborat bo'lishi mumkin, shuningdek, qisqa muddatga muayyan maqsadlar uchun tuzilgan guruhlardan (masalan, terapevtik guruh) tashkil topishi mumkin. Shuning uchun tahlil birligi — bu individum emas, balki turli shaxslar o'rtasidagi ijtimoiy tranzaksiyalar, oila tizimi yoki guruhning o'zi hisoblanadi. Individual xulq-atvor esa interpersonal munosabatlarning tuzilmaviy yoki funksiyaviy shart-sharoitlarining bir qismi sifatida ko'rib chiqiladi.

Interpersonal psixopatologik nazariya asoschilaridan biri sifatida amerikalik psixoanalitik **G. Salliven** (1892–1949) hisoblanadi. Uning fikricha, shaxs rivojlanishida hal qiluvchi omil — bu insonlar orasidagi munosabatlardir. Bundan mustaqil ravishda keyinchalik *interpersonal* yondashuvni kengaytirgan bir qator turli tadqiqot dasturlari vujudga keldi. Jumladan: kommunikativ va oilaviy nazariyalar hamda terapevtik amaliyotlar; noverbal kommunikatsiyani o'rganish; interpersonal shaxsiyat tadqiqotlari; almashinuv (ayirboshlash) nazariyasi va boshqalar.

Bunday izlanishlardan so'ng, *interpersonal* yondashuv klinik psixologiyada eng tez rivojlanayotgan yo'nalishlardan biriga aylandi. Sohaning xilma-xilligi va jadal kengayishi sababli turli yo'nalishlar uchun qoniqarli tizimlashtirish hali to'liq shakllanmagan. Hozircha shartli ravishda quyidagi guruhlarni ajratish mumkin:

Kommunikativ, oilaviy va tizimli-nazariy yo'nalishdagi terapiyalar (oilaviy terapiya, tizimli terapiya, juftliklarga yo'naltirilgan tizimli terapiya va individual terapiya);

Ijtimoiy tarmoq muassasalari va qo'llab-quvvatlash tizimi (ruhiy buzilishlar va sog'liq muammolarining etiologiyasi);

Oilaviy kommunikatsiyalar (ekspressiv-emotsional va psixoedukativ oilaviy terapiya);

Interaksional yoki interpersonal buzilish nazariyalari — masalan, depressiya, qo‘rquvlar, qaramlik holatlari, shaxsiyat buzilishlari;

Klinik oila tadqiqotlari — zo‘ravonlik va suiiste‘mol, nikoh muammolari, ajralish, surunkali kasallik, nogironlik yoki bolalar va boshqa yaqinlar o‘limi, oilada ruhiy kasal a‘zolar mavjudligi kabi masalalarni o‘rganish;

Somatik kasalliklar va sog‘liq inqirozlaridagi interpersonal xususiyatlar — masalan, rak, Alzgeymer kasalligi, yurak kasalliklari, tug‘maslik va boshqalar;

Guruh terapiyasidagi turli yondashuvlar;

Ijtimoiy va klinik psixologiya orasidagi chegara sohasiga qo‘shilgan asosiy hissalar;

Psixoterapevtik munosabatlarni tadqiq etish va interpersonal diagnostika.

Asosiy taxminlar. Interpersonal modelni tavsiflaydigan olti asosiy taxmini **Kizler** (Kiesler, 1982) o‘zining «*Shaxsiyat va psixoterapiyaning interpersonal nazariyasi*» maqolasida shakllantirgan:

1. *Interpersonal nazariyalar individning xulq-atvoridan ko‘ra ijtimoiy tranzaksiyalarni o‘rganadi.* Shu bois insonlar orasidagi xulq-atvor tahlilning asosiy birligi hisoblanadi.

2. «*Men*» konstruksiyasi markaziy nazariy o‘rinni egallaydi. Uning rivojlanishi va umrbod funksiyasi ijtimoiy, interpersonal va tranzaksion tarzda ifoda etiladi. «*Men*» tizimi boshqalar, ayniqsa ahamiyatli shaxslar bilan bo‘lgan ijtimoiy interaksiyalardan shakllanadi va o‘zini boshqalarga namoyon qilish orqali ifoda qiladi. Bu asosiy taxmin interpersonal va kognitiv nazariyalar o‘rtasidagi yaqin bog‘liqlikni ko‘rsatadi.

3. Interpersonal xulq-atvor namunasi ikki-uchta asosiy o‘lcham orqali tavsiflanishi mumkin: «*nazorat*» (*dominantlik — bo‘ysunish*), «*aloqa*» (*sevgi — nafrat*) va «*qo‘shilish*» (*inklyuziya*).

4. Individ va muhit o‘rtasidagi bog‘liqlikka oid qisman taxminlar quyidagilar iborat:

Birinchidan, muhitning ham ob‘ektiv, ham sub‘ektiv belgilari xulq-atvorga tartibga soluvchi ta‘sir ko‘rsatadi. *Ikkinchidan*, ijtimoiy vaziyatlar shaxsiy omillarga qaraganda inson xulq-atvori uchun ko‘proq ahamiyatga ega deb hisoblanadi.

5. *Interpersonal nazariyalar* chiziqli sababiyatdan ko‘ra aylanma (sirkulyar) sababiyatga afzallik beradi. Insonning ijtimoiy xulq-atvori qayta aloqalar

tarmog'iga joylashgan bo'lib, unda «*effekt*» «*sabab*»ga ta'sir qiladi yoki uni o'zgartiradi; individ bir vaqtning o'zida muhitga ta'sir qiladi va muhit ta'sirida bo'ladi; bog'liq va mustaqil o'zgaruvchilar shartli va o'zaro almashinuvchan hisoblanadi.

6. Inson tranzaksiyalari ikki darajali kommunikatsiya orqali amalga oshadi: *mazmun jihati (content aspect) va munosabat jihati (relationship aspect)*.

Interpersonal tadqiqot dasturining o'ziga xosligi shundaki, u organik va boshqa klinik–psixologik modellardan mutlaqo farqli nuqtai nazarni taklif qiladi. Bu yo'nalish tarafdorlari ayrim hollarda boshqa modellarning foydali jihatlari juda cheklangan (Haley, 1980) yoki umuman paradigma almashishi zarur, degan fikrni bildirgan. Interpersonal model asosiy savol — ruhiy muammolarni tushuntirishda interpersonal jarayonlarning ahamiyati — bo'yicha kamida uch xil pozitsiyani qamrab oladi:

1. *Psixik buzilish — bu munosabat buzilishi*. Bu pozitsiyaga ko'ra, ko'plab ruhiy buzilishlarning markazida munosabatlardagi muammo yotadi. Shuning uchun ruhiy muammolar turli ko'rinishdagi «*munosabatlar*», «*kommunikatsiyalar*», «*interaksiyalar*» yoki *ijtimoiy tranzaksiyalar* buzilishi sifatida ta'riflanadi. Misol: depressiya ijtimoiy makondagi buzilishga javob sifatida qaraladi — ya'ni inson o'z tajribasini qo'llab-quvvatlovchi va tasdiqlovchi muhitdan mahrum bo'lganda. Bu holatni ijtimoiy kontekstsiz tushuntirib bo'lmaydi. **Kizler** bu nuqtai nazarda «*psixik buzilish*» emas, balki individ o'zining o'zini yo'qotuvchi, interpersonal jihatdan samarasiz kommunikatsiya jihatlarini anglamasligi va to'g'rilamasligi orqali paydo bo'ladigan «*hayotiy muammolar*» haqida gapiradi.

2. *Interpersonal muammolar — psixik buzilishning ifodasi*. Bu yerda munosabatdagi qiyinchiliklar mustaqil sabab emas, balki mavjud ruhiy buzilishning ko'rinadigan belgilari sifatida qaraladi. Masalan, qo'rquv nevrozi bilan bog'liq interpersonal qiyinchiliklar uning asosiy buzilishining ko'rsatkichi bo'lishi mumkin.

3. *Interpersonal omillar — asosiy sabab*. Bu pozitsiyada ruhiy muammolarning kelib chiqishi, kechishi va o'zgarishi uchun birinchi navbatda interpersonal omillar mas'ul, deb hisoblanadi. Masalan: hayotiy muhim yaqin kishidan ayrilish yoki o'lim tufayli yuzaga kelgan ijtimoiy yo'qotishlar; surunkali yoki keskin buzilishlarda ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning yetishmasligi; yaqinlarining og'ir ruhiy yoki jismoniy kasalliklari uchun mas'uliyat va h.k. Bu pozitsiya asosan klinik oila tadqiqotlari va ijtimoiy patopsixologiya doirasida uchraydi. Kizlarning navozishlari bo'lgan bemorlar misoli: Uning kuzatishicha, ko'plab obsessiv fikrlarga ega bemorlar o'ta ijtimoiy, mantiqiy va o'zini nazorat qiluvchi ko'rinishadi. Ular: so'zlarni o'ta ehtiyotkorlik bilan qo'llaydilar; fikr va hissiyotlarini tez-tez o'zgartiradilar; monoton ovozda so'zlaydilar; ifodali va noo'zma harakatlar repertuari juda kam.

Bunday kommunikativ uslub natijasida ularning muloqot sheriklari asta-sekin zerikkanlik va sabrsizlik his qila boshlaydilar, o‘zlarini baholanayapti deb o‘ylaydilar va fikr hamda hissiyotlarini ifodalashda ehtiyotkor va noaniq bo‘lib qoladilar. Shu yo‘sinda, o‘zaro ta‘sir jarayonidagi salbiy tonallik tufayli odamlar obsessiv bemorlar bilan muloqot qilishdan qochadilar yoki xuddi shunday noaniq va sovuq tarzda munosabatda bo‘ladilar. *Oxirgi oqibat*: bunday bemorlar tobora ko‘proq o‘zini yakkaligini va yolg‘izligini his qiladilar, yaqin munosabatlar deyarli yo‘q bo‘ladi, va ularda qo‘rquv hamda depressiya rivojlanadi. Shu bilan birga, ko‘pchiligi bu holatga qanday tushib qolganini va unda o‘z hissasi qay darajada ekanini anglamaydi.

Oilaga yo‘naltirilgan va tizimli yondashuvlar. Interpersonal asosdagi ruhiy buzilishlar kelib chiqishi va terapiyasining mazmunli hamda izchil konsepsiyasi kommunikativ va oilaviy yo‘nalishdagi tadqiqot dasturlaridan shakllandi. Bu yondashuvlar oila munosabatlari tuzilishi va funksiyasini ruhiy muammolarni tushuntirish va davolash jarayoniga jalb etish orqali terapiyaning nazariy asoslari va amaliy imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirdi. Eng muhim hissa shundaki, bu yo‘nalishlarda, hatto nazariy–xulq-atvor yondashuvlariga nisbatan ham izchil tarzda, alohida individ emas, balki o‘zaro chambarchas bog‘langan interpersonal munosabatlar to‘ri tadqiqot ob‘ekti qilinadi. Bu yo‘nalishning “ruhiy otasi” sifatida amerikalik antropolog **Gregori Beytson** (1904–1980) tan olinadi. U, masalan, mexanik o‘rganishdan tashqarida sezilarli yutuq faqat o‘rganish sodir bo‘ladigan kontekst yoki chegaralarni hisobga olganda mumkinligini ko‘rsatdi. Kontekst tufayli (“o‘yin”da, “kasbiy faoliyat”da, “intervyu”da, “munozara”da) kommunikatsiya qoidalari va shu orqali xabarning ma‘nosi o‘zgaradi. Boshqacha aytganda, qoidalar orqali metaqoidalar aniqlanadi, ular esa xabarni qanday anglash kerakligini belgilaydi. **Beytson** bu qarashlarni klinik holatlarga tatbiq qildi. Jumladan, u shizofreniyaga xos kommunikatsiyani, alkogolizm kelib chiqishini va psixoterapiyadagi muloqot jarayonlarini qayta izohlashga harakat qildi, shu orqali terapiyaning yangi imkoniyatlarini izladi. Bu yondashuvning oqibati sifatida ruhiy muammolar va buzilishlar alohida individ muammosi sifatida emas, balki shaxs tegishli bo‘lgan ijtimoiy tizim (avvalo oila) doirasidagi munosabatlar buzilishi sifatida tushunilishi qabul qilindi. Shaxsiy buzilishga ega inson “identifikatsiya qilingan” yoki “tayinlangan” bemor sifatida qaraladi. U bu rolni anglamay qabul qiladi va oila a‘zolari o‘rtasidagi gomeostatik muvozanatni saqlash uchun ushlab turadi. Bunday holatda oila a‘zosining ruhiy buzilishi oila tizimi disfunktsiyasi sifatida talqin qilinadi. Individual darajada simptom bema‘ni tuyulishi mumkin, biroq oila darajasida u muayyan munosabatlar tizimini barqarorlashtirishda ma‘no va funksiyaga ega bo‘lishi aniqlanadi. Masalan, oiladagi shizofreniyaga xos xulq-atvor munosabatlar tuzog‘i yoki “*ikkitalik bog‘lanish*” (double bind) holatiga javob sifatida izohlanishi mumkin. Terapiya esa bunday holatlarda oilaning tuzilmaviy va dinamik shart-sharoitlarini o‘zgartirishga qaratilgan bo‘ladi. Amalda ko‘p hollarda kognitiv–xulq-atvor terapiyasida qo‘llanadigan o‘xshash metodlar ishlatiladi.

Sistema(tizim)li terapiya — bu oilaviy terapiyaning bir shakli bo‘lib, u **Mariya Selvini-Palassoli** rahbarligidagi guruh tomonidan rivojlantirilgan va unda sistemali-kibernetik g‘oyalarga kuchli e‘tibor qaratilgan. Bu yondashuvda oila va bemor o‘z-o‘zini tashkil etuvchi tizim sifatida tushuniladi, u ichki va tashqi xavf-xatarlarga qaramay muvozanatni saqlashga intiladi. Qiyin hollarda oila a‘zolaridan biri oila tuzilishi va funksiyasini saqlab qolish uchun ruhiy simptomlar rivojlantiradi. Misol: bulimik yoki anoreksiyaga chalingan qizga g‘amxo‘rlik qilish jarayonida oila birlashadi va o‘zini saqlab qoladi. Terapevtik metakommunikatsiya orqali oilaviy vaziyatda ayrim individning ruhiy simptomlari mutlaqo yangi ma‘no kasb etadi: ular «xalaqit beruvchi» deb emas, balki oilaga ijobiy va ijodiy hissa qo‘shuvchi omil sifatida izohlanishi mumkin. Bu jarayon — oilaviy bilim va ma‘no (oilaviy epistemologiya)ning o‘zgarishi — konstruktiv jarayondir. U oilaviy terapiyada simptomlarni qayta talqin qilish, ularni tavsiflash yoki simptomatikani ijobiy ma‘noda qayta atash orqali ishga tushiriladi.

Antropologik taxminlar. Interpersonal model doirasidagi turli yondashuvlar hanuzgacha umumiy antropologik qonunlar haqida yagona qarashni shakllantirmagan. Har holda, insonni ko‘p yillar davomida mavjud bo‘lib kelgan shaxslararo tuzilmalar mahsuloti sifatida qarash taxmini ilgari suriladi, shu bilan individning avtonomiyasiga kamroq, boshqalar tomonidan belgilanishiga esa ko‘proq urg‘u beriladi. Bu yerda individ ikkinchi darajaga chiqariladi, birinchi o‘ringa esa tizim qo‘yiladi. Shuningdek, odamlar, oilalar va guruhlar yashaydigan keng ijtimoiy-madaniy va eko-psixologik shart-sharoitlar bilan bog‘liq munosabatlarni hisobga olish ham yetarli emas. G‘arbning industrial jamiyatlarida oilaning alohida inson uchun ahamiyati boshqa kontekstual shart-sharoitlar bilan taqqoslaganda sezilarli darajada pasaygan bir paytda, bunday fikr yo‘nalishi bugun ajablanarli tuyuladi. Faol harakat qiluvchi individni, shuningdek, muhitning boshqa moddiy va nomoddiy shart-sharoitlarini inkor etish — shaxsning ijtimoiy tuzilmalarga bog‘liqligini yanada kuchaytiradi va, shubhasiz, oiladagi zo‘ravonlik, bolalarga nisbatan suiiste‘mol va ijtimoiy tengsizlik kabi ijtimoiy shartlangan hodisalarni yengib o‘tishni qiyinlashtiradi (Erikson, 1988).

Metodologiya. Bu model doirasida bunday murakkab hodisalarni o‘rganish uchun qoniqarli yechimlar hozircha kam taklif etilgan. Empirik tadqiqotlar hamon yetarlicha rivojlanmagan va amaliyotdan ancha ortda qolmoqda. Bu holat qator qiyinchiliklar bilan bog‘liq: asosiy sabablardan *biri* — chuqur ildiz otgan qarashlar va pozitsiyalardagi yon bosishlar, *ikkinchisi* esa — mos keladigan tadqiqot metodlarining yo‘qligi. Yon bosishlar, avvalo, sistemali terapiyaning konstruktivist yo‘nalishdagi vakillaridan kelib chiqadi, ular ob‘ektiv tadqiqot o‘tkazishda ma‘no ko‘rmaydi va asosan holat tavsiflari hamda nazariy modellar rivojlanishini tasviriy tahlil qilish bilan cheklanadilar. Shuningdek, ko‘p hollarda tadqiqot tajribasi yetishmaydi, chunki ko‘pgina interpersonal konsepsiyalar ilmiy jamoalar va muassasalardan mustaqil ravishda rivojlangan. Tadqiqot

predmetining yuqori darajadagi murakkabligi ham qiyinchilik tug'diradi. Masalan, oilaviy terapiyada faqat ko'plab individlardagi o'zgarishlarni emas, balki ularning o'zaro munosabatlarini ham hisobga olish kerak — shundagina yondashuv konseptual jihatdan muvofiq keladi. Bundan tashqari, terapevtik protseduraning o'zi amalda deyarli standartlashtirilmagan, shuning uchun «oilaviy terapiya» degan tamg'aga aniq qaysi protseduralar kiradi, degan masala noaniq. Klinik oilaviy tadqiqotlarda ijtimoiy omillarning patogen ta'sirini o'rganishda ham katta qiyinchiliklar mavjud. Masalan, bolalikda ona yo'qolishi sababli yuzaga kelgan parvarish yetishmasligi katta yoshdagi ayollarda affektiv buzilishlar paydo bo'lishiga hissa qo'shishi isbotlangan. Biroq bu bog'lanish rivojlanishning boshqa bir qator omillari ta'sirida bo'ladi. Bolaning yetarli e'tiborsiz qolishi yosh va turmush qurmagan holdagi erta homiladorlik xavfini oshiradi, bu esa qoniqarsiz nikohlarga olib keladi. Erta turmush qurgan juftliklar yomon hayotiy sharoitlarga — ayniqsa qashshoqlik, huquqbuzarlik, bevafoqlik va boshqalarga — yo'liqish xavfi ostida qoladi. Katta yoshdagi ayollarda affektiv buzilishlar, ayniqsa depressiya va qo'rquvlar, ko'p yillar davomida o'zaro ta'sir qiluvchi turli omillar va jarayonlar zanjiri mahsulotidir (tranzaksion model). Bunday bog'lanishlarni empirik jihatdan isbotlash juda qiyin bo'lib, katta tadqiqot sa'y-harakatlarini talab qiladi.

Munozara uchun. Interpersonal modelning manzarasi, avvalo, oila–tizim terapiyasi dasturlari orqali ajralib turadi. Ular boshqa klinik–psixologik modellarga qarshi qo'yilgan holda, munosabatlar va bog'lanishlarning funksiyasi hamda tuzilishiga yo'naltirilgan e'tibori bilan samarali perspektiva ochadi. Bu yangi qarash esa o'z navbatida eski modellarga ham teskari ta'sir ko'rsatmoqda, chunki *psixozanaliz va kognitiv yondashuv* bilan bog'lanishlar o'rnatilmoqda. Biroq nazariy tahlilning boyligi hali ham empirik asoslanish va ishonchlilikka to'liq teng kelmaydi. Shu sababli, klinik amaliyotda asosli qarorlar qabul qilish imkonini berish uchun oilaviy terapiya jarayonlari va natijalarini empirik tadqiq etish juda zarur.

Tizimli yondashuv doirasida, afsuski, ruhiy va jismoniy muammolarning ijtimoiy shartlanishiga oid faktlar — masalan, suiste'mol, bolalarga nisbatan zo'ravonlik va shu kabilar — oilaviy terapiya jarayonida kam darajada inobatga olinadi. Umuman olganda, interpersonal model **Bateson** (1981, s. 115) dasturini qo'llab, boshqa yondashuvlar bilan bog'lanish va ichki ajralib qolish holatlarini (sxizmalarni) bartaraf etish yo'lini tutsa, juda katta yutuqqa erishishi mumkin edi

5-mavzu. KLINIK PSIXOLOGIYA NING TUZILMASI

Klinik psixologiya tuzilmasi sog'lom odamlarda salomatlikni saqlash, kasalliklarning oldini olish, bemorlarni davolash va rehabilitatsiya qilish bilan bog'liq psixologik jihatlar majmuasini hamda butun muammolar spektrini qamrab oladi. Muammolarning darajasi va ko'lamiga qarab klinik psixologiya

quyidagicha tuzilmalanishi mumkin: *umumiy klinik psixologiya, xususiy klinik psixologiya va maxsus klinik psixologiya.*

5.1. Umumiy klinik psixologiya

Umumiy klinik psixologiyaning shakllanishi: umumiy klinik model. Klinik psixologiyada turli xil klinik-psixologik modellar mavjudligi sababli, turli tushuntiruvchi modellar yoki tadqiqot dasturlarining klinik psixologiya bilan qanday bog‘liq ekanligi haqida savol tug‘iladi. Bu savolni yanada keskinroq qo‘yish mumkin: *ushbu turli qarashlar orasida umumiylik mavjudmi? qaysi pozitsiyalar bahssiz hisoblanadi? klinik psixologiya butunlay qaysi asosiy qoidalarga tayanadi?* Bu asosiy savollarga turlicha javoblar beriladi. Ko‘p hollarda klinik-psixologik yondashuvlar plyuralizmiga javob sifatida birgina yo‘nalishni mutlaqlashtirish kuzatiladi. U so‘ngra «*haqiqiy voqelikka eng yaqin*», «*asosiyroq*», «*eng qamrovli*» yo‘nalish sifatida taqdim etiladi. Ayniqsa, modellar o‘rtasida raqobat davrida — e‘tirof etilish, moliyaviy qo‘llab-quvvatlash va ayrim yo‘nalishlarning ilmiy mavjudligi uchun kurash kechayotgan bir paytda — bu pozitsiya yanada rag‘batlantiriladi. Shu paytda tegishli modelning kuchsiz yoki bir tomonlama jihatlari boshqa konsepsiyalar bilan yumshatilishi yoki to‘ldirilishiga harakat qilinadi, shunda raqobatga dosh berish mumkin bo‘ladi.

Yana boshqa bir yo‘li shundan iboratki, turli modelli qarashlar eklektik tarzda birlashtiriladi, ya‘ni har bir konsepsiyadan ayrim elementlar olinib, ularning foydaliligi yoki samaradorligi bahonasida bir-biriga qo‘shib yuboriladi (eklektizm). Biroq, modelli qarashlarni birlashtirish imkoniyatlari ma‘lum chegaralarga ega, chunki, masalan, metateoretik (yadroviy) taxminlarni istalgan tarzda qayta qo‘shib chiqib bo‘lmaydi. Shuningdek, bir konsepsiyadan olingan nazariy jihatdan aniq belgilangan tushunchalarni ikkinchi konsepsiyaga o‘tkazish, ularning asosiy mazmunini buzish va muhim qoidalardan voz kechishga olib kelishi mumkin. Masalan: Psixoanalizdagi «*qarshilik*» (soprotivlenie) tushunchasini kognitiv-xulq-atvor terapiyasiga o‘tkazish. Klientga yo‘naltirilgan terapiyadagi «*empatiya*» atamasi ham boshqa yo‘nalishlarda mutlaqo boshqacha ma‘noga ega.

Klinik-psixologik qarashlar plyuralizmidagi yana bir alternativa — mavjud nazariyalar klinik psixologiya fanining predmet sohasini “*komplementar aspektlilik*” nuqtai nazaridan qamrab oladi degan taxmin. **Pongras** buni psixoanalitik, klientga yo‘naltirilgan va xulq-atvor nazariyalariga nisbatan qo‘llab quyidagicha ta‘kidlaydi: «*Turli tushunchalar, nazariyalar, natijalar va metodlar umumiy predmet haqidagi lokal tasavvurlar sifatida tushunilishi mumkin, ular bir-biriga nisbatan qo‘shimchalik holatida turadi*» (Pongratz, 1975, s. 9). Biroq, bu tezis tanqidga uchraydi, chunki bunday tushunish fanimizning ideallashtirilgan manzarasiga asoslanadi, ba‘zi nazariy tillar va metodologik pozitsiyalarning qiyoslab bo‘lmazligi e‘tibordan chetda qoladi, shuningdek, tarixiy tasodiflar kabi tizimga xos bo‘lmagan ta’sirlar ham kam baholanadi.

Umumiy klinik psixologiya (UKP) mazmuni — fanning predmeti, tuzilishi, nazariyalari, metodologiyasi va metodlariga oid umumiy va asosiy taxminlar yig'indisidir. Bu asoslar keyinchalik xususiy va maxsus klinik psixologiyada aniqlanadi va qo'llaniladi. *UKPning eng muhim vazifalari*: uni ilmiy fanlar qatoridan joy olishini ta'minlaydigan metanazoriy asoslarni belgilash; klinik psixologiyaning dolzarb predmet sohalarini aniqlash. Shunday qilib, UKP muayyan maktab yaratmaydi, balki kasbiy yo'naltiruvchi sifatida xizmat qiladi. U fanning maktablar va ixtisosliklar o'rtasidagi bahslardan tashqaridagi o'rnini belgilaydi va quyidagi savollarni shakllantirishda yordam beradi: "*Psixik buzilish*" umuman nima? Qaysi mezonlar asosida klinik-psixologik buzilishlar farqlanadi va ularning o'zaro munosabati qanday? Qaysi sababiy tasavvurlar asosida ularni izohlash mumkin? Qaysi omillar ularning paydo bo'lishiga yordam beradi yoki to'sqinlik qiladi? Klinik-psixologik intervensiyalarni baholashda qaysi mezonlar qo'llanilishi lozim? UKP alohida buzilishlarning ta'rifi, diagnostikasi, klassifikatsiyasi yoki patogenetik tushuntirishi bilan shug'ullanmaydi. Shuningdek, u yagona klinik-psixologik modelni ishlab chiqmaydi, balki ta'rif, diagnostika, klassifikatsiya, patogenez va intervensiyaning umumiy asoslarini belgilaydi. Shu tariqa, u bir tomondan aniq buzilishlarga yo'naltirilgan yondashuvlar uchun, ikkinchi tomondan esa turli klinik-psixologik modellar uchun zamin va yo'nalish yaratadi.

Psixologik nuqtayi nazarlar to'rta asosiy pozitsiya bilan tavsiflanadi:

1. *Psixik omillarni ustuvor ko'rish. Klinik psixologiyada diqqat markazida* — *psixik omillar va jarayonlar turadi*. Biologik-somatik va sotsioekologik shartlar esa "kontekst" sifatida qaraladi. Bu yondashuv ta'rif, etiopatogenez, klassifikatsiya, diagnostika va intervensiya kabi klinik psixologiya tizimining barcha jihatlariga taalluqli. Shu bilan psixologlar uchun organik, ijtimoiy yoki boshqa jihatlar muhim bo'lsa-da, ustuvor vazifa — psixik holatlar bilan bog'liq oqibatlar, ularning sabablari va yordam imkoniyatlarini o'rganishdir (masalan, Alsgeymer kasalligida organik omillar muhim, biroq psixologik yondoshuv ham kerak).

2. *Barcha psixik faoliyat — klinik psixologiyaning predmeti*. Faqat ongsiz yoki emotsional jarayonlar emas, balki har qanday psixik faoliyat klinik psixologiya mavzusiga kiradi: Kognitiv jarayonlar: xotira, o'rganish, insayt, idrok, muammo yechish, munosabatlar, kutilmalar va h.k.; Emotsional jarayonlar: xursandchilik, qayg'u, qo'rquv, holatlarga emotsional baho berish va jismoniy hislar; Motivatsion va irodaviy jarayonlar: ehtiyojlar, istaklar, niyatlar, irodaviy qarorlar; Aksional va psixomotor jarayonlar: ixtiyoriy va ixtiyorsiz harakatlar, harakatni muvofiqlashtirish; Interpersonal jarayonlar: muloqot va o'zaro ta'sir.

3. *Barcha psixik funksiyalar — klinik psixologiya mavzusi*. Ular "tuyuqlar va xulq-atvor" sifatida umumlashtiriladi. Bu — ongli va ongsiz faoliyatni, shuningdek, uyqu, tush ko'rish, trans kabi maxsus holatlarni qamrab oladi. Ko'pincha diqqat

markazida turli psixik xususiyatlarning o‘zaro bog‘liqligi yoki mustaqilligi bo‘ladi. Masalan, odamda qobiliyat va imkoniyat bo‘lsa-da, qo‘rquv tufayli ayrim vazifalarni bajara olmasligi.

4. *Psixik muammo va buzilishlar — kompleks ko‘rinishlar.* Bu turli psixik funksiyalarning cheklanishi yoki o‘zgarishi bilan bog‘liq. Funksiyalar bir tomondan alohida qismlarga bo‘linadi va o‘zaro funksional bog‘liqlikda bo‘ladi, ikkinchi tomondan ular individ tomonidan yaxlit holda integratsiya qilinadi. Inson o‘z hayoti, fikr va his-tuyg‘ulari, motivlari, xulqi yoki ijtimoiy munosabatlaridagi o‘zgarishlarni sezadi. U o‘zini xursand, xavfsiz, ishonchli his qilishi mumkin yoki aksincha, qo‘rquv, ishonmaslik, g‘azab, uyat, shubha, ishonchsizlik, jasorat yetishmasligi holatlarini kechirishi mumkin. Psixik jarayonlar inson uchun shaxsiy, uning shaxsiyligi va ayni damdagi hayotiy tajribasining bir qismi sifatida qabul qilinadi. Boshqalar esa uni turlicha qabul qiladilar — do‘stona, diqqat bilan tinglay oladigan, qiziqarli g‘oyalarga ega yoki aksincha, tashvishli, yopiq, asabiy, ishonchsiz, tartibsiz deb baholashlari mumkin. Inson esa ijobiy holatlarni qayta boshdan kechirishga, salbiy tajribadan qochishga va muhitini o‘z ehtiyojlariga moslashtirishga intiladi.

Plyuralistik muammolarni boshqa yo‘l bilan ham hal qilish mumkin — masalan, muammoga xos va/yoki kasallikka xos yondashuv orqali. Bu esa *xususiy klinik psixologiya va maxsus klinik psixologiyani* ajratib ko‘rsatish imkonini beradi.

5.2. Xususiy klinik psixologiya

5.2.1. Patopsixologiya

Patopsixologiya (grekcha pathos — azob, qiynalish) — klinik psixologiyaning bir bo‘limi bo‘lib, psixik faoliyat va shaxs xususiyatlarining buzilish qonuniyatlarini, ularni psixik jarayonlarning me‘yoriy holda shakllanishi va kechishi qonuniyatlari bilan qiyoslab o‘rganadi (Karvasarskiy, 2002. 421-b.). Patopsixologiya asoschilaridan **Xyugo Myunsterberg, Anri Bergson, Per Jane** va boshqalar hisoblanadi. Ular patopsixologiya haqidagi qarashlarini «*Pathopsychologie*» jurnali birinchi sonida (1912, 56-b.) bayon qilib, uni odatdagi *psixologiya metodlari va bilimlarini qo‘llab, psixik og‘ishlarni anglashga harakat qiladigan psixologik fan* sifatida ta’rifladilar. Bunga qarshi ravishda, psixopatologiya tibbiy kasallik tushunchasiga tayanadi va inson kasalliklari haqidagi umumiy ta’limot — nozologiyaning bir qismi hisoblanadi: «*Ularda (patopsixologiya va psixopatologiyada — G.Z.) turli pozitsiyalar mavjud... birinchisi psixologik nuqtai nazardan — psixik jihatdan sog‘lom holatdan kelib chiqadi... ikkinchisi esa kasallikdan, psixik buzilish va og‘riqli holatdan kelib chiqadi*» (Bastine, 1998. 10-b.). Aslida, bundan ham oldin **V.M. Bexterev** yangi psixologik fan sohasining paydo bo‘lishi haqida yozgan edi: «*Psixiatriyaning so‘nggi yillardagi yutuqlari, juda katta darajada bemor yonida*

psixik buzilishlarni klinik o'rganishga bog'liq bo'lib, "patologik psixologiya" deb ataladigan alohida bilim sohasiga asos bo'ldi. U allaqachon ko'plab psixologik muammolarni hal etishga yordam berdi va shubhasiz, kelgusida bundan ham katta natijalar kutish mumkin» (Psixika i jizn, SPb., 1904, 12–13-b.). Rossiya patopsixologiyasining rivojida hal qiluvchi rol **B.V. Zeygarnikka** tegishli bo'lib, uning ilmiy va amaliy faoliyati shogirdlari — **Yu.F. Polyakov, S.Ya. Rubinshteyn, B.S. Bratus, V.V. Nikolaeva, A.Sh. Txostov** va boshqalar tomonidan davom ettirildi.

Patopsixologiya — umumiy psixologiya va klinik-psixiatriya bilimlarining sintezi sifatida qator nazariy muammolarni qamrab oladi. Asosiy yo'nalishlar quyidagilardan iborat:

Murakkab psixopatologik sindromlarning (deliriy, gallyusinatsiya va boshqalar) shakllanish psixologik mexanizmlarini o'rganish; bunda bemorning shaxsiy tajribasi va shaxs xususiyatlarining ushbu sindromlar mazmuni va dinamikasiga ta'sirini aniqlash.

Turli psixik kasalliklarda bilish faoliyati hamda emotsional-shaxsiy sohaning buzilishlari tuzilishi va dinamikasini tadqiq etish; ushbu buzilishlarning psixologik korresiya imkoniyatlarini o'rganish.

Turli psixik kasalliklarga chalingan bemorlar shaxsini o'rganish; shaxsning bemorlik simptomatikasi shakllanishida va uning psixologik korresiyasidagi rolini aniqlash.

Alohida psixik funksiyalar buzilishiga xos patopsixologik sindromlar tuzilishini va tavsifini ishlab chiqish (xotira, tafakkur, idrok va boshqalar), shuningdek turli kasalliklarga xos tipik patopsixologik sindromlarni ajratib ko'rsatish; sindromlar tuzilishidagi birlamchi va ikkilamchi buzilishlar nisbatini aniqlash. Psixikada buzilish (degradatsiya) va rivojlanish muammosi — ya'ni, kasallik jarayonida psixik funksiyalar qanday parchalanishi va bir vaqtning o'zida rivojlanish ehtimoli masalasini o'rganish.

5.2.2. Klinik neyropsixologiya

Klinik neyropsixologiya — neyropsixologiyaning asosiy yo'nalishi bo'lib, psixik jarayonlar va emotsional-shaxsiy sohaning miya asosini hamda ularning bosh miyaning turli tizimlari bilan bog'liqligini o'rganadi. Klinik neyropsixologiya psixologiya, nevrologiya va neyroxirurgiya chegarasida shakllangan bo'lib, klinik psixologiyaning tarkibiy qismi sifatida muayyan miya sohalari zararlanganda paydo bo'ladigan neyropsixologik sindromlarni o'rganishni maqsad qiladi. *Tadqiqot ob'ekti* — kasal yoki jarohat olgan inson miyasi. *Tadqiqot predmeti* — miyaning muayyan sohasi zararlanishi (o'smalar, qon quyilishi, jarohatlar; ularning lokalizatsiyasi va hajmi) bilan turli darajadagi

psixik jarayonlar o'zgarishi va shaxs xulq-atvori o'rtasidagi sabab-oqibat bog'liqliklari. Jahon (klinik) neyropsixologiyasi rivojiga katta hissa qo'shgan sohalardan biri — rus klinik neyropsixologiyasidir. Uning to'liq shakllanishi, nazariy, tushuncha va metodik apparati o'tgan asrning 1960–1980-yillarida ikki yirik maktab faoliyati tufayli amalga oshdi:

Moskva davlat universiteti neyropsixologiya maktabi (A.R. Luriya rahbarligida, 1973, 1974, 1978). *Asosiy yo'nalishlari*: eksperimental neyropsixologiya, psixofiziologiya, psixolingvistika, tiklovchi o'qitishning psixologik asoslari, miyaning chuqur tuzilmalar neyropsixologiyasi, bolalar neyropsixologiyasi va boshqalar.

Leningrad neyropsixologiya maktabi (N.N. Traugott va I.M. Tonkonogiy rahbarligida, 1973). *Asosiy yutuqlari*: neyropsixologiyaning an'anaviy tushuncha apparatiga yangi (hozirda klassikka aylangan) atamalarni kiritish: «operativ xotira», «xalalsizlik», «obrazlarni tanish» va boshqalar. Yangi metodologik prinsiplar, tadqiqot usullari, maxsus eksperimental asbob-uskunalar, kompyuter diagnostika metodlarini ishlab chiqish (Kabanov, Smirnov, 1983; Vasserman va boshqalar, 2002).

5.2.3. Psixosomatik munosabatlar: psixosomatologiya va somatopsixologiya

Fan nisbatan yaqin vaqtlardan buyon psixosomatik munosabatlar muammosiga qiziqish bildirmoqda. Ammo «*psixosomatika*» atamasini ilk bor 1918 yilda I. **Xayrot** kiritgan, oradan 10 yil o'tib esa **K. Yakobi** birinchi marta unga yaqin ma'noda «somatopsixika» tushunchasidan foydalangan. Har ikki holatda ham so'z inson tanasidagi somatik (jismoniy) va psixik jarayonlar o'rtasidagi chambarchas bog'liqlik haqida boradi. Bu bog'liqlik ilk bor qadimgi davrlardyoq, insonni yaxlit tushunish va kasalliklarning kelib chiqishi hamda kechishida psixologik omilning rolini anglash doirasida e'tiborga olingan.

Poytaxtimizda bo‘lib o‘tgan “O‘zbekistonda neyropsixologiya va klinik psixologiyaning dolzarb muammolari” mavzuidagi xalqaro anjumanda ta’kidlanganidek, bulardan ko‘zlangan maqsad yagona, ya’ni tibbiyotdan uzoqlashib qolgan umumiy psixologlar faoliyatini tizimga yaqinlashtirishdan iboratdir. O‘tgan davrda bu borada dadil qadamlar tashlandi va muayyan natijalar qo‘lga kiritildi.

Jumladan, mamlakatimiz tibbiyot oliy o‘quv yurtlarida “Klinik psixologiya” bo‘yicha magistratura yo‘nalishini ochish masalasi ayni paytda ko‘rib chiqilmoqda. U yo‘lga qo‘yilgach, “Umumiy psixologiya” bo‘yicha boshqa universitet va institutlar bakalavriat bosqichini tamomlagan yoshlar o‘qishni tibbiyot oliy ta’lim muassasalarida davom ettirishi mumkin bo‘ladi.

Ayni maqsadda 2025/2026 o'quv yilidan boshlab 6 ta tibbiyot institutida "Klinik psixologiya" mutaxassisligi bo'yicha 2 yillik magistratura yo'nalishi ochiladi. Bu orqali sog'liqni saqlash tizimi uchun yetishmayotgan 3 ming nafar klinik psixologni tayyorlash ko'zda tutilgan. Tadbirda tibbiy va klinik psixologiya hamda psixosomatik tibbiyot yo'nalishida yoshlarni xorijiy davlatlarning yetakchi ilmiy markazlarida o'qitish ishlari yo'lga qo'yilayotgani ham urg'ulandi. Masalan, Parijdagi Oliy psixomotor rehabilitatsiya institutida bir guruh yoshlarimiz malaka oshirib, psixomotor terapiya hamda rehabilitatsiya bo'yicha maxsus ko'nikmalarga ega bo'lib qaytdi.

Endigi bosqichda esa yiliga 25 nafar yosh magistrni ushbu nufuzli ta'lim maskanida o'qitish rejalashtirilmoqda. (*Mohigul Qosimova, O'zA, 2025*)

7.2. Psixologlarning axloqiy prinsiplari Umumjahon deklaratsiyasi

2008 yil 22 iyulda Berlin shahrida
Psixologiya fanlari xalqaro ittifoqi
Bosh assambleyasi tomonidan qabul qilingan.
2008 yil 26 iyulda Berlin shahrida
Xalqaro amaliyotchi psixologlar assotsiatsiyasi
Direktorlar kengashi tomonidan qabul qilingan.

Preambula. Etika har qanday fanning asosiy yadrosidir. Psixologlar uchun axloqiy prinsiplarning Umumjahon deklaratsiyasi butun dunyodagi psixologlarni o'zlarining amaliy va ilmiy faoliyatlarida eng yuqori axloqiy ideallarga erishishga yo'naltiradigan va ilhomlantiradigan umumiy ma'naviy tizimni belgilaydi. Psixologlar o'zlarining kengroq ijtimoiy kontekst ichida harakat qilayotganlarini anglaydilar. Ular inson hayoti va shaxsiyliklari ham individual, ham jamoaviy tarzda avlodlar orqali o'zaro bog'langanini, shuningdek, insonlar bilan ularning tabiiy va ijtimoiy muhiti o'rtasida o'zaro ta'sir mavjudligini anglaydilar. Psixologlar jamiyat va uning a'zolarining farovonligini fan va uning vakillari manfaatlaridan ustun qo'yadilar. Ular ish jarayonida axloqiy prinsiplarga rioya qilish jamiyatda barqarorlikni ta'minlashini va barcha insonlarning hayot sifatini oshirishini tan oladilar.

Umumjahon deklaratsiyasining maqsadi — butun dunyodagi psixologik tashkilotlar quyidagilarni amalga oshirishlari uchun umumiy ma'naviy tizim va umumiy axloqiy prinsiplar majmuasini yaratishdan iborat:

a) o'z axloqiy kodekslarining ma'naviy va axloqiy mosligini baholash;

b) axloqiy kodekslarini ishlab chiqish va ularni rivojlantirishda ushbu deklaratsiyani namuna sifatida qo'llash;

v) *global axloqiy kategoriyalarda fikr yuritish bilan birga mahalliy ehtiyojlar va qadriyatlarga sezgir faoliyat yuritish;*

g) *axloqiy xususiyatga ega masalalarda yagona pozitsiyada chiqish.*

Umumjahon deklaratsiyasi barcha insoniyat uchun umumiy bo'lgan qadriyatlarga asoslangan axloqiy prinsiplarni tavsiflaydi. Unda psixologik jamoatchilikning urushlar yo'q, erkinlik, mas'uliyat, adolat, insoniylik va axloq hukmron bo'lgan yaxshiroq dunyo qurishga sodiqligi yana bir bor tasdiqlanadi. Har bir prinsip tavsifidan so'ng unga tegishli qadriyatlar ro'yxati keltiriladi. Ushbu qadriyatlar har bir prinsipni amalga oshirishda foyda keltiradigan axloqiy tushunchalarni oydinlashtiradi.

Umumjahon deklaratsiyasi umumiy va tavsiyaviy bo'lgan, shaxsiy yoki majburiy bo'lmagan prinsiplar va ular bilan bog'liq qadriyatlarni shakllantiradi. Prinsiplar va qadriyatlarni xulq-atvorning mahalliy standartlarini ishlab chiqishda qo'llash turli madaniyatlarda har xil bo'ladi va ular mahalliy yoki mintaqaviy darajada amalga oshirilishi kerak. Bu esa ularning mahalliy va mintaqaviy madaniyat, an'ana, e'tiqod va qonunlarga mos kelishini kafolatlaydi.

Umumjahon deklaratsiyasining ahamiyati uning milliy, mintaqaviy va xalqaro darajada psixologik tashkilotlar tomonidan e'tirof etilishi va ilgari surilishiga bog'liq. Har bir psixologik tashkilot mazkur deklaratsiya qoidalarini hisobga olishi va o'qitish, ta'lim berish yoki boshqa shakllarda o'z a'zolari tomonidan deklaratsiya prinsiplari va ular bilan bog'liq qadriyatlarga hurmat va rioya qilinishiga ko'maklashishi lozim.

Prinsip I. Shaxs va insoniyat qadr-qimmatini hurmat qilish. Shaxs qadr-qimmatini hurmat qilish geografik, madaniy va kasbiy chegaralarni yengib o'tadigan eng asosiy va umuminsoniy axloqiy prinsip hisoblanadi. U ko'plab kasbiy hamjamiyatlar ilgari surgan boshqa axloqiy prinsiplarning falsafiy asosini tashkil etadi. Qadr-qimmatni hurmat qilish barcha insonlarning ijtimoiy maqomi, etnik kelib chiqishi, jinsi, qobiliyatlari va shunga o'xshash boshqa xususiyatlaridagi idrok etiladigan yoki haqiqiy farqlardan qat'i nazar, ularning ajralmas qiymatini e'tirof etishni talab qiladi. *Ajralmas qiymat degani* — barcha insonlar bir xil ma'naviy ahamiyatga ega, deganidir. Barcha insonlar, shaxs sifatida, shu bilan birga bir-biri bilan bog'langan ijtimoiy mavjudotlar bo'lib, inson tarixi va boshqa insonlarning davom etayotgan taraqqiyotining bir qismi sifatida tug'iladilar va hayot kechiradilar. Madaniyat, etnos, din, ijtimoiy tuzilmalar va insonlarning boshqa shunga o'xshash xususiyatlari ularning shaxsiyligida ajralmas o'rin tutadi va ularning hayotiga ma'no beradi. Avlodlar va madaniyatlar o'rtasidagi vaqt oralig'idagi bog'liqlik bugungi odamlarni o'tmish avlodlar bilan va kelajak avlodlarni tarbiyalash zarurati bilan bog'laydi. Shuning uchun shaxs qadr-qimmatini hurmat qilish insoniyat qadr-qimmatini hurmat qilishni ham anglatadi. Shaxs va insoniyat qadr-qimmatini hurmat qilish

turli jamiyat va madaniyatlarda turlicha ifoda etiladi. Bu farqlarni tan olish va hurmat qilish muhim. Shu bilan birga, barcha jamiyat va madaniyatlar o'z a'zolarini ham shaxs sifatida, ham insoniyatning bir qismi sifatida hurmat qiladigan va himoya qiladigan ma'naviy qadriyatlarga amal qilishi muhim.

Shuningdek, psixologlar ***Shaxslar va Insoniyat Qadr-qimmatini Hurmat Qilish*** prinsipini asosiy tamoyil sifatida e'tirof etadilar. Bunday yo'l tutib, ular quyidagi o'zaro bir birlari bilan bog'liq qadriyatlarni tan oladilar:

a) barcha inson mavjudotlarining o'ziga xos qiymati va ajralmas qadr-qimmatini hurmat qilish;

b) shaxslar va insoniyatning turli-tumanligini hurmat qilish;

v) shaxs va insoniyat qadr-qimmatini jiddiy buzmaydigan va ularning farovonligiga katta ziyon yetkazmaydigan madaniy an'analar va e'tiqodlarni hurmat qilish;

g) ayrim shaxslar, oilalar, guruhlar va jamoalar uchun madaniyat tomonidan belgilab qo'yilgan va ularga mos bo'lgan shaklda erkin va xabardorlikka asoslangan rozilikni ta'minlash;

d) ayrim shaxslar, oilalar, guruhlar va jamoalarning shaxsiy hayotiga bo'lgan huquqini hurmat qilish;

ye) ayrim shaxslar, oilalar, guruhlar va jamoalar uchun madaniyat tomonidan belgilangan va ularga mos bo'lgan shaklda shaxsiy ma'lumot maxfiylikni himoya qilish;

j) shaxslar va insoniyat bilan munosabatda tenglik va adolatni ta'minlash.

Prinsip II. Shaxslar va insoniyat farovonligini ta'minlash yo'lida malakali g'amxo'rlik qilish. Shaxslar va insoniyat farovonligi haqida malakali g'amxo'rlik qilish, avvalo, zarar yetkazmaslikka asoslangan holda, ular uchun foyda keltiradigan ishlarni amalga oshirishni o'z ichiga oladi. Malakali g'amxo'rlik holatga, shuningdek ijtimoiy va madaniy kontekstga mos keladigan bilim va ko'nikmalarni qo'llashni talab qiladi. Shu bilan birga, shaxslar va insoniyat uchun ehtimoliy foydani oshirib, ehtimoliy zararni kamaytiradigan shaxslararo munosabatlarni o'rnatish ham zarur. Psixolog o'zining shaxsiy qadriyatlari, kutgan natijalari, madaniyati va ijtimoiy konteksti qanday qilib uning harakatlariga va talqinlariga ta'sir qilishi mumkinligini yetarlicha tahlil qilishi ham talab etiladi. Shu bois, psixologlar ***Shaxslar va Insoniyat Farovonligini Ta'minlash Yo'lida Malakali G'amxo'rlik Qilish*** prinsipini asosiy tamoyil sifatida e'tirof etadilar. Bunday yo'l tutib, ular quyidagi bir birlari bilan o'zaro bog'liq qadriyatlarni tan oladilar:

- a) *ayrim shaxslar, oilalar, guruhlar va jamoalar farovonligiga faol qiziqish;*
- b) *ayrim shaxslar, oilalar, guruhlar va jamoalarga zarar yetkazmaslik;*
- v) *ayrim shaxslar, oilalar, guruhlar va jamoalar uchun foydani maksimal qilish va ehtimoliy zararni minimallashtirish;*
- g) *o‘z harakatlari natijasida kelib chiqqan zararni to‘g‘rilash yoki qoplash;*
- d) *malaka va kompetentlikni rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash;*
- ye) *shaxsiy qadriyatlar, munosabatlar, tajriba va ijtimoiy kontekstning o‘z harakatlari, talqinlari, tanlovlari va tavsiyalariga qanday ta‘sir qilayotganini tahlil qilish;*
- j) *ayrim shaxslar, oilalar, guruhlar va jamoalarning mustaqil qaror qabul qilish va o‘zlari hamda bir-birlari haqida g‘amxo‘rlik qilish qobiliyatini hurmat qilish.*

Prinsip III. Haqqoniylik. *Haqqoniylik* — ilmiy bilim taraqqiyoti va jamiyatning psixologiya fan sifatida ishonchini saqlab qolish uchun juda muhimdir. *Haqqoniylik* rostgo‘ylik, ishonchli, ochiq va faktlarni buzib ko‘rsatmaydigan muloqotga asoslanadi. U ehtimoliy yondosh fikrlar, ko‘pqirrali munosabatlar va shaxslar hamda insoniyatga zarar yetkazishi yoki ulardan noinsofona foydalanilishi mumkin bo‘lgan manfaatlar to‘qnashuvini aniqlash, kuzatish va boshqarishni o‘z ichiga oladi. To‘liq ochiqlik boshqa axloqiy omillar bilan muvozanatda bo‘lishi kerak, jumladan shaxslar va insoniyat xavfsizligi hamda maxfiyligini ta‘minlash, shuningdek madaniy me‘yorlarga rioya qilish zaruriyati. Kasblar orasidagi chegaralar, ko‘pqirrali munosabatlar va manfaatlar to‘qnashuvini to‘g‘ri ajratish masalasida madaniyatlar orasida farqlar mavjud. Shunga qaramay, bu farqlardan qat’i nazar, shaxsiy manfaatlar shaxslar va insoniyat manfaatlariga zid bo‘lmasligi uchun maxsus kuzatish va boshqarish tartiblaridan foydalanish zarur. Shuning uchun psixologlar **Haqqoniylik** prinsipini asosiy tamoyil sifatida e‘tirof etadilar. Bunday yo‘l tutib, ular quyidagi bir birlari bilan o‘zaro bog‘liq qadriyatlarni qabul qiladilar:

- a) *rostgo‘ylik va ishonchli, ochiq hamda faktlarni buzib ko‘rsatmaydigan muloqot;*
- b) *ma‘lumotni to‘liq oshkor etmaslikdan qochish, agar bunday to‘liq oshkor etish madaniy jihatdan qabul qilinmaydigan, maxfiylik talablarini buzadigan yoki ayrim shaxslar, oilalar, guruhlar va jamoalar uchun jiddiy ehtimoliy zarar keltiradigan holat bo‘lmasa;*
- v) *xolislikni maksimal darajada ta‘minlash va yondosh fikrlarni minimallashtirish;*

g) shaxslar va insoniyatdan shaxsiy, kasbiy yoki moliyaviy foyda olish maqsadida foydalanmaslik;

d) manfaatlar to'qnashuvidan qochish va ulardan qochish imkoni bo'lmaganda yoki maqsadga muvofiq bo'lmaganda, bunday to'qnashuvlar haqida ochiq ma'lum qilish.

Prinsip IV. Jamiyat oldidagi kasbiy va ilmiy mas'uliyat. Psixologiya fan sifatida inson jamiyati kontekstida faoliyat yuritadi. Ilm va kasb sifatida psixologiyaning jamiyat oldida majburiyatlari mavjud. Bu majburiyatlar inson xulq-atvori haqidagi bilimlarni kengaytirishga va insonlarning o'zlari hamda boshqalarni yaxshiroq tushunishiga ko'maklashishni, shuningdek, ushbu bilimlardan ayrim shaxslar, oilalar, guruhlar va jamoalar holatini yaxshilash maqsadida foydalanishni o'z ichiga oladi. Psixologiyaning jamiyat oldidagi majburiyatlariga shuningdek, psixologlar o'z vazifalarini eng yuqori axloqiy me'yorlarga muvofiq hal etish va barcha shaxslar hamda insoniyat uchun foyda keltiradigan ijtimoiy tuzilmalar va qoidalar rivojiga ko'maklashish majburiyati ham kiradi. Turli madaniyatlarda ushbu majburiyatlar psixologlar tomonidan turlicha talqin qilinadi. Shunga qaramay, ular madaniy moslikni saqlagan holda va mazkur Deklaratsiyada belgilangan axloqiy prinsiplar va bog'liq qadriyatlarga muvofiq holda hisobga olinishi kerak. Shu bois, *psixologlar Jamiyat oldidagi kasbiy va ilmiy mas'uliyat prinsipini asosiy tamoyil sifatida e'tirof etadilar.* Bunday yo'l tutib, ular quyidagi bir birlari bilan o'zaro bog'liq qadriyatlarni qabul qiladilar:

a) psixologiya fan sifatida jamiyat va uning barcha a'zolari farovonligini oshirishga xizmat qiladigan tarzda ilmiy va kasbiy bilimni ko'paytirish majburiyati;

b) psixologiya fan sifatida psixologik bilimdan faqat ezgu maqsadlarda foydalanish va uni noto'g'ri yoki noo'rin qo'llanishini hamda qadri pasayishini oldini olish majburiyati;

v) psixologiya fan sifatida axloqiy tarzda faoliyat yuritish va jamiyat hamda uning barcha a'zolari farovonligiga ko'maklashish majburiyati;

g) psixologiya fan sifatida psixologlarni ilmiy, kasbiy va ta'limiy faoliyatlarida eng yuqori axloqiy ideallarga yo'naltirish majburiyati;

d) psixologiya fan sifatida psixologlarning axloqiy majburiyatlari haqida xabardorligini oshirish va ularda tegishli kompetensiyalarni rivojlantirish majburiyati;

ye) psixologiya fan sifatida axloqiy ong va sezgirlikni rivojlantirish hamda o'z xatolarini imkoniyat darajasida eng yuqori darajada tuzatish majburiyati.

7.3. Gippokrat qasami

Apollon tabib, **Asklepiy**, **Gigieya** va **Panakeya** hamda barcha Xudo va Ma'budlar nomiga qasam ichaman va ularni guvoh qilib, o'z kuch va aqlimga mos holda quyidagi qasam va yozma majburiyatni sidqidildan bajarishga ahd qilaman: *meni tabobat san'atiga o'rgatgan ustozimni o'z ota-onamdek hurmat qilish, unga o'z mol-dunyomdan ulush berish va zarurat tug'ilganda ehtiyojlarida yordam berish; uning avlodlarini o'z birodarlarimdek ko'rish va agar ular bu san'atni o'rganishni xohlasalar, ularga hech qanday haq va kelishuvsiz o'rgatish; ustozimning o'g'illariga, o'z o'g'illarimga va tibbiyot qonuniga ko'ra majburiyat va qasam bilan bog'langan shogirdlarga ta'lim berish, boshqalarga esa yo'q.*

Bemorlarning hayotiy tartibini ular uchun foydali yo'nalishda, o'z kuch va aqlimga mos holda yo'naltiraman, har qanday ziyon va adolatsizlik qilishdan tiyilaman. Hech kimga o'limga olib keladigan dori bermayman va bunday maqsadga yo'l ko'rsatmayman; shuningdek, hech qaysi ayolga homila tushirish vositasini ham bermayman. Hayotim va san'atimni pok va sof holda olib boraman.

Tosh (tuz) kasalligidan aziyat chekuvchilarga jarrohlik amaliyotini hech qachon o'zim qilmayman, bu ish bilan shug'ullanuvchi kishilarga topshiraman. Qaysi uyga kirmay, faqat bemorga foyda keltirish uchun kiraman, har qanday qasd, adolatsiz va zararli ishlardan, ayniqsa, erkaklar va ayollar, ozodlar va qullar bilan shahvoniy aloqalardan yiroq bo'laman.

Davolash jarayonida yoki undan tashqarida inson hayotiga oid eshitgan yoki ko'rgan va oshkor etilishi mumkin bo'lmagan barcha narsalarni sir saqlayman, bunday narsalarni sir deb hisoblayman.

Ushbu qasamga sodiq qolganimda, menga hayotda va san'atda baxt hamda barcha odamlar oldida abadiy shuhrat nasib etsin; qasamni buzgan va yolg'on qasam ichgan kishi esa aksincha jazoga uchrasin.

Tibbiy psixologiya va klinik psixologiya farqlari va o'xshashliklari

Tibbiyot psixologiyasi va klinik psixologiya sohalari o'rtasida qanday farqlar va o'xshashliklar mavjud? Tibbiy psixolog kim, klinik psixologchi? degan savollarga javob va talabalar, mutaxassislar va boshqa shu soha vakillarida aniq va batafsil tushunchalar bo'lishi kerakligini ta'minlash zarurati tug'iladi. Quyida mana shu savollarga nisbatan fikr mulohazalarimizni bildirib o'tmoqchimiz. Tibbiyot psixologiyasi va klinik psixologiya sohalari o'rtasida ba'zi bir sezilarli va jiddiy farqlar ham mavjud, shuning uchun tibbiy psixologiyami yoki klinik psixologiya degan o'rinli savol tug'iladi? Bu borada esa qarashlar turlicha. Bu fanlarni ikkala nom bilan ataluvchi bitta fan yoki alohida-alohida fan deguvchilar hanuzgacha bor. Yuqorida ikkala fanning rivojlanish tarixi haqida gapirib o'tdik.

Rivojlangan xorij davlatlari olimlari, hamda bir necha yillardan buyon tibbiy psixologiyani o'qitishga asoslangan tajribamiz asnosida ushbu fanlar haqida o'z fikr mulohazalarimizni keltirib o'tamiz.

Tibbiy va klinik psixologiyalarning farq qiluvchi tomonlari haqida to'xtaladigan bo'lsak :

Tibbiy psixologiya – bu tibbiy mutaxassislik va u psixologik ilmga ega vrach, *klinik psixologiya* – bu psixologik mutaxassislik va u sog'liqni saqlash tizimi uchun tayyorlangan psixolog. *Klinik psixolog* – vrach emas.

Tibbiy psixolog – bu “davolash ishi” ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavriaturani tugatib, so'ngra magistratura yoki klinik ordinaturada “*Tibbiy psixologiya*” ixtisosligi bo'yicha tayyorlangan mutaxassis.

Klinik psixolog – bu psixologik fanlar bo'yicha bakalavriaturani tugatib, so'ngra “*Klinik psixologiya*” bo'yicha tayyorlangan mutaxassis.

Tibbiy psixolog tashxis qo'yish jarayonida tibbiy diagnostikadan foydalanishga, davolash jarayonida esa farmakoterapiyani qo'llashga yuridik huquqi bor. Chunki u tibbiy ta'limga ega. *Klinik psixolog* esa tibbiyotda faoliyat ko'rsatsada, tibbiy diagnostikadan foydalana olmaydi, doridarmonlar tavsiya etishga va plaseboterapiya o'tkazishga ham huquqi yo'q.

Tibbiy psixolog psixosomatik buzilishlarni organik buzilishlardan farqlay oladi, klinik psixolog esa – yo'q. Chunki *klinik psixolog* kasalliklar klinikasi bilan emas, bemorlar psixologiyasi bilan shug'ullanadi va u vrach emas.

Tibbiy psixolog psixogen va psixosomatik buzilishlarni korreksiya qilishda yordamchi davolash usullari, ya'ni fizioterapiya, ignaterapiya, magnitoterapiya, lazeroterapiya va shu kabi tibbiyotga aloqador metodlardan foydalanishga haqli, *klinik psixolog* esa – yo'q. Chunki bunday muolajalar tibbiy muolajalar hisoblanadi.

Tibbiy psixolog maxsus tayyorlov kurslarini o'qib, nevropatolog, psixonevrolog yoki psixiatr kasbida ishlashi mumkin, klinik psixologda esa bunday imkoniyat yo'q. Buning uchun u tibbiy ma'lumot olish uchun qaytadan o'qishi zarur.

Klinik psixolog turli kasalliklarda bemorlar psixologiyasi va kasalliklarning psixologik strukturasi bilsada, biroq psixoemotsional buzilishlarning patogenetik mexanizmlari bo'yicha bilimga ega emas.

Tibbiy va klinik psixologiyaning o'xshash tomonlari:

Tibbiy psixolog ham, *klinik psixolog* ham sog'liqni saqlash tizimida faoliyat ko'rsatuvchi psixologdir. Ikkala kasb egasi ham klinikalarda faoliyat

ko'rsatishadi va ularning asosiy vazifasi bemorlarga psixoterapevtik yordam ko'rsatishdan iborat. Ular har qanday yo'nalishdagi davolash muassasasi, ya'ni psixiatriya, nevrologiya, psixonevrologiya, kardiologiya, neyroxirurgiya, travmatologiya, pediatriya, onkologiya, fiziatriya, akusherlik va ginekologiya, tez tibbiy yordam, dermatovenerologiya, OITS kabi maxsus klinikalar, sog'lomlashtirish markazlari va, albatta, psixosomatik tibbiyot markazlari bo'limlarida faoliyat ko'rsatishadi.

Tibbiy psixolog uchun ham, *klinik psixolog* uchun ham asosiy ish quroli – bu psixodiagnostika va psixoterapiya. Shuningdek, ikkala kasb egalari ham psixogen va psixosomatik buzilishlar profilaktikasi bilan shug'ullanishadi. Bu maqsadda ular psixogigiena va psixoprofilaktika uslublaridan keng foydalanishadi.

Tibbiy psixolog ham, *klinik psixolog* ham har qanday turdagi psixoterapiya, ya'ni gipnoterapiya, bixevioral terapiya, kognitiv psixoterapiya, kognitivbixevioral terapiya, geshtaltterapiya, ratsionalemotiv terapiya, psixodinamik terapiya kabi psixoterapevtik usullarni qo'llashga haqli. Ushbu uslublar o'qitish dasturiga kiritilgan va ular albatta, maxsus kurslarda malaka oshirib turishlari lozim. (Z. Ibodullaev. 2019., 494 B.)

Tibbiy psixologiya — tibbiyot tizimidagi psixologik bilim va usullarni qo'llashga yo'naltirilgan soha. Asosan somatik (tana) kasalliklarda psixologik omillar, bemorning ruhiy holati, og'riqni qabul qilish, davolanishga moslashish (adherence), psixoprofilaktika, psixogigiena, psixosomatik xolatlar bilan ishlaydi. Ko'pincha shifokorlar jamoasi bilan «liaison»/konsilium formatida hamkorlikda.

Klinik psixologiya — psixik salomatlik, ruhiy buzilishlar va chegaralangan holatlarni psixologik qonuniyatlar nuqtayi nazaridan o'rganish, psixodiagnostika va psixokorreksiya/psixoterapiyani qamrab oladi. Ruxiy holatlarni baholash, testlash, neyropsixologik va kliniko-psixologik tahlil, intervention'lar — markazida. Ikkalasi ham biopsixosotsial yondashuvga tayanadi. Psixodiagnostika va psixointervensiyani qo'llaydi, etik me'yorlarga qat'iy amal qiladi. Ko'p tarmoqli jamoada (multidissiplinar) ishlashga mos.

Tibbiy psixologiya — somatik kasalliklarda psixologik omillarni hal qilish bilan shug'ullanadi;

Klinik psixologiya — psixik buzilishlarning psixodiagnostikasi va terapiyasi bilan shug'ullanadi.

Tibbiy psixolog, u kim?

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Aholiga psixologik xizmat ko‘rsatish va psixologiya sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 1518/20-2-sonli Farmoni 19.12.2020 yili e‘lon qilindi. Unda O‘zbekiston davlat psixologiya universitetini ochish hamda tibbiy va klinik psixologiya haqida ham bandlar bor. Bugungi suhbatdoshimiz Respublikamizda “Tibbiyot psixologiyasi” faniga asos solgan olim, shu nomli darslik va o‘quv qo‘llanmalari muallifi, Toshkent tibbiyot akademiyasi “Tibbiy psixologiya va psixoterapiya” kursi mudiri, prof. Ibodullaev Zarifboy Rajabovich.

Savol: Tibbiy psixolog kim? Ularni qaerda tayyorlashadi?

Javob: Tibbiy psixolog – psixologiya bo‘yicha maxsus tayyorgarlikka ega vrach. Tibbiy psixolog bo‘lish uchun avval tibbiyot institutlarining davolash yo‘nalishi bo‘yicha fakultetlarni tugatish kerak. So‘ngra talabalar “Tibbiy psixologiya” bo‘yicha uch yillik magistraturada yoki ikki yillik klinik ordinaturada tahsil olishadi.

Savol: Tibbiyot psixologiyasi bo‘yicha magistraturani tugatganlar qaerda ishlashadi?

Javob: Ular “Tibbiy psixologiya” bo‘yicha mutaxassis bo‘lishadi va respublikamizning barcha shifoxonalari hamda ilmiy markazlarda “vrach-psixoterapevt”, “vrach-neyropsixolog”, “vrach-psixonevrolog” bo‘lib faoliyat ko‘rsatishadi. Magistraturani a‘lo baholarga tugatganlar va xorij tillarini mukammal biladiganlar “Tibbiy psixologiya” bo‘yicha ochiladigan kafedralar, ilmiy laboratoriyalar va psixosomatik bo‘limlarda faoliyat ko‘rsatishadi.

Savol: Psixosomatik bo‘limlar qaerlarda ochiladi va u yerda qanday bemorlar davolanishadi?

Javob: Yaqin kelajakda Toshkent shahridagi yirik ilmiy-tibbiy markazlar, tibbiyot institutlari klinikalari va viloyat klinik shifoxonalarda “Psixosomatik bo‘limlar” ochilishi rejalashtirilgan. Buning uchun “Tibbiy psixologiya” bo‘yicha magistratura va klinik ordinaturani tugatgan mutaxassislar yetarli bo‘lishi kerak. Bu bo‘limlarda psixosomatik buzilishlar aniqlangan bemorlar davolanishadi.

Savol: Psixosomatik buzilishlarga nimalar kiradi?

Javob: Kuchli yoki doimiy ruhiy jarohatlar sababli inson organizmida turli xil kasalliklar rivojlanadi. Masalan, bosh og‘riqlar, bosh aylanishlar, yurak sanchishlari, oshqozon sohasida og‘riqlar, bo‘g‘imlarda og‘riqlar, jinsiy zaifliklar va hokazo. Bunday belgilarni vrachlar ba‘zan haqiqiy kasallik sababli rivojlangan deb o‘ylashadi. Buning oqibatida doimo boshi og‘riydigan bemorga “miyaning ichki bosimi oshgan”, boshi aylanadigan bemorga “kamqonlik” yoki “miyada qon aylanishi yetishmovchiligi”, bo‘g‘imlari og‘riydigan bemorga “bod kasalligi”,

yuragi og‘riydigan bemorga “yurak kasalligi” deb tashxis qo‘yishadi. Ularni aslida tibbiy psixolog davolashi kerak. Men bu yerda bir nechta psixosomatik buzilishlarni keltirib o‘tdim, xolos. Ularning turi 700 dan oshiq.

Savol: Psixosomatik buzilishlar shu qadar ko‘p uchraydimi?

Javob: Juda ko‘p! Barcha kasalliklarning 70 foizi – bular psixosomatik buzilishlar. Shuning uchun ham rivojlangan davlatlarning tibbiyot markazlarida faoliyat ko‘rsatuvchi tibbiy psixologlar soni vrachlar sonidan ikki barobar ko‘p. Bu mamlakatlarda bemorning shikoyati qanday bo‘lishidan qat‘i nazar, ular tibbiy psixolog ko‘rigidan o‘tishadi. Tibbiy psixolog ham xuddi nevropatolog va psixiatr kabi yuqori malakali vrach hisoblanadi. Shu bois ularni magistratura va klinik ordinatura orqali tayyorlashadi.

Savol: Depressiya va psixozlarni (ruhiy qo‘zg‘alishlar) endi tibbiy psixologlar davolashadimi?

Javob: Avvallari bunday bemorlarni psixiatrlar davolashgan. Endi ularni tibbiy psixologlar ham davolashadi. Tibbiy psixologlar ruhiy kasalliklar shifoxonasida va psixonevrologik dispanserlarda psixiatrlar bilan hamkorlikda ishlashadi. Ular narkologik dispanserlarda ham mustaqil ravishda faoliyat ko‘rsatishadi. Depressiya bilan kasallangan bemorlarni davolash esa ularning bevosita burchidir.

Savol: Tibbiy psixolog bosh miyaning og‘ir yallig‘lanish kasalliklarini o‘tkazgan bemorlarni davolashga haqlimi?

Javob: Albatta haqli. Chunki meningit, meningoensefalit va ensefalit kabi og‘ir kasalliklarda nafaqat harakat va sezgi buzilishlari, balki oliy ruhiy funksiyalarning buzilishlari ham kuzatiladi. Nutq, xotira, tafakkur, hissiyot va xulq-atvor buzilishlari ushbu kasalliklarda juda ko‘p uchraydi. Ushbu buzilishlarni rivojlangan xorij davlatlarida nevropatologlar emas, balki tibbiy psixologlar (neyropsixologlar) davolashadi. Tibbiy psixologlar bosh miya faoliyatini yaxshilovchi dori-darmonlar hamda psixoterapiya usullarini parallel tarzda qo‘llaydi.

Savol: Insult kasalligi-chi?

Javob: Ko‘pchilik insult kasalligini faqat nevropatolog davolaydi deb o‘ylaydi. Bu fikr qisman to‘g‘ri, xolos. Insult endi rivojlangan paytda uni nevropatolog, reanimatolog, angioxirurg yoki neyroxirurg davolaydi. Agar insult hushning buzilishi bilan namoyon bo‘lsa, bemor reanimatsiya bo‘limiga yotqiziladi. Agar insult bo‘yin qon tomirlari tiqilib qolishi sababli ro‘y bersa, bemor angioxirurgiya (angionevrologiya) bo‘limida operatsiya qilinadi. Mabodo, miyaga qon quyilsa, bemor zudlik bilan neyroxirurgiya bo‘limiga olib boriladi va operatsiya qilinadi.

Ushbu mutaxassislar yordamidan keyin bemorni nevropatolog va tibbiy psixolog kuzatuvga oladi. Nevropatolog harakat va sezgi buzilishlarini tiklash bilan shug'ullansa, tibbiy psixolog (neyropsixolog) oliy ruhiy funksiyalar, ya'ni nutq, xotira, tafakkur va hissiyot buzilishlarini bartaraf etish bilan shug'ullanadi. Miya insultlarida harakat va sezgi buzilishlari 30 % ga yaqin bo'lsa, oliy ruhiy funksiyalar buzilishi 70 % dan oshadi. Bu degani miya insultini o'tkazgan bemor 70 % vaqtini tibbiy psixolog (neyropsixolog) bilan o'tkazadi. Tibbiy psixolog bemorga miya faoliyatini yaxshilovchi barcha dori-darmonlarni mustaqil ravishda tavsiya etadi va psixoterapiya muolajalarini keng qo'llaydi. Albatta, bemorni qayta hayotga qaytarishda rehabilitolog xizmati ham juda zarur. Rehabilitolog – buzilgan funksiyalarni qayta tiklovchi vrach degani. Rehabilitologlar – nevrologiya va tibbiy psixologiya ilmini mukammal biladigan mutaxassislardir.

Savol: Neyropsixologlarni qaerda tayyorlashadi?

Javob: Neyropsixolog – nevrologiya va psixologiya ilmini chuqur biladigan mutaxassis. Neyropsixologlar tibbiy psixologiya kafedralarida yetishib chiqishadi. Psixologiyaning boshqa yo'nalishlaridan farqli o'laroq, ularga nevrologiya ilmidan chuqur saboq beriladi. Chunki nevrologiyani bilmasdan turib, neyropsixolog bo'lish mumkin emas. Neyropsixologning amaliy tibbiyotdagi asosiy quroli – bu psixologik usullardir.

Savol: Tibbiy psixolog bemorni KT, MRT va boshqa tekshiruvlarga yuborishga haqlimi?

Javob: Albatta, haqli! To'g'ri tashxis qo'yish uchun zarur bo'lgan har qanday diagnostika usullariga bemorni tibbiy psixologning o'zi yuborishi zarur. Masalan, bemordagi psixoz (ruhiy qo'zg'alish) jigar zararlanishi sababli rivojlandi deylik. Bunday bemorni ko'rgan tibbiy psixolog jigarni ultratovush usuli bilan tekshirishga yuboradi, qonda fermentlar miqdorini aniqlaydi va hokazo. Shu yo'l bilan u psixoz sababini izlab topadi va uni bartaraf etadi. Agar bemorga jigar faoliyatini yaxshilovchi dorilar berilmasa, psixozni ham bartaraf etib bo'lmaydi. Bu yerda terapevtlar yordami ham kerak.

Savol: Psixiatrning tibbiy psixologdan nima farqi bor?

Javob: Psixiatr shaxsning keskin o'zgarishi bilan namoyon bo'luvchi ruhiy buzilishlarni davolaydi. Masalan, shizofreniya va suitsid bilan namoyon bo'luvchi ruhiy kasalliklar. Bunday bemorlar o'ziga va atrof-muhitdagilar hayotiga xavf solishi mumkin. Psixologik usullarni chuqur o'zlashtirgan psixiatrlar ham psixiatr, ham tibbiy psixolog bo'lib ishlashadi. Psixiatriya tibbiy psixologiyaga juda yaqin fandır. Tibbiy psixologiya fiziologiya, nevrologiya, psixiatriya va farmakologiya negizida shakllangan fan. Albatta, tibbiy psixologiyaning ildizi umumiy psixologiyaga borib taqalishini ham esda tutish lozim.

Savol: Psixonevrolog haqida ham ma'lumot bersangiz.

Javob: Psixonevrolog – xulq-atvorning turli darajada buzilishlari bilan namoyon bo'luvchi kasalliklarni davolovchi vrach. Masalan, nevroz, isteriya, psixoz, fobiya, depressiya va h.k. Demak, bir oz yengil ifodalangan ruhiy buzilishlarni psixonevrologlar davolashadi. Psixiatriya bo'yicha maxsus kurslarni va magistraturani tugatgan mutaxassislar psixonevrolog bo'lib ishlashadi. Ular, asosan, psixonevrologik dispanserlarda faoliyat ko'rsatishadi. Hozirda tibbiy psixologiya bo'yicha magistraturani tugatganlarga ham psixonevrolog bo'lib ishlash huquqi berilgan.

Savol: Tibbiy psixologlar konsultativ poliklinikalarda ham ishlashadimi?

Javob: Albatta! Xuddi nevropatolog, kardiolog va endokrinolog kabi tibbiy psixolog kabineti konsultativ poliklinikalarda ham ochiladi. U boshqa vrachlar bilan bir qatorda bemorlarni ko'rikdan o'tkazadi, ularga tashxis qo'yadi va davolaydi.

Men inson organizmini tibbiyotga, uning a'zolarini esa turli fanlarga qiyoslayman. Masalan, bosh miyani – nevrologiya, yurakni – kardiologiya, ko'zlarni – oftalmologiyaga, o'pkani – pulmonologiya, jigarni – gepatologiya, suyaklarni – travmatologiya, buyraklarni – urologiya, endokrin bezlarni – endokrinologiyaga qiyoslash mumkin. Tibbiyot psixologiyasini esa o'z ahamiyati bo'yicha inson terisi bilan qiyoslagim keladi. Odamlar har doim o'z miyasi, yuragi, jigari va buyraklarini asrashga harakat qilishadi. Biroq teriga negadir e'tibor shu darajada emas. Teri hamma narsaga bardosh beradi, butun bir organizmni himoya qilib turadi. Odam terisini loyga ham uraveradi, bexosdan kesib ham oladi, xohlasa eng qimmatbaho xushbo'y hidli atirlar sepib, uni parvarish qiladi. Yurak, jigar va buyraklarni operatsiya yo'li bilan olib tashlash, qayta qo'yish mumkin. Biroq butun boshli terini shilib tashlab bo'lmaydi. Agar shunday qilinganida nafaqat ba'zi a'zolar, balki butun bir organizm chirib, yo'q bo'lardi. Shunday ekan, tibbiyotni psixologiyasiz tasavvur qilish qiyin. Psixologiyasiz tibbiyot terisiz organizmga o'xshaydi. U juda xunuk bo'lib, tez orada halok bo'ladi. (Z. Ibodullayev)

**Tibbiy psixologiya va klinik psixologiya o'rtasidagi farqlarni sxematik
jadvali**

(K.B. Murotmusaev)

Kriteriy	Tibbiy psixologiya	Klinik psixologiya
-----------------	---------------------------	---------------------------

Ilmiy manba	Tibbiyot (biomeditsin/biopsixosotsial) modeliga yaqin	Psixologiya fanining klinik qo‘llanmasi
Ob’ekt/fokus	Somatik kasalliklardagi psixologik omillar (kardiologiya, onkologiya va h.k.)	Ruhiy buzilishlar spektri (nevroz, depressiya, va h.k.)
Asosiy vazifalar	Psixoedukatsiya ¹ , stressni boshqarish, davolanishga motivatsiya	Kliniko-psixologik intervyu, testlar, psixoterapiya
Ish joyi/muhit	Kasalxona, poliklinika, reabilitatsiya markazi	Psixonevrologik dispanser, xususiy amaliyot, psixologik tadqiqot markazlari
Mutaxassis tayyorgarligi	Klinik tibbiyot kontekstida amaliy ko‘nikmalar	Psixologiya nazariyasi, psixometrika, terapiya usullari
Metodlar aksenti	Psixoedukatsiya, koping- strategiyalar, adherence(majburiyat)- kouching	Standartlashgan testlar, kliniko- psixologik intervyu, terapiya
Natija mezonlari	Davolanish sxemasiga rioya qilish, og‘riq/stress pasayishi, hayot sifatining yaxshilanishi	Simptomlar kamayishi, funksiyalarning tiklanishi, residiv profilaktikasi

¹*Psixoedukatsiya* — bu psixologik-ma’rifiy jarayon, ya’ni mijozlar, bemorlar va ularning yaqinlariga kasallik, uning belgilari, sabablari, davolash usullari va uni yengib o‘tish yo‘llari haqida ilmiy va tushunarli ma’lumot berish jarayonidir.

Amalda qanday bo‘ladi? Guruhli psixoedukatsiya — masalan, depressiyaga chalingan bemorlar uchun 6–8 mashg‘ulotdan iborat sikl, u yerda simptomlar, stress boshqarish, dorilar haqida tushuntiriladi. *Individual psixoedukatsiya* — psixolog yoki shifokor bemorga yoki uning oilasiga holat va davolash jarayonini tushuntiradi. *Vositalar* — bukletlar, videoroliklar, prezentatsiyalar, infografikalar.

Misol: Agar odamda panik xuruj bo‘lsa, psixoedukatsiya jarayonida unga: *panik xuruj xafli emasligi, lekin noxush hislar berishi, u qanday fiziologik mexanizmlar bilan bog‘liq, xuruj vaqtida qanday nafas olish yoki diqqatni chalg‘itish usullari yordam berishi tushuntiriladi.*

Xulosa o‘rnida

(Klinik psixologiyaga eng to‘liq va aniq ta’rif berishga urinish)

Klinik (tibbiy) psixologiya — bu: psixologiyaning ilmiy-amaliy sohasi;

ob’ekti quyidagilar hisoblanadi: *ruhiy, psixosomatik, somatopsixik buzilishlar, ochiq va yashirin inqiroz holatlari, dezadaptiv xulq-atvor, “xavf guruhi” salomatlik holati (zararli odatlar, kasbiy stresslar, jismoniy nuqsonlar va h.k.), deyarli sog‘lom insonlarning salomatlik holati (“kuchsiz joylar”: konstitutsional-psixologik tur, aksentuatsiya mavjudligi va uning turi, sog‘liqni rivojlantirish resurslari);*

predmeti esa ko‘rsatilgan ob’ektlarning “*psixologik jihatlari*”: *shaxsning individual-psixologik xususiyatlari (dinamik va mazmun jihatdan, shu jumladan qadriyatlar tizimi), buzilish va nuqsonlarning psixologik mexanizmlari, shaxsiy potensial va resurslar, kasallikning ichki manzarasi (KIM), joriy holatning ichki manzarasi (JHIM) va sog‘likning ichki manzarasi (SIM);*

quyidagi *vazifalarni* hal etishga yo‘naltirilgan: *psixoprofilaktika, psixologik yordam (maslahat berish, korreksiya, terapiya, rehabilitatsiya), psixodiagnostika va ekspertiza, shuningdek ilmiy tadqiqotlar;*

ularni hal etish uchun o‘zining *psixologik metodlaridan* foydalanadi; *psixologiya fanining nazariy-metodologik asoslariga tayanadi va normadan yo‘lga chiqadi, shuningdek sog‘liq va kasallikning umumiy va aniq modellari doirasida boshqa fanlar va amaliyotlar bilan hamkorlik qiladi, bu esa fanning hozirgi rivojlanish darajasi va “zamon ruhi”ga (biopsixosotsial va biopsixosotsio-etik modellarga) javob beradi.*

Klinik psixologiyaning umumiy tashkil etish sxemasi

Klinik psixologiya

1. Tuzilma

Umumiy klinik psixologiya.

Umumiy nazariy-metodologik asoslar: *norma va patologiya muammosi; paradigmalar, tushuntiruvchi modellar; ularni hal etish vazifalari va usullari; klinik psixologiya tuzilmasi; klinik psixologiya rivojlanish tarixi.*

Xususiy klinik psixologiya. *Patopsixologiya, Klinik neyropsixologiya, Psixosomatik munosabatlar: psixosomatologiya va somatopsixologiya (psixogigiena), Sogʻliq psixologiyasi.*

Maxsus klinik psixologiya. *Alohida buzilishlar, Inqiroz holatlari, Defektologiya (maxsus psixologiya).*

Klinik psixologiya tuzilmasi odatda quyidagi asosiy yoʻnalish va boʻlimlarni oʻz ichiga oladi:

Nazariy asoslar – klinik psixologiyaning nazariy-metodologik poydevori, tushunchalar tizimi va fanning tarixiy rivojlanishi.

Tadqiqot yoʻnalishlari – psixopatologiya, psixosomatik kasalliklar, kognitiv buzilishlar, shaxs tuzilishi va rivojlanishi, stress va inqiroz holatlar psixologiyasi.

Amaliyot sohalari – psixodiagnostika, psixologik konsalting, psixoterapiya, korreksiya, rehabilitatsiya.

Psixoprofilaktika va psixogigiena – kasalliklarning oldini olish, sogʻlom turmush tarzini shakllantirish, psixologik salomatlikni qoʻllab-quvvatlash.

Ilmiy-tadqiqot ishlari – eksperimental, klinik va longityudinal tadqiqotlar, testlar va usullar yaratish.

Ilmiy hamkorlik – tibbiyot, pedagogika, sotsiologiya, biologiya, neyroilmlar va huquq sohalari bilan integratsiya.

MAVZULAR BOʻYICHA NAZORAT SAVOLLARI

1 Mavzu. Klinik psixologiyaning obʻekt maydoni va predmeti

1. Klinik psixologiya taʼrifiga “klinik” sifatlovchisining qanday ahamiyati bor?
 2. Ilmiy adabiyotlarda klinik psixologiya qanday pozitsiyalar (kriteriyalar) asosida belgilanadi?
 3. Nima uchun klinik psixologiya psixologiyaning bir sohasi hisoblanadi?
 4. Nima uchun klinik psixologiyaning obʻekt maydoni haqida gapirish kerak?
 5. Klinik psixologiyada obʻekt (obʻektlar) va predmet oʻrtasidagi munosabatning oʻziga xos jihatlari nimada?
 6. Klinik psixologiya bilan tibbiyot (psixiatriya) oʻrtasidagi munosabatning oʻziga xos xususiyatlari nimada?
-

2 Mavzu. Klinik psixologiyaning qisqacha tarixi

1. Klinik psixologiyaning paydo bo'lishi va rivojlanishining qanday shart-sharoitlari va asoslari mavjud?
 2. Jahon klinik psixologiyasi qaysi an'analar yo'nalishida rivojlandi (qisqacha tavsifi)?
 3. Institutsional an'ana klinik psixologiya rivojiga qanday hissa qo'shgan?
 4. Institutsional an'ana rivojiga kimlar muhim hissa qo'shgan?
 5. Laytner Uitmer va uning klinik psixologiya rivojlanishidagi o'rni.
 6. Nemis olimlarining institutsional an'ana rivojiga qo'shgan hissasi nimada?
 7. Psixometriya an'anasining klinik psixologiya rivojiga qo'shgan hissasi nimada?
 8. Psixometriya an'anasi rivojiga qaysi olimlar muhim hissa qo'shgan?
 9. Psixodinamik an'ananing klinik psixologiya rivojiga qo'shgan hissasi nimada?
 10. Zigmund Freyd va uning psixodinamik an'ana rivojiga qo'shgan hissasi.
 11. Freyddan tashqari kimlar psixodinamik an'ana rivojiga hissa qo'shgan?
 12. Psixointervensiya an'anasining klinik psixologiya rivojiga qo'shgan hissasi nimada?
 13. Fransuz olimlarining psixointervensiya an'anasi rivojiga qo'shgan hissasi.
 14. Psixointervensiya an'anasini rivojlantirishda gumanistik psixologiya, psixoterapiya va yaqin yo'nalishlarning roli.
 15. Milliy (o'zbek va sovet) olimlarning klinik psixologiya rivojiga qo'shgan hissasi.
 16. Moskva psixologik maktabining klinik psixologiya rivojlanishidagi roli.
 17. Leningrad/Sankt-Peterburg psixologik maktabining klinik psixologiya rivojlanishidagi roli.
 18. M.S. Rogovin maktabining Sibir va Qo'shma Sharqda klinik psixologiya rivojiga qo'shgan hissasi.
-

3-Mavzu. Klinik psixologiyaning vazifalari

1. Klinik psixologiyaning vazifalari va ularni hal etish usullari (qisqacha tavsif).
 2. Klinik psixologiyadagi ilmiy tadqiqotlar va ularning ahamiyati.
 3. Klinik psixologiyada psixodiagnostika.
 4. Klinik psixologiyaning vazifasi sifatida ekspertiza.
 5. Klinik psixologiyada psixointervensiya va uning turlari (qisqacha tavsif).
 6. Klinik psixologiyada psixologik maslahat berish.
 7. Klinik psixologiyada psixoprofilaktika.
 8. Klinik psixologiyada psixokorreksiya.
 9. Klinik psixologiyada psixoterapiya.
 10. Klinik psixologiyada psixoreabilitatsiya.
 11. Klinik psixologiyaga kirish
-

4-Mavzu. Klinik psixologiyada metodologiya masalalari

1. Klinik psixologiyada norma va uning turlari.
 2. Klinik psixologiyada sog‘liq va kasallik (patologiya, buzilishlar) tushunchasi.
 3. Klinik psixologiyada paradigmlar (modellar, dasturlar) mohiyati va ularning darajalari.
 4. Umumlashgan paradigmlar: turlari va tarixiy dinamikasi.
 5. Biopsixosotsionotik modelning mohiyati nima?
 6. Psixologik yordam nazariyasi va amaliyotida ma’naviyat.
 7. Konkret kliniko-psixologik modellar (qisqacha tavsif).
 8. Psixodinamik modelning mohiyati nima?
 9. Gumanistik modelning mohiyati nima?
 10. Xulq-atvor va kognitiv (kognitiv-xulq-atvor) modelining mohiyati nima?
 11. Interpersonal va oilaviy-tizimli modellarning mohiyati nima?
-

5-Mavzu. Klinik psixologiya tuzilmasi

1. Zamonaviy klinik psixologiyani qanday tuzilmalash mumkin?
2. Umumiy klinik psixologiya (klinik psixologiyaga kirish) va uning vazifalari.
3. Xususiy klinik psixologiya: bo‘limlari va vazifalari.
4. Maxsus psixologiya: bo‘limlari va vazifalari.
5. Norma klinik psixologiyasi yoki sog‘liq psixologiyasi: ob’ekti, predmeti va vazifalarining xususiyatlari.
6. Psixosomatik munosabatlar va klinik psixologiyaning vazifalari.

6-Mavzu. Klinik psixolog faoliyatida superviziya

1. Psixologik superviziya tushunchasi.
 2. Klinik psixologiyada superviziyaning o‘rni.
 3. Superviziya turlari.
 4. Superviziya jarayoni (qadamma-qadam model).
-

7-Mavzu. Klinik psixologlar faoliyatida huquqiy va etik masalalar

1. Klinik psixolog faoliyati kontekstida huquqiy masalalar.
-

2. Nega klinik psixolog (shu jumladan psixoterapevtik) faoliyati to'g'risida qonun zarur? Uning loyihalari mazmuni.
 3. Klinik psixologga etika kodekslari kerakmi?
 4. Psixologlarning etik prinsiplari universal deklaratsiyasining mohiyati nima? Klinik psixolog Gippokrat qasamyodini qabul qilishi kerakmi?
-

TURMUSH TARZI VA SOG'LIQ DARAJASI SAVOLNOMASI
(R. Straub, 2002 y.), K.B. Murotmusaev tomonidan moslashtirilgan (2025 y.)

Savolnomaga javob berishda iltimos, sizga taqdim etilgan holatlar bilan qanchalik rozi yoki noroziligingizni, tegishli grafada "plyus" belgisini qo'yish orqali bildiring.

Bundan oldin, iltimos, quyidagilarni to'ldirib chiqing:

F.I.Sh.

Yoshi _____ Jinsi _____ Fakultet _____ Guruh _____

№	Jismoniy salomatlik	Ayrim hollarda (1 ball)	Ba'zan (2 ball)	Odatda (3 ball)	Har doim 4 ball
1	Men o'z sog'lig'im haqida g'amxo'rlik qilaman.				
2	Men tanamni sog'lom va formada ushlab harakat qilaman.				
3	Oilaviy tariximga o'xshash insonlarning sog'liq muammolariga qiziqaman.				
4*	Men surunkali va astenik buzilishlardan aziyat chekaman.				

5	Men o'zimni sog'lom his qilaman.				
6*	Menda allergik reaksiyalar bo'lib turadi.				
7*	Kasallik tufayli o'qish (ish) vaqtim yo'qolib turadi.				
8	Men 7–8 soat uxlayman va hordiq chiqarib, tetik holda uyg'onaman.				
Jismoniy sog'liq indeksi: 8–32 ball					

Izoh: yulduzcha (*) bilan belgilangan savollar **inversiv tarzda baholanadi** (ya'ni 1 ↔ 4).

№	Badan tarbiya va jismoniy fitness	Ayrim hollarda (1 ball)	Ba'zan (2 ball)	Odatda (3 ball)	Har doim 4 ball
1	Men har kuni kamida 30 daqiqa davomida jismoniy mashqlar (masalan, piyoda yurish) bilan faol shug'ullanaman.				
2	Men haftasiga kamida uch marta, har kuni 20–30 daqiqa davomida yugurish, suzish, tez yurish yoki aerobika bilan shug'ullanaman.				
3	Men faol turmush tarzini olib boraman.				
4	Jismoniy ko'rsatkichlarim o'z yoshimdagi odamlarnikidan yuqori.				
5	Men sportga ancha vaqt sarflayman: velosiped haydash, sayr qilish, suzish, bog'dorchilik yoki sport o'yinlari bilan shug'ullanaman.				

6	Men yaxshi jismoniy formadaman.				
7	Men haftasiga bir necha marta kuch talab etuvchi sport turlari bilan shug'ullanaman.				
8	Menda butun kun davomida o'zimni tetik his qilishim uchun yetarli energiya bor.				
Badan tarbiya va jismoniy fitness indeksi: 8–32 ball					

№	Alkogol, sigareta va boshqa zararli moddalarni suiiste'mol qilish	Ayrim hollarda (1 ball)	Ba'zan (2 ball)	Odatda (3 ball)	Har doim 4 ball
1	Men sigareta chekishdan voz kechaman.				
2	Tamakiga oid barcha narsalardan, shu jumladan, sigareta va trubka chekishdan butunlay voz kechaman.				
3*	Men sofqadamman, lekin sharoit talab qilsa, kuniga 1–2 qultumdan ko'p ichmayman.				
4	Xatarli vaziyatlarda ichishdan voz kechaman.				
5	Ulfatchiliklardan (ortiqcha ichish, mastlik holatlaridan) voz kechaman.				
6*	Men taqiqlangan (o'ta zararli) alkogol ichimliklarini iste'mol qilaman.				
7	Alkogolni suiiste'mol qiluvchi odamlar bilan muloqotdan voz kechaman.				

8	Muammolarni yengish yoki muloqotni yengillashtirish maqsadida alkogol yoki boshqa ichimliklarni qabul qilishdan voz kechaman.				
Alkogol, tamaki va boshqa kimyoviy moddalarni suiiste'mol qilish indeksi: 8–32 ball					

Izoh. Yulduzcha (*) bilan belgilangan bandlar ballari **inversiv tarzda** aniqlanadi (1 → 4; 2 → 3; 3 → 2; 4 → 1).

№	Salomatlikni profilaktika qilish amaliyoti	Ayrim hollarda (1 ball)	Ba'zan (2 ball)	Odatda (3 ball)	Har doim 4 ball
1	Men muntazam ravishda o'z shifokorimga borib, tekshiruvdan o'tib turaman.				
2	Men muntazam ravishda qon bosimim va xolesterin darajamni tekshirib turaman.				
3	Men deyarli har oy nafas olish a'zolarim va yuragimni tekshirib boraman.				
4	Intim munosabatlarda men doim xavfsiz jinsiy aloqani amalga oshiraman.				
5	Men quyosh ostida uzoq vaqt turishdan yoki ko'p toblanishdan qochaman.				
6	Agar 5 daqiqadan ortiq vaqt quyoshda bo'lishimga to'g'ri kelsa, men maxsus himoya kremidan foydalanaman.				
7	Hojatxonadan keyin men doim qo'llarimni sovunlab yuvaman.				
8	Men emlanishlarni o'z vaqtida olaman.				
Profilaktik choralar indeksi: 8–32 ball					

№	Qo‘shimcha profilaktik choralar	Ayrim hollarda (1 ball)	Ba‘zan (2 ball)	Odatda (3 ball)	Har doim 4 ball
1	Mening uyimda tamaki tutunini aniqlovchi detektor bor.				
2	Mening uyimda havo tozalagich mavjud.				
3	Uydagi barcha «kimyoviy moddalar» ishonchli saqlanadi.				
4	Avtomobilida xavfsizlik kamarini har doim taqaman.				
5	Bolalarning avtomobilida xavfsizlik kamari taqqanligiga e‘tibor qilaman.				
6	Yo‘l harakati qoidalariga amal qilaman.				
7	Velosiped yoki rolikda yurganda shlem va boshqa himoya vositalarini kiyaman.				
8	Uyda tozalash vositalari, pestitsidlar, erituvchilar va elektr jihozlaridan foydalanishda yo‘riqnomalarga amal qilaman.				
Qo‘shimcha profilaktik choralar indeksi: 8–32 ball					

№	Ovqatlanish va vaznni nazorat qilish	Ayrim hollarda (1 ball)	Ba‘zan (2 ball)	Odatda (3 ball)	Har doim 4 ball
1	Men yog‘ iste‘molini, shu jumladan to‘yingan yog‘larni cheklayman.				
2	Xolesterin miqdori yuqori bo‘lgan mahsulotlar (tuxum, jigar, go‘sht) iste‘molini cheklayman.				
3	Men muvozanatli parhezga rioya qilaman.				
4	Har kuni kamida besh yoki undan ortiq mevalar va sabzavotlar porsiyasini iste‘mol qilaman.				

5	Men tuz va (yoki) shakar iste'molini cheklayman.				
6	Men taomlarni ko'proq bug'da pishgan yoki dimlangan holda tayyorlashni afzal ko'raman.				
7	Men kun davomida bir necha marta kletchatkaga boy ovqat iste'mol qilaman.				
8	Men vaznimni sog'lomlik darajasida ushlab turishga harakat qilaman.				
Ovqatlanish va vazni nazorat qilish indeksi: 8–32 ball					

№	Psixologik salomatlik	Ayrim hollarda (1 ball)	Ba'zan (2 ball)	Odatda (3 ball)	Har doim 4 ball
1	Men maktabda yoki ishda vazifani bajarishda diqqatimni jamlay olaman.				
2	Hayotimning maqsadlari men uchun aniq.				
3	Umuman olganda, men o'zimni yoqimli shaxs deb hisoblayman.				
4	Men mushaklar va emotsional zo'riqishni yo'qota olaman.				
5	Meni kelajakka nisbatan umidim katta.				
6	Men to'siqlarni yengishdan zavq olaman.				
7	Men his-tuyg'ularimni ifoda eta olaman.				
8	Men stresslarni yengib o'ta olaman.				
Psixologik sog'liq indeksi: 8–32 ball					

№	Ma'naviy salomatlik	Ayrim hollarda (1 ball)	Ba'zan (2 ball)	Odatda (3 ball)	Har doim 4 ball

1	Men hayotimdan ma'no topaman.				
2	Men o'zimdanda buyukroq narsaga (din, tabiat yoki ijtimoiy jarayonlar/ishlar) qo'shilishda ma'no ko'raman.				
3	Men har qanday hayotning o'z ta'qdiri/maqsadi borligiga ishonaman.				
4	Men rasm chizish, haykaltaroshlik, raqs tushish yoki kitob o'qish bilan shug'ullanishdan zavq olaman.				
5	Men jamiyatda munosib o'rin egallayman, deb hisoblayman.				
6	Odamlarga yordam berish orqali ulardan minnatdorchilik kuta olmayman.				
7	Men ma'noli va muhim ishlar bilan shug'ullanishni afzal ko'raman.				
8	Men bu hayotda turli xil narsalar bilan shug'ullanish ehtiyojini his qilaman.				
Ma'naviy salomatlik indeksi: 8–32 ball					

№	Ijtimoiy salomatlik	Ayrim hollarda (1 ball)	Ba'zan (2 ball)	Odatda (3 ball)	Har doim 4 ball
1	Mening yaqin do'stlarim bor.				
2	Men boshqa odamlar bilan ishonchli munosabatlar o'rnata olaman.				
3	Men boshqalarga nisbatan ham mehr va muhabbat his-tuyg'ularimni, ham noumidlik va g'azab hislarimni ifoda eta olaman.				
4	Agar muammoni mustaqil hal qila olmasam, boshqalardan yordam so'rayman.				

5	Mening oila a'zolarim bilan munosabatlarim yaxshi.				
6	Men boshqalarga yordam berishga tayyor odamlardanman.				
7	Men mas'uliyatni o'z zimmamga olaman va qarorlarni boshqalarning o'rniga qabul qilishlariga yo'l qo'ymayman.				
8	Men boshqa odamlarning his-tuyg'ularini to'la hurmat qilaman.				
Ijtimoiy salomatlik indeksi: 8–32 ball					

№	Ekologik salomatlik	Ayrim hollarda (1 ball)	Ba'zan (2 ball)	Odatda (3 ball)	Har doim 4 ball
1	Men ekologik ma'lumotlardan (masalan, ozon teshiklari holati va roli, o'rmonlarning yo'qolishi va kasallanishi, kislotali yomg'irlar va h.k.) xabardor bo'lishga harakat qilaman.				
2	Men qog'oz, shisha va metall chiqindilari uchun konteynerlardan foydalanaman (axlatni har yerga va har joyga tashlamayman).				
3	Men sifatli ichimlik suvidan foydalanaman.				
4	Men ekologik aksiyalarda ishtirok etaman yoki ular ishtirokchilari bilan hamkorlik qilaman.				
5	Men chiqindilarni to'g'ri tarzda yo'qotaman.				
6	Uyda yoki bog'da pestitsidli sepkichlardan foydalanganda ko'rsatmalarga amal qilaman.				
7	Men mevalar va sabzavotlarni iste'mol qilishdan oldin yuvaman.				
8	Men suv va elektr energiyasini tejashga harakat qilaman.				
Ekologik salomatlik indeksi: 8–32 ball					

KLINIKO-PSIXOLOGIK TADQIQOT ANKETACI (K. B. MUROTMUSAEV 2024)

Bu respondentning psixologik holati, xulq-atvori va shaxs xususiyatlari haqida ma'lumot to'plashga mo'ljallanib tuzilgan savollar to'plami hisoblanadi. U klinik psixologiyada tashxis qo'yish, baholash va terapiyani rejalashtirish uchun muhim vosita hisoblanadi. Anketada oldindan belgilangan javob variantlari bilan yopiq savollar va respondent o'z fikrlarini erkinroq ifoda etishi mumkin bo'lgan ochiq savollar ham bo'lishi mumkin.

Kliniko-psixologik anketaning asosiy elementlari:

Ijtimoiy-demografik ma'lumotlar: yosh, jins, ma'lumoti, kasbi, oilaviy ahvoli va h.k.

Shikoyatlar va anamnez: mavjud psixologik muammolar haqida ma'lumot, ularning davomiyligi, kelib chiqish sabablari, shuningdek, psixik holatga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan oldingi kasalliklar va jarohatlar.

Simptomlar va ko'rinishlar: turli psixik buzilishlarga xos belgilari aniqlanishiga qaratilgan savollar (trevoga, depressiya, uyqu buzilishi, kognitiv buzilishlar va h.k.).

Xulq-atvor namunasi: odatlar, qaramliklar, boshqalar bilan munosabat, stress holatlarga reaksiyalar haqida savollar.

Baholash shkalalari va testlar: ayrim anketalarda psixik holatning turli jihatlarini miqdoriy baholash uchun standartlashtirilgan shkalalar va testlar qo'llaniladi (masalan, trevoga darajasi, depressiya, kognitiv funksiyalar).

Davolashga munosabat haqida savollar: davolanishga bo'lgan motivatsiya, terapiyadan kutilmalar, psixoterapevtlar bilan o'tgan tajriba haqida ma'lumot.

Anketalar turlari:

Umumiy anketalar: keng qamrovli psixologik muammolarni aniqlashga qaratilgan.

Maxsus anketalar: aniq bir psixik buzilishlarni (masalan, trevoga buzilishlari, depressiya, posttravmatik stress buzilishi) o'rganish uchun ishlab chiqilgan.

Bolalar va o‘smirlar uchun anketalar: rivojlanish va yosh psixologiyasi xususiyatlarini hisobga oladi.

Ota-onalar uchun anketalar: bola haqida yaqinlari orqali ma’lumot olish imkonini beradi.

Muhim jihatlari: Anketalar valid va ishonchli bo‘lishi shart, ya’ni ular kerakli narsani o‘lchashi va barqaror natijalar berishi kerak. Savollar ifoda tarzida aniq, tushunarli va ikki xil ma’noga yo‘l qo‘ymasligi zarur. Anketalar muayyan maqsadli guruhga moslashtirilgan bo‘lishi kerak. Anketalardan foydalanishda axloqiy me’yorlarga rioya etilishi shart: konfidensiallik va ixtiyoriylik ta’minlanishi zarur.

Kliniko-psixologik tadqiqot anketacining tuzilishi namunasi Sarlavha: (masalan, "Psixologik holatni baholash anketaci")

1. **Yo‘riqnoma:** (anketani qanday to‘ldirish, qancha vaqt ketishi)
2. **Savollar:** (ijtimoiy-demografik, shikoyatlar, simptomlar, xulq-atvor namunasi, baholash shkalalari)
3. **Xulosa:** (tashakkur bildirish, aloqa uchun ma’lumotlar)

Kliniko-psixologik tadqiqot anketaci

1. Umumiy ma’lumotlar

F.I.O.:

Jins:

Tug‘ilgan sana / yosh:

Ma’lumoti:

Kasbi / ish faoliyati:

Oilaviy holati:

Manzil / aloqa uchun ma’lumotlar (zarur bo‘lsa):

2. Tibbiy ma’lumotlar

Bemorning shikoyatlari:

Shikoyatlar davomiyligi:

O‘tkazilgan kasalliklar:

Bosh jarohatlari, operatsiyalar, og‘ir infeksiyalar (yili, qibatlari):

Irsiy omillar (oilada psixik yoki nevrologik kasalliklar mavjudligi):

Qabul qilayotgan dorilar:

Allergiyalar:

3. Psixologik anamnez

- Bolalikdagi rivojlanish xususiyatlari (homiladorlik, tug‘ilish, erta rivojlanish, nutq, motorika):
- Maktab davri xususiyatlari (o‘qish samaradorligi, qiyinchiliklar, tengdoshlar bilan munosabatlar):
- Psixotravmatik holatlar (ota-onaning ajrashi, yo‘qotishlar, zo‘ravonlik, ko‘chishlar va h.k.):
- Shaxslararo munosabatlar xususiyati (oilada, ishda, jamiyatda):
- Qiziqishlar, xobbi, qiziquvchanlik sohalari:

4. Emotsional-shaxsiy soha

Kayfiyat (barqaror / pasaygan / ko‘tarilgan / labil): Xavotir darajasi:

Agressiyaga / impulsivlikka moyillik:

O‘z-o‘zini baholash xususiyatlari:

Qo‘rquvlar, navyazchiv fikrlar yoki harakatlar mavjudligi:

5. Kognitiv soha

Xotira (eslab qolishdagi shikoyatlar, xususiyatlari):

Diqqat (barqarorlik, konsentratsiya):

Tafakkur (mantiqiylik, sur‘at, xususiyatlar):

Nutq (erkin, sekinlashgan, nutq nuqsonlari mavjudligi):

6. Xulq-atvor xususiyatlari

Uyqu (normal, uyqusizlik, tush ko‘rish):

Ishtaxasi:

Odatlar (chekkish, alkogol, narkotiklar):

Stress holatlaridagi xulq-atvor xususiyatlari:

7. Ijtimoiy moslashuv

Oiladagi munosabatlar:

Ishda / o‘qishdagi munosabatlar:

Ijtimoiy aloqalar (tor doira / keng doira / izolyatsiya):

Hayotdan qoniqish darajasi:

8. Psixolog xulosasi (mutaxassis to‘ldiradi)

Bemor haqida umumiy taassurot:
Tekshiruv paytidagi xulq-atvor xususiyatlari:
Dastlabki gipoteza:
Qo‘shimcha tekshiruv / terapiya bo‘yicha tavsiyalar:

Eslatma: Ushbu anketa **maxsus metodikalar** bilan to‘ldirilishi mumkin (savolnomalar: MMPI, 16PF, Shmishek; testlar: Lyusher, Rorshax; xavotir va depressiya shkalalari va h.k.). Tadqiqot maqsadiga (diagnostika, ekspertiza, dinamik kuzatuv) qarab anketa moslashtiriladi.

TIBBIY-PSIXOLOGIK ANKETA (Z. IBODULLAEV 2009)

Tibbiy psixologlar uchun tibbiy-psixologik anketa. Tomonidan ishlab chiqilgan (Undan psixosomatik tibbiyot bo‘limlari va tibbiy psixolog xonalarida tibbiy-psixologik statusni o‘rganib ma’lumotlar qayd qilib boriladi.

Tibbiy-psixologik statusni tekshirish sxemasi(Z. Ibodullaev)

I. Umumiy ma’lumotlar

Bemorning ismi, sharifi.....
Tibbiy anketa (tarixnoma) raqami.....
Yoshi.....
Jinsi.....
Millati.....
Oilaviy ahvoli.....
Yashash joyi.....
Ma’lumoti va kasbi.....
Mehnatga layoqati.....
Chapaqay, o‘naqay yoki ambidekstr.....
Klinikaga (poliklinikaga) murojaat qilgan kuni.....
Klinikada (poliklinikada) qo‘yilgan tibbiy tashxis (tashxislar)....
Psixologga murojaat qilgan kuni.....
Asosiy shikoyatlari.....

II. Anamnestik ma'lumotlar

Bemorning hayot anamnezi (ilk bolalik davridan boshlab yig'iladi, qanday tarbiyalangan, qanday muhitda o'sgan va h.k.) Bemorning jinsiy hayoti va oilaviy anamnezi. Bemorning tibbiy anamnezi (qanday kasalliklar bilan og'rigan). Bemorning psixologik anamnezi. Bemorning nasliy anamnezi.

III. Yordamchi tekshirishlar va boshqa mutaxassislar xulosalari

Laborator tekshiruvlar.....

Elektroensefalografiya.....

Psixiatr.....

Nevropatolog.....

Patopsixolog.....

Neyropsixolog.....

Terapevt.....

Seksopatolog.....

Boshqa mutaxassislar.....

Psixologik testlar xulosalari.....

IV. Temperamentni tekshirish xulosalari

Suhbat yoki psixologik testlar yordamida bemorning qaysi temperament egasi ekanligi aniqlanadi. Keyin xulosaga sangvinik, xolerik, flegmatik yoki melanxolik deb yozib qo'yiladi.

V. Shaxs va xulq-atvorni tekshirish xulosalari

Bemorning yaqinlari yordamida va uning o'zidan ilk bolaligidan boshlab, xulq-atvori xususiyatlari haqida ma'lumot yig'iladi. Yaslida, maktabda, o'spirinlik davri, oila qurgandan keyingi hayoti, ishda va jamoada o'zini tutishi har tomonlama so'rab-surishtirib o'rganiladi. Bu maqsadda psixologik testlardan ham foydalaniladi.

Suhbat va testlar yordamida quyidagi shaxs tiplari ajratib ko'rsatiladi: tsiklotimik, emotsional, distimik, gipertimik, xavotirli, qo'zg'aluvchan, qotma, ekstravert, intravert, xushchaqchaq shaxs. Xulq-atvoriga qarab quyidagi xulosalar beriladi: mehribon, xudbin, mansabparast, toshyurak, kamtar, xotirjam va hokazo.

VI. Hissiyotni tekshirish xulosalari

Suhbat chog'ida bemorning mimikasi, o'zini tutishi, psixolog va atrofda qilargaga bo'lgan munosabatiga e'tibor qaratiladi. Keyin bemorning his-tuyg'ulari va kayfiyatiga quyidagicha ta'rif beriladi: hayajonlangan, g'azablangan, xavotirda, kayfi chog', tushkunlikka tushgan, vahima bosgan. Shu holatlar aniqlangandan so'ng bemorning hissiyoti to'g'risida, eyforiya, disforiya, depressiya, affekt yoki hissiy ambivalent holatida degan xulosa qayd qilinadi. Xulosani yanada oydinlashtirish uchun psixologik test natijalaridan ham foydalaniladi.

VII. Sezgi va idrokni tekshirish xulosalari

Sezgi buzilishlarini tekshirayotganda, uning organik va funksional tusda ekanligi aniqlanadi. Ikkala holda ham sezgining quyidagi buzilishlari farq qilinadi: monoanesteziya, gemianesteziya, giperesteziya, dizesteziya, senestopatiya, kauzalgiya, og'riqlar (boshda, tanada va ichki a'zolar sohasida).

Idrokni tekshirayotganda illyuziya, gallyusinatsiya, anozognoziya, derealizatsiya va depersonalizatsiya bor-yo'qligi e'tiborga olinadi va xulosa o'rnida yozib qo'yiladi.

VIII. Iroda va maylni tekshirish xulosalari

Irodani tekshirayotganda, mustahkam irodali, matonatli, maqsadga intiluvchan, ikkilanuvchan, mustaqil, jur'atsiz kabi xulosalar beriladi. Shuningdek, iroda va mayl buzilishlariga ta'rif berishda quyidagi atamalardan ham foydalaniladi: abuliya, gipobuliya, giperbuliya, dipsomaniya, dromomaniya, kleptomaniya, mazoxizm, sadizm, anoreksiya, polifagiya, polidipsiya, gomoseksualizm, suitsidal mayllar.

IX. Nutqni tekshirish xulosalari

Bemorning nutqidagi nuqson suhbat chog'ida yoki maxsus tekshirishlar orqali aniqlanadi. Nutqni oddiy va murakkab so'zlarni takrorlatib turib ham tekshirish mumkin. Nutq buzilishlari neyropsixologik testlar yordamida ham aniqlanadi. Nutqning quyidagi buzilishlari xulosa o'rnida qayd qilinadi: afferent motor afaziya, efferent motor afaziya, sensor afaziya, akustik-mnestik afaziya, amnestik afaziya, semantik afaziya, dinamik afaziya, soqovlik, duduqlanish, dizartriya, dislaliya.

X. Diqqat va xotirani tekshirish xulosalari

Diqqatning ba'zi xususiyatlari suhbat chog'ida aniqlab olinadi. Shuningdek, diqqatni tekshiruvchi testlar, ya'ni Krepelin, Shulte jadvali va Burdonning

korrektura sinamalaridan foydalaniladi. Diqqati tarqoq, parisonxotir, jamlangan, o'tkir kabi xulosalar yoziladi.

Bemorning diqqati tekshirib bo'lingandan so'ng yoki parallel holda kundalik va bo'lib o'tgan voqealarga bo'lgan xotirasi tekshiriladi: ma'nosiz (gul, qarg'a, oyna) so'zlardan iborat qisqa qator, qisqa va uzun jumlar, matallarni yod olish va qayta esga tushirish. Xuddi shu uslubda ko'rish xotirasi (turli fotosuratlar ko'rsatib, birozdan so'ng qayta tanish so'raladi) va harakat xotirasi tekshiriladi (bemor qo'li bilan turli harakatlarni amalga oshiradi va ularni birozdan so'ng takrorlash so'raladi). Ebbingauz va Luriya tomonidan ishlab chiqilgan "10 ta so'zni yodlab esga tushirish" usulidan ham foydalaniladi.

Xotira buzilishlari darajasi ko'rsatiladi. Shuningdek, amneziya (retrograd, anterograd, anteroretrograd), konfabulyatsiya, psevdoreminissensiya kabi xulosalar qayd etiladi.

XI. Tafakkurni tekshirish xulosalari

Tafakkurni tekshirayotganda, uning izchilligi va tezligiga e'tibor qaratiladi. Fikrlash darajasi yoshiga mos keladi, debillik, imbesillik, idiotiya, demensiya deb xulosa yoziladi. Bu buzilishlarni aniqlash uchun hikoyalarning mazmuni, kichik matematik masalalar, tugallanmagan jumlar, maqollar ma'nosi va tafakkur darajasini ifodalovchi psixologik testlardan (Koos kubikchalari, Bine-Simon, Veksler testlari, tafakkur koeffitsientini (IQ) aniqlash) usullaridan foydalaniladi.

XII. Ongni tekshirish xulosalari

Ong buzilishining shartli ravishda nopsixotik va psixotik shakllari ajratiladi: birinchisiga obnubulyatsiya, somnolensiya, sopor va koma, ikkinchisiga esa deliriya, trans, amensiya, somnambuliya, ambulator avtomatizmlar, oneyroid kiradi. Shuningdek, ong darajasiga ta'rif berayotganda, bemorning es-hushi joyida, vaqt, joy va vaziyatni adashtirmasligi, atrofdagi voqealarni aniq-ravshan anglashiga e'tibor beriladi.

Xulosa. Bemorning tibbiy-psixologik statusi to'la tekshirilgandan so'ng olingan ma'lumotlar psixologik testlar, laboratoriya natijalari va boshqa mutaxassislar xulosalari bilan solishtiriladi. Keyin bemorga tibbiy-psixologik tashxis aniqlab olinadi va tarixnomaga qayd qilinadi.

Tibbiyotda psixoterapiya(Z. Ibodullaev)

Psixoterapiya – qalb va ruhni davolash, degan ma'noni anglatadi. Tibbiyot paydo bo'lgandan beri psixoterapiya usulidan keng foydalanilgan. Psixoterapiya usuli asli Sharqda tarqalgan bo'lib, bemorlarni davolashda u eng samarali hisoblangan.

Abu Ali Ibn Sino, Abu Bakr ar-Roziy, Ismoil Jurjoniy, Al-Karvakiy Xazoraspiy kabi buyuk allomalar o'zlarining davolash usullarida giyohlardan tashqari, psixoterapiya usullarini ham qo'llashgan. Asab va ruhiy xastaliklar bilan yotib qolgan bemorlar ularning tashrifidan va ishlatgan so'zlaridan tuzalib, oyoqqa turib ketganlar.

So'z buyuk kuchdir! Psixoterapiyaning asosiy maqsadi ham so'zni topib ishlata bilishda. So'zni bemorlarni davolashda ishlata olish ham bir san'at. So'z tibbiy psixologning asosiy quroli bo'lib, bemorlarni davolashda undan o'ta ehtiyotkorlik bilan foydalanish kerak. Ozingina ehtiyotsizlik tuzatib bo'lmas oqibatlariga sabab bo'lishi mumkin. Tibbiy psixolog aynan so'z orqali psixodiagnostika o'tkazadi va so'z orqali psixoterapiya olib boradi. Boshqa yo'nalishdagi hech qaysi vrachlik kasbida bunday katta imkoniyat yo'q.

Psixoterapiya usuli Yevropada XVII asrda venalik vrach va olim Mesmer tomonidan keng qo'llanila boshlangan. Tibbiyotda bemorlarni davolashda gipnoz usuli XVIII–XIX asrlarda J. Sharko, J. Bred, Z. Freyd, V.M. Bexterevlar tomonidan keng qo'llanilgan. Nevrologiya fanining rivojlanishiga ulkan hissa qo'shgan fransiyalik olim J. Sharko psixoterapiya usulidan asab kasalliklarini davolashda keng qo'llagan.

Psixoterapiya jarayoni bemor va vrach psixologiyasining asosiy obektidir. Psixoterapiya o'tkazayotgan paytda bemorning ruhiy holati, temperamenti, kasallikni keltirib chiqargan omillar va bemorning umumiy ahvoli albatta e'tiborga olinadi. Psixoterapevtik tajribasi yo'q vrach bemorni davolashda qiynaladi. Har bir vrach psixologik usullardan foydalangan holda bemorni davolashi lozim. Bu ish bilan faqat tibbiy psixolog shug'ullanishi shart emas, albatta. Iloji boricha, bemorni davolaydigan vrachlar soni kam bo'lishi maqsadga muvofiq. Bu haqda mashhur vrach X.F. Gufelyand (1762–1836) shunday degan edi: «Bitta vrach davolasa yaxshi, ikkitasiga ham chidasa bo'ladi, lekin uchtasi – bu dahshat!» Bu bilan u davolovchi vrachlar ko'payishi, bemorning sog'ayib ketishini qiyinlashtiradi, demoqchi. Doktorlarni maslahatga chaqirish mumkin, lekin davolovchi vrach bitta bo'lishi maqsadga muvofiq.

Shu o'rinda yatrogeniya haqida to'xtalib o'tsak. Yatrogeniya deb, vrach yoki boshqa tibbiyot xodimining bexosdan aytib qo'ygan so'zi yoki tibbiy muolajalardan bemorda avval mavjud bo'lmagan kasallik alomatlarining paydo bo'lishiga aytiladi. Buning oqibatida yatropatiya rivojlanadi. Masalan, ukoldan so'ng bemorning qo'li yoki oyog'i «ishlamay» qolishi, noto'g'ri tibbiy xulosalardan so'ng mavjud bo'lmagan yurak kasalidan davolanib yurish va h.k. Yatropatiyaga misollar avvalgi boblarda keltirilgan.

Har qanday psixoterapiya o'ta mohirlik bilan o'tkazilishi zarur. Psixoterapiya bemorning shaxsi, temperamenti va kasallik turiga qarab ishlab chiqilmog'i lozim. Malakali vrachning psixoterapevtik muolajalari natijasi muvaffaqiyatli

o'tadi. Psixoterapiyaning yana bir afzal tomonlaridan biri unga bo'lgan ishonch va ixlosdir. Psixoterapevtik muolajalar bemorning ahvoriga qarab, kasallik anamnezini chuqur o'rgangan holda uzoq yoki qisqa vaqt davom ettirilishi mumkin. Davolash muolajalari cho'zilib ketishi, bir xil bo'lib qolishi yoki «Sizni uzoq vaqt davolashga to'g'ri keladi», qabilidagi gaplar ijobiy natijalarni yo'qqa chiqarishi mumkin.

Fikrimizning tasdig'i sifatida Z. Freydning hanuzgacha bahs va munozaralarga sabab bo'lib kelayotgan so'zlarini keltiramiz: «Natijasi qanday tugashidan qat'i nazar, davolash jarayoni oldindan belgilangan vaqtda tugatilishi kerak». Demak, davolash muddati belgilanishi va buni bemor bilishi zarur.

Tibbiy amaliyotda shunday holatlar bo'ladi, bemor doktoring tajribasiga, bilimiga ishonadi, biroq o'zining sog'ayib ketishiga ishonmaydi, kasalim tuzalmas va dardim og'ir, deb miyasiga singdirib oladi. Bu, ayniqsa, nevroz va ipoxondriya uchun juda xos. Bemorda davom etayotgan surunkali kasallik sababli uning oila a'zolari ham aziyat chekadi. Ko'p hollarda qaysidir bemorda uzoq davom etayotgan nevroz yoki depressiyaning sababi oiladagi, ayniqsa turmush o'rtog'i bilan bo'ladigan kelishmovchiliklar bo'ladi. Bunday paytlarda bosh miya katta yarim sharlari po'stlog'ida turg'un "salbiy dominant o'choq" paydo bo'lgani va uni parchalab yuborish uchun undan-da kuchli "ijobiy dominant o'choq" hosil qilish kerak. Ushbu dominant o'choq shu darajada kuchli bo'lishi kerakki, u har qanday salbiy dominant o'choqni parchalab yuborishi lozim. Bu esa vrach yoki tibbiy psixologning ilmi va mahoratiga ko'p jihatdan bog'liq.

Gipnoterapiya

Gipnoterapiya qadim-qadimdan ma'lum. Uni barcha psixoterapevtik usullardan oldin qo'llay boshlashgan, degan fikrlar mavjud. Gipnoterapiya turlari juda ko'p bo'lib, turli sohalarda keng qo'llaniladi. Tibbiyotda gipnoterapiya juda katta ahamiyatga ega. Ayniqsa, nevroz, depressiya va psixosomatik kasalliklarda gipnoterapiya yuqori darajada samaralidir. Gipnoterapiyani organik kasalliklarda ham qo'llab ijobiy natijalarga erishilmoqda. Allergik dermatozlar, ekzema va bronxial astmani bunga misol qilib ko'rsatish mumkin.

Gipnoterapiya paytida hozirda «bo'rtib» turgan belgilarga, klinik simptomlarga e'tibor qaratiladi va ularni bartaraf etishga kirishiladi. Gipnoz o'tkazayotgan vrach bemorga silash, ko'z va so'z orqali ta'sir qilsa, miya po'stlog'ida joylashgan uch xil, ya'ni sezgi, ko'ruv va eshituv markazlari tormozlanadi va gipnozga tushish osonlashadi.

Gipnoterapiya o'tkaziladigan xona. Gipnoz uchun keng, tinch, osoyishta, ortiqcha tovush va hidlardan holi xona zarur. Past tovushda yengil musiqa yangrab turishi mumkin. Xona devorlarida fikrni chalg'ituvchi kartinalar, ayniqsa, odamlar portreti bo'lmagani ma'qul. Agar devorda yilning to'rt faslini

aks ettiruvchi 4 xil kartina osig'liq tursa, bu insonning ruhiyatiga yaxshi ta'sir ko'rsatadi Xonadagi mebellar orasi ham iloji boricha ochiq bo'lishi lozim. Albatta, yumshoq kreslo va shu kabi boshqa yotoq mebellar albatta bo'lishi kerak.

Gipnoz texnikasi. Turli xil gipnoz o'tkazish texnikalari mavjud. Ulardan birini keltirib o'tamiz. Gipnoterapiya bosqichlari quyidagicha:

1-bosqich. Bemorni yumshoq kresloga o'tkazing. O'zingiz uning ro'parasiga o'tirib oling. Siz stulda shunday joylashingki, ko'zlaringiz uning yuzidan teparoqda bo'lsin. O'ng qo'lingiz bilan bemorning chap qo'lini, ya'ni puls urishini tekshiradigan joydan ohista ushlang. Chap qo'lingizni uning o'ng yelkasiga qo'ying.

2-bosqich. "O'zingizni bo'sh qo'ying! Mening ko'zlarimga qarang" deb, dadil ovoz bilan buyruq bering. Siz esa uning ko'zlariga emas, balki ikkala qoshining o'rtasiga qarang. Aks holda uning nigohi kuchli bo'lsa, sizning ko'zlaringizni charchatib qo'yishi mumkin. Shu holatda 3 daqiqa uning ikkala qoshi o'rtasiga tikilib turing. Bu holat uning ko'zlarini charchatib qo'yadi va transga tushishni osonlashtiradi. Bu paytda yo'talish, ovoz qirib qo'yish yoki bemorning diqqatini chalg'itadigan boshqa harakatlar qilish mumkin emas.

3-bosqich. Shoshilmasdan, ishonchli ovozda uning ko'zlariga tikilib, quyidagilarni so'zlang:

– Butun tanangiz bo'shshagan va uni iliqlik qamrab olgan. Yuqori qovoqlaringiz og'irlashib kelyapti, uxlagingiz kelyapti, bunga qarshilik qilmang. Hozir uyquga ketasiz! Uyqungiz uzoq davom etmaydi va siz uchun o'ta foydali. Siz uyqudan tana va ruhingiz sog'lom bo'lib uyg'onasiz, qushdek yengil bo'lasiz! Dard sizni tark etadi, kayfiyatigiz yuqori bo'ladi.

4-bosqich. Siz faqat mening ovozimni eshityapsiz. Bir necha daqiqadan so'ng siz uyquga ketasiz. Sizda uyquga ketish xohishi ortib bormoqda. Siz bunga qarshilik ko'rsata olmayapsiz. Hozir men o'ngacha sanayman va siz uyquga ketasiz.

5-bosqich. Shoshilmasdan dono-dono qilib birdan o'ngacha sanaladi:

-Bir. Yuqori qovoqlar og'irlashgandan-og'irlashmoqda.

- Ikki. Siz faqat mening ovozimni eshityapsiz.

- Uch. Uyquga ketish xohishi har soniya kuchayib bormoqda.

- To'rt. Tanangiz bo'shshagan. Butun vujudingiz meni tinglamoqda.

-Besh. Ko'zlaringiz yumilgan. Butunlay harakatsiz holatdasiz.

- Olti. Siz uxlayapsiz.
- Yetti. Uxlayapsiz, uxlayapsiz, uxlayapsiz...
- Sakkiz. Sizni butkul uyqu bosgan.
- To‘qqiz. Siz uxlayapsiz, uxlayapsiz, uxlayapsiz.
- O‘n. Siz uxlab qoldingiz.

Eslab qoling: Gipnoz o‘tkazadigan xona talabga javob bersa va gipnoterapiya qoidalariga amal qilinsa, bemor gipnoz holatiga tez tushadi. Bu yerda, albatta gipnozchi mahorati va tajribasi katta ahamiyatga ega. Gipnozchi qanchalik mashhur amaliyotchi bo‘lsa, u haqda odamlar yaxshi fikrda bo‘lsalar, har qanday insonni gipnozga tushirish shuncha oson bo‘ladi. Elga tanilgan kuchli gipnozchilar bir-ikki so‘z va o‘tkir nigohi bilan insonni darrov gipnozga tushirib qo‘yishadi va somnambuliya bosqichiga tez erishadi. Agar gipnozni o‘rganmoqchi bo‘lsangiz, avval bu texnikani o‘smirlarda qo‘llab ko‘rish kerak. Ularni gipnozga tushirish oson.

Bemorning chuqur gipnozga tushganiga ishonch hosil qilmoqchi bo‘lsangiz yoki bunga amin bo‘lsangiz, uning bir qo‘lini biroz ko‘tarib tashlab yuboring yoki “Men hozir chap qo‘lingizni tepaga ko‘taraman va uni shu holatda ushlab turasiz”, deb ayting. Bemor xuddi shunday qiladi ham. Chunki u faqat gipnozchini eshitadi. Mabodo birov xonaga kirib shunday topshiriq bersa, bemor uni bajarmaydi. Chunki u gipnozchiga mutlaq tobe. Gipnozning chuqur bosqichiga somnambuliya deyiladi.. Bunday holatga tushgan odamni qush kabi sayratish, baland musiqa qo‘yib raqsga tushirish, kiyikka o‘xshatib sakratish, chaqaloqqa o‘xshab yig‘latish va uning esidan chiqib ketgan bolalik davrini so‘zlatish mumkin. Gipnozchilarning barisi ham gipnozni somnambuliya darajasiga yetkaza olmaydi. Shu bois aksariyat gipnozchilar odamni trans holatiga tushirib ham ishlashadi. Trans holatida ham yaxshi natijalarga erishish mumkin.

Gipnoz paytida bemor sizning oldingizga qaysi darddan xalos bo‘lish uchun kelgan bo‘lsa, trans yoki somnambuliya paytida o‘sha kasallik haqida so‘zlash kerak. Siz darddan butunlay xalos bo‘lib uyg‘onasiz deyiladi va u qaysi kasallikdan qutulish uchun sizga murojaat qilib kelgan bo‘lsa, albatta, o‘sha kasallik haqida so‘z borishi kerak. Masalan, “Siz endi allergiyadan butunlay xalos bo‘lasiz”. “Endi sizni bosh og‘rig‘i hech qachon bezovta qilmaydi”. “Endi sizning falajlangan chap qo‘lingiz butunlay ishlaydi”. “Endi siz duduqlanishdan mutlaq ozod bo‘lasiz va ravon so‘zlab boshlaysiz”. “Endi siz nafas bo‘g‘ilishidan butunlay qutulasiz va ravon nafas olasiz”. “Endi sizning yo‘qolgan xotirangiz butunlay tiklanadi va siz bo‘lib o‘tgan voqealarni eslay boshlaysiz” va h.k.

Gipnozdan chiqarish texnikasi. Gipnozdan chiqarish ham asta-sekin amalga oshirilishi kerak. “Hozir men sizni gipnoz holatidan chiqara boshlayman. Men 10 dan 1 gacha sanayman”

- O‘n. Siz yengil uyqudan uyg‘onishni xohlayapsiz.
- To‘qqiz. Butun tanangizda iliqlik sezyapsiz.
- Sakkiz. Tanangiz qushdek yengil.
- Yetti. Siz faqat mening ovozimni eshityapsiz va uyg‘onishni istayapsiz.
- Olti. Ko‘zlaringizni ochishni yana va yana istayapsiz.
- Besh. Siz menga quloq solib uyg‘onishda davom etasiz.
- To‘rt. Yuqori qovoqlaringiz juda yengil, ko‘zlaringizni ochgingiz kelyapti.
- Uch. Ha! Ko‘zlaringizni ochgingiz kelyapti.
- Ikki. Siz hozir ularni ochasiz.
- Bir. Oching ko‘zlaringizni!

Ushbu tartibda bemor uyg‘otiladi. U albatta o‘zini juda yengil his qiladi va hali bir oz trans holatida bo‘ladi. U bilan o‘zini qanday his qilgani, nimalarni eshitgani haqida suhbatlashiladi. Gipnoz paytida gapirilgan kasallik haqida u uyg‘ongandan so‘ng eslash shart emas. Birozdan so‘ng bemor tetik holatda uyiga yuboriladi. Zaruratga qarab gipnotik seans 3-5 marotaba o‘tkazilishi mumkin. Biz hozir klassik gipnoz va uning tibbiyotda qo‘llanilishi haqida so‘z yuritdik.

Erikson gipnozi. Milton Erikson (1901–1980) gipnozning boshqa metodini o‘ylab topdi. Uning klassik gipnozdan farqi shundaki, mijoz somnambuliya tushirilmaydi va u bilan trans holatida ishlanadi. Hozirda bu uslub “Erikson gipnozi” deyiladi va tibbiyotda juda keng qo‘llaniladi. Erikson shunday degan edi: “Insonni gipnoz orqali darddan forig‘ etish uchun uni somnambuliya tushirish shart emas, trans holatida ham shunday natijaga erishsa bo‘ladi”.

Erikson gipnozida bemorga to‘g‘ridan-to‘g‘ri buyruqlar berilmaydi, Siz hozir uyquga ketishingiz kerak deyilmaydi. Oddiy so‘z bilan aytganda, mijoz “Men hozir gipnozchining barcha buyruqlarini so‘zsiz bajarishim kerak” degan xayolga bormaydi. Unga juda erkin harakatlarga ruxsat beriladi. Hatto gipnoz paytida unga turib yurish, derazadan tashqariga qarash va hatto gipnoz seansini to‘xtatib chiqib ketishingiz ham mumkin, deb ogohlantirib qo‘yiladi. Bunday uslub, tabiiyki, gipnoterapiyaga “ichki qarshilikni” yo‘qotadi va mijoz o‘zini juda erkin tuta boshlaydi. Shu bois ham klassik gipnozda erishilmagan natijani Erikson

gipnozida bemalol amalga oshirish mumkin. Erikson gipnozini o'rganish albatta oson va uni ushbu metodga qiziqqan har qanday vrach yoki psixolog egallay oladi.

Klassik gipnozda "Eshitasi va bo'ysunasi" qoidasi hukmron bo'lsa, Erikson gipnozida "Eshit va xohlasang bo'ysun" qabilida ish olib boriladi. Bunday erkinlik gipnozdan qo'rqadigan ko'pchilik insonlarga ma'qul keladi va nafaqat mijoz, balki gipnozchi ham erkin va bemalol ishlaydi. Erikson gipnozi paytida mijoz bilan ko'zlari ochiq holatda boshqa narsalar haqida gaplashib ham o'tirishi mumkin va birozdan so'ng unga "Qalay endi asosiy muammoga o'tamizmi" deb gipnoz seansiga qaytiladi.

Erikson gipnozi paytida mijozga tushunarli bo'lgan turli xil metaforalar qo'llaniladi. Maqsad mijozning ichki resurslarini ong darajasiga chiqarish va uni ishga solishdan iboratdir. Erikson seanslari paytida, albatta, ong ostiga ta'sir o'tkaziladi va ruhiy sokinlik, osoyishtalik, go'zallik, o'ziga va insonlarga mehr-muhabbat haqida so'z yuritiladi. Iboralar, albatta, mijozning shaxs tipi va temperamentidan kelib chiqqan holda olib boriladi.

Psixoterapiya bir nechta bemorlarga bir paytda olib borilishi ham mumkin. Bunday paytlarda kollektiv gipnoz haqida so'z boradi. V.M. Bexterev (1915) bemorlarni to'plab, gipnoz o'tkazishning ahamiyati to'g'risida shunday degan edi: "Ko'pchilik bilan seans o'tkazish paytida bemorlar gipnozni bir-biriga yuqtirishadi va uning ta'sir kuchi yanada oshadi. Gipnoz usuli bilan davolamoqchi bo'lgan gipnoterapevt bemor o'z shikoyatlarini aytayotganda, nimalarni ko'p takrorlayotganiga ahamiyat berishi va bundan foydalanishi kerak".

Psixodinamik terapiya

Ushbu terapiya psixoanaliz asoschisi Z. Freyd tomonidan tavsiya etilgan. Psixodinamik nazariyaga muvofiq psixoemotsional buzilishlar negizida bolalik davrida olingan kuchli psixologik zarbalar yotadi va ular ong ostida to'planib, yillar mobaynida yashiringan bo'ladi va kuchli ziddiyatlar o'chog'ini yaratadi. Buning oqibatida bemorda nevrotik shaxs shakllanadi va u isteriya, depressiya va psixosomatik buzilishlarga moyil bo'ladi. Shaxs bir tomondan birovlariga qaram bo'lishni xohlamaydi, ikkinchi tomondan boshqalar uni e'tirof etishi va qo'llab-quvvatlashini istaydi. Albatta, buning har doim ham iloji bo'lavermaydi. Natijada bir-biriga zid bo'lgan ushbu holatlar doimiy qoniqmaslik hissini yuzaga keltiradi, ya'ni boshqalarga nisbatan qahr-g'azab va xafagarchilik shaxsning ichki dunyosini qamrab oladi. Shu asnodda shaxsning o'zi boshqalar nazdida mehribon, odamovi va ajoyib inson sifatida tan olinishni xohlaydi. Psixoanalitiklar fikricha, mana shu istaklarning ro'yobga chiqmasligi nevrotik shaxs va keyinchalik depressiya shakllanishiga turtki bo'ladi. Yillar mobaynida ong ostida qo'nim topib, e'tirof etilmagan har bir xohish va istak bora-bora ichki ziddiyatlarni kuchaytirib, odamlarni yomon ko'rishga olib keladi. Shu sababli ular o'zini ham kechirmaydi va suitsidga qo'l uradi. Bunday shaxslarda depressiya rivojlanishi

uchun kuchli stress yoki yoqimsiz atrof-muhitning o'zi kifoya. Albatta, shu o'rinda doimiy psixoemotsional zo'riqlarning ahamiyatini alohida ko'rsatib o'tish lozim.

Psixodinamik terapiyaning asosiy maqsadi – bemorda katarsis, ya'ni ruhiy poklanishni yuzaga keltirish. Buning uchun bolalik davrida boshidan kechirgan ruhiy jarohatlar va kechinmalar mukammal o'rganiladi, ularning hozirgi davrda ro'y berayotgan nevroitik buzilishlar, shu jumladan, depressiya bilan bog'liqlik tomonlari aniqlanadi. Psixoanalitik oldida bemor albatta barcha sir-asror va azobli kechinmalarni yashirmasdan aytib berishi kerak. Bu uslub to'la katarsis ro'y berguncha olib boriladi. Ijobiy natijaga bir necha seans ichida erishiladi.

Bixevioral terapiya

Bixevioral terapiya (ingl. behaviour – “xulq-atvor”). 1913 yili amerikalik psixolog Djon Uotson (1878–1958) bixeviorizm haqida o'zining dastlabki maqolasini chop etadi. U shunday deb yozgan edi: “Odamning fikri va ruhiyatini o'zgartirmoqchi bo'lsangiz, avvalambor uning xulq-atvorini o'zgartiring”. Ushbu g'oya asosida bixevioral psixoterapiya shakllandi va XX asrning 50–60-yillari o'smirlardagi xulq-atvor buzilishlarini korreksiya qilishda keng qo'llanila boshlandi va e'tirof etildi. Ushbu terapiya xulq-atvori o'zgargan o'smirlarda yuqori natija beradi, biroq katta yoshdagilarda samarasi pastroq. Bixevioral terapiya patologik tarzda o'zgargan xulq-atvorni korreksiya qilish va uning uchun to'g'ri bo'lgan uquvlarni shakllantirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Bixevioral terapiya o'tkazilayotganda o'smirdagi xulq-atvorning har bir ko'rinishi tahlil qilinadi va ular korreksiya qilib boriladi.

Bosqichma-bosqich o'tkazilayotgan psixoterapevtik muolajalar paytida xulq-atvordagi patologik o'zgarishlar sog'lom xulq-atvor sifatleri bilan “almashtiriladi”. Demak, bixevioral terapiya xulq-atvor o'zgarishiga olib kelgan sabablar ustida emas, balki bevosita patologik xulq-atvorni yaxshi tomonga o'zgartirish ustida ish olib boradi. Sog'lom xulq-atvor hamda o'zini o'zi boshqarish uquvlari shakllangan sayin, undagi fikr ham o'zgarib boradi, o'smirda o'ziga ishonch paydo bo'ladi, uning turmush tarzi ham o'zgarib, sotsial adaptatsiyaga erishiladi.

Kognitiv-bixevioral psixoterapiya

Kognitiv-bixevioral psixoterapiya – inson fikri va xulq-atvori bilan bog'liq muammolarini yengib o'tish uchun o'ziga baho berish qobiliyati, strategiyasi va yo'nalishlarini o'zgartirishga qaratilgan psixoterapevtik yondashuv. Bu yo'nalish asoschisi amerikalik psixoterapevt A. Bek (1921 yil tug'ilgan). Kognitiv-bixevioral psixoterapiya kognitiv psixoterapiya (angl. cognitive therapy, 1967) negizida yaratildi. KBP 2 xil maktab, ya'ni kognitiv va bixevioral psixoterapiya negizida shakllanadi:

KBP da quyidagi uch holat farq qiladi:

1. *Kognitsiya* – ma'lumotni esga olish, xayolida qayta ishlash, argumentatsiya qilish va anglab yetish kabi tushunchalardan iborat.
2. *Konatsiya* – maqsadga yo'naltirilgan harakat, motivatsiya, instinkt, xohish va iroda kabi tushunchalardan iborat.
3. *Affekt* – hissiy reaksiyalar va kayfiyatdan iborat.

KBP quyidagi maqsad va vazifalar yechimini izlaydi:

1. Kognitiv xatolar va xulq-atvor buzilishlar sababini izlab topish.
2. Miyaga o'rnashib qolgan patologik fikrlar va shu sababli yuzaga kelgan xulq-atvor buzilishlarini korreksiya qilish.
3. Residiv holatlarining oldini olish.
4. Farmakoterapiya samarasini oshirish.
5. Ijtimoiy-psixologik muammolar yechimini topish.

Kognitiv-bixevioral terapiya, asosan, obsessiv-kompulsiv buzilishlar, xavotirli-fobik buzilishlar, miyadan ketmaydigan fikrlar nevrozi, xulq-atvor buzilishlari, ipoxondrik nevroz, sport tibbiyotida keng qo'llaniladi. KBP avvalambor miyaga o'rnashib olib, bemorga azob berayotgan salbiy fikrlar, ya'ni aybdorlik hissi, o'zini o'zi kamsitish fikrlarini bartaraf etishga qaratilgan. Bemor psixoterapevtik muolaja texnikasini mustaqil bajarishni o'rgangunga qadar psixoterapevt nazoratida bo'ladi.

Psixoterapevtik muolaja texnikasi. Bemorning ko'zlari yumuq holatda bo'ladi. Undan miyasiga o'rnashib qolgan yomon o'y-xayollarning mayda detallarigacha diqqatini qaratish buyuriladi. O'sha negativ tUSDagi fikrlar ahamiyatlimi, ahamiyatsizmi, farqi yo'q. Shu yo'l bilan barcha o'y-xayollar bir joyga jamlanadi. Hamma yomon fikrlar miyada jamlangach, bemor barmog'i bilan psixologga ishora beradi (masalan, ko'rsatkich barmog'ini ko'taradi).

Bemor ishora bergan zaxoti psixoterapevt dadil va jarangdor ovozda "TO'XTANG" deb buyruq beradi. So'ngra psixolog bemordan ushbu so'zdan keyin xayoliga nimalar kelganini so'raydi. Odatda, bu paytda bemorning negativ fikrlari o'chadi va yo'qoladi. Agarda ijobiy natija bo'lmasa, ya'ni miyadan yomon fikrlar ketmasa, mashq bir necha bor qaytariladi. Ushbu mashq uyga vazifa qilib ham beriladi. Bemor o'ziga o'zi buyruq berib shu mashqni uyda yolg'iz takrorlashi mumkin.

Psixologik bo'shliqni to'ldirish texnikasi. Miyaga o'rnashib qolgan fikrlarni o'chirishdan keyingi vazifa – negativ fikrlar o'rnini pozitiv fikrlar bilan to'ldirish. Agar ushbu vazifa bajarilmasa, miyaga yana negativ fikrlar qaytib kelaveradi. Fanda antitsipatiya degan tushuncha bor. Antitsipatiya – vahimali fikrlarning yana qaytib kelishidan qo'rqish. Shu holat kuzatilmasligi uchun har bir seansda psixologik bo'shliqni pozitiv fikrlar bilan to'ldirib borish zarur. Aks holda bemor miyadagi negativ fikrlar orqali “o'zi bilan o'zi gaplashib yuraveradi”. Bu holat esa obsessiyani kuchaytiradi va bemor yana azobli o'y-xayollar iskanjasida qoladi.

Psixoterapevtik muolajadan so'ng bemorga uy vazifasi beriladi. Endi bemor har kuni o'zi bilan o'zi faqat pozitiv fikrlar orqali gaplashib yurishi lozim. Psixoterapevtik mashqlardan avval bemor bilan “Pozitiv suxbat qurish” stsensariysini tuzadi. Buni amalga oshirish uchun turli xil roliklar o'ylab topiladi. Olingan natijalarga qarab, ushbu ssenariy bora-bora takomillashtirib boriladi.

Psixologik bo'shliqni to'ldirish metodi Albert Ellis tomonidan ishlab chiqilgan sxema bo'yicha amalga oshiriladi. Bu maqsadda ABK-metodi qo'llaniladi. A – vaziyatni yuzaga keltirgan omil; V – avtomatik paydo bo'lgan xayol; S – emotsional javob reaksiyasi.

AVS bilan ishlash algoritmi. 1. Muammo haqida so'raladi; 2. Muammoni tarqatishga kirishiladi; 3. S va A larga baho beriladi; 4. V bilan S ning o'zaro bog'liqligi tushuntiriladi; 5. V ga baho beriladi; 6. V bilan S bog'lanadi; 7. Bemorning tushunganlik darajasi o'rganiladi; 8. Uyga vazifa beriladi.

Kognitiv psixoterapiya tarafdorlari insondagi barcha muammolar negativ fikrlash sababli kelib chiqadi, deb hisoblashadi. Muammo tashqi vaziyatlarni inson tomonidan quyidagi sxema bo'yicha interpretatsiya qilishidan boshlanadi: tashqi vaziyat (stimullar) → kognitiv sistema → interpretatsiya (xayollar) → hissiyot yoki xulq-atvor. «Xayollarimiz hissiyotimizda aks etadi, hissiyotimiz xulq-atvorimizni o'zgartiradi, xulq-atvorimiz bizning kimligimizni ko'rsatib turadi va unga qarab o'zgalar bizga baho berishadi”.

“Muammo bu dunyo yomonligida emas, biz uni qanchalar yomon deb bilishimizda”, degan edi A. Bek (1967). A. Bek bo'yicha kognitiv-bixevioral terapiya – bu ma'lum bir tizimga asoslangan fikrlash va xulq-atvorni o'zgartirishga qaratilgan metodlar majmuasi. Ushbu metod asosida bemorni to'g'ri fikrlash va shu asnoda xulq-atvorini o'zgartirishga asoslangan o'rgatish texnikasi yotadi.

Psixoterapevt oldida turgan asosiy vazifalar: 1) sotsiumda yashash uchun insonga azob beruvchi avtomatik fikrlarni aniqlash; 2) mijozga ushbu o'y-xayollardan xalos bo'lishi zarurligini tushuntirish; 3) bemorni pozitiv fikrlar bilan ishlashga o'rgatib, xulq-atvorini ijobiy tomonga o'zgartirish.

Avtomatik fikrlarni aniqlash bosqichlari:

Birinchi qadam. Bemor miyasiga o‘rnashib qolgan, unga har doim azob beradigan va uning xulq-atvorini o‘zgartirib yuborgan avtomatik fikrlarni izlab topishi va bir joyga jamlay olishi kerak.

Ikkinchi qadam. Avtomatik fikrlar aniqlangandan so‘ng bemor ularni psixoterapevtga birin-ketin ovoz chiqarib aytib berishi kerak.

Uchinchi qadam. Psixoterapevt bemorni diqqat bilan tinglaydi, uning ifodalanishiga nazar soladi, bemorning hatti-harakatlarini kuzatadi va azobli fikrlar darajasini qog‘ozga belgilab boradi.

Avtomatik fikrlar – odamni o‘zi bilan o‘zi gaplashib yurishiga majbur qiladigan va to‘satdan paydo bo‘ladigan o‘y-xayollar. Avtomatik fikrlar har bir odamda mavjud bo‘lib, ushbu fikrlarning azobli yoki azobsiz bo‘lishi ularning mazmun-mohiyatiga bog‘liq. Agar sizga negativ fikrlar o‘rnashib olgan bo‘lsa, ular “miyangizni egovlayveradi, aqlingizni chalg‘itaveradi” va og‘ir his-tuyg‘ular manbaiga aylanadi. Buning oqibatida xulq-atvoringiz o‘zgaradi va shunga munosib ravishda odamlarning sizga nisbatan munosabati o‘zgarib, zanjirli reaksiya yuzaga keladi.

Ratsional-emotiv psixoterapiya

Ratsional-emotiv psixoterapiya metodi 1955 yili Albert Ellis tomonidan ilgari surilgan. Uning asosiy mohiyati ham kishining o‘zi, o‘zgalar va jamiyat haqidagi fikrlarini o‘zgartirishga qaratilgan. Bu nazariyaga binoan nevroz, depressiya, xavotir, aybdorlik hissi va shu kabi boshqa psixologik muammolar ruhiy jarohat yetkazuvchi omillar va vaziyatlar sababli emas, balki kishining ushbu omillar va vaziyatlarga nisbatan shaxsiy munosabati va o‘y-xayollari sababli yuzaga keladi. Masalan, sizni kimdir qattiq xafa qildi va bundan kayfiyatingiz tushib ketdi. Bu vaziyatda siz u odamni emas, balki o‘zingizni aybdor deb hisoblaysiz. Demak, siz tanqidga loyiqsizki, u sizni shu ko‘yga soldi. Aslida unday emas. Ayb sizda emas, balki sizni tanqid qilgan odamda yoki tanqid muhiti yaratilgan o‘sha vaziyatda. A.Ellis shunday deb yozadi: “Insonda o‘zi haqidagi bunday noto‘g‘ri tasavvurlar uzoq davom etaversa, unda turli xil ruhiy-hissiy buzilishlar, shu jumladan, depressiya rivojlanadi.”. Ellis shunday qoidani o‘rtaga tashlaydi :

“Aybdor sen emas, balki boshqalar”.

Ellis ishlaridan ba‘zi parchalarni keltirib o‘tamiz. Atrof-muhitda ro‘y berayotgan asabingni buzadigan va hissiy zo‘riqishga majbur qiladigan voqea-hodisalar senga qaratilgan emas, ular o‘z-o‘zicha ro‘y beraveradi. Kim tomonidan ko‘rsatilishidan qat‘i nazar, senga nisbatan bildirilayotgan ayblov va kamsitishlar aslida sening haqiqiy shaxsingni ifodalab bermaydi, bu o‘sha odamning shaxsiy

fikri. U o‘z dunyoqarashi va senga bo‘lgan munosabatidan kelib chiqib, shu fikrda. Aslida unday emas!

Ellis fikricha, quyidagi uch qoidaga qat’iyan amal qilishga urinaverish, kishini har doim xavotirda ushlaydi: 1) o‘ziga hadeb talab qo‘yaverish (“men unday bo‘lishim kerak, bunday bo‘lishim kerak”); 2) boshqalarning unga hadeb talab qo‘yaverishi (“sen unday bo‘lishing kerak, bunday bo‘lishing kerak”); 3) uning boshqalarga hadeb talab qo‘yaverishi (“odamlar unday bo‘lishi kerak, bunday bo‘lishi kerak”). Mana shu “Uchta kerak” tamoyili – xavotir va depressiya manbaidir.

“Uchta kerak” qoidasiga amal qilaverish o‘zingiz haqingizda quyidagi fikrlarni shakllantiradi va xavotirga mezon yaratadi:

1. *Men shunday harakatlar qilishim kerakki, meni boshqalar tan olsin! Aks holda men hech kimman!*

2. *Men qanday xohlasam, atrofdagilar meni shundayligimcha qabul qilishi kerak! Aks holda ular yomon odam va har qanday jazoga mahkum!*

3. *Men nimani, qachon va qaerda xohlasam, shunga ega bo‘lishim kerak! Menga kerak bo‘lmagan narsalarga mening toqatim yo‘q!*

Ratsional-emotiv terapiya o‘zi haqida insonning miyasiga o‘rnashib qolgan stereotip fikrlardan uni ozod etish va shu sababli o‘zgargan xatti-harakatlarni korreksiya qilishga qaratilgan. Ratsional-emotiv terapiya uslubida ham kognitiv-bixevioral terapiyadagi kabi fikr va xulq-atvor parallel tarzda korreksiya qilinadi. Biroq uslub boshqacha. Bu metodda ham uyga vazifalar beriladi, uni bajarishga qiynalgan paytlarda yordam qilinadi, vazifalar to‘la bajarilsa, rag‘batlantiriladi. Biroq psixoterapevtik muolaja paytida psixoterapevtning o‘zi ham “kerak” stilini o‘z mijoziga qo‘llamasligi lozim.

Interpersonal psixoterapiya

Shaxslararo (interpersonal) psixoterapiya insonning kayfiyati bilan uni o‘rab turgan ijtimoiy muhit orasida bog‘liqlik izlaydi. Shaxslararo kelishmovchiliklar, individning ijtimoiy muhitga ko‘nikib ketishiga to‘sqinlik qilayotgan, uni xavotirga solayotgan, kayfiyatini buzayotgan va salbiy hissiy kechinmalarni keltirib chiqarayotgan vaziyatlar birgalikda o‘rganib tahlil qilinadi. Psixoterapevtik muolajalar paytida shaxs o‘zini jamiyatda qanday tutishi, o‘zaro munosabati, qanday vaziyatlar va odamlardan yiroq yurishi yo‘llari tushuntiriladi, o‘rgatiladi. Ayniqsa, bu uslub nevrotik tipdagi shaxslar bilan ishlaganda va distimiyada keng qo‘llaniladi.

Oilaviy psixoterapiya

Oilaviy psixoterapiya avvalambor oila a'zolari bilan psixologik muhitni yaxshilashni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Bunda mijozning har bir oila a'zosi bilan bo'ladigan munosabatlari o'rganiladi va tahlil qilinadi. Oiladagi kelishmovchiliklar qanday paytlarda yuzaga keladi, nima uchun kelib chiqadi, qaysi vaziyatlarda u o'zini qanday tutadi kabi savollarga oydinlik kiritiladi, javob izlanadi va bu vaziyatdan chiqish bo'yicha mashqlar qilinadi. Oila a'zolari bilan ham suhbatlar o'tkaziladi. Chunki psixologga murojaat qilib kelgan bemor deyarli har doim o'zini vaziyat qurboni deb biladi. Aslida esa unday bo'lmasligi mumkin. Shuning uchun u haqida oila a'zolarining fikrini bilish ham o'ta muhim.

Oilaviy psixoterapevt mijozning yaqinlariga uning oldida o'zlarini qanday tutish lozimligini tushuntiradi. Bu o'ta muhim. Chunki ba'zan oilada shunday motamsaro muhit yaratiladiki, bu faqat nevroz yoki depressiyadan aziyat chekayotgan odamning ahvolini og'irlashtiradi va suitsidal urinishlarni kuchaytiradi xolos.

Har qanday psixoterapevtik muolajada mijozga hadeb yonbosaverish ham, uning xulq-atvorini tanqid qilaverish ham mumkin emas. Undagi yomon fikrlar depressiya belgisi, bu belgilar vaqt kelib albatta o'tib ketadi, kabi so'zlar bilan taskin beriladi. Suitsidal fikrlar va urinishlar aniqlangan holatda uni yolg'iz qoldirmaslik kerak. Oila a'zolari tomonidan nazorat shunday o'rnatilishi kerakki, mijozning o'zi buni bilmasin. Chunki hadeb bemorni qo'riqlayverish uning joniga tegadi. Bemorning ishonchini qozongan oila a'zolari bilan ko'chaga chiqib aylanib kelish va sayr paytida, asosan, uni so'zlatish va his-tuyg'ulariga hamdard bo'lish o'ta muhim.

Psixoterapevtik muolajalar psixofarmakoterapiya bilan birgalikda olib borilsa, yanada yuqori samaraga erishiladi. Psixotrop dorilar nerv sistemasiga neyromediatorlar orqali ta'sir ko'rsatganligi bois, avval ular haqida qisqacha ma'lumot berib o'tamiz. **Z. Ibodullaev (2019)**

ATAMA VA TA'RIFLAR LUG'ATI(GLOSSARIY)

Abaziya — yurish qobiliyatining buzilishi, biroq yurishni tashkil etuvchi harakatlarni bajarish qobiliyati saqlanib qoladi: bemor yotgan holda zarur harakatlarni yetarli kuch va hajmda bajara oladi. Ko'pincha isteriyada, oyoq quyi qismi harakatlarining buzilishlarida va muvozanat buzilishlarida uchraydi. Ko'pincha **asteziya** bilan birga namoyon bo'ladi. Z. Freydgga ko'ra, abaziya — motor apparatining muayyan bir funksiyasining maxsus buzilishi hisoblanadi.

Abstinensiya — spirtli ichimlik yoki narkotik moddalarni qabul qilish to'satdan to'xtaganda paydo bo'ladigan holat. Abstinensiyaning klinik ko'rinishi va kechishi narkotik moddaning tabiati, dozasi va uni qancha vaqt davomida qabul qilinganiga bog'liq. Ularning belgilari: *bosh og'rig'i, bosh aylanishi, og'iz qurishi, taxikardiya;*

ba'zan ko'ngil aynishi, tushkun kayfiyat; ko'p hollarda o'zini ayblash va afsuslanish hissi; keskin jismoniy kuchsizlik; yuqori darajada ta'sirchanlik, narkogen moddaga ehtiyoj.

Qo'shimcha holatlarda: *uyqusizlik, qo'rquvchanlik, xavotir, o'z joniga qasd qilishga moyillik, **alkogolli epilepsiya rivojlanishi*** ham kuzatilishi mumkin.

Abuliya — psixik harakatlarning boshqarilishida patologik buzilish. Bu psixopatologik sindrom bo'lib, beharakatlik, irodaviy impulsning buzilishi, istak va faoliyatga intilishning yo'qolishi, qaror qabul qila olmaslik va zarur deb bilingan to'g'ri harakatni amalga oshira olmaslik bilan ifodalanadi.

Avtoagressiya (autoagressiya) — agressiv xulq-atvor turi; shaxsning agressiv harakatlari o'z shaxsiga qaratilgan holat. Masalan: o'zini ayblash, tanga og'ir shikast yetkazish, o'zini xurmat qilmaslik, o'z joniga qasd qilishga moyillik.

Avtomatlashgan akt — insonning ongli nazoratsiz, o'zlashtirilgan va mustahkamlangan harakatni bajarish qobiliyati.

Aggravatsiya — mavjud kasallik sindrom(lar)ining og'irligi va namoyon bo'lish darajasini ataylab kuchaytirish yoki ortiqcha ko'rsatish. Aggravatsiyaga isteroid aksentuatsiyaga ega shaxslar, psixopatik kasalliklardan aziyat chekuvchilar, shuningdek, ruhiy o'zgarishlari kuchli bo'lgan keksa odamlar moyil bo'ladi.

Agnoziya — miyaning normal ishlayotgan retseptorlardan kelayotgan ma'lumotni qayta ishlay olmasligi holati; turli xil idrok buzilishlari miyaning zararlanishi natijasida yuzaga keladi. Agnoziya turlari:

ko'ruv agnoziyasi — yetarli ko'rish o'tkirligi saqlangan holda narsalarni tasviridan taniyolmaslik;

taktil agnoziyasi — qo'l bilan ushlab ko'rish orqali narsani taniyolmaslik (astersognoziya), tanasi qismlarini taniyolmaslik (somatoagnoziya), tanasi haqidagi sxemani buzilish;

eshitish agnoziyasi — fonematik eshitish buzilishi, tanish kuylarni, ovozlarni, shovqinlarni taniyolmaslik, asosiy eshitish qobiliyati saqlangan holda.

Ijtimoiy agnoziya — V. Rayx kiritgan atama bo'lib, inson o'z hayotining ijobiy jihatlarini idrok etmasligi va o'z faoliyatini unga qoniqish keltiradigan tarzda tashkil qila olmasligi bilan tavsiflanadi.

Taktil agnoziya — predmetlarni adekvat idrok qilish qobiliyatining buzilishi. Turlari:

Astersognoziya — narsaning shaklini qo‘l bilan ushlab ko‘rish orqali taniyolmaslik;

Anxilognosiya — predmetning tuzilish belgilari (teksturasi)ni yaxlit obrazga birlashtira olmaslik;

Amorfognosiya — narsaning shaklini taniyolmaslik;

Somatognosiya — o‘z tanasining yaxlit obrazini idrok etishning buzilishi.

Agrammatizmlar — nutqning leksik-semantik buzilishlari.

Agrafiya — yozma nutqning buzilishi.

Agressivlik — shaxsning barqaror xususiyati; agressiv xulq-atvoriga tayyorlik (hujumkorlikka, zo‘ravonlikka, ob‘ektga zarar yetkazish yoki uni yo‘q qilishga intilish).

Verbal agressiya — agressiv xulq-atvor shakli bo‘lib, shaxs o‘zining salbiy ehtiyoj va hissiyotlarini ovoz ohangi, nutqning nog‘avdor komponentlari yoki ifoda mazmuni orqali namoyon qiladi.

Instrumental agressiya — muayyan maqsadga erishish uchun qaratilgan agressiv xulq-atvor.

Bilvosita agressiya — ma‘lum shaxs yoki narsaga yo‘naltirilgan agressiv xulq-atvor. Bunda agressiya sub‘ekti tomonidan ongli ravishda anglanmaydi yoki yashiriladi.

